

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI

**AMIR TEMUR – BUYUK SARKARDA
VA DAVLAT ARBOBI**

**respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari**

2022-yil 7-aprel

“Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2022.

Tahrir hay’ati: *M.Z. Orziyev – Buxoro davlat universiteti “Jahon tarixi kafedrasi” tarix fanidan falsafa doktori (PhD)*

H.M. Kobilova – Buxoro viloyati xalq ta’limi boshqarmasi Ijtimoiy fanlar metodisti

J.L. Latipov – Romitan tuman 41-ixtisoslashtirilgan davlat umumta ’lim maktabi o ‘qituvchisi

Maqolalarda berilgan ilmiy xulosalar, qarashlar, farazlar va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javob beradi.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Buxoro davlat universiteti va Buxoro viloyati xalq ta’limi boshqarmasi hamkorligida “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusida o‘tkazilgan konferensiya materiallaridan tashkil topgan. Konferensiya to‘plami Buxoro davlat universiteti “Jahon tarixi” kafedrasi ilmiy kengashining 2022-yil 25-martdagi 28-sonli bayonnomasi va Buxoro viloyati xalq ta’limi boshqarmasi Ijtimoiy fanlar o‘quv metodika kengashining 2022-yil 25-martdagi 2-sonli qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

Hurmatli ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilari!

Har bir xalqning o‘z sardorlari, sarbonlari, alp bahodirlari, millatparvar, vatanparvar farzandlari – sultonu podsholari bo‘ladi. Ular o‘zlarining ijtimoiy, siyosiy faoliyatlari, betakror aql-zakovatlari bilan ma’lum bir jamiyatning ham, unda yashovchi kishilarning ham taqdirini o‘zgartirib yuboradilar. O‘z xalqining, vatanining ozod va obod bo‘lishi uchun fidoyilik, jasorat ko‘rsatadilar. Shaxsiy manfaat, shon-shuhrat kabi unsurlarni keyingi o‘rinlarga surib qo‘yib, millatning dardiga darmon bo‘lib yashaydilar.

Vatanning, millatning ulug‘ farzandlari to‘g‘risida tafakkur qilganimizda ko‘z o‘ngimizda Buyuk Turon hoqoni Alp Er To‘nga, jasoratli qahramon ona To‘maris, yovqir Spitamen, sulton Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, noyob aql-zakovat sohiblari – Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Bobur kabi tarixiy shaxslar namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev sohibqiron Amir Temur tavalludiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyada ma’ruza qilib: “*Amir Temurdek tarixiy shaxslarni, sarkarda va sohibqironlarni tarix taqozosi, shu zamon talablari, kerak bo‘lsa, zamon ehtiyoji hayotga olib keladi va ul zotlarning fazilat-xususiyatlarini namoyon qilishga zamin yaratadi... Kimki Amir Temur qadimiy Turkiston zaminida tasodifan paydo bo‘lgan desa, xato qiladi. Nega deganda hech narsa to‘satdan paydo bo‘lmaydi*”, – deb ta’kidlagan edi.

Haqiqatda ham ma’lum bir murakkab siyosiy vaziyatlarda xalqda o‘z sarboniga, yetakchi, dono rahbarga ehtiyoj paydo bo‘ladi. XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahr o‘z boshidan alg‘ov-dalg‘ovli, qattol, siyosiy parokandalik, o‘zaro kurash davrini kechirayotgan edi. Shunday murakkab vaziyatda Amir Temur o‘z hayoti uchun o‘ta xavfli, Vatani, millati uchun sharafli yo‘lni tanladi. Bu purhikmat, Olloh inoyat qilgan mustaqillik ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyot, xalqaro nufuz yo‘li edi. Zero, Amir Temur dunyoga kelgan zamin qadimdan iqtisodiy, madaniy taraqqiy etgan, jahonga yuzlab ulug‘ aql-zakovat sohiblarini

bergan ulkan ma’naviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan makondir. Shuningdek, murakkab siyosiy vaziyatlar, ijtimoiy inqirozlar holatida millatning alp o‘g‘lonlari, ulug‘ siyosatdonlar, sarkardalar Vatan farzandlari sifatida milliy g‘urur va salobat bilan kurash maydoniga chiqishlari muqarrarligi qonuniyatini ham mushohada doirasida tutishimiz zarur.

Yuqorida keltirilgan ana shu ilmiy, tarixiy haqiqat mezoniga amal qilsak, mustaqil O‘zbekiston – Amir Temur boshqargan ulug‘ Turkiston davlatining qonuniy vorisidir. Mustabid sovet “dohiyulari” “tarixning yaratuvchisi xalq, davlat boshliqlari, sarkardalar yoki alohida bir shaxslar tarixni yarata olmaydilar” degan asossiz, g‘ayri ilmiy g‘oyani targ‘ib qilgan edilar. Ammo, tarixni xalqning ijtimoiy-siyosiy faol, quvvai hofizasi baland, ma’naviy salohiyatli qatlami, olimlari, sarkardalari, davlat arboblari, mutafakkirlari yaratadilar. Sohibqiron Amir Temur o‘z xalqining yangi tarixini yaratgan buyuk davlat arbobidir.

Bugun shahrimizda Amir Temur tavalludining 686 yilligiga bag‘ishlangan **“Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiysi o‘tkazilmoqda. Mazkur konferensianing tashkil qilinishidan maqsad Sohibqiron Amir Temur faoliyatining ilmiy va pedagogik ahamiyatining yangi qirralarini o‘rganishdir. Konferensiya ishida yetakchi olimlar, professor-o‘qituvchilar, xalq ta’limi metodistlari, pedagoglar ishtirok etmoqdalar. O‘ylaymanki, bugungi anjumanda ham eng dolzarb masalalar va ularning yechimi bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Barchangizga kuch-quvvat, sog‘lik-salomatlik, konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Nosirov Jamol Shuhratovich

Buxoro shahar hokimi

AMIR TEMURNING TARAQQIYOTGA QO'SHGAN ULKAN HISSASI

Biz bugun qadimiy davlatning poytaxti va buyuk tarixiy voqealarining guvohi bo'lgan Buxoro shahrida, Buxoroning so'lim go'shalaridan Nodir Devonbegi majmuasida yig'ildik. Me'moriy yodgorliklarga boy bu shaharning har bir g'ishti o'z davrining dahosi bo'lgan buyuk tarixiy shaxslar haqida eslatib turadi.

Amir Temur, ko'plab mashhur muarrixlar ta'kidlaganidek, ilmning qadriga yetadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bog'lagan, dunyoning yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol suhbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi. Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning bolalik chog'larida oilasidan boshlangan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sohibqiron xonadonida farzandlar (shahzodalar, malikalar)ga ilm-fanning turli sohalaridan ko'p saboqlar berilar, madrasalarda tahsil olish davom ettirilardi.

Sohibqiron boshlab bergan sa'y-harakatlari tufayli uning avlodlari orasida Muhammad Sulton, Ulug'bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ko'chkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, ma'naviyat va ma'rifat jonkuyarlari bor bo'lib, ular ilm-fan, ma'naviyatning qadriga yetadigan ajoyib insonlar bo'lib yetishdi.

Ulug'bek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratildi. Zamonaning ilg'or rasadxonasi barpo etildi. 1018 ta yulduz ta'rifini o'z ichiga olgan «Ziji jadidi Ko'ragoniy» jadvali jahon faniga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. «To'rt ulus tarixi» asari esa xalqimiz tarixini anglab yetishda katta ahamiyatga ega.

Sohibqiron Amir Temur davri tarixini to'liq va ishonarli yoritib bergan Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» (1425) asari Sohibqironning nabirasi, Sheroz hokimi, shoir va xattot Ibrohim Sultonning rahbarligi, fidoyiligi va homiyiligi ostida dunyoga keldi. 1519-yilda Ulug'bek Mirzoning nabirasi Ko'chkunchixon

topshirig‘i bilan mazkur «Zafarnoma» va Rashiduddinning «Jome ut-tavorix» asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

Qolaversa, jahon adabiyotining buyuk namoyandalaridan hisoblangan Alisher Navoiyning ijodi, Lutfiy va Husayn Boyqaro she’riyati, Qozizoda Rumiy va Ali Qushchi asarlari, Kamoliddin Behzodning durdona miniatyura rasmlari, Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho «Boburnoma»si, go‘zal she’riyati, ilmiy asarlari, muarrixlar G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Hafizi Abro‘, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamirning solnomalari – barcha-barchasi temuriylar davrining mahsulidir.

Amir Temur tinchliksevar, bunyodkor xalqning farzandi, tabiatan ma’rifatparvar bo‘lib tug‘ilgan o‘xhashi yo‘q zot edi.

«...Amr etdimki, – deb yozadi Amir Temur «Tuzuklar»da, – katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqir-u miskinlarga langarxona (musofirxona) solsunlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda dorul-amorat (hukmdor saroyi) va dorul-adolat (adolat saroyi) qursunlar...».

Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi deyish mumkin. Amir Temur faqat o‘z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulug‘vorligini ko‘rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag‘dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog‘-rog‘larga ko‘milgan qishloqlar barpo qildirdi.

Bu an'analar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning davlat, siyosat va ilmiy faoliyatida ham davom etib kelmoqda. Amir Temurning hayoti va faoliyati Yevropa olimlarining tadqiqotlarida doimo tarixiy haqiqat sifatida yoritilganligi tahsinga sazovordir. Shu tufayli, hatto sovet imperiyasi sharoitida ham, Amir Temur haqidagi haqihat bizga Amerikadan, Buyuk Britaniyadan, Fransiyadan, Germaniyadan va boshqa mamlakatlardan yetib kelar edi. Bugungi kunda, mustaqil O‘zbekiston

sharoitida, tarixiy haqiqatni aytish imkoniyati vujudga kelganda quyidagi fakt ni alohida aytib o'tish joizdir.

Sohib-ul-qiron tarixini Ispaniyada Ryui Gonzales de Klavixo, Fransiyada arxiepiskop Joan, Angliyada Xristofer Marlo, Eduard Gibbon, Germaniyasa Iogannes Shiltberger kabi xorijlik olimlar va sayohatchilar yozgan edi. Ularning asarlarida Pyotr I, Buyuk Fridrix, Napoleon Bonapart kabi ulug' taxt egalari va lashkarboshilar Amir Temurning davlat boshqaruvi tajribasidan keng foydalangan edilar, deb ta'kidlanadi. Bugungi kunda biz Amir Temurning hayoti va faoliyati haqida jiddiy tadqiqotlar olib borgan olima Xilda Xukxem ismini chuqur minnatdorlik hissi bilan tilga olamiz. U Sohib-ul-qironning merosini o'rganish maqsadida bir necha bor Markaziy Osiyo davlatlari poytaxtlariga tashrif buyurdi. Uning "yetti burj hokimi" deb nomlangan kitobi Markaziy Osiyo xalqlari va Temurning shaxsiga bo'lgan chuqur hurmat bilan sug'orilgan. Hozirgi kunda bu nashr xalqimizning sevimli kitoblaridan biriga aylandi. Biz yevropaning xaloskori Temurning haykali oltindan quyilgan go'zal Fransiyaga o'z hurmatimizni izhor etamiz. Va, albatga, biz hozirgi kunda xorijda Temur davrini tadqiq etayotgan olimlarga o'z minnatdorchiligidimizni bildiramiz. Biz Sizlarni ulug' bobomizning tuprog'ida ko'rib turganimizdan va qutlashdan xursandmiz. "Bugun Samarqandda ko'p mamlakatlardan tashrif buyurishi Sohib-ul-qironning xizmatlari butun dunyoda tan olinishining belgisidir. Amir Temur bugun ham mustaqil O'zbekiston manfaatlariga, davlatimizning iftixori va ulug'vorligi ramzidir.

Amir Temurning 686 yilligiga bag'ishlangan bugungi ilmiy-amaliy konferensiya buning yorqin dalilidir. Shubhasiz, mazkur konferensiya o'z taraqqiyot yo'lini tanlagan mustaqil O'zbekiston xalqi, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining dunyo hamjamiyati bilan yaqinlashuviga xizmat qiladi. Men esa konferensiya ishtirokchilarni ushbu kunda qutlab, konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.

1-SHO‘BA. AMIR TEMUR FAOLIYATINING INSONIYAT TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

Hayitov Shodmon Ahmedovich

BuxDU professori, tarix fanlari doktori

SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatining o‘xhash hamda o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Temuriylar sulolasiga oid muhim va dolzarb ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Panipat jangi, Amir Berdibek, “Bog‘i Bobur”, Avrangzeb, Hindiston.

Sohibqiron Amir Temur (1336-1405 yy) va Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yy) jahon tarixida muhim iz qoldirgan va dunyo xalqlari sivilizatsiyasiga mislsiz hissa qo‘sghan insonlardir. Bu ikki buyuk siymo o‘z nomlari bilan o‘rta asrlarda ulkan sultanatlarga asos soldilar, bunyodkor, fan va madaniyat homiysi, adolat va xalqparvar hukmdorlar sifatida tarix sahifalariga o‘zlarining muborak nomlarini abadul-abad muhrladilar.

Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur qadamlari qayerga yetmasin, o‘sha joyda o‘zlaridan biror-bir iz qoldirdilar, zafarli harbiy yurishlari haqida qoyatosh va toshlarga zafarnomalar yozdirib qoldirish, biror bir bino yoxud bog‘ barpo qildirish ikkala hukmdorlarda ham mavjud bo‘lgan mushtarak xislat edi. Lion va Kastiliya (Ispaniya – Sh.H.) qiroli Genrix III de Trastamaraning elchisi Lui Gonzalez de Klavixo Amir Temur davlatida bo‘lganida (1403-1406 yy) hukmdor poytaxtining 4 qutbida mevali bog‘larning masofasi 1,5 liggacha cho‘zilganligini havas va ehtiros bilan o‘z “Kundaligi”da yozgan edi. Agar 1 lig – 4 km.lik masofa bo‘lsa, Samarqand atrofi har tomonidan 6 km.lardan, 24 km.li masofada bog‘-rog‘lar

bilan qurshalgaligiga guvoh bo‘lamiz[3,56]. Bobur ham harbiy harakatlardagi g‘alabasi sharafiga bog‘ qurdirishni odat qilgandi.

1526-yil 21-aprel mashhur Panipat (Hindiston) jangida g‘alaba qilgan Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z zafari sharafiga katta bir bog‘ barpo etdi va o‘zi avvalo uning mevasidan bahramand bo‘ldi.

Afg‘onistonlik tadqiqotchi G.S.G‘ayrat “*Bobur va uning yaqinlari Kobul shahrida ko‘plab bog‘-rog‘lar va saroylar barpo etdilar. Olamora, Shohoro, Olamganj, Bog‘i Bobur va boshqalar*[1,90]” – deb yozgandi.

Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburda jismonan kuchlilik, yuksak harbiy qobiliyat, sarkardalik mahorati, davlat boshqaruvida tadbirkorlik bilan ish tutish, axloqan va ma’nan barkamollik kabi mushtarak jihatlar ko‘p bo‘lgan. O‘scha paytlarda harbiylarning kuchini belgilaydigan mezon, bu jangga kiradigan barvasta otni musht urib gandiraklata olish bo‘lgan. Amir Temur ham, Zahiriddin Muhammad Bobur ham shunday kuch-quvvatga birdek ega bo‘lishgan. Shuningdek, ayollarga munosabatda ham ikki hukmdor e’tiborli, izzat-hurmatli, ayni paytda mehr-oqibatli bo‘lishgan. Amir Temurning Saroymulkxonim maslahatlariga qulq solib ish tutishi, farzandlari va nabiralari tarbiyasini Bibixonimga ishonib topshirganligi tarixdan ma’lum. Bu o‘rinda otdan yiqilib savdoyi bo‘lib qolgan uchinchi o‘g‘il Mironshoh (1366-1408 yy) turmush o‘rtog‘i Xonzodabegimni savalaganida, kelini ko‘rsatgan qonli ko‘ylakni ko‘rgan Amir Temur uch kun xafaqon bo‘lib, hech kim bilan gaplashmay qo‘ygani va o‘z o‘g‘lini suyurg‘oldan vose’ qilganligini eslash kifoya (Mironshoh 1396-yilda 30 yoshida ov paytida otdan yiqilib, miyasi chayqaladigan bo‘lib qolgan, ayrim paytlarda kurakda turmaydigan qiliqlar chiqarib turgan). Zahiriddin Muhammad Bobur ham davlatni buvisi Eson Davlat Begim, onasi Qutlug‘ Nigor Xonim kabilar maslahati bilan boshqargan. Yakkayu-yagona opasi Xonzodabegimni Ahmad Tanbaldek shafqatsiz, ochko‘z, qonxo‘r, badjahl bekka turmushga bermay, yosh bo‘lsa-da barcha og‘irliliklarni o‘z bo‘yniga olgan. Bu kabi dalillarni ular faoliyatidan ko‘plab keltirish mumkin.

Ulug‘ hukmdor Sohibqiron Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning umr yo‘llari haqida fikr yuritilar ekan, har bir inson, har bir sultanat asoschisining hayoti turlichay kechganligiga guvoh bo‘linadi.

Amir Temur 68 yilu 10 oy yashadi, Zahiriddin Muhammad Bobur esa 47 yilu 10 oy umr ko‘rdi. Jangu-jadallarda o‘ng qo‘lu, o‘ng oyog‘idan yaralanishiga qaramay, umrining so‘nggi damigacha harbiy harakatlardan to‘xtamagan Amir Temur Xitoya harbiy safari paytida O‘tror hokimi Berdibek saroyining sohibqiron uchun maxsus ajratilgan va jihozlangan xonasida hijriy 807 yil sha’bon oyining 17 kuni (1405 yil 18 fevral)da vafot etdi. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida “Temur jon bergen paytida 71 yoshda bo‘lgan, shundan 36 yilini podshohlikda o‘tkazganligi, farzand va nabiralarining soni ham 36 ta bo‘lganligi”ni yozib qoldirgan. Buyuk davlat arbobi va sarkardani o‘z sultanati poytaxti Samarqand shahriga keltirib, izzat-ikrom bilan dafn etishgan. Amir Temur qanday kasallikkdan vafot etganligi bilan bog‘liq ma’lumotlar shu paytgacha o‘rganilgan manbalarda uchramaydi. Amir Temur 70 yoshga yaqin umr ko‘rsa-da, antropolog olimlarning tekshirishlari shuni ko‘rsatdiki, uning suyaklari 50 yashar kishinikidek mustahkam bo‘lgan. U vafotidan oldin atrofini qurshab olgan amir va lashkarboshilarga ikkita barmog‘ini ko‘rsatgan. Bu “bir, ikki kundan so‘ng sizlarning oralaringizda bo‘lmayman”, – degani edi.

Doimiy harbiy yurishlar, sarson-sargardonliklar, o‘zga yurtda yashash bilan bog‘liq ma’naviy va ruhiy zo‘riqishlar, Ibrohim Lo‘diy onasining zaharlashi, taxt vorisi bo‘lmish Humoyunning og‘ir betob bo‘lib qolishi, yangi tug‘ilgan o‘g‘li Anvar Mirzoning to‘satdan vafot etishi kabi ko‘pdan-ko‘p omillar tufayli Zahiriddin Muhammad Boburni umrining so‘nggida podshohlik ishlari qiziqtirmay qolgandi. Zahiriddin Muhammad Bobur tushkunlikka tushib qolgan, u vafoti oldidan Agradagi o‘zi qurdirgan “Zarafshon” bog‘idan chiqmay tanholikda yashaydi.

Salomatligi yomonlashgan Bobur mislsiz mehr-muhabbat va astoydil e’tiqod bilan o‘z jonini o‘g‘li Humoyunga sadaqa qilib, 1530 yil 26 dekabrda 48 yoshni ham to‘ldirmay hayotdan ko‘z yumdi. Zahiriddin Muhammad Bobur ham Farg‘ona

vodiysi, Kobul va Hindistondagi hukmronligini qo'shib hisoblasak, 36 yil podshoh bo'ldi. Uning ham o'g'li, qizlari va nabiralari 36 ta bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning jasadi Agradagi o'zi qurdirgan boqqa dafn etildi, vafotidan ancha vaqt o'tganidan keyin xotinlaridan biri Dildorcha xonim tashabbusi bilan uning jasadi Kobuldag'i "Bog'i Bobur" ga keltirilib qayta dafn etildi.

1993 yilda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi munosabati bilan shoh va shoir dunyoga kelgan Andijon shahrida uning ramziy qabri bunyod etildi. Shu o'rinda yana bir mulohaza, Sohibqiron Amir Temur "islom himoyachisi" sifatida Xitoya qo'shin tortgan bo'lsa, Zahiriddin Muhammad Bobur umrining so'nggi yilida (1529 yil iyun – Sh.H.) odamlarni diniy tafovutga qarab tabaqlashtirishni bekor qilish to'g'risida farmon e'lon qildi. Zahiriddin Muhammad Bobur ulug' bobokalonidan hayotiy masalalarda o'tib ketib, tolerant (bag'rikenglik) ko'rsatgan, har qanday dinga mansublikdan tabiatning oliy ne'mati bo'lgan inson ulug' ekanligini chuqur anglagan hukmdor, u shunday farmon bilan o'zidagi ijobiy xislatlar shodasini ko'paytirgandi. Amir Temur Zahiriddin Muhammad Bobur zamonida yashaganida, bundanda oliymaqom ishlarni amalga oshirardi. Bu o'rinda ikki buyuk siyoni bir-biridan 1,5 asrlik tarixiy davr ajratib turganligini, Zahiriddin Muhammad Bobur turli din va e'tiqodlar hukm surgan Hindistonda podshoh bo'lganligini hisobga olmaslik insofdan emas.

Sohibqiron Amir Temur "Temur tuzuklari"ni aytib yozdirgan, ayni paytda olimu-ulamolar suhbati, ular bahs munozaralarida ishtirok qilib turadigan, ayrim masalalarda o'zidan boshqacha fikrlaydiganlarga ham sovg'a-salomlar ularshadigan tanti, mard inson bo'lganligi ma'lum. Shuningdek, Amir Temur fan va madaniyat homiysi bo'lganligi haqida ko'p yozildi va yozilmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur ulug' bobokalonidan 21 yil kam umr ko'rgan bo'lsa-da, shaxsan o'zidan boy ilmiy, tarixiy, jug'rofiy, badiiy meros qoldirdi. "*Qancha ko'p o'qilsa shuncha ko'p lazzat beradigan*" (prof. Sayfiddin Jalil – Sh.H.) tarixiy-geografik asar hisoblangan "Boburnoma", 121 ta g'azal, 200 dan ortiq ruboiy va masnaviyarlarni o'zida jamlagan "Turkiy devon", she'riy shaklda yozilgan va

iqtisodiy-ijtimoiy tartib qoidalariga bag‘ishlangan tarixiy asar, turkiy xalqlarning she’riyati nazariyasi hamda tarixini o‘rganishga qaratilgan “Muxtasar” asari, shuningdek, davlatni idora qilishga, harbiy san’atga, musiqa ilmiga va husnixat bitishga bag‘ishlangan tadqiqotlari kabilar Bobur Mirzo ma’naviy me’rosining boy xazinasidir. Demak, Zahriddin Muhammad Bobur ulug‘ bobokalonidek madaniyat va fan homisi bo‘lish bilan birga, insoniyat ma’naviy xazinasini dilbar durdonalar bilan boyitishga shaxsan hissa qo‘shdi. U tarixchi sifatida Gerodot bilan birga tursa, ijodkor sifatida Hazrat Alisher Navoiyga tenglashib boradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan Hindistonda barpo etilgan davlat 332 yil umr ko‘rdi. Sohibqiron Amir Temur davlatini Dashti Qipchoqdan kelgan Shayboniylar egallab, Movarounnahrda turkiy qabilalarning yangi sulolasi hukmronligini boshlab berdilar. So‘nggi mustaqil temuriy hukmdor sifatida tarixga Husayn Boyqaro (hukmronligi 1469-1506 yy) nomi kirib qolgan. Boburiylar sultanatining oxirgi vakili Bahodirshoh II Zafar bo‘lib, uning taqdiri ayanchli kechdi. 1857-1859 yillarda Hindistondagi sipohiylar qo‘zg‘oloni bostirilgach, Bahodirshoh II ni Rangun (Birma)ga surgun qildilar va uning farzandi hamda nabiralarini inglizlar vahshiylarcha otib tashlashdi. Salkam 3,5 asr hukm surgan Boburiylar sultanatining hududlari ushbu voqeliklardan so‘ng uzil-kesil Buyuk Britaniya mustamlakachilari qo‘liga o‘tdi.

Nima bo‘lganda ham, Sohibqiron Amir Temur asos solgan davlat 468 yil umr ko‘rdi deb, hisoblashimizga asoslar bor. Boburiylar o‘zlarining ulug‘ bobokalonlariga munosib avlod bo‘lishga hamisha intilib keldilar. So‘nggi mustaqil boburiy hukmdor Avrangzeb (1658-1707 yy) buyuk bobokaloni Amir Temur xilxonasi (Go‘ri Amir) aftoda holda ekanligidan xabar topib, dahmani tamirlash uchun Samarqandga katta miqdorda pul va oltin yuborgan. Biroq, mahalliy hukmdorlar oltin pullarning asosiy qismini o‘zlashtirib, bir ozginasini Go‘ri Amirni tamirlashga sarflashgan. Ushbu dalilning o‘ziyoq Boburning ajdodlari ota-bobolari o‘zgacha mehr-muhabbat bilan qaraganliklaridan darak beradi[2,35]. Amir Temur va Zahriddin Muhammad Bobur singari adolatli, xalqparvar, bunyodkor bobokalonlarimizni bizdan yetti, olti asrlik

o‘tmish ajratib turibdi. Amir Temur o‘z yurtida tug‘ilib, o‘z vatanida vafot etdi. Zahiriddin Muhammad Bobur Andijonda tavallud topdi, biroq taqdir unga darbadarlik, muhojirlikning barcha azob-uqubatlari va mashaqqatlarini ro‘baro‘ qildi. Hukmdor va ijodkor ona-yurt mehri va Vatanini bir bor ko‘rish orzusida armon bilan Hindistonda olamdan ko‘z yumdi.

Amir Temurga ham, Zahiriddin Muhammad Boburga ham murakkab tarixiy sharoitda yashashga to‘g‘ri keldi. Amir Temur mo‘g‘ullar oyog‘i ostida toptalgan Movarounnahrni ozod qilish, mustaqil davlat barpo etish uchun kurashlarga sho‘ng‘ib ketdi va o‘z maqsadiga erishdi. Bobur shayboniylardan o‘nglab bo‘lmas harbiy zarbalarga to‘qnash keldi va 21 yil Kobulda hukmdor bo‘lib turib qoldi, u yurtiga qaytish yo‘llari yopilganligiga ishonch hosil qilgach, o‘z orzu-maqsadlarini Hindistonda amalga oshirish uchun 12 ming qo‘shin bilan Ibrohim Lo‘diyning 100 ming nafar qo‘shini va 1000 ta jangovar filiga qarshi tavakkal qilib jangga kirdi. Taqdir uni yo‘qladi va raqibi ustidan porloq g‘alabaga erishib, yangi davlatga asos soldi.

Amir Temur o‘rta asrning eng buyuk hukmdori va sohibinga emas, balki bunyodkor podshoh nomi bilan tarix sahnasidan mustahkam o‘rin oldi. U buyuk sultanatida, o‘z vatanida mislsiz bunyodkorlik ishlarini amalga oshirib,adolatli, xalqparvar davlat rahbari, millat va yurt uchun qanday xizmat qilishi kerakligini amalda ko‘rsatgan buyuk shaxsdir. Zahiriddin Muhammad Boburga taqdir begona yurtlarda podshohlik qilishini nasib etdi, muhojirlikda sultanat va davlat sohibi qay tariqa yo‘l tutishi, zarur bo‘lsa dushmanni do‘stga aylantira bilishini, u faqat ezgu ishlar bilan band bo‘lish kerakligini amalda isbotlay olgan, bu borada o‘rnak olsa arziydigan buyuk dahodir. Shuning uchun mustaqil Hindiston Respublikasining birinchi hukumat rahbari Javoharla’l Neru: “*Bobur g‘oyat sinchkov, zukko inson edi. Biz uni musofir kishi sifatida ba’zan noxolis fikrlar ham bildirar edi, deb o‘ylasak, uni hikoyalari o‘sha paytda Shimoliy Hindiston achinarli ahvolda ekanligidan dalolat beradi. Hindistonning birligi g‘oyasi u uchun asosan umr bo‘yi saqlandi... Bobur shu paytgacha o‘tgan podshohlar ichida eng madaniy va dilbar shaxsdir. U*

diniy fanatizmdan uzoq, boshqalar kabi vayronagarchilik qilmadi. U gullar va bog‘larni sevardi. Hindistonda turib har doim o‘z vatani – O‘rta Osiyoni eslardi”, – deb ulug‘ bobokalonimizga yuksak baho bergandi. Ushbu samimiy va dilkash fikrlarni hind millati vakili tomonidan yozilayotganligining o‘ziyoq buyuk vatandoshimizga bo‘lgan mehr-muhabbatni, faxrlanish va g‘ururni bizda yanada kuchaytiradi.

Xullas, bu ikki buyuk siymolar uzoq dovonlardan oshib istiqlol tufayli o‘z xalqi oldiga qaytdilar. Yurtimizda yuz berayotgan mislsiz o‘zgarishlar, muqaddas qadamjolarning ziyoratgohlarga aylantirilganligi, shahar va qishloqlarimizdag‘ obodonchilik ishlari, mevali bog‘lar va gulzorlarning barpo etilayotganligi O‘zbekiston jahonga yuz burayotganligi kabi adoqsiz xayrli ishlar ulug‘ bobokalonlarimiz ruhi poklarini shod qilayotganligimizdan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аҳмедов Б. Амир Темур дарслари. – Т.: Шарқ, 2000.
2. Бердимуродов А. Гўри Амир мақбаси – Т., 1996.
3. Руи Гонсалес де Клавихо. Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар). Профессор Очил Тоғаев таржимаси. – Т.: О‘ZBEKISTON НМЖ, 2010.

Orzuev Maҳmud Zai niievich

БухДУ, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Zai niiev Komron Maҳmud ўгли

Toшкент давлат шарқшунослик университети талабаси

АМИР ТЕМУР ДАВЛАТИ ВУЖУДГА КЕЛИШИДА БУХОРО ВОҲАСИННИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Аннотация: Ушбу мақолада Амир Темур фаолиятининг дастлабки даврларида юз берган воқеаларнинг Бухоро воҳасига боғлик жиҳатлари таҳлил

этилган. Шунингдек, ўша давр сиёсий муносабатларининг баъзи чигал масалаларининг ечими келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: Бухоро шахри, Амир Темур, Илёсхўжа, Мохон, Амир Хусайн, Али Ясавурий, Қарши жанги.

Бухоро барча тарихий даврларда муҳим сиёсий-ижтимоий ва маданий жараёнлар марказида турган шаҳарлардан бири сифатида маълум. Айниқса, Амир Темур ва темурийлар даври тарихини ўрганишда Бухоронинг ўрни ва роли бекиёс аҳамиятга эгадир. Тарихий адабиётлардаги маълумотлар таҳлили шуни кўрстадики, мўғуллар истилоси ва ҳукмронлиги даврида Бухоро шахри бир неча маротаба вайронга аҳволга келган бўлиб, Амир Темур ҳокимият тепасига келгунга қадар Бухоронинг сўнгги бор вайрон этилиши 1316 йилда қайд қилинганлигининг гувоҳи бўлинади[3, 57]. Мўғуллар даврида бир неча бор вайрон этилса-да, Бухоро шахри ҳамиша карвон йўллари марказида эканлигиги ва аҳолисининг машаққатли меҳнати эвазига Мовароуннаҳрнинг савдо-сотик, дехқончилик, ҳунармандчилик соҳалари ривожланган, иқтисодий, сиёсий ва маданий жиҳатдан марказий шаҳарларидан бири бўлиб қолаверган.

Амир Темурнинг сиёсий фаолияти бошланишидан токим вафотига қадар бўлган даврга оид маълумотларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, соҳибқирон Бухорога алоҳида ҳурмат билан қараганлиги билан боғлиқ маълумотлар барча ўша давр адабиётларида келтириб ўтилади. Бунга асос сифатида Амир Темурнинг онаси Тегина Бегим Моҳ асли Бухородан бўлганлиги, унинг отаси ўз замонасининг обрўли ва руҳоний-диндор кишиларидан бўлган Убайдулло ибн Маҳмуд ал-Маҳбубий эканлиги келтириб ўтилади[12, 3]. Шу боис Бухорога Амир Темурнинг эҳтироми бўлакча бўлган дейишга тўла асослар мавжуд.

Амир Темурнинг ҳокимият тепасига келиш жараёнида ўзаро қурашларда Бухоро бир неча бора тилга олинади. Масалан, Амир Темурнинг Илёсхўжадан ажралиб Бухоро томонларга кетишига, Илёсхўжанинг золимларча бошқаруви сабаб бўлганлиги қайд этилган[6, 107]. Амир Темурнинг ҳокимият учун қураш

бошлиши жараёнларининг дастлабки босқичидаёқ у тутган сиёсатни Бухоро аҳолиси қўллаганлигини кўрсатади. Шунингдек, М.Иванин маълумотларида Амир Кулолнинг Илёсхўжадан қочиб келган Амир Темурга бехавотирроқ бўлган Хоразм чўлларига кетишини маслаҳат берганлиги келтириб ўтилган[4, 117]. Бухоро ҳамиша Амир Темурга нисбатан мойил бўлса-да, ҳали Илёсхўжа (мўғуллар) хукумронлиги кучли эканлигидан далолат беради. Ҳ.Вамбери Амир Темурнинг Илёсхўжа билан жанжаллашиб, Бухорога, сўнг чўлга чиқиб кетишини, “*Бухоро ва Хива мамлакатлари орасидаги Ҳазар денгизигача чўзилган чўлга йўналди*”, – тарзида келтириб ўтади[2, 31]. Шарафиддин Али Яздий маълумотларида, Илёсхўжадан мағлуб бўлган Амир Темур ва Ҳусайнлар чекингач, Амир Темур хотинини Бухорзиндан деб номланган Бухоро вилоятига карашли кент (қишлоқ)га яширганлиги келтириб ўтилади[5, 28]. Бу Амир Темурнинг сиёсий фаолиятида Бухоро алоҳида ўрин тутганлигидан далолат беради.

Мўғуллар таъқибидан қочиб юрган кезлари Амир Темурнинг Мохонда Алибек зиндонига тушиб қолиши ва бу ердан қутилиши хусусида турли-туман маълумотлар мавжуд. Тутқунликдан қутилиб чиққанидан сўнг, Амир Темурнинг Бухоро томонга йўл олиши, бу ерда уни қўллаб-қувватловчилар етарлича топилишидан далолат беради. Шунингдек, Амударё бўйига келганда Амир Темурнинг опаси Бухордан юборган ёрдамни олиши ҳам тарихий адабиётларда келтириб ўтилади[9, 56]. Бу Бухорода мўғулларга қарши кучли норозилик мавжудлигини, аҳоли табақасидан қатъий назар мамлакат тинчлиги ва осудалиги учун курашувчи кишини қўллаб-қувватлашга тайёрлигини кўрсатади.

“Темур тузуклари”да ҳам Амир Темурнинг Мохонда Алибек зиндонида ётганлиги, тутқунликда қутилганидан кейин Бухоро томонга йўл олгани ва Бухоро атрофларига 200 одамини тарқатгани, хотини Ўлжой туркон оғони ҳам Бухоро қишлоқларидан бирига яширганлиги, бундан ташқари 48 кун Самарқандда опасининг уйида яшириниб ётгандан сўнг, Самарқанддан қочиб

Хоразм томонга йўл олиши ва Ачиғи деган Амударё бўйидаги жойда Бухорода қолдирган одамлари келганлиги, уларнинг сони минг киши эканлигига оид маълумотлар келтирилади[11, 23-24]. Демак, Бухоро аҳолиси Амир Темурнинг мамлакатни бирлаштириш, ташқи ҳужумлар, вайронагарчилкиларни тугатиш учун олиб бораётган курашларида доимий равишда уни қўллаб-қувватлаганлар. Амир Темурнинг ҳокимият тепасига келишида бухороликларнинг ҳам маълум маънода хиссаси мавжуд деб айтиш мумкин.

Мўғулларни Ўрта Осиёдан ҳайдаб чиқариш жараёни сўнгги босқичида содир бўлган сарбадорлар қўзғолони ва кейинчалик уларнинг етакчилари амир Ҳусайн томонидан қатл этилиши тарихий манбаларда тилга олиб ўтилади. Амир Темурнинг қатъий аралашуви натижасида қўзғолончи етакчилардан Мавлонзодагина қутқариб қолинган бўлиб, академик В.В. Бартольд Абдураззоқ Самарқандий маълумотларига таяниб, уни Бухоро зодагонларидан эканлигини таъкидлаб ўтган[1, 371].

Амир Темурнинг яқин кишилари, сафдошлари орасида бухороликлар ҳам талайгина бўлиб, манбаларда Маҳмудшоҳ Бухорий, Али Ясавурий каби саркардаларининг келиб чиқиши Бухородан бўлганлигига оид маълумотлар сақланиб қолинган. Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асаридаги маълумотларда, Амир Темурнинг ҳокимият учун курашлари даврида унинг яқин кишилари орасида Сюрғотмиш Ўғлон, Довудбек Дуғлат (Амир Темурнинг синглиси Қутлуғ Туркон оғонинг турмуш ўртоғи), Жаку Барлос, Муаййид Арлот (Амир Темурнинг синглиси Ширинбек оғанинг турмуш ўртоғи, Сари Буға Жалоир, Баҳодир Қипчоқ, Оқ Буғалар қаторида Маҳмудшоҳ Бухорийлар ҳам тилга олиб ўтилади. Шунингдек, Маҳмудшоҳ Амир Ҳусайнга қарши курашлар даврида Бухородан солиқ йиғиб олиш учун Амир Темур томонидан юборилганлиги ҳам манбаларда қайд этиб ўтилган[5, 46-49]. Аммо, Муйиниддин Натанзийнинг ёзишича, Маҳмудшоҳ Бухорога келгач, Ясовур қабиласига таяниб, Амир Темурга тўпланган маблағларни олиб бормайди. Қаршини амир Мусо ва амир Ўлжойтулар эгаллагандан сўнг Амир Темур

Бухорога йўл олади. Маҳмудшоҳ Бухорий ва Али Ясавурийлар уни яхши кутиб олади. Шундай бўлса-да, Амир Темурнинг ҳамроҳлари уларга ишонмайди. Аббос баҳодир, Ҳожи Сайфиддинлар Амударёдан ўтиб, Моҳон томонга кетадилар. Бироз фурсатдан сўнг Амир Темур ҳам улар олдига йўл олади. Маҳмудшоҳ ва Али Ясавурийлар ҳам курашда мағлуб бўлгач, улар ҳам Моҳон томонга Амир Темур ҳузурига борадилар[7, 79].

Амир Ҳусайнга содик амирлар томонидан Бухоро қамал қилиниб, Амир Темур тарафдорлари билан жанглар олиб борилган бўлиб, ҳийла ишлатиб Бухоро эгалланган. Бухородаги Амир Темурнинг тарафдорлари бўлган Али Ясавурий ва Маҳмудшоҳлар амир Ҳусайнга қарши курашларда мағлубиятга учраганларидан сўнг Амударёдан ўтиб, Моҳонга Амир Темур ҳузурига борганлар[5, 50]. Юқорида келтирилган маълумотлардан Бухоро воҳаси аҳолиси Амир Темурнинг мамлакатни бирлаштирув сиёсатини қўллаб-куватлаган мазмундаги хulosага келиш мумкин. Айрим тарихий адабиётларда Амир Темур Маликшоҳ Бухорийни Қарши жангиди Амир Ҳусайнга садоқатли бўлган амир Мусони енганидан кейин, Бухоро солигини олиб келиш учун юборганлиги ҳам қайд этиб ўтилган[10, 123]. Тарихий адабиётларда Бухоро учун олиб борилган жанг қайд этилмаса-да, Қаршида Амир Темурнинг ғалабаси ўз-ўзидан Бухоро бошқарувининг ҳам Амир Темурга ўтишини англатиши келтириб ўтилган[8, 429].

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Амир Темурнинг мўғулларга қарши кураш жараёни ва Мовароуннаҳрда марказлашган давлат тузиш учун курашлари жараёнида Бухоро муҳим аҳамият касб этган бўлиб, ушбу тарихий жараёнларни манба ва адабиётлар таҳлили орқали ўрганиш бугунги тарих фани олдидағи айрим муаммоли масалаларга жавоб топишда ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бартольд В.В. Сочинения. Том II. Часть 2. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. – М.: Наука, 1964. – 656 с.

2. Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Китобдан парчалар/Тўпл.: С.Аҳмад/. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 96 б.
3. Вулъферт. Эм.Ф. Бухарская провинция в составе государства Амира Темура//Маверауннахр в эпоху Амира Темура: археология, история, культура. – Т.: 2018. – С. 53-68.
4. Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. – Т.: Фан, 1994. – 238 б.
5. Йаздий, Шарафуддин Али. Зафариома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков: Масъул муҳаррир Б. Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов па бошқалар// Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
6. Лянглэ Л. Жизнь Тимура. Перевод с французского Н.Суворова. – Ташкент. Типография Бр. Порцевых 1890. // Туркестанский сборник. Том. 462. – С. 100-144.
7. Натанзий Муиниддин Мунтахаб ут-таворихи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси)/ Муиниддин Натанзий; форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ғ.Каримий; масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Т.: O‘zbekiston, 2011. – 264 б.
8. Рунэ Груссе. Империя степей. История Центральной Азии. – М.: 2006. – 625 с.
9. Тамерлан – покоритель Азии. – М.: Ломоносов, 2014. – 224 с.
10. Тамерлан. – М.: Крафт+, 2003. – 208 с.
11. Темур тузуклари. Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. ЎзФА мухбир аъзоси, тарих фанлари доктори, профессор Б.Аҳмедов таҳрири остида. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 109 б.
12. Ҳазрат Соҳибқирон солномаси/Тузувчи муаллиф Ҳаким Сатторий. – Т.: Tafakkur qanoti, 2014. – 112 б.

Abdullaeva Muxayyo Iskandarovna

*“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi, katta o‘qituvchi
Buxoro viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish
hududiy markazi*

To‘raeva Sayyora Sattorovna

*“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi, katta o‘qituvchi
Surxandaryo viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish
hududiy markazi*

**O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI BOSHQARUV MASALARINI
QIYOSIY O‘RGANISH (AMIR TEMUR DAVRI DAVLATCHILIK TIZIMI
VA BOSHQARUVI MISOLIDA)**

Annotatsiya: Maqolada Amir Temur va temuriylar zamoni davlatchilik siyosati, boshqaruv tizimi, davlat, davlatchilik mohiyatida muayyan bir makon va jamiyatda mavjud turli imkoniyatlarni shu yerlik xalq manfaati yo‘lida yuzaga chiqaruvchi tashkilotchilik yotgani tahlil etilgan. Zero, davlat asoslari, davlatchilik har bir jamiyat va xalq “boshiga bir marta bitilgan bo‘lishi” yorqin misollar asosida qiyosiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Renessans, ilm, fan, integratsiya, ta’lim, tarbiya, innovatsiya, yangi davr, tarix, yosh avlod, yangi O‘zbekiston, buyuk davlat.

O‘zbekistonning har bir fuqarosi ona yurtimizning xolisona va mafkuraviy qarashlardan xoli tarixini innovatsion yondashuvlar asosida yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan o‘rgansalar hamda tarix ta’limida ham ana shunday tadqiqotlar natijalaridan unumli foydalansalar ezgu niyatlarimiz va buyuk maqsadlarimiz ro‘yobi – “Uchinchi Renessans”ning mustahkam poydevorini bunyod etishga munosib hissa qo‘shtigan bo‘lardilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan da’vatkor g‘oya hayotimizga

tobora chuqur kirib bormoqda. Biz ayni shu asosda xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va ijtimoiyadolatni ta'minlash, innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlarni qo'ymoqdamiz[1,2]". Innovatsion taraqqiyot borasida muhim qadamlarni qo'yayotgan yangi O'zbekistonning har bir fuqarosi ona yurtimizning xolisona va mafkuraviy qarashlardan xoli tarixini innovatsion yondashuvlar asosida yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlardan o'rgansalar hamda tarix ta'limida ham ana shunday tadqiqotlar natijalaridan unumli foydalansalar ezgu niyatlarimiz va buyuk maqsadlarimiz ro'yobi – "Uchinchi Renessans"ning mustahkam poydevorini bunyod etishga munosib hissa qo'shgan bo'lardilar.

"Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda "Yangi O'zbekiston" iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingii yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofidir[2,3]", – deb ta'kidladilar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

O'zbek davlatchiligining eng qadimiylarini yoritishda biz arxeologik qazishmalar natijalari, mahalliy yozma adabiyot namunalari (masalan, "Avesto", ko'hna eroniy bitiklar, yunonistonlik, xitoylik, hindistonlik va boshqa yerlik mualliflar yozib qoldirgan manbalar)dan foydalanamiz. Albatta, bu borada qiyosiy o'rganish, tarixiy-madaniy taraqqiyot qonunlari, an'analarini yodda tutish kabi ilmiy-mantiqiy usullarni istifoda etamiz.

Miloddan avvalgi 1-mingyillik boshlarida ajdodlarimiz temirni qayta ishlashni o'rganib oldilar. Demak, har qanday taraqqiyotning turkisi bo'lib kelgan mehnat qurollarining takomillashishi uchun keng yo'l ochilgan. Bu esa o'z navbatida inson faoliyatining kengayishi va jadallahishiga sabab bo'lgan. Mazkur hol jamiyatning barcha sohalari: siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, xalqaro munosabatlarda tegishli sifat o'zgarishlariga turtki bo'lgan bosh omillardan biri hisoblanadi. Miloddan avvalgi VII-VI asrlardayoq Xorazmda ulkan sun'iy sug'orish tizimlari ishlab turgani ma'lum[3,68]. Sun'iy sug'orish ishlarining bu darajada e'tiborli bo'lganligi

ajdodlarimiz hayotida dehqonchilikning tutgan o‘rnidan guvohlik beradi. Haqiqatdan ham o‘sha vaqtarda don, moy beruvchi o‘simliklar yetishtirish, polizchilik, bog‘dorchilik kabi sohalar rivojlanganini olimlar isbotlab berishgan.

Mazkur davr ijtimoiy munosabatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Avesto”da (miloddan avvalgi VIII-VII asrlar) kohinlar, harbiylar, dehqonlar hamda hunarmandlar kabi ijtimoiy tabaqalar tilga olinadi.

Amir Temur va temuriylar zamoni davlatchilik siyosati, boshqaruv tizimini ko‘rib chiqmoqchi ekanmiz, davlat, davlatchilik mohiyatida muayyan bir makon va jamiyatda mavjud turli imkoniyatlarni shu yerlik xalq manfaati yo‘lida yuzaga chiqaruvchi tashkilotchilik yotganini eslatib o‘tish g‘oyatda muhimdir. Zero, davlat asoslari, davlatchilik har bir jamiyat va xalq “boshiga bir marta bitilgan bo‘ladi”. Shu ma’noda o‘zbek davlatchiligi miloddan avvalgi 1-mingyllikning birinchi yarmidan o‘z tarixini boshlab to Amir Temur davlatimiz tepasiga kelgunga kadar deyarli 2100 yillik taraqqiyot yo‘lini boshqaruviga turli sulolar (bugungi tilda aytganda siyosiy partiylar) kelib ketdi. Ularning faoliyati turli zamonlarda, turli ob’ektiv-sub’ektiv shart-sharoitlarda turlicha kechdi. Biz mazkur masalaga urg‘u berayotganimizning bir necha sababi bor.

Birinchidan, biz Amir Temur davlati, Temuriylar davlati kabi keng tarqalgan tushunchalarga qarashimiz. Zero, davlatchilik asoslari yagona bo‘ladi. Demak, Amir Temur davlati emas, o‘zbek davlatchiligining Amir Temur boshqargan bosqichi deyilsa, har taraflama haqiqatga mos tushadi.

Ikkinchidan, Amir Temur davlati tushunchasi davlatchiligidan ham ungacha bo‘lgan, ham undan bo‘lgan, ham undan keyingii taraqqiyot yo‘lini uzib qo‘yadi (bu fikr boshqa sulolaviy davlatlarga ham tegishli, albatta). Bu o‘z o‘rnida, bir tomonidan, tarixni soxtalashtirsa, ikkinchi tomonidan, davlatchiligidan tarixidagi bosqichiy jarayonlar, masalan yana o‘sha Amir Temur davri mohiyatini anglashni qiyinlashtiradi. Zero, hatto sof ilmiy nuqtai nazardan olganda ham mushohada jarayonida kuzatilganidagina to‘lqinlanadi, xulosa uchun imkon yaraladi.

Uchinchidan, biz o‘zbek davlatchiligi mohiyati va imkoniyatlari haqida qanchalik so‘zlamaylik, agar uning amaliy ifodasining guvohi (bugungi kun nuqtai nazaridan esa quruvchisi) bo‘lmas ekanmiz, gap-gapligicha qolaveradi. Shu ma’noda Amir Temur davri davlatchiligidan mohiyati va imkoniyatlari ko‘lamini amalda yuzaga chiqarib berganligi bilan ham g‘oyatda muhimdir (albatta, o‘z davri sharoitida).

Shunday qilib, Amir Temur davriga qadar o‘zbek davlatchiligi 2100 yillik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan ekan, shunga ko‘ra biz birinchi xulosani qilishimiz mumkin. Amir Temur davri davlatchilik, tizimi muayyan bir o‘tmishga, an’analar, tajribalar, saboqlar qonuniyatlarga asoslangan holda tashkil kilingan. Shu yerda haqli savol tug‘uladi: bu o‘tmish yo‘l qonuniyatları, tajribaları, ya’ni davlatchilik asoslari nimalarda o‘z aksini topgandi va Amir Temur davlatimizga rahbarlik qilgan yillari ularga qanday munosabatda bo‘lindi? Savolni shu tariqa qo‘yish nihoyatda muhim. Zero, bizning tushunchamizda davlat arbobi, siyosatchi salohiyati (va bundan kelib chiqadigan buyukligi), eng avvalo, uning davlatchilik asoslarini nechog‘lik teran anglab olishi va amalda unga rioya eta bilishi bilan belgilanadi. Bu g‘oyatda og‘ir vazifadir. Amir Temurning davlat boshqaruvi, davlatchilik va harbiy siyosat borasidagi haqiqatlarini lo‘nda tarzda yoritishga urinib ko‘ramiz.

Chingiziyarning o‘lkadagi hukmronligi barcha sohalar taraqqiyotida salbiy asorat qoldirgani haqida so‘z aytdik. Davlat boshqaruvi sohasi ham bundan mustasno emas. Umuman boshqa, ko‘chmanchi shart-sharoitda shakllangan siyosiy dunyoqarash va tarbiya chingiziy namoyandalar uchun mahalliy boshqaruv an’analarini qabul etishga yo‘l bermasdi. Shu sababdan ham avvalgi davrlarda kechgan davlatchilik boshqaruvidagi ko‘p asrlik tajriba va an’analar chingiziylar hukmronligi zamonida amalda o‘z davomiyligini topa olmadi. Agar bu davr bir yarim asr kechgani nazarda tutilsa, shu sohadagi ahvol nechog‘lik og‘irlashib qolgani ma’lum bo‘ladi. Amir Temurning o‘zbek davlatchiligi oldida qilgan xizmatlaridan biri shundaki, u 150 yil uzoq bir davr o‘tib, shuning orasida odatlar, an’analarda kattadan-katta o‘zgarishlar sodir bo‘lganiga qaramay, qadimdan mavjud bo‘lib kelgan

o‘zbek davlatchiligi boshqaruv tizimining (biz hatto ilmining degan bo‘lardik) klassik namunalarini qaytadan tiklay bildi. Nihoyatda mushkul bo‘lgan bu vazifani u donolik bilan hal eta oldi. Demak, Amir Temur davrida boshqaruv ikki idora: dargoh va devonlarga (vazirliklarga) bo‘lingan.

Dargoh – eng oliv idorasi. Uning boshlig‘i ham tabiiy ravishda davlatning oliv hukmdori. Amir Temur davlat tepasiga kelgandan so‘ng chingiziylardan bo‘lmish Suyurg‘at mishni xon, ya’ni oliv hukmdor deb e’lon qilgani ma’lum[4,293]. Shu bilan birga Suyurg‘at mish “soxta xon” mavqeida bo‘lib, amaldagi hokimiyat Sohibqiron ixtiyorida bo‘lganini ham bilamiz. Nima uchun shunday qarama-qarshilik yuzaga kelgandi, savoli tug‘iladi. Chingizylarning 150 yillik hukmronligi mamlakat hayotida katta ta’sirga ega bo‘lganini ta’kidlagan edik. Siyosiy munosabatlar, qarashlar, odatlar jamiyatning eng qaynoq sohalaridan biri sifatda yangilik va o‘zgarishlarga boy bo‘ladi. Masalan, ulug‘ bobomizning biyobondan qarorgoh qurishini olaylik. Mamlakatimizda asrlar davomida davlat boshlig‘ining qarorgohi shaharlarda qanchalik tabiiy bo‘lib kelgan bo‘lsa, chingiziylar davrida, aksincha, xon biyobondagi qarorgohda turishi kerak, qabilidagi aqida siyosiy muhitga qattiq singib ketgandi. Shunga o‘xhash o‘zgarishlardan bir qanchasi mazkur bu yarim asrlik jarayonida o‘z o‘rnini topib olgandi. Gap ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligida emas. Muhammed, Amir Temur davlat tepasiga kelgan paytda ular jamiyat hayotidagi voqelikni tashkil etardi. Sohibqiron bularni nazarda tutmasdan iloji yo‘q edi. Ikkinchchi tomondan, 1370-yili mamlakatda Amir Temurdan boshqa ham yana bir qancha qudratli amirlar, ularni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy-siyosiy kuchlar bor edi. Ular ham zimdan yo ochiqchasiga mustaqil siyosat yurgizish, hatto oliv taxtni egallash niyatida bo‘lganlar. Bunday sharoitda Amir Temur o‘zini rasman xon deb e’lon qilolmasdi. Chunki bu raqiblarga bahona bo‘lib, norozilik va xurujlarga turtki bo‘lishi turgan gap edi. Zero, xuddi shu yillar taomiliga ko‘ra siyosiy hokimiyat chingiziylar xonadoni ixtiyorida bo‘lishi kerak edi. Uchinchi tomondan, Suyurg‘at mish xon ko‘tarilgandan hali amir Husayn masalasi hal bo‘limgandi, aniqrog‘i hal bo‘lish arafasida edi. Amir Husayn esa o‘z vaqtida Qobilshohni (1364), so‘ng Odil Sultonni

(1365) rasman xon deb e'lon qilgandi[5,114-260]. Demak, Amir Temur tomonidan Suyurg'at mishning xon deb e'lon qilinishi Odil Sulton "xonligi"ni, ya'ni amir Husayn hukumronligini bekor etish bilan barobar hisoblanardi. Xullas, mazkur masala o'sha zamon voqeligidan kelib chiqib Amir Temur hokimiyatini mustahkamlash yo'lida amalga oshirilgan. Sohibqiron uchun bu paytda muhimi ham aslida shu edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik-ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro'yobi yo'lida qudrat manbai. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. "Yangi O'zbekiston", 2020 yil, 1 sentabr
2. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik-ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro'yobi yo'lida qudrat manbai. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tan'tanali marosimdagi nutqi. "Yangi O'zbekiston", 2020 yil, 1 sentabr
3. G'ulomov Ya. Xorazmning sug'orilish tarixi, 68-bet.
4. Yazdiy. Zafarnoma, 293-b.
5. Mu'niddin Natanziy. Muntaxab at-tavorix, 114, 129, 221, 260-betlar.

Alimova Shaxlo Bafaevna

Buxoro viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hudidiy markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

BUYUK SOHIBQIRON AMIR TEMUR HUKMRONLIGI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur hukmronligi davrida davlat boshqaruvi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Amir Temur sultanatining boshqaruvida o'n ikki qoidaga butun hayoti davomida rioya etganligini ta'kidlagan. Temur

saltanatida boshqaruv idoralari dargoh va devonlarning faoliyati, rahbarlikka tayinlaganlarining shaxsiy xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch atamalar: kengash, mashvaratu maslahat, tuzuklar, amirlar, sayyidlar, mashoyixlar, raiyat, qo'shin, dargoh, devon.

Sohibqiron Amir Temur Movarounnahrdagi mo'g'ul bosqinchilarining 150 yillik hukmronligiga barham berib, o'z zamonasining kuch-qudratda tengsiz markazlashgan sultanatiga asos solgan. Amir Temur o'zining 35 yillik hukmronligi davrida Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni o'z ichiga olgan ulkan bir sultanatni vujudga keltirgan. Bundan tashqari, yana u Osiyoning janubiy-g'arbiy tomonlari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoliy-g'arbda Quyi Volga, Don bo'yłari, shimoliy-sharqda Balxash ko'li va Ili daryosi bo'yłari hamda janubiy-sharqda Shimoliy Hindistongacha bo'lgan hududlarni o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.

Temur zamonasining buyuk sultanatinini barpo qilgan bo'lsa-da, ammo u umrining oxirigacha o'zini bu davlatning «qonuniy» xoni deb e'lon qila olmagan. Chunki, u nasl-nasabi jihatidan bevosita chingiziylar sulolasiga mansub emas edi. Shuning uchun ham chingiziylar tomonidan belgilangan an'anaga ko'ra, Temur avval o'z huzurida Movarounnahrning Chingizzon avlodidan bo'lgan o'ttizinchi xoni Suyurg'at mishni (1370-1388) uning vafotidan keyin esa Suyurg'at mishning o'g'li Sulton Mahmudxonni (1388-1402) rasmiy xon qilib ko'tarib, hatto umrining oxirigacha ularning nomidan yorliqlar chiqartirgan, pullar zarb ettingandi. Ammo har ikki xon ham nomigagina «xon» bo'lib, davlatning siyosiy hayotiga va Temur bergen farmoyishlarga mutlaqo aralashmasdilar. Shunga qaramasdan, Temur mamlakatda o'zining bevosita hukmronligiga qonuniy tus berish va uni mustahkamlab olish maqsadida chingiziylar avlodidan bo'lgan Qozonxonning qizi Saroy Mulkxonimga uylandi. 1370 yilda Saroy Mulkxonim bilan bo'lgan nikoh tufayli Temur o'zining amirlik darajasiga «ko'ragon», ya'ni «xonning kuyovi» unvonini qo'shib oldi va

rasmiy hujjatlarda «Amir Temur ko‘ragoniy» nomi bilan yuritilishiga musharraf bo‘ldi.

Amir Temur buyuk davlat arbobi, siyosatchi, o‘tmish davlatchilik tajribalariga asoslanib o‘ziga xos davlat boshqaruviga asos soldi. “Temur tuzuklari”ga muvofiq, Sohibqiron Temur “Davlat ishlarining 9 ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim”, – deb ta’kidlagan. Darhaqiqat, Amir Temur yuritgan saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgan, ya’ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat’iy qaror; 4) ehtiyyotkorlik[1,14].

Sohibqiron Amir Temur sultanatining boshqaruvida va uni yanada mustahkamlashuvida “tuzuklari”dagi o‘n ikki qoidaga butun hayoti davomida rioya etganligini ta’kidlagan. Bu qoidalar quyidagilardan iborat:

1. Islom dini va shariat qonun-qoidalariga rioya qilishi, uni qo‘llab-quvvatlash.
2. Saltanatning ustunlarini tashkil etgan o‘n ikki tabaqa va toifadagilar bilan bamaslahat ish ko‘rish, siyosat yurgizish.
3. Maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyor-ehtiyyotkor bo‘lish.
4. Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqarish.
5. Amirlar va sipohiyalar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, ularga izzat va hurmat ko‘rsatish, martaba va unvonlarini hurmatlash.
6. Adolat va insof bilan siyosat yurgizish.
7. Sayyidlar, ulamo-yu mashoyixlar, oqilu donolar, muhaddislar, tarixchilarni izzat-hurmat qilish. Fan va madaniyatga homiylik qilish.
8. Biror ishni amalga oshirishga qaror qilgan bo‘lsa, unga butun vujudi bilan kirishish va uni oxiriga yetkazish.
9. Raiyat (oddiy xalq) ahvoldidan doimo ogoh bo‘lish.
10. Turk, tojik, arabu ajamning turli toifalariga do‘stona munosabatda bo‘lish.
11. Barcha qarindosh-urug‘ bilan martabasidan qat’iy nazar yaxshi munosabatda bo‘lish.
12. Sipohilarga, qo‘shinga e’tiborli bo‘lish[2, 53-57].

Amir Temur zukko siyosatdon va yirik davlat arbobi sifatida “Tuzukoti Temuriy”da o‘z davlatining tuzilishini, uning qay tarzda bo‘lishi kerakligini bayon etadi, mansabdorlarning huquq va burchlarini belgilab beradi. U har bir tojdor o‘z davlatining tayanchi bo‘lgan ijtimoiy–siyosiy guruhlarga suyangan holda ish olib borishi lozimligini “tuzuklari”da bayon etgan. Faqat ularning yordamida raiyat, qo‘sishinlar va davlatini idora etishi zarur. Bunday guruhlarga quyidagilar kirgan: 1) Muhammad alayhissalom avlodи bo‘lmish sayyidlar, ulamolar, shayxlar; 2) tajriba orttirgan bilimdonlar; 3) duogo‘y taqvodorlar; 4) amirlar, sarhanglar; 5) sipoh va raiyat; 6) sultanat ishlarini, uning siru asrorlarini bilgan, kengash qilishga munosib oqil, ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotib, devon munshiyilar; 8) hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar; 9) muhaddislar, roviylar; 10) mashoyix, so‘fiy, oriflar; 11) hunar va san’at ahli; 12) har mamlakatdan kelgan sayohatchi va musofirlar, savdogarlar[3,302].

Temur sultanatida boshqaruв idoralari: dargoh (saroy) va devon (vazirlik)larga bo‘lingan.

Dargoh – eng oliy davlat idorasi hisoblangan va u albatta, mamlakat poytaxti Samarqandda joylashgan. Uning boshlig‘i oliy hukmdor, ya’ni Sohibqiron Amir Temurning o‘zi bo‘lib, sultanat ahamiyatiga molik masalalar uning farmoni va hukmi asosida hal etilgan. Shu bilan birga, sultanat hayotiga doir eng muhim siyosiy masalalar oliy tabaqa vakillaridan iborat holda tashkil etiladigan kengashlarda hal etilgan. Kengash maslahat bergen, biroq hukmni Amir Temurning o‘zi chiqargan.

Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirliklar, mahalliy hokimiyat idoralarini sultanat faoliyati bilan bog‘lab turish ishlarini oliy devon — “Devoni buzruk” olib borgan. Unga devonbegi boshchilik qilgan. Oliy devonga har kuni ijroiya idoralaridan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hisobot berib turganlar.

Dargohdagi muhim vazifalardan biri arzbegi hisoblangan. Unga dargohga arzdod, shikoyat bilan kelganlar hamda mamlakatdagi o‘z munosabatini bildiruvchilarni

qabul qilishni uyushtirish, tushgan arzlar, shikoyat va takliflarni oliv hukmdorga yetkazib turish vazifasi yuklatilgan.

Dargohdaadolat amiri lavozimi mavjud bo‘lib, u o‘lka va shaharlarda sipoh va raiyat orasida urf-odatlarga oid janjalli ishlar haqida oliv hukmdorga hisobot bergan.

Dargohda tavochi lavozimi ham bo‘lib, tavochi oliv farmonga muvofiq, joylarga borib harbiy yurish uchun lashkar to‘plash bilan shug‘ullangan. Dargohda bosh hojib, hojiblar, rasmiy tadbirlar boshqaruvchisi, xazinador, xonsolar, jibochi, qushchi, qushbegi, kotiblar, sozandalar, g‘azalxonlar, tabiblar kabi bir qancha xizmatlar bo‘lgan.

Sohibqiron Amir Temur davlatini vazirliklar asosida boshqargan. Amir Temur “Tuzuklari”da vazir tutish tartibi bo‘yicha shunday deb yozgan: “...vazirlar ushbu to‘rt sifatga ega bo‘lgan kishilardan bo‘lishlari lozim: birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik; uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo‘lishlik; to‘rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik [4, 74-75]”.

“Tuzuklar”da Amir Temur davlatini yetti vazir boshqargani haqida gap boradi. 1. Mamlakat va raiyat vaziri. Bu vazir mamlakatning muhim ishlarini, kundalik muammolarni, raiyat ahvolini, viloyatlardan olingan hosil, soliq-o‘lponlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlarni, mamlakatning obodonligi va aholi farovonligini ma’lum qilib turgan; 2. Sipoh bo‘yicha vazir. Sipohiylarning maoshlari va tanholarini boshqargan, parokandalikka tushib qolmaslik uchun sipoh ahvolidan hukmdorga xabar berib turgan; 3. Egasiz qolgan, o‘lib ketgan va qochib ketganlarga tegishli molt-mulkni boshqargan, zakot va bojlarni to‘plagan; 4. Sarkori xosa, saltanat ishlarini yurituvchi vazir. U butun saltanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinadigan xarajatlardan ogoh bo‘lgan; 5, 6, 7. Sarhadlar va tobe mamlakatlarga tegishli ishlarni boshqaruvchi uch vazirdan iborat hay’at[5,303].

“Tuzuklar”da ta’kidlanganidek, Amir Temur o‘z vazirlariga nisbatan juda ham mehribon bo‘lgan. Shuningdek, ularni ortiqcha siylamaslik lozimligini ta’kidlagan. Amir Temur “*Dono vazir – doimo davlat aholisini, xalq baxtini, qo’shinni*

kuchaytirishni, to ‘kin-sochin boylikni o ‘ylaydi. Mansabdar agar u xalq bilan yomon munosabatda bo ‘lsa, qilgan aybining muqimligiga muvofiq jarima to ‘lashi lozim”, – deb ta’kidlagan. Amir Temur: “Vazir zolim bo ‘lsa, sultanat ishlari tez muddatda parokandalikka uchraydi”, – deb ta’kidlagan. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, vazirning vazifalarini taftish etayotganda o‘z vorislariga tuhmat va hissiyotlarga berilmaslikni uqtiradi[6,303]. Agarda vazir davlatga xiyonat qilsa, o‘limga hukm qilingan.

Amir Temurning davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘sishin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo‘sishin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqa xususida o‘z tuzuklarida batafsil bayon etilgan. Umuman olganda, Sohibqiron Amir Temur sultanati aniq va puxta ishlangan tizimga muvofiq faoliyat yuritgan.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, Sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruvi borasidagi faoliyatidan saboq chiqarish yurt taraqqiyoti va uning xavfsizligini ta’minalash tinchlik va osoyishtalik omili bo‘lib qolaveradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Temur tuzuklari [fors tilidan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi], T., 1991, 14-bet.
2. Temur tuzuklari [fors tilidan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi], T., 1991, 53-57-betlar.
3. Ahmedov B., Tarixdan saboqlar, Toshkent “O‘qituvchi”1994, 302-bet.
4. Temur tuzuklari [fors tilidan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi], T., 1991, 74-75-betlar.
5. Ahmedov B., Tarixdan saboqlar, Toshkent “O‘qituvchi”, 1994, 303-bet.
6. Ahmedov B., Tarixdan saboqlar, Toshkent “O‘qituvchi”, 1994, 302-303-betlar.

Латипов Жасур Лазиз ўғли

Ромитан туман 41-ИДУМ ўқитувчиси

АМИР ТЕМУРНИНГ “ШАРҚ СИЁСАТИ” ВА УНДА ШИМОЛИЙ ЮАНЬ МЎҒУЛЛАРИНИНГ ЎРНИ

Аннотация: Ушбу мақолада Амир Темур ташқи сиёсатининг йўналишлари, унинг Шарқий Чигатой улуси ҳамда Шимолий Юань давлати билан муносабатлари хусусидаги маълумотлар таҳлил қилинган. Бундан ташқари, ушбу масалаларга боғлиқ тарихий воқеа ва жараёнларнинг Хитой билан дипломатик муносабатлардаги ўрни ҳақида фикрлар билдирилган.

Калит сўзлар: Амир Темур, Олтин Ўрда, Шарқий Чигатой улуси, “Ясо” қонунлари, Шимолий Юань давлати, Мин сулоласи, Улуғ Юрт улуси.

Темурийлар давлати инсоният тарихида ўчмас из қолдирган, XIV-XV асрларда Осиё ва Европа қитъаларидаги сиёсий, иқтисодий, маданий алоқаларнинг боришига бевосита таъсир кўрсатган империядир. Тарихчилар томонидан ушбу империянинг шаклланишига Амир Темурнинг олиб борган сиёсати, ақл-заковат ва адолатга асосланган фаолияти муҳим ўрин тутганлиги эътироф этилади. Таъкидлаш жоизки, Амир Темур томонидан олиб борилган ташқи сиёсат, энг аввало, мамлакатнинг хавфсизлиги, тинчлигига қаратилган. Ўша даврда давлат ҳудудларига Олтин Ўрда хонлиги ва Шарқий Чигатой улуси томонидан қаратилган ҳарбий таҳдидлар мавжуд бўлиб, империянинг хавфсизлиги зарурати ушбу муаммоларнинг долзарблигини оширади. Шунинг учун, Соҳибқирон Шарқ мамлакатларига қаратилган ташқи сиёсат масалаларига алоҳида эътибор қаратган.

Масаланинг асл моҳиятини Чигатой улусининг шарқий ва гарбий қисмлари орасидаги низолардан қидирмоқ лозим. Мовароуннахрда ҳокимиятни ўз қўлига олган Амир Темур Мўғулистон (Шарқий Чигатой улуси ёки Жета)га қарши тинимсиз урушлар олиб борди. Б.Аҳмедовнинг фикрича, бундан мақсад

Мўғулистонни Мовароуннаҳрга қўшиб олиш ёки Чигатой улусини қайта тиклаш бўлган[1,212]. Шу билан биргаликда эндиғина вужудга келган давлатнинг шарқий чегаралари хавфсизлигини таъминлаш масаласи Амир Темур олдидаги муҳим сиёсий вазифалардан бири эди. Мўғулистонда юз берайтган сиёсий курашлар темурийлар давлатига ҳам таъсир кўрсатиши аниқ эди. Шарқий Чигатой улусининг асосчиси Туғлуқ Темурхон 1363 йили вафот этгач, унинг вориси бўлмиш Илёс Хўжахон (1363-1368 йй) ҳам тез орада оламдан ўтди. Мўғул ривоятларига ва оғзаки манбаларга асосланган Муҳаммад Ҳайдар Мирзонинг “Тарихий Рашидий” асарига кўра, Илёс Хўжахон қўл остидаги амирлардан бўлган Қамариддин ҳали хон вафот этмасдан туриб, унга қарши исён кўтарган ва ўзини “хон” деб эълон қилган[5,96]. Унинг бу иши Чингизхон (1206-1227 йй)нинг “Ясо” қонунларига мос келмаган. Зеро, у хон авлодидан эмасди. Бу, табиийки, Амир Темурнинг норозилигига сабаб бўлган. Амир Темур ҳам ҳеч қачон ўзини хон деб эълон қилишга жазм этмаган эди. Икки давлат ўртасидаги муносабатларнинг бузилиши Мўғулистонга қарши бир неча маротаба ҳарбий юришлар ташкил этилишига олиб келди.

Амир Темурнинг бу мамлакатга биринчи марта бостириб кириши 1371 йилда амалга оширилган[6,116]. 1375 йил баҳорида ҳам Қамариддин устига юриш қилиниб, кейинги йили Амир Темурнинг Хоразмга қилган ҳарбий юриши пайтида эса Мўғулистонга баъзи саркардалар бошчилигига қўшин жўнатилади[4,77-80]. Ушбу урушларнинг барчасида Амир Темурнинг қўли баланд келган. Аммо, бу шарқий ҳудудларнинг хавфсизлигини таъминлаш учун етарли бўлмади. 1377 йилда Қамариддин Андижонга бостириб киради[12,100-102]. Гарчи, Қамариддин мағлубиятга учраса ҳам Амир Темур қўшинлари уни қўлга тушира олмаган. Унга қарши 1383 йилда ҳам юриш қилинади. 1391 йилда Қамариддин Ўзганга бостириб кириб, яна енгилган ва қайтиб кетган. Амир Темур “беш йиллик уруш” билан бандлигига, 1394 йили ҳам у шарқий чегараларга хужум қиласи[6,116]. Бу тўқнашувларнинг ҳеч бирида Қамариддин

ғалабага эришмайди. Аммо, Амир Темур Қамариддинни узил-кесил мағлуб этишга ҳам муваффақ бўла олмаган.

1389 йили Мўғулистанда Туғлук Темурхоннинг ўғли Хизр Хўжаон ҳокимият тепасига келди. Амир Темур ва Хизр Хўжаонларни умумий рақиб – Қамариддинга қарши кураш боғлаб турса ҳам, дастлаб икки хукмдор муносабатлари дўстона руҳда бўлмаган. Шу сабабли 1389 йилнинг ўзидаёқ Хизр Хўжаонга қарши уруш ҳам бўлиб ўтган. Шарафиддин Али Яздийнинг ёзишича, Амир Темурга хизмат қилган бекларнинг қистови бу юришга сабаб бўлган[4,124-126]. Тарихий адабиётлардаги маълумотлар таҳлили 1397 йилга келиб икки ўртада муносабатлар ижобий тус олганлигини кўрсатади. Амир Темур Хизр Хўжаоннинг қизи Тўкал хонимга уйланиши натижасида икки ўртадаги тинчлик мустаҳкамланди. Еттисув минтақаси ҳарбий юриш даврида темурийлар қўшинини отлар билан таъминлашда муҳим аҳамият касб этарди. Хизр Хўжаон ҳам ўз давлатининг ғарбий чегаралари хавфсизлигини таъминлаш орқали эътиборини шарқий ўлкаларга қаратиш имкониятига эга бўлади. “Тарихи Рашидий”да унинг Қорахўжа ва Турфон шаҳарларига қарши ғазот эълон қилиб, ушбу шаҳарларни Хитой таъсиридан чиқариб олганлиги ҳамда аҳолини исломга киритганлиги ҳақида ҳикоя қилинади[5,117]. Айни шу даврда Амир Темур давлати ва Мин империяси ўртасидаги муносабатларнинг кескинлашуви шароитида Хизр Хўжаон билан иттифоқ ўрнатиш темурийлар давлати учун қулайлик яратарди. Шунингдек, бўлажак Ҳиндистон ҳарбий юриши ва “етти йиллик уруш” даврида шарқий чегараларда тинч-осойишталикнинг сақланиши Амир Темурнинг Яқин Шарқда эркин фаолият юритиши учун зарур эди. Бу зарурият икки ўртада иттифоқ тузилишига сабаб бўлган.

Амир Темурнинг Шарқ сиёсати фақатгина Шарқий Чигатой улуси билан чекланиб қолмаган. Соҳибқирон Хитойда эндиғина ташкил топган Мин империяси ҳамда Шимолий Юань мўғуллари ўртасидаги муносабатларнинг ривожини мунтазам кузатиб борган. Эслатиш жоизки, мўғулларнинг Хитойдаги

Юань сулоласи ҳукмронлигига қарши Чжу Юанъчжан бошчилигига 1351-1368 йилларда юз берган қўзғолон натижасида Мин сулоласига асос солиниб, Чжу Юанъчжан (император Хунъу) бу сулоланинг биринчи ҳукмдорига айланган эди. Лекин, мўғулларнинг Юань давлатини тўла яксон қилишга эришилмади. 1372 йилда Мин ҳарбийлари мўғулларга ҳужум қилиб, уларнинг пойтахти – Қорақурум шаҳрини ёқиб юбордилар. Бу уруш 1388 йилгача давом этиб, император Хунъу Шарқий Мўғулистонни вақтинча ўз тасарруфига киритишга муваффақ бўлган[2,200]. Лекин, Мўғулистоннинг шимолий ва ғарбий қисмидаги (ҳозирги Ташқи Мўғулистон) аҳоли Мин таъсирини тан олмадилар ва ўзаро душманлик рухи давом этаверган. Улардан сал ғарброқдаги яйловларга жойлашиб олиб, ўз давлатига асос солишга интилаётган ойратлар эса ҳам Хитойга, ҳам Шимолий Юань мўғулларига нисбатан адилар[11,223].

Хитойнинг шимоли-ғарбий вилоятларига ойратлар доим хавф солиб турардилар. Мамлакатнинг ғарбий сарҳадларида вужудга келган кичик мустақил ҳокимликлар – Хами, Турфон, Бешбалиқ хитойликлар учун ойратларга қарши курашда иттифоқчи бўлиши мумкин эди. Шунинг учун Мин қўшинлари томонидан бу худудларда фаол ҳарбий ҳаракатлар олиб борилмаган. Айни пайтда, ўзаро дипломатик ва савдо муносабатлари йўлга қўйилган. Масалан, Кан-Чжэ раҳбарлигига элчилар гурухи Бешбалиққа жўнатилган[9,56]. Чунки, Шарқий Туркистондаги бу кичик давлатлар Мин империясига иттифоқчи бўлиши билан бирга хитойликлар армиясини отлар билан таъминлаш учун олиб борилган савдо-сотиқда муҳим ўрин тутарди. Хами давлати ҳам император саройи билан иқтисодий соҳада яқин муносабатлар ўрнатишга киришган. Бу эса баъзи ҳолларда Хитойнинг шимолдаги рақиблари билан Хами ўртасида келишмовчиликларни келтириб чиқарган. Натижада 1404 йилда вассалликни тан олиб, императордан “ван” унвонини қабул қилган Энгке Темур 1405 йил бошларида мўғуллар томонидан ўлдирилди[8,248]. Ойратлар томонидан ҳам Хамига доимий тарзда ҳарбий-сиёсий тазийк давом этган.

1388 йилда мұғуллар ҳукмдори Тұғус Темур (1378-1388 йй, унинг номи мусулмон манбаларида Дүккүз Темур, Дақу Темур, Тұқтемур тарзида, хитой манбаларида эса То-гу-сы дея қайд этилади) үлдирилгач, Шимолий Юань давлатида таҳт учун курашлар бошланиб кетади[7,31]. Ички низолар даврида қисқа вақт давомида салтанатда бир неча ҳукмдор кетма-кет таҳтга ўтиради. Низомиддин Шомий ўз асарида Тұғус Темурдан сўнг ҳукмронлик қилган Анка қоон, Илик қоон номларини қайд этган[12,25]. Мирзо Улугбек эса ўзининг “Тұрт улус тарихи” асарида Тұғус Темурдан кейин ҳукмронлик қилган яна бошқа бир қанча ҳукмдорлар исмларини санайды. Улар Ясурдор (1388-1392 йй, аслида Есудерхон), унинг ўғли Аника (ваф. 1392, Энгекхон, бу Хами ҳукмдори эмас), Аланг (1392-1399 йй, Элбегхон), Турон Темур (1400-1402 йй, Гун Темурхон), Ўқтемур (1402-1408 йй, Ўруғ Темурхон) ва ҳоказо[10,215-216]. Шимолий Юань давлатида пайдо бўлган бундай қулай сиёсий вазият Мин императорига қўл келганлиги шубҳасиз.

Шимолдаги вазият тез ўзгариб турган. 1399 йилда Шимолий Юань ҳукмдори Элбегхон қабила етакчиларидан бири – Угэчи томонидан үлдирилади[3,546]. Натижада Шимолий Юань мұғуллари вақтинчалик ойратларга қарам бўлиб қолдилар. Ички низолар ва ойратлар билан урушлар бир неча йиллардан бери давом этиб келганлигига асло шубҳа йўқ. Чунки, 1398 йилдаёқ Шимолий Юань сулоласи тож-тахти учун курашларда енгилган мұғул хонзодаси Тайзи ўғлон Амир Темур хузурига келади. Бу даврда Хитой билан Амир Темур давлати орасидаги муносабатларга дарз кетиб улгурган эди. Шарафиддин Али Яздий маълумотларида Тайзи ўғлон Амир Темур хизматига кириши, унинг 1404 йил кузида Конигилдаги тўй тантаналари пайтида ҳам темурийлар саройида бўлганлиги қайд этиб ўтилади[4,290]. Яздий фикрларидан Тайзи ўғлон Хитой ҳарбий юриши даврида Амир Темурнинг яқин маслаҳатчиларидан бўлиши режелаштирилганлигини тушуниб олиш мумкин. Эҳтимолки, Тайзи ўғлонга, Шимолий Юань тахтини олиб бериш ваъда

қилинган бўлиб, бу мўғулларнинг Амир Темур билан ҳамкорликда Хитойга хужум қилиши кераклигини англатарди.

Хулоса қилиш мумкинки, Амир Темур давлати ва Мин империяси ўртасидаги муносабатлар кескинлашувига бир нечта омиллар таъсир ўтказган. Амир Темур ўзининг Шарқ сиёсатини амалга оширишда Шарқий Чигатой улуси ва Шимолий Юань минтақасидаги тарихий воқеаларни доимий равишда кузатиб турган. Шунингдек, у Хитойдаги ҳокимиятдан мосуво бўлган Улуг Юрт улуси хонлари билан иттифоқчиликда ҳаракат қилишни режалаштирган эди. Ушбу масалаларнинг чукур тадқиқ этилиши тарих фани мутахассислари олдида турган мухим ва долзарб масалалардан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Аҳмедов Б. Қирғизистоннинг XV асрдаги сиёсий тарихини ўрганишга доир // Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – – Б.211-216.
2. Бичурин (Иакинф) Н.Я. Статистическое описание Китайской империи. – СПб.: Типография Эдуарда Праца, 1842. – 280 с.
3. Груссэ Р. Империя степей. Аттила, Чингиз-хан, Тамерлан. Перевод Х.Хамраева. – Алматы, 2006. – 592 с.
4. Йаздий Шарафуддин Али. Зафарнома // Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков; Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 1997. – 384 б. + 16 илова.
5. Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий / Таржимонлар: Ваҳоб Раҳмонов, Янглиш Эгамова, Масъул муҳаррир: академик Азиз Қаюмов //. – Т.: “Sharq”, 2010. – 720 б. + 32 зарв.
6. Натанзий Муиниддин. Мунтахаб ут-таворихи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси) / Муиниддин Натанзий; форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ғ.Каримий; масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Т.: O‘zbekiston, 2011. – 264 б.

7. Покотилов Д. История восточных монголов в период династии Мин 1368-1634 (по китайским источникам). – СПб: Типография Императорской Академии Наук, 1893. – 232 с.
8. Rossabi M. The Ming and Inner Asia // The Cambridge history of China, vol.8. The Ming dynasty 1368-1644, part 2. / ed. by Denis Twitchett and Frederick W.Mote. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P.221-271.
9. Ртвеладзэ Э.В. Китайские посольства ко двору Амира Темура и Темуридов // Общественные науки в Узбекистане, № 7-10. – Т.: Издательство “Фан” Академии Наук Республики Узбекистан, 1996. – С.54-61.
10. Улуғбек Мирзо. Тўрт улус тарихи. (Б.Аҳмедовнинг кириш сўзи, изохлари ва таҳририда; Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқ. тарж.) – Т.: Чўлпон, 1993. – 352 б.
11. Chan, Hok-lam. The Chien-wen, Yung-lo, Hung-hsi, and Hsuan-te reigns, 1399-1435 // The Cambridge history of China, vol.7. The Ming dynasty 1368-1644, part 1. / ed. by Frederick W.Mote and Denis Twitchett. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P.182-304.
12. Шомий Низомиддин. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 528 б.

*Xayrullayev Umidjon Fayzulla o‘g‘li
BuxDU “Tarix va madaniy meros” fakulteti magistranti*

AMIR TEMUR FAOLIYATINING YEVROPALIKLAR TOMONIDAN DASTLABKI E’TIROFI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning hayot faoliyati Yevropa jamoatchiligi tomonidan o‘rganilib, tadqiq qilinishining dastlabki davrlari haqida so‘z boradi. E’tiborga molik tomoni shundaki, Yevropa muarrixlar tomonidan yaratilgan va to‘plangan manbalarning aksariyati hali o‘rganilmay o‘z tadqiqotchisini kutib yotibdi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Jan Busiko, Venetsiya arxivi, Jan (Ioann) Grinlo, Rui Gonsalez de Klavixo, “Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi”.

O‘z davrining buyuk siy়mosi, mohir sarkarda, yurtimizda mo‘g‘ullar istibdodiga barham bergen, o‘zining o‘chmas nomini abadiyatga muhrlagan, faxrimiz, g‘ururimiz, xalqimiz dahosining timsoli va ma’naviy qudratimiz ramzi bo‘lgan Amir Temur faoliyati va shaxsiga qiziqish XV asrdan boshlandi. 1401-yilning avgustda Rim papasi va Fransiya qirolining Amir Temur huzuriga yuborgan elchisi Jan (Ioann) Grinlo Amir Temur suhbatlarida ko‘p marta ishtirok etgan. Uning saltanatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va bu haqda asar yozgan birinchi yevropalik muallif bo‘ladi. Uning asari "Temur va uning saroyiga oid xotiralar" deb ataladi. Monax va elchi Jan (Ioann) Grinloning asari fransuz va lotin tillarida yozilgan bo‘lib, 23 bobdan iboratdir. Muallif Temurning hayoti va faoliyati haqida imkon qadar batafsilroq ma’lumot berishga harakat qilgan. Yepiskop Jan (Ioann) Amir Temurni yaqindan tanigan, uning hayoti va faoliyati bilan yaxshi tanish bo‘lgan. 1403-yil may oyining boshida Parijda bir ruhoni paydo bo‘lib, o‘zini Amir Temurning elchisi deb tanishtiradi. Chindan ham u Amir Temurning mo‘jazgina tamg‘asi bosilib, zarhal harflar bilan bitilgan ishonch yorlig‘i – maktubini Fransiya qiroli Karl VI ga topshiradi[1, 14].

Jan (Ioann) tashrifning ikki sababini bayon qiladi: birinchisi, Amir Temurning sulton Boyazid ustidan qozongan g‘alabasini ma’lum qilish; shu o‘rinda u turk sultonining asir olinib, uning tutqunidan ozod qilingan nasroniy bandilarni Amir Temur Yevropaga qaytarib yuborganini va yana boshqa bandilar topiladigan bo‘lsa, xuddi shunday yo‘l tutajagini bildiradi. Tashrifining ikkinchi maqsadi Fransiya qirolini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish va u haqda Amir Temurga so‘zlab berish. Yepiskopning gapiga qaraganda, uning elchiliga nasroniy diniga ikki qulay imkoniyat yaratadi: birinchidan, bu elchilik ikkala din vakillariga ham o‘zaro erkin savdo qilish imkoniyatini bersa, ikkinchidan, agar qirov va gersoglar rozi bo‘lishsa, bu qulayliklarni shartnomaga yoki ahdlashuv shaklida rasmiylashtirish mumkin bo‘ladi.

Fransiyada Sohibqiron hayotligidayoq, paydo bo‘lgan ilk asarlardan biri Fransiya Marshali Jan II Busiko (1365-1421) qalamiga mansub bo‘lib, u «*Le Livre des faits du marechal Boucicaut*» («Marshal Busiko amalga oshirgan ishlar») deb ataladi. Sohibqiron haqida Jan II Busikoning xotiralari O‘zbekistonda hali o‘rganilmagan[2, 235]. Karl VI 1401 yili Genuyaga obru-e’tiborli zodagonlardan biri, qattiqqo‘l va sadoqatli ijrochi Marshal Busikoni hokim etib tayinlaydi. U o‘z xabarchilari orqali Osiyoda bo‘layotgan voqeа-hodisalardan ogoh bo‘lib, o‘z navbatida Karl VI ga muntazam axborot bergen. Aynan mana shu sababdan Fransiya qiroli Amir Temurning o‘z saltanatining g‘arbiy hududlarida joylashgan davlatlar ustiga zafarona yurishi va u bilan Boyazid o‘rtasida to‘qnashuv sodir bo‘lishidan xabardor edi. Busiko o‘z kitobining XXXVII bobida Amir Temur shaxsiga to‘xtalib, Sohibqiron va uning qo‘smini haqida shunday yozadi: «*Amir Temur bag‘oyat mard odam edi va taqdir uni yana bir oz qo‘llab-quvvatlaganida butun yer yuzini zabit etardi, ammo bu unga nasib etmadi. Zero, hammaga ma’lum bir maqolda aytilganidek, «har bir ish Xudoning irodasi bilan». Biroq, u quroq bilan ulkan ishni amalga oshirdi, u o‘ttiz yil davomida na jang qilishdan to‘xtadi, na bir shaharda tuzukroq tin oldi, aksincha, har doim mo‘jizakor qo‘smini bilan dalayu dashtda yurdi va lashkarlari orasida shunday qat’iy tartib urnatdiki, ularning kundalik hayoti uchun zarur bo‘lgan barcha narsani o‘zi bilan birga olib yurdi. U amalga oshirgan mo‘jizalar, u kechib o‘tgan ulkan daryolar va uning mehnatda toblangan odamlari qilgan ishlar haqida maftunkor asarlar yaratish mumkin*[3, 50]».

Amir Temur va uning yurishlari haqida italiyalik tujjorlar Paole Zane, Beltramus de Mignanelli va Emmanuil Paole hamda ispan elchisi Rui Gonzalez de Klavixo, asirga tushgan nemis askari Iogannes Shiltberger va boshqalar ham o‘z xotiralarini yozib qoldirganlar[4, 26]. Emmanuil Paole arab tilini mukammal bilgan. 22 yil moboynida Misr mamluklari orasida yashagan hamda Misr sultonni Farajning yaqin kishisi bo‘lgan. U Amir Temurning Damashq yurishiga oid ma’lumotlar to‘plagan. Uning Amir Temur haqidagi ma’lumotlari Venetsiya arxivida saqlanmoqda va hozirgi kunga qadar nashr qilinmagan. Paole Zane esa 1400 yillar

Venetsiyaning Damashqdagi konsuli bo‘lgan. U Venetsiya senatining topshirig‘iga muvofiq Amir Temur haqida ma’lumotlar yiqqan. Uning to‘plagan materiallari ham hozirgi kunda Venetsiya arxivida saqlanmoqda va nashr etilganicha yo‘q.

Temurning hukmronlik davri bilan bog‘liq yana bir muhim tarixiy manba – bu ispaniyalik elchi Rui Gonsalez de Klavixoning kundaliklaridir. De Klavixo 1404 yilda Lion va Kastiliya qiroli Genrix III ning topshirig‘i bilan Samarqandga keladi. Uning asari “*Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi*” deb ataladi. G‘arbda Uyg‘onish (Renessans) davrida Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar nashr etildi. Klavixoning («Buyuk Amir Temur tarixi va elchilik safari bayoni») asari 1582 yil Seviliyada nashr etildi. Asar undan keyin yaratilgan tarixiy va badiiy asarlar uchun asosiy manba bo‘lib qoldi. Jumladan, Pero Meksika o‘zining «*Silva de varia leccion*» («Turli ma’ruzalar majmuasi») to‘plamiga kirgan «*Vida delgran Tamerlan*» («Buyuk Amir Temur hayoti») nomli essesida Klavixodan juda ko‘p narsa olgan[5, 83]. Meksikaning bu asari XVI asrning o‘zida ikki marta ingliz tiliga tarjima qilingan. Uni dastlab Tomas Fortesku (Thomas Fortescue, The Forests, 1571), so‘ng Jorj Uetston (George Whetstone, English Myrror, 1586) tarjima qilganlar.

1553 yil italyan muarixi Petro Perrondinining «*Magni Tamerlani Scytarum Imperatoris Vita*» («Skiflar imperatori Amir Temurning hayoti») asari e’lon qilindi. Ahmad ibn Arabshohning asari ham shu asrda Yevropa tillariga, jumladan, abbat Jan dyu Bek (Jean du Ves) tomonidan «*Histoire de grand Tamerlan tiree des monuments antiques des Arabes*» («Arablarning qadimiy yodgorliklaridan olingan buyuk Amir Temur tarixi») nomi ostida fransuz tiliga tarjima qilindi. Amir Temurning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab manbalar hali to‘lig‘icha tadqiq etilmagan, ayniqsa, lotin tilida yozilgan manbalar shular jumlasiga kiradi. O‘z davrining buyuk siymosi Amir Temur Yevropada e’tirof etilgani shu manbalarning o‘zi isbotlab turibdi. Zero, Jan Busiko aytganiday “*Amir Temurga yana bir imkoniyat berilganda butun dunyoga hukmronlikni o‘z qo‘liga olib adolat o‘rnatardi*”.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Али Мұхаммад. Амир Темур солномаси. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 52 б.
2. «Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни» мавзуидаги ҳалқаро конференция тезислари. 1996 йил 23-26 октябрь, Тошкент. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 124 б.
3. Амир Темур жаҳон тарихида. – Т.: Шарқ, 1996. – 296 б.
4. Баҳодир Эрматов. Амир Темур Ғарбий Европа адиблари нигоҳида. – Т.: «Navro‘z», 2019.
5. Ҳаким Сатторий. Ҳазрат Соҳибқирон. – Т.: «Sharq», 2016.

*Жумаева Мамлакат Ҳўжамуродовна
Жондор тумани 1-умумтаълим мактаб ўқитувчиси*

АМИР ТЕМУР СИЁСАТИДА ДАВЛАТ ХАВФСИЗЛИГИ МАСАЛАСИ

Аннотация. Ушбу маколада Амир Темур ҳукмронлиги даврида дунёнинг турли минтақаларидағи мамлакатлар билан савдо-иктисодий дипломатик ҳамкорлик ўзаро муносабатларнинг хавфсизлиги масаласи таҳлил қилинади.

Калит сўзи: Геосиёsat, геосиёsий омиллар, давлатнинг куч-кудрати, геосиёsий кучлар маркази, геосиёsий манфаат, давлатнинг геосиёsий мавқейи.

Амир Темур Евроосиё ҳудудида барқарор хавфсизлик ва ҳамкорликни вужудга келтириш, ташқи таҳдидларга биргаликда қарши курашиш мухим омил эканини тेरан англаған давлат арбоби ҳисобланади. Шунинг учун ҳам Мовороуннаҳр таҳтини эгаллаган илк куниданоқ бу масалага жиддий эътибор қаратади. Дастлаб мамлакат хавфсизлигига хавф солувчи ички ва ташқи таҳдидларни олдини олиш мақсадида ҳарбий ислоҳот ўтказади[1]. Бундан мақсад, яхши қуролланган кучли мунтазам армияга эга бўлиш эди.

Буюк саркарда “амир” ва “амир-ул умаро” яъни бош амир каби юқори даражали ҳарбий унвонлар жорий қиласи. Бундай олий даражадаги унвонларга

эга бўлган иқтидорли саркардаларга вилоят ҳокимлиги ёки ноиблигини инъом этган[2]. У армиясини ўнликлар, юзликлар, мингликлар, туманлар каби аскарий бирикмаларга бўлган. Қўшин пиёда ва отлик аскарлардан ташкил топган эди. Унинг қўшинида ҳар бир жангчи жанг қилиш услубларини яхши билиши, ҳарбий интизомга қаттиқ риоя қилиши, жангда аёвсиз ва довюорак бўлиши лозим бўлган. Амир Темур жангларда жасорат кўрсатган амирлар ва аскарларга алоҳида эътибор билан қараган ва уларнинг даражасига қараб маош ҳам белгилаган[3]. Шу тариқа у мамлакат хавсизлигини таъминлай оладиган қудратли армия тузишга муваффақ бўлди. Қўшин ўз даврининг яхши қуроллари билан таъминланиб, жанговорлиги оширилди.

Амир Темур хавсизликни таъминлаш мақсадида мамлакат атрофида рўй берадиган воқеалардан огоҳ бўлган, ҳамда хавфни ўз вақтида бартараф этиш масаласига жиддий эътибор берган ва бунга эришган. Қўшни давлатлар тўғрисидаги керакли маълумотларни Амир Темур 1000 кишилик енгил бўлинмалар воситасида тўплаган. Бу бўлинмалар сувсиз чўлларда туж мениб, бошқа жойларда эса отлик ва пиёда ҳолда ҳаракат қилганлар. Улар томонидан келтирилган маълумотларга қараб Амир Темур тегишли чора тадбирларни кўрган. Шу боис ҳам савдо-сотикқа, айниқса, хорижий мамлакатлар билан олиб бориладиган савдо-сотикқа, унинг ривожига алоҳида эътибор қаратган. "Тузуклар"да бу ҳақида мана буларни ўқиймиз: "*Ҳар бир мамлакатга ва диёрга савдогарлар ва карvonбошилар тайинладимки, улар қаерга бориши масин, Хитой, Хўтнан, Чинумочин, Ҳиндистон, араб мамлакатлари, Миср, Шом, Рум, Жазоир, Фарангистон, у ерларнинг нафис матолари ва муносиб тухфаларидан келтиришисин. Ўша мамлакатларда яшовчи кишиларнинг ҳол-аҳволи, туриш-турмушилари ҳақида менга хабар олиб келсинлар. Ҳар бир мамлакат ҳукмдорининг ўз раиятига қандай муомилаю муносабатда эканлигини аниқласинлар*[4]". Буюк аждодимиз бундан олти аср аввалроқ бирор давлат қўшнилари билан савдо алоқалари қилмасдан ёки ҳамкорликсиз, ўз қобиғида ривожлана олмаслигини яхши тушунган. Шу сабабли у Европа ва Осиёни

боглашга хизмат қилган улкан ишларни амалга оширган. Биринчи президентимиз таъкидлаганидек, – "Амир Темурнинг тарихий хизмати яна шундан иборатки, унинг ҳаракатлари туфайли Осиё ва Европа давлатлари тарихда биринчи марта ягона жуғрофий-сиёсий маконда эканлигини ҳис этди[5]". Буюк аждодимизнинг Франция қироли Карл IV га ёзган хатидаги қўйидаги фикри дикқатга сазовордир: “Сиз ўз савдогарларингизни менинг салтанатимга юборинг. Биз уларни илиқ қарши олиб иззат-икром кўрсатамиз. Биз ҳам ўз савдогарларимизни сизнинг юртингизга йўллаймиз. Сиз ҳам уларга ҳурмат кўрсатинг. Уларга ортиқча тазииклар ўтказилишига йўл қўйманг. Сизга бундан бўлак талабимиз йўқ. Зоро, дунё савдо аҳли ила обод бўлајсак[6]”. Кўриниб турибдики, буюк саркарда жаҳондаги барча мамлакатлар бир-бирлари билан ўзаро манфаатли барқарор иқтисодий муносабатлар ўрнатиб яшашгина ривожланиб боришини англаш етган эди. Амир Темурнинг қолдирган мероси ва ўйтлари нафақат ўз даври, балки келгуси авлодлар учун ҳам катта аҳамият касб этади. Демак, биз учун мамлакатимизда Амир Темурдан мерос бўлиб қолган геосиёсий йўл қайта тикланмоқда деб таъкидлашимиз мумкин. Чунки Президентимиз Ш.М. Мирзиёев томонидан олиб борилаётган ташқи сиёsat йўналиши минтақамиз орқали Узоқ ва Яқин Шарқни, Ҳиндистон ва Россияни бирлаштирган Буюк Ипак йўлини ҳамда "Бир макон бир йўл" концепциясини қўллаб қувватлаш орқали дунё тамаддунида Марказий Осиёнинг тарихий мавқеини қайта тиклашга қаратилган. Бу йўл эса Ўзбекистоннинг ўз имкониятларидан тўла фойдаланишга, ўзаро англашув мухитини мустаҳкамлашга замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Сайдов А. "Амир Темур ва Европа" // Миллий тикланиш. 2010. – №14. 7 апрел.
2. Иванин И. "Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур" – Т.: Фан, 1994. – 238 б.

3. Мұхаммаджонов А. Амир Темур ва темурийлар салтанати" – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. – 126 б.
4. Темур тузуклари. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-манбаа бирлашмаси, 1991. 110-б.
5. Каримов И. "Амир Темур ҳақида сўз" Т.: Ўзбекистон, 1996. – 110 б.
6. Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовороуннаҳр тарихи. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва саъат нашриёти, 1990. – 92 б.

*Tojiyeva Ma'rifat Rustamovna
Olot tumanidagi 12-maktab o'qituvchisi*

AMIR TEMURNING IQTISODIY SIYOSATI

Annotatsiya: Sharq iqtisodiy taraqqiyotida Amir Temurning iqtisodiy qarashlar muhim o'rinni tutgan. Amir Temur barcha odamlarga ishlash uchun imkoniyat yaratib bergan.

Kalit so'zlar: iqtisod, siyosat, ma'naviyat, ma'rifat, "Temur tuzuklari", faylasuf.

Sharq mutafakkirlari, faylasuflari qatori buyuk sarkarda Amir Temur qoldirgan qutlug' meros bugungi kun kishisiga ham katta ma'naviy-ma'rifiy ta'sir ko'rsatmoqdaki, buning mazmunini anglash, tasavvur etish har bir fuqaroning vatanparvarlik burchidir.

Amir Temur va temuriylarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faoliyatlaridagi muhim yo'l-yo'riqlar, iqtisodiy g'oyalari, qarashlar, tasavvurlardan Sharq mamlakatlarida emas, butun Yevropada ham keng foydalanganlar.

Sharq iqtisodiy tarakkurining rivojlanishida ulug' bobokalonimiz sohibqiron Amir Temurning g'oyalari, qarashlari va tafakkuri, u shaxs tomonidan ishlab chiqilgan, iqtisodiy-ijtimoiy hayotda amalga oshirilgan va qo'llanilgan qoida, tartib, usul, odat va qonunlar o'sha davr iqtisodiy siyosatida beqiyos katta tarixiy

ahamiyatga egadir. Bu iqtisodiy qarashlar va g‘oyalarning o‘ziga xos ulug‘vorligi eng avvalo shundaki, ular mavhum, xayoliy bo‘lmasdan, balki real tarixiy taraqqiyotdan kelib chiqqan holda namoyon bo‘lgan. Mana shuning uchun ham 686 yildan ortiqroq vaqt o‘tganiga qaramasdan, hanuz o‘zining amaliy-hayotiy ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Albatta, davrlar o‘tishi bilan ular rivojlanib, takomillashtirilib kelinganligi tarixdan ma'lum.

Amir Temurning iqtisodiy siyosati "Temur tuzuklari" asarida, Boburning "Boburnoma"larida va boshqa ko‘pgina Amir Temur, temuriylar to‘g‘risida yozilgan tarixiy manbalarda har tomonlama bayon etilgan. Ularda Sohibqironning mamlakatni boshqarishi, uni rivojlantirib borish qoidalari, tamoyillari, yo‘l-yo‘riqlari o‘z ifodasini topgan. Bu asarlarda mamlakat iqtisodiyotini tashkil etish, barqarorlashtirish, tartibga solib borish, yuksaltirib borishga oid qimmatli iqtisodiy tavsiyalar, g‘oyalar, qarashlar, yo‘l-yo‘riqlar tizimi bayon etilgandi. Amir Temur barcha odamlarga kasbhunar o‘rgatish, ish bilan ta'minlash, dehqonchilik, hunarmandchilik va tijorat ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishga yaxshi imkoniyatlar yaratib bergan. "Tuzuklar"da "Kasbhunar va ma'rifat ahllariga sultanat korxonalaridan ulush berilsin", bu sarmoya asosida "bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o‘z ahvoli va kasb-koriga yarasha yo‘l tutsinlar" degan tavsiyalar berilgani yana bir bor uning munosib, o‘z xalqiga g‘amxo‘r podshoh bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Taqdir taqozasi bilan "Sarmoyasi qo‘lidan ketib qolgan savdogarlarga o‘z sarmoyasini qaytadan tiklab olish uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilishi" esa mamlakatda farovonlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat olib borilganidan darak beradi.

Amir Temur sultanatida qishloq xo‘jaligi asosiy iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini shundan bilish mumkinki, Sohibqiron dehqonchilikni rivojlantirish uchun shunday farmoyish beradi: "Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo‘lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug‘ va asbob tayyorlab berilsin". Bunday insonparvar g‘oyalarni va siyosatni tarixiy manbalarda kamdan-kam uchratamiz. Ulkan mamlakat xalqini, hisobsiz sipohiyлari va

xizmatkorlarni boqadigan asosiy daromad manbai bu qishloq xo‘jaligi ekanligini Temur teran anglagan.

Amir Temur aholining tinch va osoyishta yashamog‘i, oilalarning butligi uyjoy masalasiga juda bog‘liqligini his etgan holda, "*Agar fuqarodan birining uyimorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarini yetkazib berib, unga yordam berilsin*" deb farmon beradi. Yuqorida bayon etilgan farmonlar va iqtisodiy siyosatning qoida hamda yo‘l-yo‘riqlari o‘sha davrlarda iqtisodiy ta‘lim-tarbiya davlat miqyosida yo‘lga qo‘yilgan va amalga oshirilganini bildiradi. Bu tamoyillar hozirgi davrda ham Respublika mustaqilligini mustahkamlashda, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish jarayonida biz uchun muhim o‘git va saboq, tarixiy yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Eng muhimi shundaki, Amir Temurning bunday iqtisodiy siyosati G‘arb mamlakatlaridan 300-400 yillar oldinroq amalga oshirilgan.

Amir Temur soliq siyosatini oldingi davrlarda yig‘ilgan qonun-qoidalarni har tomonlama o‘rganib va Islom dini tavsiyalariga amal qilgan holda, shuningdek, o‘z davrining xususiyatidan kelib chiqib olib bordi.

Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida, jumladan Markaziy Osiyoda davlat tomonidan undirilgan yer solig‘i xiroj deb yuritilgan.

Xiroj olish dastavval arab xalifaliklari hududlarida "juzya" atamasining sinonimi sifatida qo‘llanilib, musulmon bo‘lmagan aholi bilan bir qatorda yer-suvga ega bo‘lgan musulmonlardan ham undirilgan. Musulmon qonunshunoslari xirojni "Xiroj-musaha" (yer maydoni birligidan undirilgan) va "Xiroj-muhasama" (yerning sifati va sug‘orish usullariga qarab, hosilning to‘rtadan biri, uchdan biri yoki ikkidan biri qismi hajmida undirilgan)ga qarab ajratganlar.

Xiroj (solih) undirish Markaziy Osiyoda VII asrda arablar tomonidan joriy qilingan edi. Xiroj yig‘ish uchun har bir viloyatga sarkor, qishloqqa devonbegi va kotib tayinlangan edi. Sohibqiron ham taxtga o‘tirishi bilan yer-suvdan olinadigan xirojni mahsulot shaklida (asosan don) va pul (oltin yoki kumush) shaklida ham undirib olishni joriy etgan edi.

Amir Temurning soliq solish, undirish va savdogarlardan boj olish, ular daromadidan soliq yig‘ib olish siyosati nihoyatda adolatli bo‘lganligi uchun har bir viloyatda va uning tasarrufidagi mamlakatlarda mahalliy aholi soliq solish jabri va nohaqligi yuzasidan noroziliginibildirmagan.

Qo‘shni mamlakat halqlari o‘z hukmdorlarining soliq olish siyosatidan Amir Temurga shikoyatlar qilib kelganligi tarixiy manbalardan bizga ma'lumdir. Amir Temurning iqtisodiy siyosatida, iqtisodiy qarashlari tizimida soliq masalasi markaziy o‘rinni egallaydi.

Eng muhimi soliq tizimi orqali olib borilgan oqilona siyosat tufayli ham obodonli yuksalgan, ham xazina to‘liq bo‘lgan.

Amir Temurning ta'kidlashicha, agar xalq soliq tizimi orqali kambag‘allahadigan bo‘lsa, davlatning iqtisodiy qudrati pasayib, tanazzulga yuz tutishi tabiiydir. Xalqning farovon va boy-badavlat yashashi uchun mamlakatda adolatli soliq tizimi faoliyat ko‘rsatishini yaxshi anglagan edi. O‘z navbatida ko‘proq daromad topib odamlar boy bo‘lgan sari xazinaga soliq tushumi ham ko‘payib borgan.

"Temur tuzuklari"da aholidan olinadigan soliqlar ularning ishlab topgan daromadlari darajasiga qarab adolatli belgilanishi, aholining qaysi birlari el-yurt, tuman va shaharlar obodonligi yo‘lida, madaniyat va ma'rifatning rivoji yo‘lida o‘z mol-mulki va sarmoyasini ayamay sarflasalar, ularga davlat soliq to‘lash borasida har xil yengillik imtiyozlar berishi lozimligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Amir Temur tasarrufidagi ulus (viloyat va mamlakatlar) hukmdorlarining alohida davlat apparati, mustaqil qo‘shini bo‘lib, ular o‘z hududlaridan undirib olingan hosilning uchdan bir qismini Samarqandga, davlat xazinasiga yuborib turgan va Oliy hukmdor harbiy yurishlarga chiqqanda o‘z qo‘shini bilan qatnashgan va yetarli oziq-ovqat, kiyim-aslohalar bilan ta'minlab turgan.

Amir Temur davrida soliq to‘lashdan ozod etilgan, imtiyozga ega bo‘lgan toifalar ham bo‘lgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xiroj sug'oriladigan yer uchastkalaridan olingan hosilning uchdan bir qismi, lalmikor (sug'orilmaydigan) yomg'ir suvi bilan yerdan olingan daromadning to'rtdan bir qismi hajmida undirib olingan. Bu ishlarni bajarish viloyatlardagi ikki vazirga topshirilgan. Biri undirilgan xiroj mol-mulkni yozib olib, aholining ahvolini tekshirib turgan, kirim daftariga yozib borgan. Ikkinchisi esa, chiqim daftariga yozib, yig'ilgan mol-mulklar (soliqlar)dan sipohiylar maoshiga taqsim qilgan.

Sohibqironning ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy faoliyatidagi yana bir muhim jihat shundaki, ijtimoiy himoya, kambag'al, kam ta'minlangan kishilarni va o'z xizmatini sidqi-dildan bajargan odamlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi mavjud bo'lgan. Amir Temur davlatidagi sipohiylar (harbiy) kishilarning har biri ko'rsatgan oliy xizmatlari uchun munosib taqdirlab turilgan. Oddiy sipoh maosh uchun bir bosh ot qimmatida maosh olgan, o'nboshi ikki ot qimmatida va shu tariqa lavozimi oshgan sari maoshi ham ko'tarilib boravergan. Urushlarda va boshqa ishlarda ko'rsatilgan alohida xizmatlari uchun ham mol-mulklar, turli qimmatbaho buyumlar, yer-suvar bilan taqdirlanishgan.

Amur Temur davrida juda katta obodonchiliq qurilish ishlari olib borildi. Yangi bog'lar bunyod etildi. Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar (g'ariblar istiqomat qiladigan joylar) qurildi, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar (karvon saroylar) bino qilindi, daryolar ustida ko'priklar tiklandi. Madrasalar qad ko'tardi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi taraqqiyot o'sha davrdagi boshqa mamlakatlarga nisbatan, ayniqsa, Yevropaga nisbatan ancha ilgarilab ketgan, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy sohalarda ancha yuqori darajaga erishilgan edi. Bularning hammasi Amir Temur davrida adolatli iqtisodiy siyosat amalga oshirilganligi tufaylidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo'riboy Ahmedov "Amir Temurni yod etib"
2. Marsel Brion "Menkim, sohibqiron – jahongir Temur"

3. Salohiddin Toshkandiy “Temurnoma”
4. Temur tuzuklari.

Baxromova Gulnoz Avezmurodovna
Olot tuman Xalq ta’lim bo’limi ijtimoiy fanlar metodisti

AMIR TEMUR – ADOLAT VA G‘URUR TIMSOLI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurni tarix zarvaraqlarida bitilgan barcha ishlari, xalqi va vatani yo‘lidagi jonbozligi yoritib berishga harakat qilingan. Bugungi kunda bu shaxs timsoli o‘sib kelayotgan yosh avlodga har tomonlama namuna ekanligiga shubha yo‘q. Ta’lim sohasida har bir fikr-mulohazalari asosiy qo‘llamna qilinib tarbiya darsliklari qo‘llanmasiga aylanishi zarur. Ushbu muammoni kelajakda artoflicha o‘rganish kerak, u zamonaviy islohot bosqichida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, adolat, g‘urur, ta’lim, tarbiya, islohot.

Amir Temur – buyuk davlat asoschisi. U Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan sultanatga asos soldi. Amir Temurning harbiy yurishlari, jangu jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni alohida ta’kidlash kerakki, uning faoliyati qo‘yilgan maqsad va rejalarji jihatidan ikki bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich (1360-1386)da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo‘lida kurashdi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo‘lgan mahalliy zodagonlardan iborat ijtimoiy kuchlar (mulkdor dehqonlar, harbiylar, hunarmandlar, savdogarlar va ruhoniylar) yordamida tarqoq mulklarni birlashtirish uchun kurash olib bordi. Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo‘lida, shubhasiz, ulkan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi ijobiy oqibatlarga olib keldi. Mamlakat

ichki kuchlarini va mo‘g‘ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida bo‘hronga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulayroq sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo‘jalikning asosi bo‘lgan dehqonchilikda muayyan siljishlar ro‘y berdi. Yangi-yangi ariq (kanal)lar qazilib, dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi.

Ta’lim sohasi mamlakatdagi asosiy e’tiborli tomon bo‘lgan. Amir Temur shaharlarda ilm-fan, madaniyatni rivojlantirish uchun ko‘plab ilmiy muassasalar qurishga amr qilgan. Madrasalarda diniy fanlar bilan baravar matematika, me’morchilik, astronomiya, adabiyot, tarix, musiqa kabi fanlarning o‘qitilishiga alohida e’tibor berilgan. «Temur tuzuklari»da aytilishicha, musulmonlarga diniy madrasalarda ta’lim berish, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars berish uchun sohibqiron tomonidan har bir shaharga olimlar va mudarrislardan tayin qilingan. Talabalarga o‘z davrining yirik allomalari dars berganlar. Madrasa mudarrislari ko‘p maosh to‘langan, ular farovon hayot kechirganlar. «Temur tuzuklari»da «*Sayyidlar, ulamoyu mashoyix, oqilu donolar, tarixchilarini e’tiborli kishilar hisoblab, hurmatlarini joyiga qo‘ydim. Ular bilan qimmatli fikrlashdim*», – deb yozadi.

Ana shu o‘rinda bir narsani ta’kidlash joizki, ko‘pincha tarixiy manbalar, yozilgan risolalarda Amir Temurning yoshligi haqida ma’lumotlar juda kam. Yaqinda H.Bobobekov va boshqalar tomonidan nashr etilgan «Qissai Temur» («Malfuzoti Temuriy») asrining bu boradagi muhimligi shundaki, unda aynan ana shu masalalar juda yaxshi yoritilib, Amir Temurning yoshligi, ta’lim-tarbiya olishi, pirlari bilan uchrashishlari batafsil bayon etilgan[5, 33-103].

Temuriylar mamlakatni 3 asrga yaqin boshqardilar. Amir Temurning tarixiy xizmati shundaki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona jug‘rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi. Umuman, Amir Temurning jahon madaniyati siyosiy va ma’naviy hayotida tutgan o‘rnii va tarixiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Amir Temur XIV asrdayoq mamlakatlararo va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirish asosida insoniyat taraqqiyotini jadallashtirish zaruriyat ekanligini ko‘rsatib berdi.

Ikkinchidan, u mamlakatning kuchayib ketgan feodal tarqoqligiga barham berib, el-yurtni o‘z tug‘i ostiga birlashtirdi, markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi. Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratdi.

Uchinchidan, Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvini tashkil etishda o‘ziga xos maktab yaratdi. Hammaning qonun oldida tengligi va qonun ustuvorligini ta'min etishi uning buyuk xizmatidir.

To‘rtinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakachilik zulmidan ozod bo‘lishda yordam berdi. Masalan, o‘sha davrning eng qudratli podshohlaridan hisoblangan Boyazid Yildirimni tor-mor qilib (1402), Bolqon yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarni turklarning istibdodidan qutqardi.

Beshinchidan, Turkiston zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg‘or mamlakatga aylantirdi. O‘z umrining ko‘p qismini Amir Temur hayotini o‘rganishga bag‘ishlagan pokistonlik tadqiqotchi Ahmad Doniy: «*Hozirgi zamон tarixи Amir Temurning buyuk shaxsiga yetarli e’tibor bermadi. U Osiyoda turk isлом yuksalishiga asos soldi. Tarix uning ilmi amali bilan tenglashadigan boshqa bir muqobil hodisani bilmaydi*», – deb yozadi.

Davrga ta’sir etgan omillar yurtimiz tarixidagi zarhal harflar bilan bitilgan ulkan xazinadir. Mamlakatimizning dunyoga mashhur bo‘lishida, insonlar tarbiyasida bu davr o‘z rolini bajarmoqda va mustaqilligimizni mustahkamlashda, xalqimizning milliy g‘ururini shakllantirishda xizmat qilmoqda. Har bir davrning moddiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etuvchi o‘z omillari bo‘ladi. Temuriylar davri ma’naviyatining yuksalishiga ta’sir etgan omillar IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda ro‘y bergen o‘zgarishlar, buyuk Uyg‘onish davri (Sharq Renessansi) kashfiyotlari, ilm-fan sohasidagi katta o‘zgarishlar, buyuk allomalar Ibn Sino, Forobi, Farg‘oniy,

Beruniy, Buxoriy, Bahouddin Naqshband va boshqalarning asarlari, keyingii asrlardagi voqealardir.

Bu ma'lumotlarni hech ikkilanmasdan ta'lim jarayoni darsliklariga va qolaversa boshqa sohalarga ham targ'ib qilishimiz kerak. Amir Temur shaxsini shunchaki davlar arbobi, markazlashgan davlat asoschisi yoki sarkarda sifatida emas balki, buyuk shaxs, har davrda tug'ilavermaydigan nodir arbob sifatida e'tirof qilib, har bir yuksalib kelayotgan yosh avlodning ongi shu'uriga singdirishimiz kerak. Amir Temur shaxsiyati, uning amalga oshirgan ishlari, xususan, davlat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi qarashlari haqida darslik bu shaxs timsolini yanada yaqinroq o'rghanishni va xalq ongiga kirib borishini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temur tuzuklari, forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi, T., 1991.
2. Ibn Arabshoh, Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari), T., 1992.
3. Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, T., 1996.
4. Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, T., 1997.
5. Qissai Temur (Malfuzoti Temuriy). – Toshkent, 2000.

Кенжасев Сардор Нурмурад ўғли

БухДУПИИ “Ижтимоий-фанлар” кафедраси ўқитувчиси

ХИТОЙ САРИ ЮРИШГА ТАЙЁРГАРЛИК ЖАРАЁНЛАРИ ЁХУД АМИР ТЕМУР ҲАЁТИНИНГ СЎНГГИ КУНЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақолада Амир Темурнинг Хитой сари йўлга чиқиши, тайёргарлик жараёнлари ва касалликка чалиниши билан боғлиқ масалалар тарихий манбалар асосида ёритилган.

Таянч сўзлар: Амир Темур, Самарқанд, Ўтрор, Хитой, васият, табиблар, амирлар, беклар, маликалар, шахзодалар.

Соҳибқирон Амир Темур 1404 йилнинг июль ойида етти йиллик юришдан Самарқандга қайтгандан сўнг, мамлакат марказида қандай бунёдкорлик ишлари амалга оширилгани ва унинг ҳолати билан қизиқди. Шу билан бирга пойтахт Самарканда бунёдкорлик ва ободонлаштириш ишларига янада эътибор қаратди. Бир неча шаҳзодаларнинг тўй маросимларини ўтқазди[5,191].

Мамлакат ишларини тартибга согандан сўнг, Хитой юришига тайёргарлик кўра бошлади. Лашкарни кузатар экан Хитойни эгаллаш учун тайёрлигини, Хитой билан уруш қилиш учун ғоятда қудратли кучга эга бўлганини ҳис қилмокда эди. Манбаларда таъкидланишича Хитой юриши пайтида Амир Темур кўшини икки юз минг суворийдан иборат бўлган[4,158]. Амир Темур режаси буйича лашкар Сирдарёдан ўтиб, Ўтрорда нафас ростлаб Турфон оркали Су-Чунни қўлга киритиши лозим эди. Баҳорга чиқиб эса Хитой зabit этилиши режаланган эди.

1404 йилнинг 27 ноябр куни Амир Темур Самарқандан чиқиб, Оқсулот кишлоғига етиб борди[5,293]. Ундан сўнг Қорабулоқ мавзесига етганда сафарга чиққан шахзодалар ва амирлар ўз қўшинлари билан Соҳибқиронга келиб қўшилдилар. Бутун бошли қушин биргаликда Илонўтти йўли орқали Томлик деган жойга келганда қалин қор ёғди ва жуда қаттиқ совук бўлди. Қўшин ўз саркардаси бошчилигига Оқсулот мавзесига келиб тушди. Ушбу жой қумлоқ эди ва ўтин мўл эди. Соҳибқирон Оқсулотда қарийб эллик кун ўлтириди[5,294]. Бундан кўриниб турибдики, қаттиқ совук ва қалин қор ёғиши натижасида қўшин бир ерда туриб олган. Олдинга ҳаракатланиш иложи бўлмаган.

Сўнгра Амир Темур Оқсулотдан Сирдарёning қуи тарафидан юриб дарёдан ўтди. Қаттиқ совук бўлганлигидан Сирдарё суви қалин музлаган эди. Дарёning устидан карвонлар аравалари, отлари билан бемалол ўтса бўларди. Амир Темур 1405 йилнинг 14 январь куни Ўтрордаги Бердибек саройига келиб жойлашган[5,295]. Бердибек Амир Темурнинг энг содик амирларидан бири

Шайх Нуриддиннинг укаси эди. Совуқ тушиб қолгани учун Темур қўшин бошлиқларини, амирларини қишлаш учун Тошкентга жўнатиб юборади. Унинг ёнида факат амирлар Шоҳ Малиқ, Шайх Нуриддин ва Хожа Юсуфларгина қолади. Амир Темур турган уйда ёнғин чиққан, уни тезда ўчиришган ва таъмирлашган. Ўша пайтда кечалари одамлар ёмон, қўрқинчли тушлар кўра бошлишган. Бу эса қўшин кайфиятига ўзгача таъсир қилган[4,159].

Амир Темур буйруғи билан олдинга юриш учун йўлларни текширишга гуруҳ юборади. Йўлларни текширган гуруҳ қорнинг қалинлиги икки найзага тенг келиши, юриш имконияти йўқлиги хабарини келтиришади. Тўхтамишхондан Ўтрорга Қора Хожа бошчилигига элчи хайъати келади ва унинг мактубини келтиради. Мактубда Амир Темур унинг айбидан ўтишини ва тахтга ўтиришга ёрдам беришини илтимос қилиб, ҳеч қачон унинг амридан чиқмаслигини, нихоятда афсусда эканлиги айтилган эди. Амир Темур элчи шарафига катта зиёфат беради. Зиёфат чоғида Хитой юришидан қайтгандан сўнг, албатта Жўчи улуси тахтига Тўхтамишхонни ўтказишга ваъда этади[4,159].

Шу куни Амир Темур маликалар ва шахзодаларни Самарқандга қайтишга ва Тўхтамишхон элчиси Қора Хожага кўп совға-саломлар билан рухсат бериб, Хитойга юришни давом эттиришга фармон беради. Лекин, тўсатдан Амир Темур қаттиқ касалланиб ётиб колади. 1405 йилнинг 11 февралига келиб, соҳибқиронни кучли иситма аъзойи баданини қамраб олди. У зоҳиран совуқдан амин бўлиб, ботинан ўзидан ибрида (касалли)ни даъф қиладиган нарса тайёрламоқни истади[1,324]. (*Ибн Арабиоҳнинг Амир Темур тарихига бағишиланган асарида “ибрида” касаллиги ҳақида маълумот берилиб, у бурудат (совуқ) ва рутубат ғалабасидан пайдо бўладиган ва жисмони заифлаширадиган касалликдир.*)

Ўз замонасининг энг кучли табибларидан Мавлоно Фазлуллоҳ Табризий бошчилигидаги табиблар Амир Темурда бир касалликка қарши даъво дориларини қўлласалар, бошка бир касаллик чиқиб кела бошлайди. Пайдо

бўлаётган касалликлар бир-бирига зид бўлиб, даволаш чоралари фойда бермай қолди. Дардига даво бериш мақсадида тайёрланган дорилар ичирилса ҳам ўзгариш бўлмасди. Амир Темур қирчиллама ёшда қўп йўл босиб, ўпкасини совуққа олдирган, кучли шамоллаш касаллигига чалинганди.

Улуғ Соҳибқирон Амир Темур бобомиз ўз васиятида давлат ишига бирор дақиқа бўлсин лоқайд ва бефарқ қарамасликни таъкидлаган. Шундан сўнг Мавлоно Хубатуллоҳ ичкари кириб, Амир Темурнинг ёнида Қуръон тиловат қила бошлаган. 1405 йил 18 февраль куни кечки пайт шом ва хуфтон намозлари орасида бир неча бор “ла илаҳа иллаллоҳ” калимасини такрорлагач жон таслим қилди. Тонгда Ҳиндушоҳ хазиначи ва Мавлоно Қутбиддин Амир Темурни ғусл қилдилар.

Шундан сўнг, Ўтрорда ҳозир бўлган амирлар Шайх Нуриддин, Шоҳ Малик, Бердигек, Сари Буға, Хожа Юсуф ва хос кишилар иттифоқ қилиб, аҳд қилдилар. Ўзаро бир-бирларига қарши бормасликка, соҳибқирон васиятига қатъий амал қилишга қасам ичишган. Амирлар келишиб, Амир Темур ўлимини қўшиндан яширдилар ва маликалар, шахзодалар аза тутиб йиглашларини маън қилдилар.

Лашкардан Амир Темур ўлимини қанчалик яширмасинлар барибир сир ошкор бўлди. Лашкар ичида ҳар хил гап-сўзлар қўпая бошлади. Аввало, тахтга муносиб ўғил фарзанд Шоҳруҳ бўла туриб, нега невара Пирмуҳаммад валиаҳд қилинганилигини гапира бошладилар. 1405 йилнинг 19 февраль куни хуфтон намози пайти маликалар ва шахзодалар Амир Темур жасадини олиб Ўтрордан Самарқанд томон йўлга чиқдилар. Тонгга яқин тўхтаб ҳамма йиглаб дод-фарёд қилиб бош кийимларини улоқтириб, тупроққа ағнаб, дод сола бошладилар. Сирни яшира олмадилар. Фигон солдилар. Беклар насиҳат қилдилар ва сабр қилишдан бошқа чора йўқлигини тушунтиридилар. Агар пароканда бўлинса, душманлар хабар топиб ҳаракатга келишлари мумкинлигини уқтиридилар.

Амирлар, беклар, қўмондонлар маслаҳатлашиб, маликалар ва шахзодалар олдига бориб бундай қудратли қўшин бир жойда жам булган пайтда фақат

Хитой мамлакати томон олға юриш кераклигини билдирилар. Аллоҳга таваккал қилиб Соҳибқирон Амир Темур руҳини шод қилган, ниятини амалга оширган бўламиз, дедилар. Ҳеч иш қилмай қайтсак бу биз учун жуда катта уятли иш бўлади дедилар. Тошкентда турган шаҳзода Халил Султонни подшоҳ қилиб Хитой сари юрамиз. Ўша пайтда яқин жойда бўлган Халил Султон шаҳзодалар ичидаги энг ёши каттаси, йигирма бир ёшда эди. Хитойдан қайтгандан сўнг Амир Темур васияти бўйича қурултой чақириб иш кўрамиз деб келишдилар. Амир Темур билан бирга Хитой юришида Шоҳрухнинг иккита ўғли Мирзо Улуғбек ва Иброҳим Султон бирга эди.

Амир Темур жасадини Самарқандга юбордилар. Қўшинни жанговар сафга тизиб, Уч ариқ деган жойда Калдирама кўприги олдида Соҳибқироннинг Оқ чодирини тикдилар. Оқ чодирга ноғоралар садоси остида шаҳзода Шоҳрух мирзонинг ўғли Иброҳим Султон кириб ўтирди. Қўшин Хитой сари юришга тайёр бўлди. Хитой чегарасига яқин жой Чуккалақ мавзеси бутун лашкарнинг ётилиш жойи қилиб белгиланди[4,300]. Лекин, шаҳзода Султон Ҳусайн ва шаҳзода Халил Султоннинг таҳт учун кураш бошлашлари ҳамма умидларни пучга чикарди. Шундай катта ва қудратли қўшин Самарқандга қайтишга мажбур бўлди.

Амир Темур ўз замонасининг улуғ саркардаси, узоқни кўрувчи буюк давлат арбоби бўлган. Тарқоқ бўлган Турон ва Эронни ягона давлатга бирлаштирган, ўрта аср уйғониш даври маданияти, илм-фани, санъати тараққиётига бебаҳо ҳисса қўшган, унинг беназир ҳомийси бўлиб танилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. I-кисм. //Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни ф.ф.н. У.Уватов тайёрлаган. – Тошкент: Мехнат, 1992. – 328 б.
2. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. II-кисм. //Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни ф.ф.н. У.Уватов тайёрлаган. – Тошкент: Мехнат, 1992. – 191 б.

3. Клавихо, Руи Гонзалес де. Самаркандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги. (1403-1406 йиллар) /муҳаррир М.Али. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.
4. Кэрэн, Люсьен. Амир Темур салтанати. – Тошкент: Маънавият, 1999.
5. Яздий, Шарафиддин Али. Зафарнома. / Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Ашраф Аҳмад, Хайдарбек Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 382 б.

Shamsiyev Farrux Mizorobovich

G‘ijduvon tuman xalq ta‘limi bo‘limi metodisti

AMIR TEMURNING INSONIYAT TARIXIDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk bobokalonimiz Amir Temurning insoniyat tarixida tutgan o‘rni va roli haqida, jahonda Amir Temur shaxsiga qaratilayotgan e’tibor, unga bag‘ishlab yozilgan asarlar haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Amir Temur bobomiz shaxsiga mustaqillikdan oldin va keyin qaratilgan e’tibor haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, Amir Temur, sovet tarixchilari, temuriylar sulolasi, taraqqiyot.

Shunday Sohibqiron shuhrati bilsang,

Nasabi haqida gar surishtirsang.

*Otadan otaga to, Odam-ato
Bori shohlik taxti, uzra qo‘ymish moy.*

SHARAFUDDIN ALI YAZDIY

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, Vatanimiz tarixini yana ham chuqurroq o‘rganish imkoniyati vujudga keldi. Sal kam bir yarim asr davom etgan, dastlab rus podshosi, so‘ngra bolsheviklar o‘rnatgan sho‘ro saltanatining mustamlakachiligidan ozod bo‘lish katta tarixiy voqeа bo‘ldi. Uning aks sadosi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va milliy qadriyatlarni, o‘zlikni anglash,

ayniqsa, tariximizga bo‘lgan munosabatda ham yaqqol ko‘rinib turibdi. O‘zligini anglashga bel bog‘lagan har bir xalq va millat avvalo buyuk ajdodlari, siyosiy, harbiy arboblari va ulug‘ allomalarining mamlakat qolaversa jahon tarixida tutgan o‘rni, xizmatlarini e’zozlashni o‘rniga qo‘yadi, boshqalarga ham uni e’tirof ettiradi. Biz tutgan bu yo‘l buyuk sohibqiron Amir Temur, Ahmad Yassaviy, Iso at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Najmuddin Qubro, Ahmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Bobur va boshqa allomalarimizning tavallud topgan sanalarini nishonlashda o‘z isbotini topdi.

O‘zbekiston Respublikasini XXI asrda jahoning ilg‘or va yetakchi davlatlari qatorida bo‘lishini ta’minlashga qodir va qobil izdoshlarga ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Ular ona Vatan – O‘zbekiston manfaatlarini har jihatdan, chunonchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma’naviy-ruhiy himoya qila oladigan salohiyatga ega bo‘lishlari lozim. Buning uchun nafaqat hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki o‘tmishda o‘tgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini mukammal bilishlari shu kunning asosiy talabi hisoblanadi. Bularni egallamay turib biror bir shaxs komillik darajasiga erisha olmaydi.

Tarixda o‘tgan buyuk shaxslarimiz, ayniqsa, Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo‘la oladi. Uning har qanday mushkul siyosiy, harbiy, diplomatik vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi, topqirligi, temir irodaviy xususiyatlari avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, vatanga xizmat qilish namunasi bo‘lib qolishi lozim. Endigi gap ana shunday bemisl va betakror, butun jahon e’tirofiga sazovor bo‘lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan vak madaniyat homiysi sohibqiron Amir Temurning hayotini chuqur va zehn bilan o‘rganishda qolgan. Yoshlarimiz uni qanchalik mukammal o‘rgansalar, undan shunchalik saboq oladilar. O‘zbekistonning sobitqadam, jasur, aql-idrokli ona vatan qudratini jahonga ko‘z-ko‘z qilishga qodir va xos fidoiy farzandlari bo‘lib etishadilar.

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o‘rinda turadi. Ulug‘ bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o‘lchov bilan

baholab bo‘lmaydi. Uning to‘g‘risida keragidan ortiqcha ko‘p kitoblar, maqolalar, esdaliklar, sahna asarlari yaratilgan. Ammo ular bir-biriga o‘xshamaydi, bir-birini inkor etadi. Bu yozma manbalarning ba’zilarida Temurning ijtimoiy-siyosiy va davlat faoliyati xolisona va ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan bo‘lsa, boshqa birovlarida g‘arazlik, ochiqdan-ochiq dushmanlik, ko‘rolmaslik jarayonida turib, sub’ektiv fikr va xulosalar ilgari surilgan. Bunday manba asarlarining mualliflari ulug‘ bobolarimiz Amir Temurni «qonxo‘r», «bosqinchi», «kallakesar», va hokazo deb tuhmat qiladilar. Masalaning eng ayanchli va mudhish tomoni shundaki, G‘arbiy Yevropaning ilg‘or mamlakatlari Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqalarda ilm-fan va davlat arboblari Temurga ijobiy baho berib, ilmiy, badiiy va sahna asarlari yozganlar, uni e’zozlab o‘quv yurtlari dasturlariga kiritganlar va muzeylar tashkil etganlar. Masalan, nemis olimi Dagenxard 1913- yoldayoq Yevropa sharqshunoslarining Amir Temur va temuriylar davriga bag‘ishlangan asarlar ro‘yxati bibliografiyasini chop etgan edi.

Taniqli fransuz olimlari L.Keren «Temerlan yoxud sohibqiron salatanati» va Jan Pol Ru «Temerlan» nomli kitoblarida har biri amir Temur haqidagi 100 dan ortiq asar ro‘yxatini keltirgan bo‘lsalar, «Ulug‘bek astranomiya sulton» (Parij – 1994) nomli to‘plamda 40 asr, «Samarqand 1400-1500: Tamerlan poytaxti: saltanat va uyg‘onish yuragi» (Parij – 1995) nomli asarda 27 kitob haqida ma’lumot berilgan.

Abdulhay Habibiyning 1974 yili Tehronda nashr etilgan 1018 sahifadan iborat «Temur davri san’atlari» nomli asari Amir Temur va temuriylar sulolası tarixi, majaniyati va san’atiga oid kitob va risolalar ro‘yxati hamda dunyoning qaysi kutubxonalarida saqlanayotganligi bilan tanishtirishga bag‘ishlangan. «Ahmad Zakiy Validiy asarlarining tartibi» kitobida 23 asar va kitob ko‘rsatilgan (Yosh Leninchi gazetasi 1991 yil 1 iyun) yoki N. Muhiddinovning «Temuriylar tarixi-xalqimiz tarixi» maqolasida temuriylar sulolası to‘g‘risidagi 44 dan ortiq manba, asarlar ro‘yxati berilgan (Fan va turmush 1992 yil 11-12-sonlar). Akademik B.Ahmedovning «Tarixdan saboqlar» va «Amir Temur» asarlarida sohibqiron va temuriylar sulolası haqida ko‘pgina tarixiy hamda hozirgi zamonda chop etilgan kitoblar tahlil berilgan.

Rus sharqshunoslari ham XIX asrning II-yarmidan Amir Temur shaxsini o‘rganishga astoydil kirishganlar. Eng avvalo, bir qancha xorijiy davlatlarda chiqqan asrrlar rus tiliga tarjima qilingan. Masalan, taniqli sharqshunos olim N.Ostromovning tashabbusi bilan va uning rahbarligida frantsuz tilidan tarjima qilingan «Temur tuzuklari»ni va E.M. Langleyning «Temur hayoti» nomli asarlarini ko‘rsatish mumkin. Bulardan tashqari Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsalez de Klavixoning «Amir Temur saroyiga sayohati kundaliklari» 1990 yili Moskvada «Nauka» nashriyotida qayta nashr etildi. N.Likoshin o‘zbek tilidan Amir Temurning «Tarjimai holi»ni 1894 yilda rus tilida nashr qilgan. T.N. Granovskiy, M.I. Ivanin, D.N. Logofet, L.Zimin, I.I. Umnyakov va boshqa bir qator rus sharqshunoslari Amir Temurning sarkardalik mahoratiga e’tibor berilgan maqolalarni chop ettirishgan. Rus temurshunosligida ayniqsa, salmoqli o‘rinni mashhur akademik V. V. Bartoldning chuqur tadqiqotlari «Turkiston mo‘g‘ul istilosi davrida», «Ulug‘bek va uning davri» kitoblari, hamda taniqli sharqshunos A.Yu. Yakubovskiyning «O‘zbekiston xalqlari tarixi»ning Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan bo‘limi, uning hammualliflikda B.D. Grekov bilan yozgan «Oltin O‘rda va uning qulashi» va boshqa bir necha maqolalari muhim o‘rinni egallaydi. Bu va bir qator ko‘zga ko‘ringan temurshunoslarning maqolalari 1922-yili nashr etilgan katta hajmli to‘plamda berilgan.

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida sohibqiron Amir Temur alohida o‘rinda turadi. Ulug‘ bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o‘lchov bilan baholab bo‘lmaydi.

Shuni chuqur taassuf bilan ta’kidlamoq lozimki, XX asrning 60-80 yillarida markscha-lenincha mafkura tayziqi ostida bo‘lgan ayrim sovet tarixchi olimlari Amir Temur shaxsini «faqat qora ko‘zoynak orqali» talqin etadilar. Ular Amir Temur bobomizni «qonxo‘r», «bosqinchi» va h.k. deb atadilar. Sobiq sho‘rolar davrida markscha-lenincha mafkura hukmronligi tufayli Amir Temur haqida ijobiy fikr bildirilgan asar yoki maqola yozish u yoqda tursin, buyuk vatandoshimizning hatto

nomini ham tilga olish ta’qiqlab qo‘yilgan edi. Amir Temurning nomi faqat qora bo‘yoqlarda o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarga kiritildi.

Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini chuqur bilish nima uchun zarur?

Birinchidan, o‘z tarixini, nasl-nasabini, merosini bilmagan millatning kelajagi bo‘lmaydi. Chunki har bir xalqning o‘z tarixi mavjud. O‘z tarixini bilmagan, uning ijobjiy va salbiy tajribalarini o‘rganib, tegishli xulosalar chiqarmagan xalq bugungi hayotning qadrini va muammolarini tushunib eta olmaydi, o‘z kelajagi haqida aniq tasavvurga, puxta ishlangan dasturga ega bo‘la olmaydi. Biz kelajagi buyuk O‘zbekistonni barpo etishga kirishgan ekanmiz, bobokalonimizning ulug‘ hayoti va faoliyati bizga katta ishonch, intilish, qattiyat va kuch-quvvat baxsh etadi.

Ikkinchidan, Amir Temur va temuriylar tarixini har tomonlama chuqur o‘rganish faqat ilmiy va ma’rifiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir. Bu davrda shikllangan va rivojlangan tarix saboqlaridan mustaqillik yo‘lida foydalanish zarur.

Tarix har bir insonni o‘z vataniga muhabbat, sadoqat, o‘z xalqining o‘tmishi qaqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uning hozirgi kuni va kelajagi bilan g‘ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Shu boisdan Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganish va tahlil qilish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. Toshkent: “Kamalak”, 1991.
2. Herman Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”. Toshkent: G‘.Gulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1990
3. M.Ivanin. “Ikki buyuk sarkarda: Chingizzon va Amir Temur.” Toshkent: O‘Z.R.FA “Fan” nashriyoti, 1994.
4. Boboyev H.B. “Amir Temur va Temuriylar sultanati”. Toshkent: “Kamalak”, 1994.

AMIR TEMURNING HARBIY TASHKILOTCHILIGI VA SARKARDALIK MAHORATI

Annotatsiya: Ushbu tezisda Amir Temurning harbiy tashkilotchiligi, janglarni olib borish taktikasi, sarkardalik mahorati, haqida, qolaversa razvedka va kontrrazvedka siyosati haqida qisqacha so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ra’d, zarbzan, manglay, barong‘or, javang‘or, hirovul, amir ul-umaro.

Buyuk lashkarboshi va harbiy tashkilotchi hisoblangan Amir Temur intizomli armiya tuzishga, jang paytida qo‘sish qismlarini odilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yuborishga, mavjud to‘siq va g‘ovlarni tezkorlik bilan bartaraf etishga, qo‘shindagi jangavor ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur va temuriylar armiyasiga chorvadorlar, hunarmandchilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq aholi ham jalb qilingan. Qo‘sinda harbiy kuchlarning asosini tashkil etgan otliq askarlar bilan bir qatorda, piyodalar ham xizmat qilgan.

Taktika jihatda Amir Temur lashkari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan. Razvedka (sinchilik) a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgan.

-Josuslar – deb yozadi Ibn Arabshoh, – chor atrofda bo‘layotgan hodisalar va ularning xabarlarini Temurga yetkazib, manzilu shaharlarni tafsiflar edilar.

Razvetka xabarlarini zudlik bilan yetkazish to‘g‘risida ham qiziq ko‘rsatmalar berilgan.

“Amr qildimki, – deb yozadi Amir Temur, – mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan yelib yuguruvchi kishini chopqunchi, mingta tezyurar piyodani chopar etib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar, sarhadlarning xabarlarini, qo‘sni

hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib xabar qilsinlar, toki biron kor-hol, voqeа yuz bermasidan burun chora ilojini qilaylik”.

Tarixdan ma'lumki Amir Temurning kelini Sevinchbeka eri Mironshohning Sultoniyada qilayotgan beboshligi haqida shaxsan o'zi qaynotasiga xabar yetkazgan va sultanat boshiga kelayotgan xavf bartaraf etilgan.

Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo'lib armiyaga o'tsochar qurol-to'p (ra'd)ni olib kirgan. Temuriylar davrida bu qurolning boshqa turlari(zarbzan,farangi,qozon va h.k) keng yoyildi. Tog'li hududlarda jang harakatlarini olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalar tashkil qilingan. Amir Temur jahon harbiy ish tarixida birinchilardan bo'lib qo'shinni jang maydonida 5 ta bo'lakdan farqli ravishda 7 ta qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu haqda mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy yozib qoldirgan. Bu yangilik keyinchalik To'xtamishxon, Shayboniyxon singari turkiy sarkardalar tomonidan o'zlashtirilgan va takomillashtirilgan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Sohibqiron qo'shinida ayollardan iborat maxsus bo'linmalar bo'lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, janglarda qahramonlik va matonat namunalarini ko'rsatgan.

Temuriylar armiyasi son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, o'z vaqtining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar biri biridan kiyim-bosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan.

Sohibqironning harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yana bir jang paytida qo'shin qanotlarini dushman hujumidan himoya qilish va o'z navbatida, g'anim kuchlarini o'ng tomonidan aylanib o'tib, unga orqadan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – qanbulning joriy etilishi bo'lgan. Bunday yangi harbiy qism Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Chingizzon, Lyudovik XIV kabi atoqli sarkardalar qo'shinida bo'lman. Shayboniyxon qo'shinida bunday qism mavjud edi va u "to'lg'ama" atamasi bilan nomlangan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temurning 12 ming kishilik qo'shini jangga quyidagi tartibda kirgan. Dastlabki to'qnashuvni ayg'oqchilik bilan

mashg‘ul qorovul qism boshlab bergan. Shundan so‘ng o‘ng va chap qanot ilg‘or qismlari – barang‘ur hirovuli va javang‘or hirovuli madadida asosan ilg‘or qism – manglay jangga kirgan. Manglay ortidan barong‘or hamda javang‘orning qolgan ikki bo‘lagi – chopovul va shiqovul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar dushmanni mag‘lub etishga kifoya qilmasa, oliy qo‘mondon (amir ul-umaro) boshchiligidagi markaz (qo‘l) hal qiluvchi hujumga tashlangan.

Sohibqiron lashkar qatnashgan ulkan janglarning taktik borish manzarasi quyidagicha bo‘lgan: qo‘sish markazi 40 bo‘lakka taqsimlangan va Oliy qo‘mondonga itoat qilgan. Ushbu bo‘laklarning sara jangchilaridan tashkil topgan 12 bo‘lagi safning qatorida, qolgan 28 bo‘lagi ikkinchi va uchinchi qatorlarda joylashgan. 40 bo‘lakning o‘ng tarafi oldida amirzodalar qismlari, so‘l tarafi oldida qarindoshlar va ittifoqchilar qismlari saf tortgan. Ikkinci qatorning barang‘orida 6 bo‘lak o‘z ilg‘ori – hirovul bilan o‘rin egallagan. Ayni shu miqdordagi bo‘lak va hirovulga javongor ham ega bo‘lgan. Ikkinci qator barang‘ori va javong‘ori oldida yuqoridagi tartibda birinchi qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilg‘or – manglay (yoki kata hirovul) harakatda bo‘lgan. Yengil suvoriylardan iborat ikki bo‘lak armiyani qo‘qqisdan bo‘ladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band bo‘lgan.

Temuriylarga ko‘plab zafarlar keltirilgan bu harbiy tartibga keyingi davrlarda mintaqani boshqargan shayboniylar, ashtarkoniylar, mang‘itlar, qo‘ng‘irotlar va minglar sulolasiga davrida ancha o‘zgartirish kiritilgan.

Shunday qilib Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqarish bilan bir qatorda razvedka va harbiy sohada o‘ziga xos usul yaratib, shu asosda barpo qilgan davlati bilan dunyonlari lol qoldirdi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amir Temur “Temur tuzuklari” T: 1996.
2. Bo‘riboy Ahmedov “Amir Temurni yod etib” T: 2018
3. Hamdam Sodiqov “Razvedka” T: 2010.
4. Ibn Arabshoh “Amir Temur Tarixi” T: 1992.

Raxmatov Tohir Istamovich

G'ijduvon tumani 40-umumiy maktab o'qituvchisi

MARKAZIY OSIYONING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDA AMIR TEMURNING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning Markaziy Osiyoda tutgan o'rni, davlat boshqaruv shakli, ma'muriyat ustidan nazorat, davlatni idora etish, islom diniga bo'lgan e'tibori, fuqarolik jamiyati, madrasa qurilishi sohasi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Iskandar Zulqarnayn, Yuliy Sezar, Horun ar-Rashid, Kebek, inoq, sipohiy, Parij, Qur'on.

Tarixda o'tgan ulug' daholar orasida ulug' bobomiz Amir Temur ham bor. U Iskandar Zulqarnayn, Yuliy Sezar, Horun ar-Rashid, va Ma'mun singari tarixda o'chmas iz qoldirgan. Yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida e'tirof etilgan. Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Yakkabog' tumanidagi Xoja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning to'liq ismi Amir Temur Ko'ragoniy ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Burquldir. Yozma manbalarda u Temurlang, Yevropa adabiyotida Tamerlan nomlari bilan ta'riflanadi. Temur davrida davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, arkbegi hamda 4 vazir turardi. Birinchi vazir yer soliqlari, chegara bojini undirish, hamda mirshablik ishlarini bajarardi. Ikkinchi vazir – askarlar maoshi va oziq-ovqat ta'minotlari bilan shug'ullangan. Uchinchi vazir – harbiylar, ularning lavozimu mansablariga tayinlanish va me'ros ishlariga ma'sul bo'lgan. To'rtinchi vazir – saroy hujjatlarini yuritish bilan shug'ullangan.

Temur davlati tuzilishi sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirdi va XV asrning birinchi yarmida Mo'g'ul xoni Kebek hukmronlik qilgan davrda joriy etilgan mamlakatni harbiy-ma'muriy bo'linishini saqlab qoldi va uni rivojlantirdi. Ammo,

davlatning ma'muriy idora etish tarkibini takomiliga suyurg'olning keng tarqalishi tushkunlik qildi. Amir Temur davlatni boshqarishda ko'p narsalarga e'tibor berib, ularni bajarishga harakat qildi.

Birinchi – uning davlati va saltanatiga bog'langan birinchi tuzugini u Tangri taoloning dini, Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj bergen. Har yerda va har vaqt islom dini quvvatlaganligidir. Ikkinchi – 12 tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabit etgan, ularni idora qilgan. Davlat, saltanat ustunlarini o'shalar bilan o'tkazgan. Uchinchi – maslahat kengashi tadbirkorlik faollik va hushyorlik bilan g'animni o'ziga bo'ysundirgan. Saltanatini ishlarini muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizgan. To'rtinchi – davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqargan. Amirlar, vazirlar, inoqlar lavozimida mamnun holda xizmat ko'rsatishgan. Beshinchi – amirlar va sipohiyarlarni martaba va unvonlar bilan taqdirlagan. Oltinchi –adolat va insof bilan gunohkorlarga ham, begunohlar ham rahm qilib, tangrining yaratgan bandalarini o'zidan rozi qiladi. Yettinchi – sayidlar, oqilu-donolar, olimlar, tarixchilarni izzat hurmatini joyiga qo'ygan. Sakkizinchi – azmi-jazm bilan ish tutgan. To'qqizinchi raiyat ahvoldidan ogoh bo'lgan, ulug'ni ulug', kichikni kichik o'rnida ko'rgan. O'ninchi – turku-tojik, arab ahlining turli toifa va qabilalardan bo'lgan kishilarning ulug'lariga hurmat bilan qaragan. O'n birinchi – farzandlar, qarindoshlar, qo'shnilar va ular bilan bir vaqtida do'stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne'mat martabasiga erishganida unutmay ularning haqlarini ado etgan. O'n ikkinchi – do'stu-dushmanligiga qaramay har joyda sipohiyarlarni hurmat qilgan.

Amir Temur o'z vazifalarini 4 toifaga bo'lган. Birinchi – asillik, toza nasllilik; Ikkinchi – aql-farosatlilik; Uchinchi – sipohu rayiyat ahvoldidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlilik. To'rtinchi – sabr-chidamlilik va tinchlik kabilarga ega bo'lishi kerak.

Kimki shu to'rt fazilatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiқ kishi deb bilgan. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlagan. Bunday vazirga to'rt imtiyoz; ishonch, e'tibor, ihtiyor va iqtidor berishgan. Temur o'zining markazlashgan

davlat va huquqini barpo etishda musulmon dunyosida shakllangan siyosiy va huquqiy ta'limotiga asoslanadi. U shahar va qishloqlarda tartib va qonunchilikni o'rnatdi. Uning mafkurasi islom bo'lgan bo'lsa, shariat qonunlar tizimi edi. Amir Temur islomning davlat mafkurasi darajasida, shariatni esa huquqiy tizim sifatida qabul qilish bilan cheklanmasdan, u o'zining tamoyillari, qoidalari; "Tuzuklarini" ham ishlab chiqadi. "Temur tuzuklari"da Amir Temur Movorounnahrning 1342-1345-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, qo'shni mamlakatlar va xalqlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar haqida hikoya qiladi.

Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida yozib qoldirilgan o'gitlaridan:

- Millatning dardiga darmon bo'l.
- Kuch adolatdadir.
- Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.
- Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor

bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

Fuqarolik jamiyatini turli toifalariga bo'lib, ularning vakillari bilan bamaslahat boshqarish, qonunchilik va davlat hokimiyatini mustahkamladi. Har bir tabaqa va toifalarning moddiy, ma'naviy, ehtiyojlarini hisobga olish o'zga mamlakatlar, xalqlar orasida ham Temurning obro'sini yuksalishga olib kelgan. U qonunlarga rioya qilishni shu qadar jiddiy qo'ygan ediki, qonunni buzganligi uchun eng yuqori lavozimdagi mansabdorlar, hatto, o'zining eng yaqin qarindoshlar va farzandlarini ham jazolashga buyurgan. Qonunchilikni ana shu darajada o'rnatilishi mamlakatda tinchlik osoyishtalik o'rnatishiga olib kelgan edi. Amir Temurning yana bir muhim qoidalardan biri payg'ambar avlodlariga hurmat bilan qarishi, o'zining pirlari, olimlar, bilan suhbatlashish hamda ularning maslahatlariga ko'ra davlatni boshqarish edi. Amir Temurning uzoqni ko'ra bilishni tasdiqlovchi yana bir misol: u o'zining juda katta hududda joylashgan davlatini boshqarishda barcha davlat, xalqlaring hayotiga tegishli ma'lumotni toplashga jiddiy e'tibor bergen. Ana shu to'plangan ma'lumotlarga asosan u davlatni boshqarishda qaror va farmoyishlar bergen. Biz o'zbeklarni ulug' bunyodkor xalq deb dunyoga tarannum etyapmiz va aslida ham

shunday. YUNESKOning Parijdagi qarorgohida Amir Temur bobomizning tavalludlarini o‘tkazishdan maqsad komil bu insonning eng avvalo buyuk davlat asoschisi, buyuk bunyodkor ijodkor shaxs bo‘lganini, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘sghanini dunyo ahliga bildirish edi. Parijda va umuman Yevropada ham Temur bobomizning obro‘sini to‘kishga urunishlar bo‘lgan. Bunga hech qanday mantiqiy asos yo‘qligini isbotlab berish qiyin emas. Inson bir paytning o‘zida bunyodkor, yovuz bo‘lishi mumkin emas. Madrasalarni qurgan, fuqarolarni boshini silagan, Qur’oni yod bilgan shaxs yovuzlik qilarmidi?

O‘zbek tom ma’noda bunyodkordir. Unga birovning yeri kerak emas. Bizning xalqimiz tinchlikparvar xalqdir.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. B.Ahmedov. “Amir Temur haqida hikoyalar”. Toshkent. Yozuvchi. 1998-yil. 4-bet.
2. I.A.Karimov. “Tarixiy – xotirasiz kelajak yo‘q”. Toshkent. Sharq. 1998-yil. 9-16-bet.
3. Ziyodulla Muqimov. “Temur tuzuklari”. Samarqand. 2008-yil. 33-bet.

Наимова Азизапошио Саъдуллаевна

БухДУ тарих таълим йўналиши талабаси

Илмий раҳбар: Орзиеев М.З.

БухДУ, Жаҳон тарихи, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

АМИР ТЕМУР ҲАРБИЙ ЮРИШЛАРИ ДАВРИДА ОЗИҚ-ОВҚАТ

МУАММОСИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ ТАЖРИБАСИДАН

Аннотация: Ушбу мақолада Амир Темурнинг ҳарбий сиёсатида озиқ-овқат таъминоти масалалари таҳлил қилинган. Ушбу масала билан боғлиқ тарихий воқеа-ходисалар ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: Амир Темур, ҳарбий маҳорат, ов, Жета (Мўғулистон), озиқ-овқат захираси, сарф-харажатлар.

Соҳибқирон Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати ўз даврида пароканда бўлган Мовароуннахрни нафақат бирлаштириш балки, ташқи таҳдидларни олдини олиб, мамлакатни иқтисодий ва ҳарбий нуқтаи-назардан қудратга эришишига асос яратган. Ўзаро урушлар даврида харобага айланган мамлакат аскарлари минглаб км. узоқликларга катта миқдордаги озиқ-овқат заҳираси билангина бора оларди. Аммо, бу каби улкан харажатни дастлабки вақтларда Мовароуннахр аҳолиси кўтара олмас, бинобарин, Амир Темур салтанати иқтисодий қудратига путур етиши табиий бўлган. Аммо, Амир Темур ушбу муаммони ҳарбий юришлар даврида нафақат ҳал қила олган, балки қўшинларни жанговар қобилиятини ўсишига ҳам эришган.

Тарихий адабиётларда келтирилган маълумотларда, Амир Темур Мўғулистанга бешинчи юриши вақтида (1376/77 йй) чўлда сув ва овқат заҳираси тугаб қолган. Шунда, Чигатой улуси аскарлари сурувли ов қилиш орқали қулон, кийик, товушқон ва бошқа жониворларни овлаган[4, 62]. Бу эса қўшинни озиқ-овқат билан таъминлабгина қолмасдан, уларни маҳоратини оширишга, ўлжа кайфиятни кўтаришга хизмат қилган. Ҳарбий юришнинг мувоффақичятли тугаши таъминланган. Шунингдек, 1390 йилги Жета (Мўғулистан) ҳарбий юриш олти ойга чўзилган бўлиб, озиқ-овқат масаласи юқоридаги каби ҳал қилинганлигига оид маълумотлар мавжуд[2, 129].

Амир Темур ва Мовароуннаҳ учун оғир кечган ҳарбий юришлардан бири бу, шубҳасиз, Тўхтамишхонга қарши қурашлар бўлган. Чунки, Олтин Ўрда давлати мўғул сулолалари ичидаги энг қудратлиси бўлиб, Мовароуннахр учун асосий таҳдидлардан бири бўлган. Тўхтамишхонга қарши юриш вақтида ҳозирги Қозоғистоннинг Туғровут ҳудудида сурувли ов қилиш орқали озиқ-овқат муаммосии ҳал қилинган[3, 150]. Бу катта жанг олдидан аскарларни машқ қилдириш усулларидан бири ҳам бўлган дейиш мумкин.

1391 йилги Тўхтамишхон устига қилинган ҳарбий юриш даврида Йўланчик (ҳозирги Қозоғистоннинг Жезқазған вилояти) ва Атоқабриғўй (ҳоз.

Қозоғ. Қустаной вилояти) орасида қүшин очарчилик ҳолатига тушиб қолган. Бу вактда аскарлар чүл ичидә түрт ойдан бүён юрган бўлиб, озиқ захираси тугаган бир қўйнинг нархи 100 кепакийга етган. Аскарларга сахрова ёввойи товуқ тухумлари, еса бўладиган ўтлар йиғиш буюрилган. Олтин Ўрда ҳудудларига яқинлашилганда эса, 1391 йил 6 май куни қўшинга суревли ов солиш буйруғи берилган. Черик ўраб олган ер шу даражада катта бўлганки, икки кундан сўнг ҳалқа торайиб келган. Асосан кулон, кийик, товушқон кўп овланган. Айниқса кийикларни мўғуллар қундгай деган, дашт эли “бэлан” деган тури қўпроқ овланган. Яздий бу кийик турини говмишдан каттароқ бўлишини ёзиб қолдирган[2, 131]. Низомиддин Шомий ҳам бу суревли ов ҳақида маълумот бериб, катта ўлжа бўлганлигини, уларнинг семизини олиб, ориғини қўйиб юборишларини таъкидлаган. Бироз муболағага берилиб, айрим оҳулар катталиқда буқадан қолишимаган[3, 156], – деган жумлаларни ҳам ишлатган.

Дамашқ шаҳрининг фатҳ этилиши жараёнида (1401 й) ҳам суревли ов қилинган бўлиб, ов ўлжалари кўп бўлганлигидан, жангчилар жониворларни қўллари билан ҳам тутганликларини қайд этган[3, 302]. Амир Темсур етти йиллик ҳарбий юришлардан қайтиш вақтида, Қорабоғда (1404 й) зиёфат ташкил этиш мақсадида (аслида узок йўлда бошқа тўхтаб вақт йўқотмаслик), ов уюштирганлиги, “Саҳро жониворлари қонидан сабазорларни лолазорларга айлантиридилар”, – деган жумла эса ов кўламини катта бўлганлигини қўрсатади. Ов жараёнида, Амир Темур фармонига мувофиқ ҳар бир қўшин бўлинма ўзи турган жойдан жирга (суревли ов учун ҳалқа) олиб, жониворларни Ақдон ерларига ҳайдаш буюрилган. Натижада катта микдордаги жониворлар тор ҳалқада қолиб кетиш оқибатида Ақдон ерларида мисли кўрилмаган ов жониворлари тўпланган. Ов мўл бўлганлиги сабабли, саҳро йиртқичлари, турли ўлаксахўрларга ҳам жониворлар қолдиқлари қолиб кетганлигини ифодаловчи фикр-мулоҳазалар мавжуд[3, 369].

Ов қилиб озиқ захираси йиғишдан ташқари қурут, қаттиқ, қуритилган гўшт каби маҳсулотлар ҳам мавжуд бўлган. Испания элчиси Гонсалес Руи де

Клавихо; Чигатойларни ҳарбий сафарларда чидамли деб, нонсиз фақатгина сут билан гўштни еб кун кўришини ёзган. Борида гўштни ҳаддан ташқари қўп истеъмол қилишади, йўғида сувга қаттиқ қўшиб, қайнатиб ичиш билан кифояланадилар. Бу овқатни улар қуидаги йўсинда тайёрлашади. Улкан дошқозонни сувга тўлдириб, сув обдон қайнагач, пишлоққа ўхшаб кетадиган қаттиқни сиздириб тайёрланган сузмани, тоғорада илимлиқ сувда чоғиширишади ва дошқозонга ағдаришади. Бу сузма шу қадар нордонки, таъми сиркага ўхшайди. Шундан кейин хамирни тола-тола қилиб кесишиб, уни ҳам дошқозонга ташлашади. Хамир кесимлари қозонда бироз қайнатилгач, оловни ўчиришади. Сўнг бу гўштсиз овқатни тоғораларга сузишиб, нонсиз мазза қилиб ичишади. Бу уларнинг ҳар куни энг севимли истеъмол қиладиган овқатидир. Ушбу ва бошқа овқатларни тайёрлар учун тайёр ўтин бўлмайди шу сабабли ёқиш учун тезакдан фойдаланишган. Мен сизга баён этган таомни “Пах” (қатиқли кесган ош) деб атайдилар[4, 136], – деган жумлаларни келтириб ўтганлигини кўришимиз мумкин.

Амир Темурнинг амалга ошмаган Хитой ҳарбий юришига бир неча йиллар пухта тайёргарлик кўрилган бўлиб, Шарқий Туркистондаги Юлдуз воҳаси, ҳозирги Қирғизистон ҳудудидаги Ашпара атрофларида йўл бўйларида ғалла экишни йўлга қўйилган ва бу ортга қайтиш давридаги озиқ маҳсулоти заҳирасини тўлдириши лозим бўлган. Шунингдек, бўғоз туларни ҳам ўзлари билан олиб кетганлар, чунки, уларнинг сути қўшинни овқат заҳираси билан таъминлаши лозим эди[2, 294].

Хуллас, Амир Темур ва унинг ҳарбий юришлари даврида ҳарбий қўшин учун сарф-харажатлар Мовароуннаҳр аҳолиси учун солиқ қийинчиликларини туғдирмаслигига имкон қадар қатъий амал қилинган. Озиқ-овқат ва сарф-харажатлар мавжуд вазиятдан келиб чиққан ҳолда ечими топилган. Бунга эса, Амир Темурнинг донолиги, топқирлиги, узоқни кўра олиш салоҳияти билан эришилган деб ҳисоблаш мумкин. Ушбу муаммони ўрганиш ва тадқиқ этиш эса бугунги куннинг муҳим масалаларидан бири деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Гонсалес, Ру де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406) [Текст] Гонсалес, Ру де Клавихо.; Масъул муҳаррир: Муҳаммад Али; Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М.Сафаров; тарж О.Тоғаев. – Т.: O‘zbekiston, 2010. – 208 б.
2. Йаздий, шарафуддин Али. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсатгичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Х.Бобобеков; Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқалар // – Т.: Шарқ, 1997. – 384 б. + 16 илова..
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Nizomiddin Shomiy. – Т.: Fan, nashriyoti, 2019. – 544 б.
4. Ру Ж.-П. Тамерлан. / Жан Пол-Ру; пер с фр. Е.А. Соколова; послесл. Е.Л. Егорова; прил. – 4-е изд. – М.: Молодая Гвардия, 2007. – 295 [9] с.: илл.

*Тўхтамишева Маржона Азамат қизи
БухДУ тарих таълим йўналиши талабаси
Илмий раҳбар: Орзиев М.З.
БухДУ, Жаҳон тарихи, тарих фанидан фалсафа доктори (PhD)*

АМИР ТЕМУР ҚЎШИНИДА ҚЎРҚОҚЛИК ВА ХИЁНАТ УЧУН ЖАЗОЛАНИШ ТАРТИБИ ХУСУСИДА

Аннотация: Ушбу мақолада Амир Темурнинг ҳарбий сиёсати ва ҳарбий жазо тартиблари ҳақида маълумот берилган. Шунингдек, ушбу масала билан боғлиқ тарихий воқеа-ҳодисалар ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: Амир Темур, Хоразм, Ўтрор, Шарафиддин Али Яздий, Руи Гонсалез де Клавихо, ҳарбий жазолар.

Соҳибқирон Амир Темур салтанати адолат ва умумий манфаат тамойиллари асосида қурилган бўлиб, мамлакат мудофааси учун масъул бўлган

инсонларнинг қўрқоқлик ёки хиёнат қилиши, шунингдек, Амир Темур ҳузурига айғоқчиларнинг элчи, савдогар, дин уламоси қиёфасида кириб келиши асло кечирилмаган. Хиёнат қилганлар шубҳасиз жазосини олганлиги тарихий адабиётларда қўплаб келтириб ўтилганлигини кўришимиз мумкин. Ҳатто, “Темур тузуклари”да ҳам хиёнат ва қўқроқлик қилишни кечирмаслик маслаҳати берилган бўлиб, бундай шахслар набиралар ёки қавм-қариндошлар бўлишса ҳам, уларни маошларидан маҳрум қилиб дарвеш ҳолатига солишга оид кўрсатма мавжуд[4, 144]. Бу эса яқин қариндошларнинг ҳам ўз манфаати йўлида давлат ва жамиятга хиёнати кечирилмас гуноҳ эканлигига ишора бўлиб ҳисобланади.

Амир Темур қўшинлари ичida айниқса, қўрқоқлик қилганлар қаттиқ жазоланган, уларни сазойи қилиш одати бўлганлигини манба ва адабиётлардаги маълумотлар тасдиқлайди. Жумладан, Амир Темурнинг Хоразмга 1372 йилги биринчи ҳарбий юриш даврида, аскарларга қамал қилинган Кат қалъаси хандакларидан ўтиш буорилган. Аммо, Амир Темурнинг лашкарбошиларидан бўлган Кўча Малик қўрқоқлик қилиб, хандақقا тушмаган. Низомиддин Шомий маълумотларида ушбу қўрқоқлик учун Кўча Малик дарра билан жазоланган, шундан сўнг, эшак думига боғлаб Самарқандга юборилган[3, 91]. Эшакнинг думига боғланиш каби сазойи қилиш одатини ҳозирча биз тарихий адабиётларда учратмадик. Аммо, бундай қилинишининг асосий сабаби эл-юрт олдида шарманда қилиш ва аскарлар орасида тушкунликни олдини олишга қаратилган, деб ҳисоблаш мумкин.

Жанг майдонидаги қўрқоқлик учун жазонинг кенг қўлланилган тури бу сазойи қилиш бўлган, деб хулоса қилиш учун асослар етарли. Тарихий адабиётларда бу хусусда қўплаб маълумотлар келтирилган. Жумладан, 1387 йилда Ўтрор яқинидаги Чукалак деган жойда содир бўлган жангда Амир Темурга итоат этувчи айрим аскарлари мўғуллардан қўрқиб чекинган. Уларнинг ҳам жазоси сазойи қилиш бўлиб, Амир Темур бу аскарларни соқолини қирқиб, юзига упа ва йанглик(?) суртиб, шаҳарни кездирган[2,

118]лигига оид маълумотларни Шарафуддин Али Яздий келтириб ўтганлигини кўриш мумкин.

Юқори мартабали амир ва бекларнинг жангоҳдан қўрқиб қочиши, айниқса, шармандали бўлиб, бундай шахсларга ҳатто, ўлим жазоси тайинланган. “Зафарнома” асарининг муаллифи Шарафуддин Али Яздий, 1399 йилда гуржилар (грузин)лар билан жанг вақтида Мироншоҳнинг бекларидан Хўжа Абдулло Аббос ва Муҳаммад Қазағонлар қўрқиб қочганлигини ёзиб қолдирган. Шунингдек, ушбу қўрқоқлик учун жазо сифатида Амир Темурнинг ҳукми, қўрқоқларни ясоқ асосидаги қонунлар билан, яъни таёф билан урушни буюрган. Барчадан олдин қочишни бошлаган Ямин Ҳамза Апардий бўлганлиги учун, яъни қочишни ташаббускори бўлганлиги боис, уни қатл этишни буюрган. Аммо, шахзодалар унинг гуноҳини сўрагандан сўнг, унга ҳам таёқ билан уриш орқали жазолаш одати қўлланилган. Бундан ташқари беклардан қўшимча жазо сифатида 300 тадан от олинган[2, 227]. Кўриниб турибдики, оддий аскарлар ва беклар, амирларнинг қўрқоқлик қилиб жанг майдонидан қочиши мартаба ва унвонга мувофиқ турлича жазоланган, айрим ҳолларда бу қатл этиш билан якунига етган, деб хулоса қилиш мумкин.

Амир Темур салтанатида бўлган Испания элчиси Р.Г. Клавихо ҳам бу хусусда ўз фикр-мулоҳазаларини келтириб ўтган бўлиб, унда: “*Жиноят қилган ҳар қандай кимсага кимлигидан қатъий назар шафқат қилинмаган. Кичик бир жиноят учун катта-кичик амалдорларга жазо тайинланади. Жазо асосан жарима шаклида бўлган. Айбдорлар катта миқдорда жарима тўлаганлар. Амалдорлардан жуда бой ва тўқ яшаганларидан катта пул ундирилган. Бу пул ҳар йили ўтказиладагиган байрамларда сарфланади*[1, 190]”, – деб келтирган. Шунингдек, Клавихо бу пулни нақд 100 хачирга юк бўлишига оид маълумотларни ҳам келтириб ўтган. Эҳтимолки, бу пул етти йиллик уруш даврида тўпланган ҳам бўлиши мумкин. Шунингдек, бу пулларни жангдан қўрқиб қочганлардан олинганлигини ҳам Клавихо аниқ кўрсатмаган.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Амир Темур хукмронлиги даврида нафақат давлат ва жамиятда қатъий тартиб интизом ўрнатилган, балки қўшин орасида ҳам интизом қатъий бўлиб, бу келажакда мамлакат тинчлиги ва фаровонлигини таъминлаган. Амир Темур даврида турли жиноятлар ва ички урушларнинг тугатилишига жиноят ва жазо институтларининг адолатли ва бенуқсон ишлаши сабаб бўлган деб ҳисоблаш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Амир Темур Европа элчилари нигоҳида / Клавихо Руи Гонсалес де. Буюк Амир Темур тарихи (1403-1406); Тарж., У.Жўраев. Султония архиепископи Иоанн. Амир Темур ва унинг саройи ҳақида хотиралар. Тарж., Б.Эрматов; Масъул муҳаррир А.Х. Саидов. – Т.: Fafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. – 208 б.
2. Йаздий, Шарафуддин Али. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсатгичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков: Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқалар // - Т.: Шарқ, 1997. – 384 б. + 16 илова.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Nizomiddin Shomiy. – T.: Fan, nashriyoti, 2019. – 544 b.
4. Темур тузуклари // Форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж, Б.Аҳмедов таҳрири остида /. – Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 72. – 144 б.

2-SHO‘BA. AMIR TEMUR TARIXINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Haydarov Yuldash Hazratovich

*Buxoro viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirish hududiy markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”
kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent*

AMIR TEMURNING ONA YURTDI ULUG‘LASH BORASIDAGI FAOLIYATI – YOSHLAR UCHUN NAMUNA MAKTABI

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy tarixni yangicha yondashuvlar asosida o‘rgatish maqsadida Amir Temurning ona yurti Buxoroni ulug‘lash, ardoqlash borasidagi faoliyatidan yorqin misollar keltirilgan. Tarix fani o‘qituvchilari Sohibqironning ona yurti Buxoroda olib borgan obodonchilik va bunyodkorlik ishlarini keng yoritishlari uchun zaruriy ma’lumotlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ona yurt, milliy tarix, yangicha yondashuv, ona yurtdi sevish, bunyodkorlik, obodonchilik, kitobxonlik, namuna maktabi, tarixiy tafakkur, tarixdan saboq olish, yurt taqdiriga daxldorlik.

Markazlashgan davlat asoschisi, buyuk sarkarda, yurtparvar va xalqparvar hukmdor, ilm-fan va madaniyat homiysi Sohibqiron Amir Temurning ona yurtdi ulug‘lash va ardoqlash borasidagi faoliyati hozirgi yoshlari uchun namuna maktabi vazifasini o‘taydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-yanvardagi videoselektorda tarix fanini o‘qitish bo‘yicha konseptual ko‘rsatmalar berdilar: “*Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur*[1.1]”. Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratishda yangicha yondashuvlar zarur. Buning uchun

tarix fani o'qituvchilari xalqimizning bunyodkorlik va yaratuvchilik faoliyatini chuqurroq, tahliliy asosda o'quvchilar ongi va qalbiga singdirishlari kerak. Bu maqsadga erishish uchun tarix fanini o'qitishda Amir Temurning bunyodkorlik va obodonchilik sohasidagi faoliyatini yangi pedagogik yondashuvlar asosida, ya'ni birlamchi manbalardan foydalanib yorqin misollar asosida tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Amir Temurning ona yurti Buxoro olib borgan bunyodkorlik va yaratuvchilik ishlarini ko'rsatuvchi yorqin misollar keltirishga harakat qilamiz va tarix fani o'qituvchilari foydalanishlari uchun tavsiya qilamiz.

Amir Temur davrida ona yurti Buxoro jahon maydonida eng mo'tabar shaharlardan biri darajasiga ko'tarildi hamda diniy va dunyoviy ilmlar markazi sifatida nom chiqardi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, XIV asr oxiri XV asr boshlarida Buxoro Movarounnahrning katta va eng nufuzli shaharlaridan biri bo'lgan. Akademik V.V. Bartoldning ta'kidlashicha, o'sha paytda Buxoro kattaligi, hajmi jihatdan Samarqandga teng bo'lib, 12 darvoza bilan o'rangan edi[2.134]. Lekin butun mintaqada yagona markazlashgan hokimiyat yo'q edi. Movarounnahr tarqoq, parchalangan holda bo'lib mo'g'ul zulmi xalqning tinkasini quritayotgan edi.

Temur shunday murakkab bir sharoitda dunyoga keldi. Barlos beklaridan bo'lgan Muhammad Tarag'ay Shahrisabzda hokim edi. U Buxoroda «Sadr ash-shariat» («Dinning ulug'i») deb nom qozongan katta ruhoniyning qizi Tegina begin Mohga uylanadi. Amir Temurning onasi Tegina begin (Tegina begin Moh, Takina xotun, Tegina xotun, Tegina Moh begin shaklida ham ayrim manbalarda uchraydi) Buxoroi Sharifda olim Ubaydulloh ibn Ahmad al-Mahbubiy al-Buxoriy xonardonida dunyoga kelgan.

Hozirgi davrda tarix fani o'qituvchilari o'z darslarini zamonaviy yondashuvlar asosida o'tishda, milliy tarixni milliy ruh bilan o'rgatishda Amir Temurning ona yurtni ulug'lash va ardoqlash borasidagi faoliyatidan quyidagi yorqin misollarni keltirishlari mumkin.

Amir Temur markazlashgan davlat tuzish maqsadini amalga oshirishda Buxoroga katta umid bog'ladi va umidlarida adashmadi. Alovida harbiy tayyorgarlik

ko‘rishga Amir Husayn bilan kelishgan Temur 1362-yilda Marv tomonidan Buxoroga yo‘l oladi. «Ikki kun yo‘l yurib, Qorako‘lga qarashli bir qishloqqa yetdilar, deb yozadi Bo‘riboy Ahmedov «Amir Temur» tarixiy romanida. Shu yerda Kesh ham, hatto Soli Saroy ham notinch ekanligi haqida xabar topdilar. Endi nima qilish kerak? Orqaga qaytishning iloji yo‘q. Qobul taraflarga esa yo‘l berk. Oxiri kengashib, nima bo‘lsa ham eski reja bo‘yicha Buxoro tarafga borishga qaror qildilar. Temurbek bilan xotini mulozimlari va xizmatkorlari bilan bir haftadan keyin Buxoroning Zandanisiga kirib borib, tanish bir savdogarning uyini qidirib topdilar. Xayriyatki, savdogar uyida ekan. Mehmonlarni xursandchilik bilan qarshi oldi va tashqaridagi katta mehmonxonasini ularga bo‘shatib berdi. O‘scha kecha Temurbek savdogardan so‘rab-surushtirib, mamlakatdagi ahvolni bilib oldi. Shundan keyin Temurbek Buxoroga ham, Samarqandga ham bormay, ularni imkonni boricha chetlab o‘tib, Kesh tarafga borishga qaror qildi[3.73]. Savdogarning uyida o‘tkazilgan suhbatlarida Amir Temur ona yurtining uni hamisha qo‘llab-quvvatlashiga ishonch hosil qilgan bo‘lsa ajab emas.

Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish ilinjida kurash olib borgan. Amir Temur 1370 yilda hukmdorlikni o‘z qo‘liga oldi. Sohibqiron o‘z davlatini barpo etish, uni siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan mustahkamlashga kirishishdan oldin qarorgoh – taxt joyi, ya’ni mamlakat poytaxtini tanlashi kerak edi. Amir Temur sultanat poytaxtini tanlashda ona shahri Buxoroga alohida e’tibor qaratgan edi. Har gal Buxoroi Sharifga kelib shaharga qaysi darvozadan kirmasinlar, otdan tushib yayov shaharga kirgan va shaharning har qarich yerini, har bir g‘ishtini muqaddas bilganlar.

XIV asrning 70-yillarida Movarounnahrda Buxoroi Sharif diniy darajasiga yeta oladigan shahar topilmasdi. Abu Hafs Kabir zamonlaridan (IX asr) “Qubbat ul islom” nomini olgan muqaddas shahar Temur sultanatining markazi bo‘lishiga tarixan tayyor edi. Ammo bu masalada Samarqandda o‘tkazilgan mashvaratda ayrim oqsoqollar tomonidan Buxoroning Movarounnahrning bir qadar chekkasida joylashganligi to‘g‘risidagi maslahatlariga qulqoq tutgan Sohibqiron bobomiz Samarqandni o‘z

saltanatining poytaxti deb e'lon qiladi. Sharqning bu bobokalon shahri o'zining siyosiy, tarixiy, iqtisodiy, jo'g'rofiy, madaniy xususiyatlari bilan ustun keldi. Buxoro ikkinchi poytaxt sifatida saltanat tayanchi bo'lib xizmat qildi[4.19].

Amir Temur davrida Buxoroda saroylar, masjidlar, xonaqohlar, savdo rastalari va boshqa imoratlar qad ko'taradi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Buxoro katta savdo-sotiq markaziga aylandi. Buxoroda bu davrda ko'plab ariqlar chiqarildi. Ayniqsa shaharning atrofini o'rab olgan Shohrud arig'inining qayta tiklanishi, shahar aholisining obi-hayotga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga xizmat qildi. Ma'lumki shahardagi mashhur ariq mo'g'ullar hujumi davrida buzib tashlangan edi. Amir Temur davrida nafaqat Buxoro shahri, balki butun voha obodonlashtirildi.

XIX asrning oxirida Buxoroda bo'lib, ariq va kanallar tizimini o'rgangan rus olimi F.Sitnyakovskiy sharqiy-janubiy tomonga qarab chiqarilgan va xalq xotirasida Temur ariq haqida ma'lumot berganki, bu kanal Amir Temur farmoyishi bilan bunyod etilgan [5.139].

Mo'g'ullar bosqini davrida butunlay vayron etilgan Buxoro vohasining suv xo'jaligi Amir Temur davriga kelib to'la tiklandi. Bu muzofotda dehqonchilik maydoni kengaydi. Keyinchalik o'z bobosining yaratuvchilik va obodonchilik an'analarini davom ettirgan Mirzo Ulug'bek davrida Buxoro viloyatining janubi-sharqiy chegarasiga tutashgan Somonjuq dashtiga suv chiqariladi va yangi yerlar o'zlashtiriladi[6.94].

Amir Temur taxtga o'tirganidan keyin ona yurti Buxoroga tez-tez kelib turardi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Amir Temur har gal harbiy yurishlardan zafar bilan qaytganda, albatta Buxoroi Sharifga kelib avliyo-ambiyolarni ziyyarat qilar, so'ngra poytaxti Samarqandga o'tar edi. Sohibqiron kelib tavof qilgan ziyyaratgohlardan biri Chashmai Ayub maqbarasidir. U XII asrda qurilgan bo'lib, 1379-yilda Temur farmoyishi bilan mozor-go'rxona ustida katta gumbaz quriladi. Amir Temur ko'rsatmasi bilan Boharziy va Bayonqulixon maqbaralarida ham ta'mirlash ishlari olib borilgan. Temur davrida Buxorodagi eng katta machitlardan biri Namozgohda mehrob devori ta'mirlanadi.

Amir Temur farmoyishi bilan Samarqandda yurtimiz tarixi, etnografiyasi, jug‘rofiyasi kabi fanning turli sohalarini qamrab olgan kutubxonan tashkil etilgan. Kutubxonani ko‘rish uchun taklif etilgan Amir Temurga, kutubxonani boshqaradigan kitobdorni tavsiya qilishni so‘raganlarida, uzoq o‘ylab turmasdan bunday kitobsevar insonni Buxorodan topish mumkinligini aytganliklari ham Amir Temurning Buxoro va Buxoroliklarni kitobsevar insonlar sifatida ulug‘laganlarining yorqin dalilidir. Amir Temur o‘z saroyining kutubxonasiga kitobdor sifatida Mavlono Orif Buxoriyni tayinlagan va unga qat’iy ishonch bildirgan.

Hazrat Sohibqiron bir kuni kechqurun kitobdor mavlono Orif Buxoriyni chaqirtirib qoladi. Kitobdor Sohibqiron bekorga yo‘qlatmasligini bilardi. Ona yurti Buxoro farzandlarining kitob o‘qishni sevishi va kitobxonlikka ishtiyoqmandligini yaxshi bilgan Amir Temur kutubxonadan vaqtı-vaqtı bilan ayrim kitoblarni so‘rab olar va ulardagı ma’lumotlar haqida fikr-mulohazalarini bildirib turar edi. Amir Temur kutubxonasining kitobdori Mavlono Orif Buxoriy: “Bironta kitob kerak bo‘lib qolgandirki, yo‘qlatganlar”, – deb o‘ylab va Sohibqironning ko‘proq tarix kitoblariga qiziqishini inobatga olib, tarix kitoblaridan olib borishga qaror qiladi va Amir Temur huzuriga Juzjoniyning “Tabaqoti Nosiri” (“Nosir turkumlari”), Rashiddindning “Jomi’ ut-tavorix” (“Tarixlar to‘plami”), shuningdek, “Tarixi Tabariy tarjiması” va “Majmu’ al-ansob” asarlarini o‘zi bilan birga olib boradi.

Amir Temur kitobdor olib kelgan kitoblarning u yer, bu yeridan varaqlab ko‘rib, hammasini chetga surib qo‘yadi. Hazrat Sohibqiron so‘ngra kitobdorga qarata: “Men bu kitoblarni bilamen”, – deydilar. Kitobdor dast o‘rnidan turdi va ta’zim qilgancha xonadan chiqib, ancha vaqtdan keyin u katta bir kitobni qo‘ltiqlaganicha xalloslab xonaga kirib keladi va ta’zim qilib kitobni Sohibqiron oldiga qo‘yadi.

Amir Temur kitobni boshdan varaqlab, to‘rtinchı sahifasidan uning nomini topadi va kitobdorga qarata: “Ha, men izlagan kitob shu, mavlono, “Tarixi Jahonkushoy”. Temurni qiziqtirgan bu kitobning muallifi Alouddin Otamatlik Juvayniy edi. Hazrat Sohibqiron kitoblarni varaqlar ekan, xiyol bosh chayqab

qo‘yadi. Negaki, kitoblar bir oz nam tortgan edi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Ko‘ksaroyda kutubxona uchun ajratilgan xonalar zaxlik qilib qolgan.

Kitobdor Amir Temurni Ko‘ksaroydagi kutubxonaning umumiylah voli qiziqtirayotganini anglab “Xonalar zaxlab qolgan, a’lo hazrat. Umuman kitob uchun devorlari marmar bilan qoplangan xonalar to‘g‘ri kelmas erkan, nazarimda. Archa daraxtidan yasalgan sanduqlar ham yetishmaydur”, – dedi.

Hazrat Sohibqiron shu vaqtning o‘zida vaziri a’zamni chaqirtirib, kutubxona va kitoblar xususida unga qator topshiriqlar berdi. Amir Temur so‘ngra kitobdorga qarata “Siz mavlono kutubxona to‘g‘risida ne fikr bo‘lsa, tortinmay kelib ayting. Kitob, taqsirim bebahoxazina. Yer qimirlab qasrlar qulab tushishi, azim shaharlar bir zumda yo‘q bo‘lib ketishi mumkin, nahrlar izdan chiqib qurib qolish hollari ham bo‘lg‘on, xazinani qaroqchi olib ketib, davlat bir fulussiz qolishi ham mumkin. Alarni vaqt bilan tiklab olsa bo‘lur. Ammo kitob yo‘q bo‘lib ketsa, uni hech qachon tiklab bo‘lmaydur. Biz kutubxona xususida yana bafurja o‘ylab ko‘rurmiz”, – deya ta’kidlaydi. Naqadar oltin fikrlar aytilganidan kitobdor ham mamnun edi. Kitobdor o‘z faoliyatida Amir Temurning bu ko‘rsatmalariga amal qildi.

Yana bir muhim jihat shundaki, Buxoroning muqaddas tuprog‘iga, uning buyuk allomalariga hurmat va ehtirom tuyg‘usini Sohibqiron farzandlariga ham singdirgan. Amir Temurning o‘g‘li Jahongir Mirzo Xonzodabegim nomi bilan mashhur bo‘lgan Suyunchbekani o‘z nikohiga olish uchun Xorazmdan Samarqandga olib kelayotganida Buxoroyi Sharifga tushib, Chashmai Ayubning muqaddas suvidan ichish, undan keyin yo‘lni davom etib, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida bo‘lib, olim, hadis ilmining sultonni Imom Ismoil al-Buxoriyning muborak mozorini tavof etish maslahatini aynan padari buzrukvoridan olgan edi [7.19,20].

Xulosa qilib aytganda, o‘z tarixida ko‘plab jangu-jadallarni ko‘rgan ko‘hna Buxoro Amir Temur davriga kelib uning yagona, markazlashgan sultanatida tinch va osoyishta hayot kechirdi. Amir Temur davrida ona yurti qadimiy Buxoro shahri somoniylardan so‘ng o‘zining ikkinchi yuksalish pallasiga kirdi. Bunda Amir Temurning ona yurtiga bo‘lgan mehri, ona yurtini nihoyatda sevishi va ulug‘lashi

muhim omil bo‘ldi. Amir Temurning ona yurti Buxoroda olib borgan obodonchilik, bunyodkorlik ishlari hozirgi yoshlar uchun namuna maktabi bo‘lib xizmat qiladi va ularni yurt taqdiriga daxldorlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutq. “Xalq so‘zi”, 2021-yil 20-yanvar, 1-bet.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения, Том 1, Москва, 1963, 134-стр.
- 3.Bo‘riboy Ahmedov. Amir Temur. Tarixiy roman. Toshkent 1995, 73-bet.
- 4.F.Qosimov. «Amir Temur va Buxoro», Buxoro tarixi masalalari (Maqolalar to‘plami) Buxoro, 1996-yil, 19-bet.
5. Н.Ф. Ситняковский. Заметка о Бухарской части долины Зерафшана. Известия Туркестанского отдела русского географического общества. Ташкент, 1990, 139-стр.
- 6.Sh.Karimov, R.Shamsiddinov. Sohibqiron Amir Temur va uning saltanati. Andijon, 1996, 94-bet.
7. F.Qosimov. «Amir Temur va Buxoro», Buxoro tarixi masalalari (Maqolalar to‘plami) Buxoro, 1996 yil, 19-20-bet.

Kobilova Hilola Mahmudjonovna

Buxoro viloyat Metodik xizmat bo‘limi Ijtimoiy fanlar metodisti

**AMIR TEMUR HAYOT YO‘LINI TUSHUNTIRISHDA “INDIVIDUAL
DARS” SHAKLI ORQALI O‘QUVCHI FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH
ASOSIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH
SAMARADORLIGI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda dars samaradorligini oshirish xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, dars davomida foydalanish mumkin bo‘lgan bir qancha interfaol metodlar, qiziqarli o‘yinlar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, innovatsiya, dars, interfaol metodlar, pedagog, texnologiya, hamkorlik, ko‘nikma, o‘yin.

Har bir zamonaning o‘z qahramonlari bahodirlari bor. Ul zotlar shaxsiy manfaat, shon-shuhrat kabi unsurlarni keyingii o‘rinlarga surib qo‘yib, millatning dardiga darmon bo‘lib yashaydilar. Ulardan biri Sohib-ul-qiron Amir Temurdir.

Sohib-ul-qiron o‘z qalbini va donoligini Samarqand shahriga baxshida etgan. Markaziy Osiyo davlatlarining birinchi markazlaridan bo‘lgan Maroqand (Samarqand) shahrida ming yillar davomida juda ko‘p tarixiy voqyealar yuz berdiki, ular umuman sivilizatsiyaning shakllanish va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdilar. Bu yerda mashhur sulolalar inqirozga yuz tutib, ularning o‘rnida yangi davlatlar barpo bo‘ldi, bu yerdan shunday karvonlar o‘gdiki, ular faqat mol tashish bilangina shug‘ullanmay, balki boshqa mamlakatlar hayoti haqidagi bebaho bilimlarni tarqatdilar. Lekin Samarqandning haqiqiy buyukligi va uning dunyoviy ahamiyati avvalo Amir Temur nomi bilan bog‘liqdir va biz uni faxr va hurmat tuyg‘usi bilan tilga olamiz. Aynan Temur va temuriylar davri deb nom olgan davrda Samarqand ulkan imperiyaning poytaxti bo‘ldi. Ko‘hna Turon va Buyuk Ipak Yo‘li shuhratini tiklash, Movarounnahr xalqlarini eng badavlat va gullab-yashnagan xalqlarga

aylantirish, Samarqdning dong‘ini olamga yoyish Sohib-ul- qironning yuksak orzusi edi. Amir Temur: “Biz kim amiri Turkiston, mulki Turonmiz, eng ko‘hna va buyuk millat – turklarning bosh bo‘g‘inimiz”, degan mashhur so‘zlarni aytganda u bugunlay haq bo‘lgan. Yon-atrofda joylashgan aholi manzillariga dunyodagi buyuk davlatlar poygaxtlarining nomlari berilganligi ham beziz emasdir. Ma’lumki, Sohib ul-qiron tarixga mamlakat mustaqilligi uchun kurashni yaratuvchilik ishlari bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashgira olgan ulug‘ arbob, Sharq va G‘arb mamlakatlarida yuksak obro‘ga ega bo‘lgan buyuk siyosatchi va diplomat sifatida kirgan. Amir Temur o‘z saltanatida jinoyatchilik va daydilikni bugunlay quritdi. U davlat tepasida turgan davrda xalq ijodiy va yaratuvchilik ishlariga to‘liq jalb qilingan edi. Sohib ul-qiron o‘z xalqi uchun doimo otalarcha qayg‘urar va uni lashkarlar juda e’zozlar edilar, bu haqsa uning zamondoshlari bir necha bor yozib qoldirganlar. U faqat savdo, tadbirkorlikka g‘amxo‘r bo‘lib qolmay, balki maorif, adabiyot va san’at sohasida ham homiylik qilib, xalqning ma’naviyati va madaniyatini rivojlantirishga ham katta ahamiyat bergen.

Hozirda O‘zbekiston o‘zining rivojlanishida tub burilish davrida bo‘lib, iqtisodiyoti jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Mazkur jarayonlarda yangiliklarga yo‘g‘rilgan kuchli ta’lim texnologiyalarini izlab topib, amaliyotda qo‘llash hamda tegishli natijalarga erishish – ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur vazifalarning asosini quyidagilar tashkil etadi:

- kelajak avlodni bozor iqtisodiyoti sharoitida yashashga hamda jadal rivojlanayotgan jamiyatda faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o‘quvchilarga ta’lim berishda asosiy e’tiborni katta hajmdagi ma’lumotlarga asoslangan nazariy bilimlarga emas, balki olgan bilimlarni mustaqil, tanqidiy fikrlash asosida mayjud muammolarni yechishga yo‘naltirish;
- o‘zgarishlarga doimo tayyor turishga, «yuqori informatsion xuruj»lar sharoitida to‘g‘ri xulosalar qilib, harakat qilishga o‘rgatish.

O‘z o‘rnida ta’lim va tarbiya, shaxs rivojlanishi yo‘lida yangidan-yangi pedagogik texnologiyalarni izlab topishni, har bir masalaga ijodiy yondashishni talab etadi. Ta’lim va tarbiya, shaxs rivojlanishi yo‘lida albatta o‘quvchining intellektual faollik darajasini aniq bilgan holda darslar tashkil etilsa albatta yaxshi natija beradi.

D.B. Bogoyavlenskayaning nazariyasiga binoan, intellektual faollikning 3 ta darajasi mavjuddir.

1. Reproduktiv. Yuqori chegarasi – qiziqish, quyi chegarasi sinalayotgan odamning vazifasiga nisbatan sustligi.

2. Evristik. Faoliyatni takomillashtirishga intilish paydo bo‘ladi, yechimning yangi usullarini topishga nisbatan intilish vujudga keladi.

3. Kreativlik. Bu intellektual faollikningyuqori darajasi bo‘lib, uning yordamida vazifani yo‘lga qo‘yishdagi tashabbus, nazariy umumiylar, o‘zaro bog‘likliklar, sabab-oqibatlar aniqlanadi.

Hozirgi tavsiyamizni reproduktiv va evristik intellektual faolligini kreativ darajaga yetishiga poydevor bo‘ladi degan umiddamiz.

“Individual dars” shakli (individual ishslash uchun)

Mustaqil bilim olishga asoslanadi – O‘quvchiga mavzu oldindan beriladi.

Yakka tartibdagi ta’lim – O‘quvchi bilan individual ishlanadi. Telegram misolida tushuntiradigan bo‘lsak, guruh ochib o‘quvchilar a’zo qilinadi. O‘quvchilar guruhda o‘zini qiziqtirgan, tushunmagan narsalarini so‘rashi mumkin. “Individual dars” strukturasi bo‘yicha quyidagicha ma’lumotlar joylashtiriladi:

Ta’sir doirasi (yangi mavzudagi atamalar talqini) uy, muhit va maktab – O‘quvchining qaysi qatlama vakili ekanligidan kelib chiqib yondashiladi chunki unga yaqin u tushunadigan atamalar orqali tushuntirilsa yaxshi samara beradi.

Yangicha yondashuv (Mavzu yuzasidan atamalarni tushuntiriladi) – O‘quvchining orzu va keljakdagi tasavvurlarini bilib olgach o‘quvchi yo‘naltiriladi.

Amaliyotga asoslangan – Dars mobaynida berilgan ma’lumot (videorolik, animasion rolik, brashura va boshqa telegram manziliga oldindan yuklanadi) larga

asoslangan holda o‘quvchi o‘zining g‘oyasi ustida mustaqil ishlab uni amaliyotga joriy etishiga yo‘naltiriladi.

Hamkorlik (hamkor tashkilotlarining telegram kanallari manzili yuboriladi) – jarayonda ta’sir ko‘rsatuvchi tashkilotlarni inobatga olish.

Individual yondashuv (Har bir o‘quvchi dunyoqarashi va imkoniyatlaridan kelib chiqib topshiriqlar ketma-ketligi beriladi) – Shaxs – ijtimoiy hayotda shaxslararo o‘zaro munosabat mahsuli va ongli faoliyat sub’ektidir.

Individuallik – kishining xarakteri, temperamenti, psixik kechinmalarining o‘ziga xos xususiyatlari, hissiyoti va faoliyatining motivlarida ko‘rinadi. Ana shunga ko‘ra kishilar bir-biridan farq qiladilar.

O‘quvchi o‘z yo‘nalishini tanlab oladi. Shu yo‘nalish haqidagi bilimlari o‘qituvchi tomonidan aniqlanadi va to‘ldiriladi.

“Individual dars” bosqichlari:

1-bosqich yangi mavzu oldindan o‘qib kelingan takrorlanadi. Qisqacha ma’lumot beriladi.

Axborot – Mavzu yuzasidan eng muhim ma’lumotlar beriladi.

2-bosqich

Tadqiqot – Mavzu yuzasidan o‘quvchining o‘zi erkin va mustaqil tadqiqot o‘tkazadi.

3-bosqich

Motivatsiya – darsning boshlang‘ich bosqichi, o‘quvchilar diqqatini o‘rganiladigan materialga qaratish, ularni qiziqish, o‘rganiladigan mavzuning foydali tomonlarini ko‘rsata olish zarur. O‘quvchini o‘quv materialini o‘zlashtirish natijasi motivatsiyaga bog‘liq.

“Buyuklar fikri”ga asoslangan holda o‘quvchilar qiziqishini orttirish, muhim tomonlari ajrata olish yo‘naltirish, shaxsiy fikrlarini izohlashga o‘rgatish.

4-bosqich

Shaxsiy fikr – O‘quvchi o‘z dunyo qarashidan kelib chiqib o‘z fikrlarini izohlaydi.

5-bosqich

Asosiy fikrlarni ajratib olish – O‘z fikrlari ichidan eng muhimlarini belgilab oladi.

6-bosqich

Mustahkamlash – darsning zarur bosqichi bo‘lib, nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirish natijasini ko‘tarish, balki o‘quvchilarni qiziqtirish, ular ongida mantiqiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

Birinchi qadamdan oxirgi qadamgacha bo‘lgan bosqichlardagi eng muhim aspektlarni belgilab olish.

7-bosqich

IQ-Baholash

IQ- bu psixologiya fanining turli boshqotirma sifat masalalar, testlar orqali kishining intellektual salohiyati (qobiliyati), uning aqliy taraqqiyoti, bilimlari darajasi, tevarak-atrofdagi voqyea-hodisalarni qabul qila olishi, ya’ni tahlil eta olish darajasini ko‘rsatuvchi o‘lchov birligi hisoblanadi. Hozirgi dunyoning rivojlangan davlatlarida kishining IQ darajasi psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan qator uslubiy amaliyotlar orqali aniqlab, o‘qishga, ishga qabul qilishga muhim (zaruriy) imtihon vazifasini o‘tamoqda.

Baholash – darsning asosiy turtki beruvchi qismi. Baholash adolatli, ko‘rgazmali, egiluvchan bo‘lishi va nisbiy bo‘lmasligi kerak. Baholash o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishi zarur. Baholash jarayonida o‘quvchilarning umumiyligi fiziologik-psixologik xususiyatlarini, shu bilan birga, har bir o‘quvchining tabiatiga xos jihatlarini inobatga olish kerak. Jamoaviy, o‘z-o‘zini, guruh bo‘lib baholash turlaridan foydalanish mumkin.

Xulosalar

Mavzu davomida olingan ma’lumotlariga, o‘quvchining mustaqil izlanishi asosida shakllangan fikrlariga muvofiq asosli xulosalanadi.

O‘tmish – Tarixga nazar orqali tahlil qilish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganiladi.

Hozir – Hozirgi kun ahvoli.

Mavjud resurs – Imkoniyatlar o‘rganiladi.

Kelajak – O‘tmishga asoslanib, hozirgi sharoitdan keilb chiqib, imkoniyatlar asosida kelajakdagi rejalar belgilab olinadi.

Mustaqil bilim olish uchun aspektlar (1 haftaga mo‘ljallangan bo‘ladi).

Sharopov Dilshod Ravshan o‘g‘li

BuxDU Buxoro tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligiga oid manbaalarning asosiylari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, G‘iyosuddin Ali, Zafarnoma, Hindistonga yurish kundaligi, Abdurazzoq Samarqandiy, Ibn Arabshoh, «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur», Ibn Xaldun.

Istiqlol yillarida Amir Temur va temuriylar davriga oid qo‘lyozmalarni o‘zbek tilida nashr etish ishlariga katta e’tibor berilmoqda, Chunonchi, bir qator tarixiy manbalar arab va fors tillaridan tarjima qilinib nashr etildiki, ularning aksariyati Sohibqiron Amir Temur davri voqealarini qamrab olgan. Biroq temuriylar davri manbalarini ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘quvchilar ommasiga tushunarli tilda nashr etish ishlarini hozirgacha ham to‘liq bajarilgan, deb bo‘lmaydi. Vaholanki, temuriylar davlatining Amir Temur vafotidan keyingii tarixini ham keng ko‘lamda aks ettirgan, o‘z zamonasi kishilari, tarixiy voqealarning jonli shohidlari tomonidan yozib qoldirilgan bir qator muhim yozma yodgorliklar bizning davrimizgacha yetib kelgan bo‘lib, ularning qo‘lyozma nusxalari jahonning yirik Sharq qo‘lyozma kitoblari xazinalarida saqlanmoqda.

Amir Temur hayoti va faoliyatini gavdalantirish uning zamoni mohiyati, ruhi, muhitini tasvirlash uchun gapni tarix fani tayanib kelgan va bundan buyon ham

tayanadigan asos-zaminli eng muhim yozma manbalardan boshlash maqbul. Amir Temur hayot davrida zamondoshlari tomonidan va uning homiyligida yoki Sohibqiron vafotidan keyin hali voqealarning ohori to‘kilmay va salaflarning merosini e’tiborga olgan holda yaratilgan asarlar ilk manbalar sifatida g‘oyat qimmatlidir[2,41].

O‘sha davr taqozosiga ko‘ra bu asarlar forsiy tilda yozilgan. Buyuk olim G‘iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning «Ro‘znomai g‘azavoti Hindiston» («Hindistonga yurish kundaligi») risolasi Amir Temur faoliyatiga oid ilk asar hisoblanadi. Bu risola Amir Temurning shaxsiy ko‘rsatmasi bilan 1399-1403-yillar oralig‘ida yozilgan. Unda 1398-1399-yillardagi yurish bataysil tasvirlangan[3,11-15].

G‘iyosiddin Ali risolasiga Amir Temurning munosabati e’tiborga sazovordir. Bu munosabat Amir Temur shaxsiy xislatlarining ayrim jihatlarini birmuncha yoritib beradi. Yuqorida ta’kidlanganidek, bu asar «G‘ayritabiyy iboralarsiz va kitobxon uchun tushunarli uslubda» yozilishi lozim edi. Shu sababli G‘iyosiddin Alining ko‘pincha asosiy ishga aloqasi bo‘lmagan va bayon mavzuuni xiralashtiradigan, tushunish qiyin bo‘lgan dabdabali va jimjimador tasvirlari Amir Temurga unchalik yoqmadи.

Ammo shunday bo‘lsa ham, G‘iyosiddin Ali Yazdiyning risolasi unda aniq ma’lumotlar bayon etilgani jihatidan qimmatli manba hisoblanadi. Amir Temur va Temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar orasida Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari, o‘ziga xosligi va qimmatli dalillarga boyligi bilan, shubhasiz, birinchi o‘rinda turadi[3,5].

Nizomiddin Shomiy (taxminan 1409-yilda vafot etgan) o‘z asarini 1402-1404-yillar orasida Amir Temurning topshirig‘i bilan yozgan. Asarda Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishidan (1370) to uning G‘arbiy Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Turkistonga qilgan yetti yillik yurishi (1399-1404) voqealari bayon etilgan[2,76].

Asarning oddiy til va sodda uslubda yozilganligi undan foydalanishni yengillashtiradi. Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»si bizgacha ikki tahrirda yetib

kelgan. Birinchi tahriri 1404-yil iyun oyida Amir Temurning Erondan Movarounnahrga qaytish paytida unga taqdim qilingan nusxa bo‘lib, hali unga nom berilmagan edi. Ikkinci tahriri o‘sha paytlarda Ozarbayjon va Iroqni idora qilib turgan Mironshohning o‘g‘li Mirzo Umarga taqdim qilingan nusxadir. Muallif uni bir qadar tahrir qilgan. Muqaddimaga ba’zi qo‘srimchalar kiritgan.

Mashhur tarixshunos olim Hofizi Abro‘ Shomiyning bu asariga qo‘srimchalar yozgan va u «Zayli Zafarnomai Shomiy» deb ataladi. Unda Amir Temur vafotigacha (1405-y. 18-fevral) bo‘lib o‘tgan voqealar bayon etilgan. Mazkur asarning qo‘lyozma nusxalari juda kam bo‘lib, Turkiya hamda Armaniston kutubxonalarida saqlanadi[4,36].

Asardan ko‘p parchalari rus tilida «Sbornik materialov, otnosyagdixsyu k istorii Zolotoy ordi» (M., 1941) va «Materialsh po istorii turkmeni Turkmenii» (M., 1939) nomli majmualarda e’lon qilingan. Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma»sining matni, zarur izohlar va ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirilib, chek sharqshunos olimi Feliks Tauer tarafidan chop etilgan. Asarning Najotiy Lug‘at qilgan turkcha va o‘zbekcha (1996-y.) tarjimalari ham bor.

Yana bir «Zafarnoma» Sharafuddin Ali Yazdiy (1454-y. vafot etgan)ning qalamiga mansub bo‘lib, ko‘tarinki uslubda bahodirlik qissasi tarzida yozilgan. Asar «Zafarnomai Temuriy», «Tarixi jahonkushoyi Temuriy», «Fathnomai Sohibqironiy» nomlari bilan ham atalgan bo‘lib, Nizomiddin Shomiy asari asosida yozilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy asarining bir qancha afzal taraflari bor. Masalan, ko‘plab dalil va hodisalar aniqlab yozilgan. Xalil Sulton hukmronligi yillari voqealarini ham o‘z ichiga olgan. Asarning yana bir muhim afzalligi shundaki, uning katta muqaddima qismi ham bo‘lib, unda Jo‘ji, Chig‘atoy uluslari hamda Elxoniylar davlatining Amir Temurgacha bo‘lgan tarixi qisqacha bayon etilgan. Muqaddima «Tarixi Jahongiriy» va «Muqaddimai Zafarnoma» nomlari bilan ma’lum. Sharafuddin Ali Yazdiy bu asarini Fors hokimi, temuriyzoda Ibrohim Sultonning topshirig‘i bilan yozgan (1425).

Asar Amir Temur tarixi, uning tavallud topishidan (1336) to Xalil Sulton hukmronligiga chek qo‘yilishigacha (1409) bo‘lgan davrda Movarounnahr, Eron, Ozarboyjon va boshqa mamlakatlarda kechgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Asarning qo‘lyozma nusxalarini Osiyo va Yevropadagi talaygina mamlakatlarnint kutubxonalarida uchratish mumkin.

Sharafuddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sining matni ikki jilda Kalkutta (1885-1888) va Tehron (1957)da Mavlaviy Muhammad Ilohdod va Muhammad Abbosiylar tarafidan chop etilgan. Fransuz (Peti de La Krua, 1722) va ingliz (J.Darbi, 1723) tillariga qisqacha tarjimalari ham bor. Asarning Shayboniyxonlardan Ko‘chkunchixon (1510-1529) zamonida Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy o‘zbek tiliga qilgan durustgina tarjimasi ham bizgacha yetib kelgan[4,41].

XIX asrda shoir va vazir Munisning topshirig‘iga binoan Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammad Xivaqiy qilgan tarjima va Yaroqbiy Qo‘ng‘irotning ko‘rsatmasi bilan noma’lum tarjimon qilgan o‘zbekcha tarjimalari, shuningdek Mustafo Rahimning turkcha tarjimasi (Istanbul, 1929) ham mavjud.

Asardan ayrim parchalar fransuz, ingliz, rus, italyan va o‘zbek tillarida chop etilgan. Parchalar Oltin O‘rda hamda Amir Temurning 1360-1370 (Movarounnahr), 1398-1399-yillardagi (Hindiston yurishi) tarixiga oiddir.

Har ikkala «Zafarnoma» Movarounnahr, Eron va Ozarbayjonning ijtimoiy-siyosiy va etnik tarixini, xalqining madaniy hayotini, shuningdek Amir Temur va Temuriylar davlatining boshqa mamlakatlar bilan siyosiy munosabatini o‘rganishda muhim manbadir.

Sharafuddin Ali Yazdiy asarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u hassos yilnomachi sifatidagina emas, balki iste’dodli adib, mohir bayonchi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Keyinchalik ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy risolaning shu jihatini alohida ukdirib, Sharafuddin Ali Yazdiyning asarini mahorat bilan yozilgan eng mukammal risolalar jumlasiga kiritadi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida «Zafarnoma» «Markaziy Osiyo tarixnavisligining durdonasi» sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amir Temur jahon tarixida. T., 2010.
2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T: O‘qituvchi, 1994.
3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T., 1997.
4. Saidqulov T.S. O‘rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. T: O‘qituvchi, 1993.

*Botirov Davrbek To‘ymurodovich
Olot tuman 31-IDUMI o‘qituvchisi*

AMIR TEMUR TARIXINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix darslarini o‘qitishda yangi pedagogik yondashuvlar, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalar va interfaol usullarnini qo‘llab o‘rganish borasida tavsiyalar keltirilgan. Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tarix fani o‘qituvchilari oldida tarix darslarining samaradorligini yana ham oshirish vazifasi ko‘ndalang turibdi. Bunda esa tarix darslarida interfaol usullarni qo‘llash esa yaxshi samara berishi haqida fikrlar aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: milliy davlatchilik, Amir Temur va temuriylar davri tarixi, ta’lim tizimi, darsliklar, an’anaviy ta’lim, zamonaviy darslar.

*«Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta’lim-tarbiya – har qaysi davlat
va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal
qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir»*

Shavkat Mirziyoyev

Mustaqil O‘zbekiston milliy davlatchilikning tiklanishi xalqimiz taqdirida mislsiz ahamiyat kasb etdi. O‘zligini anglashga bel bog‘lagan har bir xalq va millat avvalo buyuk ajdodlari, siyosiy, harbiy arboblari va ulug‘ allomalarining mamlakat, qolaversa, jahon tarixida tutgan o‘rni, xizmatlarini e’zozlashni o‘rniga qo‘yadi, boshqalarga ham uni e’tirof ettiradi

Ana shunday bemisl, betakror, butun dunyo e’tirofiga sazovor bo‘lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan-madaniyat homiysi Sohibqiron Amir Temur hayotini chuqur o‘rganish juda muhimdir. Yoshlarimiz uni qanchalik mukammal o‘rgansalar, undan shunchalik saboq oladilar. O‘zbekistonning sobitqadam, jasur, aql-idrokli, Ona Vatan qudratini jahonga ko‘z-ko‘z qilishga qodir va xos fidoiy farzandlari bo‘lib yetishadilar.

Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan mavzularni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikativ texnologiyalar yordamida o‘rganish nihoyatda muhimdir. Chunki bugungi kunda maktab, akademik litsey va boshqa ta’lim dargohlarida yangi pedagogik yondashuvlar va axborot kommunikativ texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etilishiga katta ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekiston tarixini o‘qitishda va o‘rganish jarayonida fan dasturlarida Amir Temur va temuriylar davri tarixiga muhim o‘rinlardan biri ajratiladi. Bu mavzu o‘z ichiga bir qator mavzularni qamrab olgan bo‘lib, ularni o‘quvchi va o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi

Vatanimiz ta’limi keng qamrovli islohotlarni amalgalashishdek murakkab jarayonni boshidan kechirmoqda ulardan ko‘zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoiyillarini rivojlantirish, bu vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalariga munosabatni tubdan o‘zgartirishdan iborat ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Bu tajribalarni sinchkovlik va qunt bilan o‘rganish orqali ta’limda xato va yanglishishlardan, shubhali xulosalardan o‘zimizni saqlashimizdan tashqari ta’lim-

tarbiyada qotib qolgan, eskirgan, o‘z dolzarbligini yo‘qotib borayotgan ish shakllari va uslublaridan tezroq xalos bo‘lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ham ega bo‘lamiz.

Tarix fani o‘qituvchilari oldida tarix darslarining samaradorligini yana ham oshirish vazifasi ko‘ndalang turibdi. Bunda esa tarix darslarida interfaol usullarni qo‘llash yaxshi samara berayotganligi o‘tkazilayotgan tajribalardan ham ko‘rinib turibdi.

Bugun endi tarix fani ustozlari oldida ish faoliyatimizda keng qo‘llashimiz va o‘z o‘rnida yangi pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanishimiz hamda tarix darslari samaradorligini yanada oshirishga o‘z hissamizni qo‘shishdek vazifalar turibdi.

Mazkur mavzu zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda ta’lim sohasida ham islohotlar, yangiliklar qilishni taqozo etmoqda. Endi o‘quvchi va o‘quvchilarni an’anaviy ta’lim metodlari bilangina o‘qitish yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu bois ta’limga yangicha yondashish kunning dolzarb masalasiga aylandi. Zero: “Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunga zamonning o‘zi ham yo‘l qo‘ymaydi”.

Ko‘p hollarda o‘qituvchilar o‘qitish usullarini tanlashda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga faqat tayyor bilim berish, ya‘ni ularni oqitish ta’limini bir tomonini ko‘zda tutib o‘quvchilarning o‘rganishi, ta‘limning ikkinchi muhim tomonlarini uyushtirish unga rahbarlik qilish, bilim, malaka va qobiliyatlarini sistemali ravishda o‘sirib borish kabi muhim jihatlarini e‘tibordan chetda qoldiradilar. Shuningdek o‘qitishning usul va usullarini tanlash o‘quv materiallarining mazmunidagi o‘ziga xosliklarni, uning ta‘lim-tarbiyaviy vazifalarini o‘quvchilarning bilimi, malakasini etiborga ola bilmaslik hollari ham shunday jiddiy kamchiliklar jumlasidan edi. Bu hol ma‘lum darajada o‘quvchilarning tarix faniga qiziqishlari pasayishga umumiy ta‘lim-tarbiya ishlarini natijasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi (yoki o‘quvchi) larni faqat tayyor bilimlarni egalashga o‘rgatib kelingandi. Bunday usul o‘quvchi (yoki o‘quvchi)larda

mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so‘ndirar edi. Endi o‘quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o‘rniga darslarni tashkil etishga ma’suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma’suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o‘zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta’limni tashkil eta oladigan o‘qituvchilarga talab oshib bormoqda.

Sodiqova Gulshod Abdurasulovna

Qorovulbozor tuman 8-IDUM tarix fani o‘qituvchisi

BUYUK AMIR TEMUR – MILLAT FAXRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning faoliyatiga umumiy tavsif berilgan. Shuningdek, sohibqiron qabrining ohilihi bilan bog‘liq mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, tarixchilar asarlari, sohibqiron bobomizni jahondagi o‘rni.

Amir Temurga bag‘ishlab yaratilgan asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, 33 mamlakatdan, sharq tillarida esa 900 ga yaqin asarlarni tashkil etadi. Amir Temurning tug‘ulishi haqida quyidagi fikrlar kitoblarda talqin etiladi. “Farzand kutayotgan baxtiyor otaga ma’lum bo‘lishicha ilohiy payg‘om haqida “Zafar yo‘li” kitobida bir lavha mavjud. Keyinchalik ota – Muhammad Tarag‘ayning o‘g‘li Temurbekka hikoya qilib berishicha, u bir kecha tush ko‘rgan. Tushida arabsiymo bir zot unga qilich bergen. Qilichni boshi uzra sirpaganda butun atrof yorug‘ bo‘lib ketgan. Tarag‘ay tushini ta‘birini piri Shamsiddin Kuloldan so‘raganda, pir “Olloh senga bir o‘g‘il beradi, u dunyoni zulmatdan qutqaradi” deb tushni ta‘bir qilgan ekan”.

Ana shunday sir-sinoatlar qurshovida farzand tug‘ildi. Endi unga ism qo‘yish kerak edi. Ota chaqaloqni pir Shamsiddin Kulol huzuriga olib boradi. Ularni tashrifi pirga ayon bo‘ladi. Shamsiddin Kulol otani qutlab qo‘liga bir hovuch bug‘doy va mayiz bergen va “Ularning sonicha avloding hukmron bo‘ladi” deb karomat qilgan, ular soni 370 ta bo‘lgan ekan. Shayxning oldiga kirganlarida ul zot Qur’ondan “Aamintum man fi-s-samaai-yaxsifa bikumu-l arza fa iza hiya tamuru” (67-Mulk surasi, 16-oyat)ni o‘qib o‘tirgan ekan. Shundan oyatdagи “tamuru” so‘zidan bolaga “Temur” ismini beradilar. Mulk surasi (“mulk” so‘zi arab tilida podshohlik, hukmronlik ma’nosini bildiradi). “Taborak” deb boshlangan shu so‘z bilan ko‘op qiroat qilinadi (Hakim Sattoriy “Hazrat Sohibqiron” asari 38-39 bet).

Amir Temurning harbiy yurushlari tarixiga bag‘ishlangan asarlar bobomiz tirikligidayoq yozilgan bo‘lib, bu an’ana Shohruh davrida ham davom etgan. Tarixchilar Nizomuddin Shomiyning “Zafarnoma”, Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” Fasih Ahmad Xavofiyning “Mujmali Fasihiy”, Abdurazzoq Samarcandiyning “Matla as-sa’dayn”, Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur” kabi asarlar hamda Amir Temur Ispaniya qiroli Genrix III, Fransiya hukmdori Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroylariga elchilar yuborib, mutanosib ravishda ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa qator xorijiy elchilarni o‘z saltanatida qabul qilgan ularning esdaliklari ham muhim manbalardir (Hakim Sattoriy “Hazrat Sohibqiron” asari 14-15 bet)(Salohiddin Toshkandiy “Temurnoma” 7-bet).

Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI yozgan xatidagi quyidagi fikr diqqatga sazovordir. “*Siz o‘z savdogarlaringizni mening sultanatimga yuboring. Biz ularni ulug‘ qarshi olib izzat-ikrom ko‘rsatamiz. Biz ham o‘z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo‘llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko‘rsating, ularga ortiqcha vazifalar qilinishiga yo‘l qo‘ymang. Sizga bundan bo‘lak talabim yo‘q. Zero, dunyo ahli savdo ila obod bo‘lajak*” Qarang, qanday oddiy va aniq fikr. Demak, Amir Temur tashqi savdoga katta e’tibor bergen.

“Tajribamda ko ‘rilgankim, azmu qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz loqayd kishidan yaxshiroqdir”. Demak, Amir Temur bobomiz tadbirkorlarni juda qadrlagan. Amir Temur bobomizning bunday chuqr ma’noli, hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan. “Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqrar” degan maqolga g‘oyat hamohang bo‘lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir (“Amir Temur o‘gitlari” 11-bet).

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Amir Temur surati saqlanganmi? Ul zotning qiyofalari qanday bo‘lgan? Kimlar uni tarbiyalashgan?

Lekin afsuski, Amir Temur ham, Mirzo Ulug‘bek ham o‘z vaqtida suratlarini chizdirib qo‘yishmagan ekan. Shu sababdan ularning surati va siyratini yaxshi bilmaymiz. Hammamiz ularni sho‘rolar davrida antropolog olim M.Gerasimov “yaratgan” byust orqali bilamiz. Bu suratda bobomiz badbashara, jahldor qilib tasvirlangan edi. Sababi M.Gerasimov Qizil imperiya tuzumining ko‘rsatmalariga bo‘ysunib, shunday ish qilgan edi. Chunki, o‘scha zamonlarda Amir Temur bobomiz qoralangan, asl siymolari qolib uydurma qiyofa yaratilgan edi. Vaholanki, Amir Temur bobomizni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, yetti yil uning saroyida istiqomat qilib, suhbatlariga musharraf bo‘lgan va tarbiyasini topgan tarixshunos olim Ibn Arabshoh Hazrat sohibqironni bunday tasvirlaydi: “*Temur baland bo‘yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasi katta, bag‘oyat kuchli va salobatli, oq-qizil yuzli, qo‘l-oyoqlari baquvvat, keng yelkali, barmoqlari yo‘g‘on, boldirlari semiz, qaddi-qomati kelishgan, sersoqol, ikki ko‘zi bamisoli ikki sham, yo‘g‘on ovozli..., bexato fikrli, faxm-farosatli, baxtiyor, ulug‘ligi o‘ziga yarashgan, qat’iy azm bilan so‘zlovchi, haqgo‘y kishi edi. U zimdan qarash va ko‘z ishoratlarini sezadigan, idrokli, sinchkov, har qanday ishoratdan ogoh kishi bo‘lib, yuz berishi mumkin bo‘lgan hamma ishni oldindan ko‘rib-bilib turar edi*”. Amir Temur bobomiz haqida tarixchi va sayyoh Ibn Xaldun ham o‘z qo‘lyozmasini qoldirgan. Amir Temur bobomiz bilan Ibn Xaldun 1401-yilning yanvar-fevral oylarida uch rashgan. Amir Temur bobomiz undan Mag‘rib mamlakatlari haqida ma’lumot to‘plab berishini so‘raydilar olim ma’lumotlar

bergach,o‘z yurti Qohiraga qaytishini ijod etishini davom etirishiga ruxsat bergenliklari haqida o‘z xotiralarida yozadi. Amir Temur bobomiz o‘z hulq- atvori va atrofdagilarga muomalasi bilan ko‘pchilikka o‘rnak bo‘lgan.. (Hakim Sattoriy “Hazrat Sohibqiron” asari 34-154 bet)

Amir Temurning siymosini yaratish 1994-yildan boshlab kirishildi. Hatto ko‘rik-tanlov ham e’lon qilindi. Natijada suratlar orasidan rassom, professor Malik Nabiyevning chizgan surati tanlab olindi. Bir necha oylik ishlaridan so‘ng, Malik Nabiyevning chizgan surati, Ilhom Jabborov yaratgan haykali muvofiq topildi. Amir Temur bobomiz haqida so‘z borganda bir savol meni qiyaydi. 1941-yil Alisher Navoiy bobomizning 500 yiligi munosabati bilan negadir Amir Temur bobomizning ham qabrlari ochiladi? Nega Amir Temur bobomizning ham ruhlari toptaladi? Ekspeditsiya a’zolari quyidagilar edi: Qori Niyoziy, antropolog M.Gerasimov, professor L.Oshanin, eronshunos A.Seminov, arxitektor B.Zasipkin, arxeolog B.Shishkinlardan iborat edi. 1941-yil 19-iyun kuni Amir Temur qabrini ochishga kirishiladi. Uning qabri o‘g‘illaridan ancha farq qilib, o‘z salovati va ulug‘vorligi bilan ajralib turardi. Qabr 20 sm qalinlikda og‘ir marmartosh bilan berkitilgan bo‘lib, toshning uzunligi 2 metr 45 sm, eni 90 sm. Bu qabr toshga mahorat bilan yozuv bitilgan. Qabrning uzunligi 3 metr, eni va chuqurligi 1 metr. 20-iyun kuni ekspeditsiya o‘z ishini davom ettiradi. Butun jarayon kinosuratga olinayotganligi va hujjatlashtirilib borilayotganligi uchun ish sekin davom etardi. Amir Temurning tobutini lahaddan oladilar. Tobutning hamma tomoni archadan yasalgan edi, shuning uchun ham shuncha yillar o‘tsada tobutga hech narsa bo‘lmagan edi. Ustki qismida esa ko‘k rangli ipak choyshab yopilgan edi. Ipak choyshab yomon saqlanganligi uchun naqshlar butunicha aniqlanmadi. Sohibqironning jasadi uzun qilib yotqizilgan bo‘lib, yuzi Makka tomonga qaratilgan edi. Amir Temur jasadi ko‘rindi. Atrofni allaqanday hushbo‘y hid qopladi. Bu yerda turganlar hiddanmi yoki hayratdanmi o‘zlarini orqaga oladilar Uning boshi, bo‘yi, oyoq tomonlari mumiyolangan muskullari, teri parchalarini turardi. I.V.Oshanin jasadning suyaklarini tekshirganda quyidagilarni aniqlagan edi: Temur yelkasi keng va bo‘yi o‘rtacha – 166,2 sm

bo‘lgan. Miyasining hajmi 1668 sm kub.sm bo‘lib, u erkak kishi miyasining o‘rta hajmidan (1500 kub.sm) ortiqdir. Antropolog Gerasimov Amir Temurning soch va soqoli ranglarini o‘rganib chiqadi. Suyaklari ham o‘rganadi. Afsuski, Temur bobomizni suyaklarini o‘rganish maqsadida Moskvaga olib ketildi.

Amir Temur bobomiz hayoti yoshlarimiz uchun muhim tarbiya omilidir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning fikrlari bilan izohlasak, – “*Tarix bu ko‘hna dunyoda o‘tgan ko‘p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzg‘unchilik qilgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Uning “Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim”*” degan, so‘zları fikrimizning dalilidir.

Zero, Amir Temur va temuriylar davri (XVI asr ikkinchi yarmi va XV asr) Movarounnahr va Xuroson o‘lkalarida madaniy rivojlanishning yuksak darajaga erishuvi, ma’naviy hayotning takomillashuvi bilan izohlanadi.

Mening fikrimcha nafaqat tarix fani o‘qituvchisi balki, matematika, fizika, geografiya, ingliz tili barcha-barcha fan o‘qituvchilar buyuk davlatchiligidimiz asoschisi haqidagi manbalarni bilishi yosh avlodga uni har doim talqin etishi milliy g‘ururni o‘quvchilar ongiga singdirishi lozim deb hisoblayman. Zero, buyuk ajdodlarimiz yod etgan yosh avlod ularga munosib ajdod bo‘lishga harakat qiladi, ularni hech qanday yot g‘oyalar chalg‘itmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2008-yil.
2. “Amir Temur o‘gitlari” 1996-yil
3. Hakim Sattoriy “Hazrat Sohibqiron” asari “Sharq” 2016,2019-yil
4. Salohiddin Toshkandiy “Temurnoma” “Toshkent” 1991-yil
5. “Amir Temur ajdodlari” “Qomuslar Bosh tahririyyati “Toshkent” 1992-yil.

AMIR TEMUR DAVLATINING RAMZLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur davlatining ramzlari xususida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Amir Temur tarixini o‘qitishning dolzarbligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat ramzlari, bayroq, Amir Temur, madhiya, mo‘g‘ullar hukmronligi, Sayyid Baraka.

Bugun biz xalqimizning ko‘z oldimizda bunyod bo‘layotgan yangi tarixiga nafaqat guvohmiz, balki bu tarixiy jarayonning bevosita ishtirokchilarimiz. Shuning uchun ham yaqin o‘tmishimizda yuz bergan voqeа-hodisalarни to‘laqonli va haqqoniy aks ettirish ham bizning burchimizdir.

Amir Temur shaxsiyatini tiklash va uning nomini tarixiy mavqeyiga munosib tarzda dunyoga tanitish g‘oyasining paydo bo‘lishi va amalga oshirilishi hammamizning ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqilligi bizga buyuk sohibqironni qaytarib bergani bilan ham alohida qadrlidir. Amir Temur yana xalqimiz qalbidan munosib o‘rin oldi.

XIV asrning 2-yarmi va XV asr vatanimiz tarixida voqealarga nihoyatda boy, tarixiy saboq davri hisoblanadi. Chunki bu davrda mo‘g‘ullar hukmronligi va feodal tarqoqlik tugatilib, bosqinchilarning vayronagarchiliklari va bir yarim asrlik zulmlari oqibatida iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy turg‘unlik holatida tushib qolgan mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qayta tiklashga kirishdi. Bu diyorda Amir Temur boshchiligidagi yagona tug‘ ostida markazlashgan, kuchli va mustaqil feodal davlat tashkil topdi.

Markaziy Osiyo xalqlari ostida yuz bergan bu tarixiy voqeada, shubhasiz, Amir Temurning xizmati g‘oyat buyukdir. Yirik davlatni yaratib, Amir Temur mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivoji uchun sharoitlarni tayyorlagan. O‘tgan davrlarning qadimiyligi an’analari yangi tarixiy ko‘rinishda qayta tiklanadi. Yaqin va

O‘rta Sharq bo‘ylab Movaraunnahr savdo-sotiq, iqtisod va madaniyat markaziga aylanishi zamirida, Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv va boshqa qadimiy shaharlar obodonlasha boshlagan.

Masjid, madrasa, maqbara, karvonsaroy va hammomlarning katta binolari qad rostlay boshlagan. Har qanday g‘alaba me’morchilikda abadiylashishi odatiy holatga aylanib qolgan. Bunyodkorlik faoliyatida Amir Temur ma’lum bir siyosiy maqsadlarga amal qilgan. U qurdirgan inshootlar sultanatning kuch-qudratini ko‘rsatib bera olishi kerak bo‘lgan.

Boshqaruv yillari davomida Amir Temur feodal tarqoqlikka barham beradi. Fransiya, Angliya, Kastiliya kabi yirik Yevropa qirolliklari bilan savdo-diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yadi. Afsuski, Amir Temurning vafotidan so‘ng, g‘arbiy Yevropa bilan savdo-diplomatik aloqalar nihoyasiga yetadi.

Amir Temur tarix sahifalarida Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorda turadi. Amir Temur – insoniyat tarixidagi eng qat’iyatli shaxslardan biridir. Turli manbalarga tayangan holda u haqidagi bilimlarimizda ham hukmdor, zabit, sarkarda, ham jangchi sifatida gavdalanadi. O‘z davlatining kuch-qudratini oshirib, uni mustahkamlash uchun Amir Temur davlatining boshqa davlatlarga o‘xshab o‘z ramzlari – davlat bayrog‘i, gerbi va mamlakatning madhiyasi mavjud bo‘lgan. Bu davlat bayrog‘iga moviy osmon, butun koinotga ta’sir qiluvchi quyosh va hayvonlarning eng qudratlisi sher suratini aks ettirgan. Alloh yaratgan eng buyuk mo‘jiza quyoshdir. Quyosh hammaga rizq-ro‘z ulashadi. Shuning uchun nur sochib turgan quyosh ramzi bayroqda asosiy o‘rin tutgan. Amir Temur ovni yoqtirgan, hayvonlarning qudratlisi sher unga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan. Moviy osmon esa beg‘uborlik, tiriklik ramzi sifatida qabul qilingan. Davlat bayrog‘ini maxsus bo‘linma jangchilari qo‘riqlashgan. Jang paytida bayroq eng baland joyda hilpirab turgan. Bayroqning yiqitilishi, dushman tomonidan qo‘lga kiritilishi mag‘lubiyat hisoblangan.

Davlat tamg‘asi yoxud davlat gerbi uchburchak shaklda bo‘lgan. Sohibqironning uch iqlimda shimol, janub, g‘arb ya’ni uchta qit’a, 27 mamlakatga

hukmronligiga ishora qilingan. Davlat gerbi mamlakatning rasmiy qog‘ozlarida, yorliqlarida va mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarda o‘z ifodasini topgan. Hatto otlarning taqasida ham tamg‘a belgisi ifodalangan. Qilich, egar-jabduq, gazlamalarda tamg‘a bo‘lgan. Unda “Kuch adolatda!” ya’ni “Rosti-rusti” uning uzugida yozilgan.

Sohibqiron sultanatining madhiyasi ham bo‘lgan. Bu madhiya “Alloh yor” deb nomlangan. Davlat bayramlari paytida, harbiy yurishlarda, jangga kirishishdan oldin harbiy ko‘riklarda bu madhiya yangragan va hamma ishda Allah yor bo‘lsin deb da’vat etilgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘rta Osiyoda Temur va Temuriylar davrida madaniyat rivojlandi va kamol topdi. XIV-XV asrlardagi Movaraunnahr va Xurosondagi madaniy taraqqiyotning tamal tojini Buyuk Sohibqiron Amir Temur qo‘ygan edi. O‘zining mustaqil davlatchilik yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda Sohibqiron sultanatidagi ko‘pgina foydali jihatlar o‘z ifodasini topgan. Bayrog‘imizdagい moviy rang, ichki siyosatda “Kuch adolatda!” degan shiorlarni amalga oshirilishi huquqiy davlat barpo etilishi sari qo‘yilayotgan qadam bularning isbotidir.

Ro‘ziyeva Istat Olimovna

Jondor tumani 1-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

AMIR TEMUR – MOHIR DIPLOMAT

Annotatsiya: Barchamizga ma’lumki, yigirma birinchi asr texnika hamda texnologiya asridir. Bu davrda mamlakatlar o‘z hududi, o‘z rahbariga ega va bu ma’sul shaxslar davlat fuqarolari tinchligi uchun tinmay kurashadilar. Ammo, bunday jonkuyarlik avvalgi zamonlarda davlat rahbari uchun ancha qimmatga tushgan. Tarixda ana shunday adolatli, kuchli davlat rahbarlaridan biri bu Amir Temur edi. Bu maqola ana shu tarixiy shaxs va tashkil qilgan davlat, uning diplomatik aloqalari va ijtimoiy hayotiga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: jahon sivilizatsiyasi, “yetti qo‘l”, qanbul, janglar, Yevropa davlatlari, “Temur tuzuklari”.

Barchamizga ma’lumki, yigirma birinchi asr texnika hamda texnologiya asridir. Dunyoning turli burchaklarida taniqli davlat va jamiyat arboblari, olimlar va adiblar ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ijodiy faoliyati davomida buyuk ajdodlatimiz, xususan, Sohibqiron Amir Temurning jahon sivilizatsiyasi va madaniyati rivojiga qo‘shtgan munosib ulushini yuksak baholab kelmoqda.

Tarixiy hujjatlarning dalolat berishicha, 14-asrning 70-yillaridanoq Yevropa davlatlari vakillari Movarounnahrga kelib, bu yerdagi yangi mustaqil davlatning qudrati va salohiyati bilan jiddiy qiziqqanlar. Amir Temur o‘zining markazlashgan davlati uchun tuzilgan tom ma’nodagi Konstitutsiyasi bo‘lgan “Temur tuzuklari” kitobi asosida boshqargan. Amir Temur ot surgan paytda dunyo qanday qiyofada edi? Bundan 680 yil oldingi manzarani ko‘z oldimizga keltirsak, odamzod bugungi Amerika qit’asini bilmas ham edi. Evroosiyo materigi odamlari esa daraxt yaprog‘iga yopinib, cho‘qmor bilan ayiq, baliq ovlab, qorin to‘yg‘azib yurgan edi. Bu davrda Sohibqiron saltanati buyuklikka erishib,zolimlar jilovlangan, xalq osoyish topgan, davlat esa takomillashgan edi.

Amir Temurning markazlashgan davlatni barpo etishi oson bo‘lmagan albatta. Bu qon to‘kishlar va shiddatli janglar natijasidir. Shu o‘rinda ayrim janglarni eslash joizdir.

-Terek daryosi yonidagi jang (1395-yil, 15-17-aprel) Temur bu jangda 200 000 qo‘shtin bilan jang qilgan,yutug‘i – taktik jihatdan bu harbiy qo‘shtilmalar mustaqil harakat qilgan va bosh qo‘mondonga bo‘ysungan.

-Jangi loy – Temur va Husayn ibn Musalabning Jeta (Mo‘g‘uliston) xoni Ilyosxo‘ja bilan bo‘lgan.

-Anqara jangi – (1402-yil 12-iyul) Amir Temur va turk sultonasi Boyazid I Yildirim o‘rtasida bo‘lgan.

- Qunduzcha jangi (1391-yil 18-iyun) Amir Temur va Oltin O'rda xoni To'xtamish qo'shini o'rtasida bo'lgan.

Xuddi shunga o'xshagan bir necha janglar va g'alabalar buyuk davlat asosi uchun poydevor bo'lgan desak adashmaymiz. Masalan, qumbul (qunbul, qanbul) (mog'ulcha – markazni qurshamoq, qanot muhofazasi, qo'shin qanotlarini dushman hujumidan himoya qiluvchi suvoriy harbiy qism) Amir Temur jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib jang maydonida 7 qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan.

Amir Temur yoshligidan noyob qobiliyat, aql va tafakkurga ega ekanligi ma'lum. Shuning uchun ham boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalar qura olgan. Qudratli davlat shakllangach, Kastiliya va Leon qiroli Don Enrike III, Fransiya hukmdori Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroyga elchilar yuborgan va diplomatik aloqalar o'rnatganlar. Sohibqiron elchisi arxiyepiskop Ioanning "Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar" asari ham o'tgan 600 yil mobaynida diplomatik aloqa haqida turli tillarda yaratilgan 1000 dan ziyod asarlar orasida ishonchli va xolis manba sifatida alohida o'rin tutadi. Turli mamlakat diplomatlari bu shaxs bilan aloqalar o'rnatishga harakat qilganlar.

Yuqorida aytilganidek, "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvi uchun asos bo'lgan. Quyidagi iqtiboslar shu asardan keltirilgan. "...*Mening qattiqqo'lligim, bag'ritoshligim, eng avvalo, xalqimning tinchligi, sultanatimning ravnaqi uchundir. Dushmanlarimga ayovsizligim rost. O'g'rilik, talonchilik, zo'ravonlik ildizlariga qattiqqo'llik bilan bolta urilmasa, muloyimmijozlik bilan natijaga erishib bo'lmaydi...*", "...*Ehtiyyot bo'ling, sharob, may va boshqa kayf beruvchi narsalardan saqlaning. Agar unga ruju qo'ysangiz, bilingki, mulkingiz barbod bo'ladi, hokimiyatingiz qulaydi*".

Manbalar Amir Temurni mohir strateg, omadli sarkarda deb ta'riflaydi va uning e'tiqodi, sultanatida dinlarning o'rni, holati xususida quyidagilarni yozadi. Sultanatda diniy huquq hukmron bo'lsa-da, Temur shu qadar dono ish yuritar ediki, o'zini islomning sodiq bandasi sifatida bir necha bor amalda isbotlab bergen.

Onlayn kitob ilovalarida fransuz yozuvchisi Marsel Brionning “Men kim Sohibqiron – jahongir Temur” deb nomlangan kitobiga ko‘zim tushib qoldi. Asarni o‘qir ekansiz, unda Temur hayoti va faoliyati, markazlashgan davlat asoschisi ekanligiga amin bo‘lasiz. Dastlab muallif Amir Temurga bag‘ishlangan “Temurlan” ocherkini 1942-yilda chop ettirdi.

Odamzod naslining bir vakili hayotligida qanday bo‘hronlarni boshdan o‘tkazgan. Nima bo‘lganda ham Amir Temur xuddi poytaxtda o‘rnatilgan muhtasham haykal kabi insoniyat tarixi xiyobonida hech narsani pisand qilmay, mag‘rur turibdi. Shunday mahalda beixtiyor biz uni buyuk davlat asoschisi, mohir diplomat deya baralla ayta olamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Saidov. Temur va Yevropa. “Milliy tiklanish” gazetasi. 2010-yil, 7-aprel.14-son.
2. Yunus O‘g‘uz. Amir Temur. Tarixiy roman. “Yangi asr avlod”, 2014.
3. Amir Temur. Temur tuzuklari. “O‘qituvchi”, 2018.
4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. “Mehnat”, 1991, 1-qism.

Safarov Abdurahmon Ibodovich

Romitan tuman xalq ta’limi bo‘limi metodisti

AMIR TEMURNI ANGLASH – O‘ZLIGIMIZNI ANGLASH DEMAKDIR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning diplomatik, bunyodkorlik faoliyati haqida fikr yuritilgan. Hozirgi kunda Amir Temur tarixini o‘qitishning afzal jihatlari haqida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Go‘ri Amir, “Yer yuzining sayqali”, Ulug‘bek, “Temur tuzuklari”, bunyodkorlik, taraqqiyot.

Biz bugun afsonaviy ajdodimiz, yetti iqlim hukmdori deb nom olgan muzaffar o‘zbek, buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temurning nomini buyuk ehtirom bilan

tilga olamiz. Negaki, Amir Temur shon-u shavkati zamin-u zamonlarga taralgan bashariyat farzandidir. U eng avvalo, umuminsoniy, tarixiy shaxs. Buyuk shajaramizning iftixori, davlatimiz va davlatchiligidan asoschisidir. Biroq, o‘zbek kishisining ongida bu ulug‘ zot abadul abad Vatan va Ozodlik ramzi bo‘lib qolgan.

Zotan, u o‘zbek millatini mazlumlik, xor-u zorlik, parokandalik botqog‘idan xalos etib, shu qadar yuksaklarga ko‘tardiki, pirovardida to‘la huquq bilan uni “millatlarning eng qadimi va eng ulug‘i” deb atay oldi. Yolg‘iz o‘zining hayoti davomida – tarixan bir soniyalik muddatda – o‘z ruhiyati qudrati, o‘z tafakkuri shiddati bilan o‘zining ta’biricha “kengash, tadbir va mashvarat” bilan, iloji qolmaganda, zamonasining zayliga ko‘ra qo‘lda qilich bilan “Irtishdan Ganggacha, Gobi sahrosidan Marmar dengizigacha”, “Volga bo‘ylaridan qudratli Nil sohillarigacha, Oltin O‘rdadan Hijozgacha” yastangan qudratli davlatni barpo etdi va avlodlarga meros qilib qoldirdi. Bizning bugungi O‘zbekistonni tashkil etgan Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi zamin esa o‘sha davr kishilarining ta’rifi bo‘yicha chinakam jannatga aylantirilgan edi.

“XIII asrning birinchi yarmida Samarqand bosqinchilar zulmi tufayli xarobalikka yuz tutgan, qal’alar, masjidlar, madrasalar qarovsiz qolgan edi. O‘sha zamonda yurtimizga kelgan bir arab sayyoxining shohidlik berishicha Samarqand shunday huvillab yotardiki, avvalgi aholisining chorak qismi qolgan, me’moriy obidalar vayronaga aylangan, ariqlar ko‘milib ketgan, shahar suvsiz, bog‘lar qurib bitgan edi.

Sohibqiron bobomiz ana shunday murakkab bir davrda taxt tepasiga keldi. U Samarqandning gullab-yashnashi uchun butun umrini sarf etdi”.

Sohibqiron Amir Temur tufayli Samarqand “Yer yuzining sayqali”ga aylandi. Alp Yer To‘nga poytaxt etgan, Aleksandr Makedonskiy, Qutayba ibn Muslim, Chingizxonlar mutlaq yer yuzidan yo‘qotib tashlamoqchi bo‘lgan Samarqand – samandardek, qaqnusdek qaytadan yana o‘zini tiklayverdi. Lekin u Amir Temur va uning nevarasi, buyuk munajjim Ulug‘bek va bizning mustaqilligimiz davridagidek,

hech qachon jamol ochmagan edi. Har qanday chet ellik sayyoh Go‘ri Amir, Bibixonim, Shohizinda maqbaralari, Registondagi madrasalar qoshida hayratga tushgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida bunyod etilgan Imom al-Buxoriy, Imom al-Motrudiy maqbaralari qoshida ham ana shunday holatni boshdan kechirishi tayin. Sohibqiron Amir Temur ham yurtimizning har bir burjida ulkan qurilishlarni amalga oshirgan bo‘lsa, masjid-u madrasalar, buyuk zotlarga maqbaralar bunyod etgan bo‘lsa, bugungi kunda poytaxtni-ku qo‘ya turing, viloyat markazlari, tumanlar, qishloqlardagi bunyodkorlik ishlarini ko‘rib ko‘zingiz quvnaydi. Bunday paytda Amir Temurning “*Kimki bizning shon-shuhratimizni ko‘rmoqchi bo‘lsa, biz barpo etgan imoratlarga nazar solsin*”, – degan so‘zлари yodiga tushadi. Shunday zamonalarni boshdan kechirdikki, “*Qay bir joydan bir g‘isht olsam o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim*”, degan buyuk zot haqida savodsiz, johil, qonxo‘r, bosqinchi degan so‘zlarni boshni egib eshitib keldik.

Amir Temur ozodlikni tug‘, adolatni shoir etgan inson. Hatto vido nafasida ham avlodlarga u “*Adolat va ozodlik – dasturingiz, rahbaringiz o‘lsin*”, – deya tayinlagan edi. Uning butun hayoti, siyosati, mafkurasi ozodlik va vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgandir. Siyosatda Amir Temur kuch ishlatalish tarafdoi emas edi. “*Siyosat bilan maqsadga erishish mumkin bo‘lgan joyda qurol bilan harakat qilish noto‘g‘ridir*”, – degan edi u. Lekin, yurtini tashqi zulm va tajovuzlardan tamomila ozod qilgandan keyin, xavfsizlikni ta’min etish uchun umrining 45 yilini ot ustida, jang-u jadallarda kechirdi. Shu bois insonlar tasavvurida Amir Temur siymosi jahongir lashkarboshi sifatida mangu o‘rnashib qoldi. Uning jahon miqqosida qozongan obro‘-e’tibori ham asosan harbiy salohiyatlari, harbiy sohadagi zafarlari markazlashgan buyuk davlatni, olamshumul sultanatni barpo etganligi sharofatidir.

Biroq, g‘alaba yoki mag‘lubiyat, tavallud yoki ajal – inson hayotining sirtqi alomatlari, xolos. Hayotning asl mohiyati ma’naviy jabhalarda yotadi, ma’naviy mazmunlarda ochiladi. Faqat mustahkam ma’naviyat qonun-qoidalariga asoslangan siyosat porloq istiqbolga egadir. Amir Temur sultanatining misli ko‘rilmagan ravnaqi,

jahonshumul obro’si negizini bu davlatda qaror topgan va butun dunyoda so‘zsiz e’tirof etilgan yuksak ma’naviyat tashkil etadi.

Jumayeva Mahorat Ga ’ybullayevna
Kogon tuman ijtimoiy fanlar bo ‘yicha trener

MAKTABLARDA TEMURIYLAR HAFTALIGINI O‘TKAZISH

Annotatsiya: Yurtimizda ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tiborning zamirida kuchli kadrlarni shakllantirish, ular ta’lim berayotgan o‘quvchilardan kuchli jamiyat barpo etish nazarda tutilagan. Har bir o‘quvchiga bilim berish barobarida ularni avvalo vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash muhim hisoblanadi. Tavsiya etilayotgan g‘oya o‘quvchilarning temuriylar davridagi bilimlarini oshirish va Amir Temur shaxsini o‘rganish bilan bирgalikda ularning iqtidorlarini ham ko‘rsatib bera oladi, bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazadi.

Kalit so‘zlar: Temur tuzuklari, innovatsion g‘oya, temuriylar haftaligi, ijodkor o‘quvchi, bilimdon, qobiliyat.

Amir Temur – yirik davlat arbobi, qonunshunos, kuchli notiq, serqirra inson, eng muhimi elini va yurtini sevgan va uni mashuru jahon qilgan betakror shaxs. Buyuk bobokalonimiz tarixi ko‘p jildlik kitoblar yozishga arziydi. Ammo tariximizda shunday davrlar bo‘ldiki, buyuk amirning vatandoshlari, uning haqida tarixiy haqiqatlarni aytolmay qoldik. Aytganlar esa ayovsiz jazolandi. Vaholanki, Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa bir qancha davlatlar Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab juda ko‘p ko‘lamdor kitoblar yozib, o‘z tillarida chop etdilar. Teatr sahnalarida Amir Temurning yorqin obrazini yaratdilar. Fransiyalik haykaltaroshlar uning haykalini oltindan quyib muzeylarida namoyish qildilar. Mustaqillik bizga in’om qilgan ne’matlardan asosiysi bu tarixda o‘chmas iz qoldirgan ajdodlarimizning haqiqiy qiyofalarini ochish imkoniyati deb hisoblayman.

Maktabda sinflar kesimidagi darsliklarda Amir Temur va Temuriylar mavzusi faqatgina 5-sinf Tarixdan hikoyalar va 7-sinf O‘zbekiston tarixida mavjud bo‘lib, boshqa sinf darsliklarida Amir Temur shaxsiga kam murojaat qilinadi. Vaholanki bugungi kunda 33 davlatda 500 dan ortiq asarlar yaratilgan, qator davlatlar tan olgan davlatchilik asoschisining hayoti, boshqaruvchilik qobiliyati, ilm-fanga homiylik qilganligi, bunyodkorligini mukammal o‘rganish hammamiz uchun farz ham qarzdir. Tavsiya etilayotgan innovatsion g‘oya maktab o‘quvchilarini har yili Amir Temur va Temuriylar davrini qayta-qayta o‘rganishga, mukammal bilimga ega qilishga hamda buyuk sohibqironning avlodi ekanligi bilan faxrlanishga, munosib avlod bo‘lishga undaydi.

Maktab ma’muriyati “Temuriylar haftaligi” ning tashkilotchisi hisoblanadi.

”Temuriylar haftaligi”ni tashkil etish, o‘tkazish Ijtimoiy fanlar metodbirlashmasi tomonidan amalga oshiriladi.

“Temuriylar haftaligi”ning o‘tkazilish tartibi quyidagi tartibda amalga oshirilidi:

1. Haftalik o‘tkazilishi yuzasidan e’lonlar mакtabning ertalabki saflanishida ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘ribosari tomonidan aytildi.

2. Haftalikda ishtirok etish uchun 5-11-sinf oquvchilarining barchasi jalg’ etiladi.

3. Haftalik kunini aniq belgilash lozim (1-10 aprel kunlari qamrab olinadi).

4. “Temuriylar haftaligi” ni maktab o‘quvchilari o‘rtasida, yo‘nalishlar kesimida o‘tkazish:

- **“Mohir musavvir” nominatsiyasi** bo‘yicha mas’ul shaxs mакtabning tasviriy san’at fani o‘qituvchisi belgilanadi. Ishtirok etish istagi bor o‘quvchilarga tavsiyalar, tushunchalar beradi. Bunda o‘quvchi Temuriylar davri bilan bo‘g‘liq rasm chizishi va chizgan rasmiga chiroyli izoh berishi lozim.

- **“Dono dizayner” nominatsiyasi** bo‘yicha mas’uliyat mакtabning texnologiya fani o‘qituvchisi zimmasiga yuklatiladi. Bu nominatsiya yuzasidan o‘quvchilar biror

tarixiy libos, bosh kiyim, oyoq kiyim, harbiy quroq va boshqa biror jihoz tayyorlashlari lozim.

- **“Bilimdon” o‘quvchi nominatsiyasi** bo‘yicha barcha vazifalar, tashkilotchilik tarix fani o‘qituvchisining zimmasiga yuklatiladi. Bu jarayonda oldindan ishtirokchilarga e’lon qilingan darslik va qoshimcha adabiyotlar yuzasidan test savollari tuzilib, metodbirlashma yig‘ilishida ekspertizadan o‘tkaziladi. E’lon qilingan darslik va qo‘srimcha adabiyotlarni o‘quvchilar o‘qishlari uchun muddat beriladi va 9 aprel kuni test olinadi. Natijalar yuzasidan g‘oliblar aniqlanadi.

- **“Iqtidorli ijodkor” nominatsiyasi** bo‘yicha mas’ul shaxs ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. Bu jarayonda o‘quvchi monolog, diolog, she’r yodlab aytishi, yoki Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid ijodiy ish, insho yozib ishtirok etadi.

- **“Havaskor aktyor” nominatsiyasi** bo‘yicha mas’ul shaxs ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yiha direktor o‘rinbosari belgilanadi. Bu jarayonda ishtirokchi o‘zining aktyorlik qobiliyatini namoyish etishi lozim. Amir Temur va temuriylar davrida yashagan, hukmronlik qilgan, ijod qilgan biror shaxsni ijro etib berishi talab etiladi. Ijro etayotgan roliga yarasha tashqi ko‘rinishga ham ega bo‘lishi kerak.

Haftalikning faoliyatini baholab borish uchun maktabning tasviriy san’at, ona tili va adabiyot, tarix, musiqa fani o‘qituvchilari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosaridan iborat hakamlar hay’ati komissiyasi tarkibini shakllantirish va metodbirlashma yig‘ilishida tasdiqlash. Hakamlar hay’atining xulosalari asosida g‘oliblar aniqlanadi. Har bir hakam qo‘ygan bahosi uchun o‘quvchiga izoh beradi. Ishtirokchi o‘quvchi o‘zining kamchiliklarini bilishi uning keyingi faoliyatida yutuqlarga erishishiga asos bo‘ladi.

Taklif etilayotgan g‘oyaning afzalliklari:

1. Amir Temur va Temuriylar davri haqidagi bilimlar mustahkamlanadi.
2. O‘quvchilarning bosh vaqtlarini unumli o‘tkazishlari uchun imkoniyat yaratiladi.
3. O‘quvchilarning noyob qobiliyatlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

4. Ta’lim sifatini yaxshilashga, o‘quvchilarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

5. O‘quvchilarni tarixda yashagan ajdodlari bilan faxrlanishga undaydi hamda ularga munosib voris bo‘lish tushunchalarini shakllantiradi.

Har bir ishtirokchi qilgan mehnati uchun albatta rag‘bat olishni istaydi. Shuning uchun haftalik g‘oliblarini munosib baholab, ularni taqdirlashni ham tashkil etish shart va zarur hisoblanadi:

1. “Bilimdon” o‘quvchi nominatsiyasi bo‘yicha baholashda o‘quvchining test natijasiga e’tibor qaratiladi.

2. “Mohir musavvir” nominatsiyasi bo‘yicha ishtirokchiga tasviriy san’at fani o‘qituvchisi baholaydi va izoh beradi.

3. “Iqtidorli ijodkor” nominatsiyasi bo‘yicha ishtirokchilarning ijodkorligiga ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi baho beradi va ijod mahsullarining har biriga izoh beradi.

4. “Dono dizayner” nominatsiyasi bo‘yicha ishtirokchilarni texnologiya fani oqituvchisi baholaydi va yaratilgan dizaynerlik ishining yutuq kamchiliklariga izoh beradi

5. “Havaskor aktyor” nominatsiyasi bo‘yicha ishtirokchilarni maktabning ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnibosari baholaydi va yosh aktyorning mahoratiga izoh beradi.

1. Har bir nominatsiya bo‘yicha munosib faxriy yorliqlar tayyorlash.

2. Haftalikda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni ertalabki saflanishda maktab ma’muriyati tomonidan taqdirlash.

3. G‘oliblikni qo‘lga kiritgan o‘quvchilarni “maktab hayotidan lavhalar” stendiga chiqarish. Ushbu faol, ijodkor, mahoratli, bilimli o‘quvchilardan boshqalar o‘rnak olishlari va ularning maktabdagi mavqelarini oshirish uchun.

4. Ijodkor o‘quvchilarning ijod mahsullarini maktab va tuman gazetalarida chiqarish.

AMIR TEMUR FAOLIYATINI O‘RGANISHDA JAHON TARIXI

MANBASHUNOSLIGI

Annotatsiya: Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o‘rinda turadi. G‘arbiy Yevropaning ilg‘or mamlakatlari Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqalarda ilm-fan va davlat arboblari Temurga ijobiy baho berib, ilmiy, badiiy va sahna asarlari yozganlar, uni e’zozlab o‘quv yurtlari dasturlariga kiritganlar va muzeylar tashkil etganlar. Amir Temur va temuriylar tarixini har tomonlama chuqur o‘rganish faqat ilmiy va ma’rifiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir.

Kalit so‘zlar: manba, Taymur, muzey, Sohibqiron, esdaliklar, ko‘zoynak.

Tarixda ulkan sultanatlar barpo etib, dunyo hukmdorligini da’vo qilgan jahongirlar ko‘p o‘tgan. Ammo ular orasidaadolat va yuksalish g‘oyalarini shior tutib insoniyat tamadduniga salmoqli ulush qo‘sha olganlar sanoqli. Millatimiz faxri, g‘ururi bo‘lgan sohibqiron Amir Temur markazlashgan, qudratli davlat barpo etibgina qolmay, o‘z sultanatidaadolat tamoyillarini o‘rnata olgan hukmdor sifatida jahon tarixida munosib o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasini XXI asrda jahonning ilg‘or va yetakchi davlatlari qatorida bo‘lishini ta’minalashga qodir va qobil izdoshlarga ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Ular ona Vatan – O‘zbekiston manfaatlarini har jihatdan, chunonchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma’naviy-ruhiy himoya qila oladigan salohiyatga ega bo‘lishlari lozim. Buning uchun nafaqat hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki o‘tmishda o‘tgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini mukammal bilishlari shu kunning asosiy talabi hisoblanadi. Bularni egallamay turib biror bir shaxs komillik darajasiga erisha olmaydi[1].

Tarixda o‘tgan buyuk shaxslarimiz, ayniqsa. Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo‘la oladi. Uning har qanday mushkul siyosiy, harbiy, diplomatik vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi, topqirligi, temir irodaviy xususiyatlari avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, vatanga xizmat qilish namunasi bo‘lib qolishi lozim.

Endigi gap ana shunday bemisl va betakror, butun jahon e’tirofiga sazovor bo‘lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan va madaniyat homiysi sohibqiron Amir Temurning hayotini chuqur va zehn bilan o‘rganishda qolgan. Yoshlarimiz uni qanchalik mukammal o‘rgansalar, undan shunchalik saboq oladilar. O‘zbekistonning sobitqadam, jasur, aql-idrokli ona vatan qudratini jahonga ko‘z-ko‘z qilishga qodir va xos fidoiy farzandlari bo‘lib etishadilar.

Vatanimiz va davlatchiligidan tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o‘rinda turadi. Ulug‘ bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o‘lchov bilan baholab bo‘lmaydi. Uning to‘g‘risida keragidan ortiqcha ko‘p kitoblar, maqolalar, esdaliklar, sahna asarlari yaratilgan. Ammo ular bir-biriga o‘xshamaydi, bir-birini inkor etadi. Bu qo‘lyozma manbalarning ba’zilarida Temurning ijtimoiy-siyosiy va davlat faoliyati xolisona va ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan bo‘lsa, boshqa birovlarida g‘arazlik, ochiqdan-ochiq dushmanlik, ko‘rolmaslik jarayonida turib, sub’yektiv fikr va xulosalar ilgari surilgan[2].

Yevropa tarixchilari Amir Temurni Osiyodagi eng so‘ngi sultanat sohibi sifatida e’tirof etadilar. Buyuk sohibqiron qay tariqa bunday ulkan sultanatni barpo etdi, qaysi yo‘llar bilan uni tartibga keltirdi va bunga qanday omillar yetakchilik qildi? Sultanat tarixini bevosita yozib borgan muarrixlarning asarlari va boshqa manbalardan ma’lum bo‘ladiki, yagona bayroq ostida birlashtirgan Movorounnahr va Xuroson, Iraq va Shom, Kavkaz va Ozarbayjon, Arab yerkanni, Dashti Qipchoq, Oltin O‘rda hududlari ijtimoiy siyosiy barqarorligini ta’minalash Amir Temur va uning a’yonlaridan katta kuch va mas’uliyat talab qilgan. Ma’lumki, sohibqiron yigirma yettita davlatni o‘z ichiga olgan sultanatni yetti vazir yordamida boshqargan.

Masalaning eng ayanchli va mudhish tomoni shundaki, G‘arbiy Yevropaning ilg‘or mamlakatlari Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqalarda ilm-fan va davlat arboblari Temurga ijobiy baho berib, ilmiy, badiiy va sahna asarlari yozganlar, uni e’zozlab o‘quv yurtlari dasturlariga kiritganlar va muzeylar tashkil etganlar. Masalan, nemis olimi Dagenxard 1913 yildayoq Ovrupa sharqshunoslarining Amir Temur va temuriylar davriga bag‘ishlangan asarlar ro‘yxati biografiyasini chop etgan edi.

Taniqli frantsuz olimlari L.Keren «Tamerlan yoxud sohibqiron salatanati» va Jan Pol Ru «Tamerlan» nomli kitoblarida har biri Amir Temur haqidagi 100 dan ortiq asar ro‘yxatini keltirgan bo‘lsalar, «Ulug‘bek astranomiya sulton» (Parij – 1994) nomli to‘plamda 40 asr, «Samarqand 1400-1500: Tamerlan poytaxti: saltanat va uyg‘onish yuragi» (Parij – 1995) nomli asarda 27 kitob haqida ma’lumot berilgan.

«Ahmad Zakiy Validiy asarlarining tartibi» kitobida 23 asar va kitob ko‘rsatilgan (Yosh Leninch gazetasi 1991-yil 1-iyun) yoki N.Muhiddinovning «Temuriylar tarixi – xalqimiz tarixi» maqolasida temuriylar sulolasi to‘g‘risidagi 44 dan ortiq manba, asarlar ro‘yxati berilgan (“Fan va turmush”, 1992-yil 11-12-sonlar).

Akademik B.Ahmedovning «Tarixdan saboqlar» va «Amir Temur» asarlarida sohibqiron va temuriylar sulolasi haqida ko‘pgina tarixiy hamda hozirgi zamonda chop etilgan kitoblar tahlil berilgan[4].

Rus sharqshunoslari ham XIX asrning II yarmidan Amir Temur shaxsini o‘rganishga astoydil kirishganlar eng avvalo bir qancha xorijiy davlatlarda chiqqan asrilar rus tiliga tarjima qilingan. Masalan, taniqli sharqshunos olim N.Ostromovning tashabbusi bilan va uning rahbarligida frantsuz tilidan tarjima qilingan «Temur tuzuklari» ni va E.M. Langleyning «Temur hayoti» nomli asarlarini ko‘rsatish mumkin. Bulardan tashqari Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsalez de Klavixoning «Amir Temur saroyiga sayohati kundaliklari» 1990-yili Moskvada «Nauka» nashriyotida qayta nashr etildi.

N.Likoshin o‘zbek tilidan Amir Temurning «Tarjimai holi»ni 1894-yilda rus tilida nashr qilgan.

T.N. Granovskiy, M.I. Ivanin, D.N. Logofet, L.Zimin, I.I. Umnyakov va boshqa bir qator rus sharqshunoslari Amir Temurning sarkardalik mahoratiga e'tibor berilgan maqolalarni chop ettirishgan. Rus temurshunosligida ayniqsa, salmoqli o'rinni mashhur akademik V.V. Bartoldning chuqur tadqiqotlari «Turkiston mo'g'ul istilosи davridа», «Ulug'bek va uning davri» kitoblari, hamda taniqli sharqshunos A.Yu. Yakubovskiyning «O'zbekiston xalqlari tarixi» ning Amir Temur va temuriylarga bag'ishlangan bo'limi, uning hammualliflikda B.D. Grekov bilan yozgan «Oltin O'rda va uning qulashi» va boshqa bir necha maqolalari muhim o'rinni egallaydi.

Bu va bir qator ko'zga ko'ringan temurshunoslarning maqolalari 1922-yili nashr etilgan katta hajmli to'plamda berilgan.Qator tarixiy manbalarimiz to'g'risida chuqurroq ma'lumotlarga to'xtalib o'tamiz.

Ami Temur va temuriylar davriga oid arab tilidagi yozma manbalar sifatida arab tarixchisi Ibn Arabshohning (1389-1450) "Ajoyib ul maqdur fi tarixi Taymur" ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") nomli asari alohida o'rin tutadi. Asar ko'proq "Temur tarixi" nomi bilan keng tarqalgan. Muallifning o'zi ma'lumot berishicha, bu asar manba bo'lib unung shaxsiy mushohada va xotiralari, Amir Temurning yurishlarida ishtirok etgan arboblarning hikoyalari xizmat qilgan[3].

Ibn Arabshoh asarining maxsus asarining maxsus bir bo'limi Amir Temurning yuksak insoniy fazilatlari va alohida xislatlariga, sohibqironning tashqi siymosi va odatlariga bag'ishlangan bo'lib bu tarzdagi o'sha davrga oid boshqa manbalarda uchramaydi. Shu bilan birga XV asrda yashagan arab tarixchilarining ko'pgina asarlarida Amir Temurning faoliyati, uning Misr mamlakatlari sultonlari bilan Barquq va Nosir Faraj, shuningdek ularning Suriyadagi noiblari bilan o'zaro munosabatlari haqidagi ko'pgina ma'lumotlar keltiriladi.

Amir Temur hayoti va faoliyati to'g'risida sharq tillarida ko'pgina asarlar yaratilgan. Ushbu qo'lyozma va asarlarning bir qismi Turkiya kutubxonalarida saqlanadi. Masalan, Hofizi Abruning "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlarning qaymog'i")

asarining qo‘lyozmasi hozir Istambulning eng yirik kutubxonasi Sulaymoniyada saqlanadi.

Amir Temur yurishlarining guvohi – tarixchi olim Toj Salmoniy o‘z davrida fors tilida “Tarixnama” kitobini yozgan. Tarixchining ushbu kitobini Izmir shahridagi egey universitetining professori Ismoil Og‘a turk tilida ag‘darib 1988-yili Anqarada nashr qilgan. Uzoq yillardan buyon Temur yurishlari va temuriylar tarixini o‘rganish bilan shug‘ullanayotgan taniqli tarixchi Ismoil og‘a 1991-yil Anqarada Turkiya tarixchilari jamiyatida “Temur va uning davlati” degan ilmiy asarini e’lon qilib, unda Temurning yurishlarini batafsil tasvirlaydi, ulug‘ sarkarda vafotidan keyin temuriylar orasidagi ichki ziddiyatlarni olib beradi.

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida sohibqiron Amir Temur alohida o‘rinda turadi. Ulug‘ bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o‘lchov bilan baholab bo‘lmaydi[1].

Shuni chuqur taassuf bilan ta’kidlamoq lozimki, XX asrning 60-80-yillarida markscha-lenincha mafkura tayziqi ostida bo‘lgan ayrim sovet tarixchi olimlari Amir Temur shaxsini «faqat qora ko‘zoynak orqali» talqin etadilar. Ular Amir Temur bobomizni «qonxo‘r», «bosqinchı», «kallakesar», «o‘g‘ri» va h.k. deb atadilar. Sobiq sho‘rolar davrida markscha-lenincha mafkura hukmronligi tufayli Amir Temur haqida ijobjiy fikr bildirilgan asar yoki maqola yozish u yoqda tursin, buyuk vatandoshimizning hatto nomini ham tilga olish ta’qiqlab qo‘yilgan edi. Amir Temurning nomi faqat qora bo‘yoqlarda o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarga kiritildi.

Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini chuqur bilish nima uchun zarur?

Birinchidan, o‘z tarixini, nasl-nasabini, merosini bilmagan millatning kelajagi bo‘lmaydi. Chunki har bir xalqning o‘z tarixi mavjud. O‘z tarixini bilmagan, uning ijobjiy va salbiy tajribalarini o‘rganib, tegishli xulosalar chiqarmagan xalq bugungi hayotning qadrini va muammolarini tushunib eta olmaydi, o‘z kelajagi haqida aniq tasavvurga, puxta ishlangan dasturga ega bo‘la olmaydi. Biz kelajagi buyuk

O‘zbekistonni barpo etishga kirishgan ekanmiz, bobokalonimizning ulug‘ hayoti va faoliyati bizga katta ishonch, intilish, qattiyat va kuch-quvvat baxsh etadi.

Ikkinchidan, Amir Temur va temuriylar tarixini har tomonlama chuqur o‘rganish faqat ilmiy va ma’rifiy ahamiyat kasb etib qolmasdan, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ham egadir. Bu davrda tikllangan va rivojlangan tarix saboqlaridan mustaqillik yo‘lida foydalanish zarur.

Tarix har bir insonni o‘z vataniga muhabbat, sadoqat, o‘z xalqining o‘tmishi qaqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uning hozirgi kuni va kelajagi bilan g‘ururlanish ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Shu boisdan Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganish va tahlil qilish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov X.T. Temur tuzuklarida davlat va huquq masalalari: Toshkent, 2002.
2. Muminov A. “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rnii va roli” T., “Fan”, 1993.
3. Ahmedov B. “Amir Temur: rivoyat va haqiqat”. T.: “Qomuslar bosh tahririyati”, 1996.
4. Azamat Ziyo. “O‘zbek davlatchiligi tarixi”, T.: “Sharq”, 2000.

3-SHO‘BA. TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI

Raxmonov Kamol Jamolovich

*BuxDU Jahon tarixi kafedrasи
dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

AMIR TEMUR – ILM VA FAN HOMIYSI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va uning boshqaruvi davridagi ijtimoiy-madaniy hayot hamda ma’naviy taraqqiyot omillari o‘rganilgan. Temuriylar davri ilmiy va badiiy muhitining o‘ziga xos tomonlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ismoil Somoni, Amir Temur, Ibn Arabshoh, Shom (Suriya), ilm-fan, madaniyat.

Jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblangan Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyatni davlat boshqaruvida ma’naviy ozuqa deb hisoblangan hukmdorlar juda ko‘p o‘tgan. Mintaqadagi IX-XII asrlar yuksalishining dastlabki vakili poytaxti Buxoro bo‘lgan davlat asoschisi Ismoil Somoni (849-892-907 yy) ilm fan ahllariga alohida hurmat ko‘rsatish an’anasini boshlab bergandi. Buyuk hukmdor avvalo olimlarning podshoh oldida yer o‘pib tazim qilish odatini man etdi. Ular orasidan diniy va dunyoviy ilmlarda yuksaklikka erishganlarini qadrlab “ustod” maqomini berdi. Ismoil Somoni davridan boshlab olimu-fuzalolar davlat ishlarini boshqarishda maslahatchi sifatida qatnasha boshladilar va “shayxul islom” martabasiga erishdilar. Keyinchalik esa Islom dunyosida olimlarni “donishmand” deb atash tamoyilga kirdi.

XIV-XV asrlar Turon zaminida yuz bergen yuksalish esa Sohibqiron Amir Temur (1336; 1370-1405)ning muborak nomi bilan bog‘liq. Amir Temur Movarounnahrni mo‘g‘ul bosqinchilari zulmidan ozod qildi, hozirda mavjud bo‘lgan 27 mamlakat sarhadlarini o‘zida birlashtirgan ulkan saltanatga asos soldi. Buyuk saltanatni poytaxti Samarqandni, ruhiy va ma’naviy tayanchi bo‘lgan “ikkinchi

poytaxt” Buxoroni ilm-fan markaziga aylantirishdek xayrli ishida kuch-quvvatini ayamadi. Amir Temurning tanbehlarida: “*Aqli raso va hushyor kishilardan kengashu tadbir so ‘rab, fikrini bil*”, “*Kimki oqilona gapni erlarga xos shiddat bilan so ‘zlasa ham unga qulog sol*”, “*Birovdan yomonlik axtarma aytsalar ishonma*” kabi hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan qoidalar mavjudligi, bobokalonimizning o‘ta ulug‘vorligidan dalalat berib turibdi. Amir Temur o‘z avlodlari Muhammad Tarag‘ay (Ulug‘bek) va Zahiriddin Muhammad Boburlardek ilm-fan bilan shaxsan shug‘ullangan bo‘lmasa-da ilm ahliga o‘zgacha hurmat-ehtirom bilan qaragan. Ma’naviy va moddiy madaniyatining rivojlanishi quvvai hofizasi kuchli bo‘lgan shaxslar tufayli ekanliligini hukmdor chuqur idrok etgan. Shuning uchun “Temur tuzuklari”da farzand va nabiralariga o‘gitlar qilib: “Baxtli farzandlarim va qudratli nabiralarimga ma’lum bo‘lsin kim men sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqilu-donolar, muhaddislar, tarixshunoslarni sara va etiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini o‘rniga qo‘ydim”, – deb fikr bildiradi. Amir Temur davri tarixchisi Ibn Arabshoh o‘zining “Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Temur (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) nomli kitobida xabar berishicha uning davrida saroyda ilohiyot olimlari, fiqhlar, riyoziyot (matematika), falakiyot (astronomiya), tibbiyot (meditsina), falsafa, tarix, musiqashunoslik, ilmu aruz fanlarining yetuk nomoyondalarini to‘plangan.

Amir Temur diniy va dunyoviy ilm ahllarining mashvarat hamda muloqotlarini uyushtirgan. Olimu-fuzalolarni suhbatga chorlagan. Hukmdor ular oldiga taxtdan tushib kelardi, ko‘p masalalarda o‘zidan boshqacha fikrlaydigan mashoyixlarga sovg‘a-salomlar ulashgan. Uning faoliyati asosan saltanatni boshqarishi, harbiy safarlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, vaqt vaqt bilan donishmandlar suhbati orqali turli ilmlardagi yangiliklardan xabardor bo‘lardi.

Ibn Arabshoh Amir Temur xislatlari haqida yozar ekan: “*U tabiatan masxaraboz va shoirlarni yoqtirmas, aksincha olimlarni o‘ziga yaqin tutardi*”, – deb fikr bildiradi. Uning saroyida ilohiyot olimlari Jaloliddin Ahmad al-Xorazmiy, Mavlono Ahmad, fiqh olimlari Abdulmalik, Isomiddin va Shayx Shamsuddin Muhammad Jazoiriy, musiqashunoslar ota-bola Abdulqodir Marog‘iy va Sadriddin

Marog‘iy, musiqashunos Ardascher Changiy, shuningdek, faylasuflar Sa’duddin Taftazoniy va Mirsaid Sharif Jurjoniy, rassomlar Pir Ahmad Bog‘i Shamoliy, Abdulkay Bag‘dodiy, tarixchilar Sharafuddin Aliyazdiy, Nizomuddin Shomiy, Ibn Arabshox, Hofizu Abro‘ (xullas, bu ro‘yxatni davom ettirish mumkin) kabi mashhur yuzlab olimlar faoliyat yuritgan. Ilm fan egalarining barchasiga hukmdor o‘z darajalariga qarab mavqe va martabalar berib qo‘yan, ularga yetarlicha maosh belgilangan. Sohibqiron Amir Temur qaysi o‘lkaga qadami tegmasin, u yerlardan dunyoviy ilm egalarini o‘zi bilan saltanat poytaxti Samarqandga olib kelgan. 12 yashar bolaligida Shom (Suriya)dan Samarqandga keltirilgan Ibn Arabshoh ham Amir Temurga nisbatan bir oz adovati bo‘lsa-da u haqida xolisona fikr yuritib ijobiy fikrlar yazgan. Ulug‘ bobokalonimizning maqsadi bunyodkorlik ezgulik va adolatga yo‘g‘rilganligi tufayli tarixchi haqiqatdan ko‘z yuma olmagan. Buyuk Temurning hayotidagi shiori: “Adovat emas, adolat kerak”, – degan tamoyilga tayanganligi bu borada etiborga loyiqidir. *“Temur olimlarga mehribon bo‘lib sayyid shariflarni o‘ziga yaqin tutardi. Ulamo va fozillarga to‘la izzat ko‘rsatib, ularni har qanday kimsadan tamom muqaddam ko‘rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib izzat-ikromi va hurmatini unga ochiq izhor qilardi. Ularga nisbatan o‘z muruvvati bisotini yozar ediki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bahsida insofu himmat bo‘lar edi. Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo‘lib, qo‘rsligi ezguligi orasiga qo‘shilgan edi”*, – deb yozib qoldirgan Ibn Arabshoh. Qur’oni Karimni yod bilgan, ushbu muqaddas kiitobdagagi 754 bor “ilm” so‘zining takrorlanishini vujudiga singdirib, qalb zikriga aylantirgan, yoxud hadisi – sharifdagi “olimlar – payg‘ambarlarning izdoshlaridir”, – degan aqidaga amal qilgan hukmdor bundan boshqacha bo‘lishi mumkin emasdi. Sohibqiron Amir Temur turkiy, fors, arab tillarini yaxshi bilganligi, ilm-fan va ma’naviyat darg‘alarining suhbatidan bahramand bo‘lishi tufayli o‘sha davr tarixchilarining yozishicha uning majlislarida mashvaratlarida uyatsiz gaplar, qon to‘kish, asir olish, g‘orat qilish va ayollar xususida haqoratli so‘zlar hech qachon aytilmagan.

Ilm-fan hamda madaniyat homiysi, ma’naviyat timsoli, xalqimizning faxri va g‘ururi bo‘lgan Sohibqiron Amir Temurning ruhi barchamizni qo‘llashini yaratgandan so‘rab qolamiz.

Turdiyev Bexruz Sobirovich

Buxoro davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi f.f.f.d. (PhD), bekhruz0302@gmail.com

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA JAMIYAT IDEOSFERASIDAGI O‘ZGARISHLAR

Annotatsiya: Mazkur maqola Amir Temur va temuriylar davrida jamiyat ideosferasidagi o‘zgarishlar masalasiga bag‘ishlanib, uning jamiyat taraqqiyotidagi roli ilmiy tahlil etilgan. Bu borada Amir Temurning “Temur tuzuklari”dagi asaridagi hayotbaxsh g‘oyalari, Mirzo Ulug‘bekning bu boradagi hissasi, davlat arbobi Alisher Navoiyning insonparvarlik qarashlari misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: falsafa, madaniyat, taraqqiyot, YUNESKO, bunyodkorlik, insonparvarlik.

Markaziy Osiyo ma’naviy yuksalishlar taraqqiyotida ayniqsa, sharq uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi sifatida tan olingan Amir Temur va temuriylar davri ham mamlakatimiz tarixiy taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirgan. Ayni bu yuksalishlar davrida Bahovuddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi kabi yuzlab olimu fuzalolar etishib, mintaqaga madaniyati va ma’rifatining gullab-yashnashini yangi bosqichga ko‘tarib chiqishdi.

Buning asosiy sababi esa, Amir Temurning davlat va jamiyatni ma’nan yuksaltirish borasida olib borgan izchil siyosati va bunyodkorlik faoliyatiga bergen e’tiborining yorqin ifodasidir. Bu davr xalqimiz ma’naviy yangilanishlarining oltin davri sifatida, milliy madaniyatimizning taraqqiyoti va barqaror rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi.

Faylasuf olim Qiyomiddin Nazarov “*Temur va temuriylar davrini tarix falsafasi va falsafa tarixini uyg‘un tarzda yozish orqali nisbatan to‘g‘ri ifodalash mumkin. Amir Temurning hayoti, uning faoliyati, temuriylar davridagi madaniy jarayonlar, ilm-fan rivoji kabi masalalar esa bir necha falsafiy kitoblar, o‘nlab tadqiqotlar uchun mavzu ekanligi aniq*”, deb ta’kidlagani bejiz emas, albatta[1.46].

Amir Temur butun hayotini mintaqa xalqlarining farovonligi, yurt obodonchiligi uchun sarfladi. Yurtda bog‘dorchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg‘or markazlarning biriga aylandi. Bo‘riboy Ahmedov qayd etganidek, Amir Temurning sa’y-harakati bilan obod etilgan shaharlар, qasabalar, qishloqlarni, Shahrисабз, Samarqand, Buxoro, Yassi (Turkiston) singari shaharlarda qad ko‘targan oliv imoratlarni aytmaysizmi?![2.3]”. Amir Temur imperiyasini poytaxti bo‘lmish Samarqand g‘oyat obod va ko‘rkam shaharga, ya’ni shoir madh qilganday, “yer yuzining sayqali”ga aylandi.

Amir Temurning o‘zining “*Temur tuzuklari*”dagi “Davlat qurish oldidagi ikkinchi kengashi”, “*Saltanat tuzish yo‘lidagi uchinchi kengashi*”, “*Saltanatni tiklash yo‘lidagi to‘qqizinchi kengashi*”, “*Saltanatni mustahkamlash uchun qilgan o‘ninchi kengashi*”, “*Saltanatga rivoj berish uchun qilgan o‘n birinchi kengashi*” hamda “*Mamlakatni tartibga keltirish va yuksaltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshirish tuzugi*”da mamlakatda kuchli tartib-intizom va qonun ustuvorligini ta’mindadi. Uning “*Temur tuzuklari*”dagi: “*Ishlarimning barini kengash bilan yurgizib, uni bitirishda to‘g‘ri tadbir qo‘llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan chiqish yo‘llarini o‘ylab qo‘yar edim. Uni to‘g‘ri tadbir, qat’iy jazm, sabr-chidam ko‘rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzog‘ini o‘ylab, ortini sedan chiqarmagan holda oxiriga etkazardim*[3.16]”, so‘zlarida mamlakatda “*Kuch – adolatda*” degan prinsipni amalga oshirgani, ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirishga alohida e’tibor qaratganligini ko‘rsatadi. Temurning yana bir ulkan xizmati shuki, u madaniyat va ilm-fan homiysi sifatida mashhur bo‘ldi, o‘z saroyiga olimu fuzalo va din arboblarini to‘pladi. Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar uning saroyida ilm-fan va badiiy ijod bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Shunday qilib, Amir

Temurning jamiyat taraqqiyotida ma’naviy yangilanishlar haqidagi qarashlari zamonaviy falsafiy ta’limotga asoslangan. Bu tamoyillar Amir Temur davlatini ma’nan yuksalishi bilan o‘zaro bog‘lanib, ular bir-birini to‘ldirganki, ulardagi ushbu aloqadorlik va bog‘liqlik xuddi bir doiradan iborat mustahkam zanjirga o‘xshaydi. Bu zanjir esa, umumiylit hodisalari asosida yuzaga kelib, Amir Temur sultanatini ma’navi yuksalishiga qaratilgan.

Temuriylar sulolasidan nomi faqatgina Sharq olamidagina emas, balki G‘arb dunyosida ham bir necha asrlar mobaynida yod etilib va e’zozlanib kelinayotgan buyuk zotlardan biri – Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek (1394-1449-yillar)dir. Buyuk mutafakkir va davlat arbobi hukmronlik qilgan davr Sharqning yirik ilm-fan va madaniyat markaziga aylanadi. Bu ko‘tarilish bejizga hozirgi fanda O‘rta Osiyo renessansining so‘nggi davri va umuminson renessansining bir qismi deb ta’riflashmaydi. Qanday atalishidan qat’i nazar, bu ilmiy-madaniy ko‘tarilish O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i bilan bog‘liq bo‘lib, u ham bo‘lsa, o‘z ibtidosini Ulug‘bekning XIV asr boshida Samarqanddagi ilmiy faoliyatidan oladi. Bu bir yarim asrlik davr o‘rta asr xalqlarining ma’naviy va moddiy madaniyati tarixida nihoyatda chuqur iz qoldirdi va hozirgi kunda ham bu xalqlar madaniy rivojlanishining asosida turadi. Shuning uchun ham O‘rta Osiyo xalqlari Ulug‘bek va uning safdoshlaridan abadiy minnatdordirlar[4.45]. 1994-yilda BMTning bo‘yicha YUNESKO qarori bilan allomaning 600 yillik yubileyining nishonlashi, Ulug‘bekning jahon ilm-fan, madaniyat va san’at sohasida qo‘sghan hissasining jahon miqyosida e’tirof etilishining yorqin misolidir.

Buyuk o‘zbek shoiri, ulug‘ mutafakkir, taniqli davlat arbobi Alisher Navoiy (1441-1501)ning ijodi serqirra, asarlari ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, axloqiy fikrlarga boy bo‘lib, insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgandir. Uning bunyodkorlik va insonparvarlik qarashlari O‘rta Osiyoning ma’naviy va ma’rifiy fikr taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Allomaning qirqdan ortiq qoldirgan ilmiy merosi namunalari ma’naviyatimizni shakllantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Mutafakkir insonlik mohiyatini uning ijtimoiy faoliyatida – jamiyatga foydali kasb bilan shug‘ullanishi, xalqqa manfaati tegishi, odamlarning og‘irini engil qilish ida deb biladi. Uning xalq g‘amini o‘z g‘ami deb bilmaydigan odamni odam qatoriga qo‘shmasligi bejiz emas:

Odamiy ersang, demagil odami

Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami[5.256].

Navoiy jamiyat ma’naviy yuksalishi xususida to‘xtalar ekan, uni bevosita komil inson tarbiyasi bilan bog‘lab o‘tadi. Mutafakkir fikricha, insonning komillika intilishi uchun, inson avvalo, insoniy ezgu xislatlarni qalbiga naqsh etishi, o‘z zamonasining ilmu-hunarlaridan xabardor bo‘lishi, nafaqat ma’nan, balki jismonan yetuklikka intilishi, mamlakat va millat manfaatlarini o‘zining manfaatlaridan ustun qo‘yishi, o‘z ona Vataniga sodiq farzand bo‘lishi kabi fazilatlar sohibi bo‘lishi kerakligini nazarda tutadi.

Bugun jamiyatimizni ma’nan yangilash va yuksaltirishimiz yo‘lida buyuk alloma va donishmand Alisher Navoiyning ma’naviy-ma’rifiy merosini o‘rganish o‘sib kelayotgan yosh avlod ma’naviyatini o‘stirish, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga, komilikka intilishlari hamda ajdodlarga munosib vorislar bo‘lishlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov Q. Falsafa asoslari. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2018.
2. Ahmedov B. Amir Temur o‘gitlari. – T.: “O‘zbekiston”, 2007.
3. Temur tuzuklari. Tahrir hay'ati: B.Abduhalimov va b. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
4. Ahmedov A. Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay. – T.: “O‘zbekiston”, 2011.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Xamsa. Hayratul-abror. (Yigirma tomlig, yettinchi tom) – T.: “Fan”, 1991.

Жумаева Нилуфар Аҳматовна

БухДУ катта ўқитувчиси

Муяссаров Ш.

БухДУ IV босқич талабаси

МУСУЛМОН РЕНЕССАНСИ – ШАРҚ ТАМАДДУНИ ЖАВОҲИРИ

Аннотация: Ушбу мақолада “Мусулмон Ренессанси тушунчаси”, унинг моҳияти хусусидаги фикрлар баён этилган. Шунингдек, “Мусулмон Ренессанси” вакиллари ҳақида қисқача маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: “Мусулмон Ренессанси”, Ғарб Уйғониш даври, европоцентризм, “Авесто”, Иккинчи Уйғониш даври, Амир Темур.

Тарих фанига “Мусулмон Ренессанси” тушунчаси таниқли Австрия шарқшуноси Адам Мец (1876-1946) томонидан XX аср бошларида, янада аникрофи, 1909 йилда киритилган. Олим “Шарқ” атамасини тарихий мазмунда ишлатиб, бунда Ўрта ер денгизидан то Европа қитъасигача (субконтинентгача) бўлган юртларни ва бу ҳудудларда IX-XII асрларда маданият юксакларга кўтарилиганини кўзда тутган. Мазкур ўлкалар қадимий цивилизация бешигидир[2].

Собиқ совет даврида тарих ва ўқув адабиётларида фақат Ғарб Уйғониш даври ҳақида гап борарди. Шарқдаги Уйғониш жараёни ҳақида эса лом-лим дейилмасди. Чунки тарих фанида европоцентризм ғояси ҳукмрон, Ғарб илғор, Шарқ қолоқ ақидаси устувор эди. Ваҳоланки, ўша даврда австриялик олим А.Мец, рус олими Н.Конрад Шарқ Ренессанси ҳақида холисона фикрларини билдиришган. Ўзбек олимларидан И.Мўминов, М.Хайруллаев, Ф.Сулаймонова, Б.Қосимов, Т.Ширинов ҳам Шарқ Уйғониш даври ҳақидаги теран фикрларни салмоқли асарларида баён этган.

Темурийлар Ренессанси – Мусулмон Ренессанси Шарқ тамаддуни тожидаги жавохирлардан бири саналиб, уни ўрганишга бағишенланган баъзи тадқиқотлар яратилди.

Шу маънода, Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2017 йил 19 сентябрда БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқида тарихда биринчи маротаба: “*Марказий Осиё Уйғониши даврининг кўплаб ёрқин намояндаларининг ислом ва жаҳон цивилизациясига қўшган бебаҳо ҳиссасини алоҳида қайд этмоқчиман*”, деб таъкидлагани бежиз эмас[1].

Марказий Осиё минтақаси, хусусан, бугунги Ўзбекистон ҳудуди тарихда илм-фан, маданият ва санъатнинг қадими бешиги сифатида мавжуд бўлиб келган. Бу ҳақда исломга қадар мавжуд манбаларда ҳам маълумотлар келтирилган. Жумладан, “Авесто”да ҳам маънавий муҳит, илм-фан ва таълим-тарбия хусусида ўз даври учун илгор ғоялар илгари сурилган.

Ўзбекистон ҳудудлари тарихан Буюк ипак йўлининг маркази ва унинг турли тармоқлари кесишган нуқтада жойлашган. Шунинг учун Шарқ ва жаҳоннинг турли мамлакатларидан диний ва дунёвий билим олиш истагидаги инсонлар ҳамиша Самарқанд, Бухоро, Хоразм, Насаф (Қарши), Кеш (Шаҳрисабз), Тошкент, Фарғона каби кўхна маданият марказларига интилганлар[3].

Биринчи Шарқ Уйғониш даври — IX-XII асрларда минтақамизда юз берган “Мусулмон Ренессанси” ҳисобланади.

Шарқ Уйғониш даврида буюк алломалар, қомусий билим соҳиблари, машҳур мутафаккирлар етишиб чиққан. Аниқ фанлар соҳасида Муҳаммад Хоразмий, Абу Бакр Розий, Абу Райҳон Беруний, Аҳмад Фарғоний, Умар Ҳайём, Мирзо Улуғбек, фалсафа соҳасида Абу Наср Форобий, Ибн Рушд, Муҳаммад Ғаззолий, Азизиддин Насафий, тиббиёт соҳасида Абу Али ибн Сино, тилшуносликда Маҳмуд Замахшарий, шеъриятда Абу Абдулло Рудакий, Абулқосим Фирдавсий, Ҳофиз Шерозий, Низомий Ганжавий, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, рассомчиликда Камолиддин Беҳзод баракали ижод

қилганлар. Уларнинг жаҳоншумул илмий-ижодий кашфиётлари умумбашарият тараққиёти ривожига мислсиз ҳисса қўши.

Иккинчи Шарқ Уйғониш даври — XIV-XVI асрлардаги иккинчи “Темурийлар Ренессанси”дир. Бунда Амир Темур бунёд этган улуғ салтанатнинг ўрни ва аҳамияти бекиёсдир.

Хозирги даврда жаҳонга “ҳали-хануз ўз таъсирини ўтказаётган Ўрта Осиё цивилизацияси асосчиси”, қолаверса, тарихда ҳам ўчмас из қолдирган буюк давлат арбоби, музaffer саркарда, моҳир дипломат, жонкуяр илм-фан ҳомийси, буюк бобокалонимиз Амир Темур асос солган салтанат ўзига хос салмоқли ўринга эгадир. “XV аср тақдирини белгилаб берган буюк сиймо” — Соҳибқирон ва унинг ворислари Туркистон, Хурросон, Форс, Озарбайжон ва Араб дунёсида бир ярим асрга яқин ҳукм суриб, марказлашган салоҳиятли туркий давлат ташкил этганди.

Амир Темур асос солган тамаддун XIV–XVI асрлар Турон тарихининг “олтин даври” – Уйғониш даврининг алоҳида босқичи “Мусулмон – Ренессанси” (А.Мец), “Шарқ Уйғониши” (Н.И.Конрад), ҳозирда “Темурийлар Ренессанси” номлари билан жаҳонда эътироф этилди ва тарихга абадий муҳрланди. Машҳур француз олими Люсьен Керен таъкидлаганидек, “европалик ижодкорлар Амир Темурни Шарқ Ренессансининг бунёдкори сифатида қадрлайдилар”[2].

XV асрда бугун Соҳибқирон Амир Темур бобокалонимиз асос солган ва унинг муносиб авлодлари давом эттирган муҳташам салтанат, юртимизда иккинчи Уйғониш, яъни иккинчи Ренессанс даврини бошлаб берган. Бу даврда Қозизода Румий, Мирзо Улуғбек, Ғиёсиддин Коший, Али Қушчи сингари беназир олимлар, Лутфий, Саккокий, Ҳофиз Хоразмий, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, Бобур мирзо каби мумтоз шоир ва мутафаккирлар майдонга чиқди. Шарафиддин Али Яздий, Мирхонд, Хондамир каби тарихчилар, Маҳмуд Музахҳиб, Камолиддин Беҳзод сингари мусавирлар, кўплаб хаттот ва созандалар, мусиқашунос ва меъморларнинг шуҳрати дунёга ёйилган.

Бу даврда шаҳарсозлик, меъморлик, тасвирий ва амалий санъат, нақошлиқ, зардўзлик, металлга бадиий ишлов бериш, хаттотлик, илм-фан ва таълим-тарбия, бадиий ижодиёт, китобат санъати ва кутубхоначилик, мусиқашунослик каби соҳалар ниҳоятда ривожланган. Туонзамин Ренессанси таъсири Хурросон ва Ҳиндистон, ҳаттоки Европа мамлакатлариға ҳам ўз таъсирини кўрсатган. Европа халқлари Темурийлар Ренессансини теран таҳлил қилганлар.

Амир Темур илм-фан ва маданият равнақига кенг имкониятлар яратган, дин пешволари, олимлар, санъатшунослар, ёзувчилар, шоирларга алоҳида ғамхўрлик кўрсатган. Бу олиймақом сиёsat натижасида Шарқ Уйғониш даврининг иккинчи босқичига асос солинган.

XIV асрдаги улкан ва ёрқин сиймо — Амир Темур жаҳон тарихида қудратли ва гуллаб-яшнаган давлат барпо этиб, Ўрта аср дунёсининг асл маданий ва маънавий марказларидан бирига айланган, инсон ақли ва истеъдодининг ноёб ижоди бўлиб, бугунги кунда ҳам сақланиб қолган мислсиз меъморий обидалари билан ер юзининг сайқали сифатида эътироф этиладиган Самарқанд шаҳрини ўз салтанатининг пойтахтига айлантирган атоқли саркарда ва давлат арбобидир.

Кўплаб тарихчи олимларнинг фикрича, Шарқ, хусусан, Марказий Осиё минтақаси IX-XII ва XIV-XVI асрларда бамисоли пўртнадек отилиб чиққан икки қудратли илмий-маданий юксалишнинг манбаи ҳисобланиб, жаҳоннинг бошқа минтақаларидағи Ренессанс жараёнлариға ижобий таъсир кўрсатган. Шарқ Уйғониш даври — Шарқ Ренессанси сифатида дунё илмий жамоатчилиги томонидан ҳақли равишида тан олинган.

Машхур француз темуршуноси Л.Керен таъкидлаганидек: “Амир Темур инсоният ривожига ажойиб миниатюралар, тенги йўқ сирланган сопол идишлар, шеърият ва илҳомга тўла фалсафий асарлар яратилишига имкон яратган ўзининг улуғвор даври билан улкан ҳисса қўшган. Соҳибқирон бобомиз

“Темурийлар Уйгониш даври” деб аталмиш сермаҳсул маданий меросга асос солган”.

Адабиётлар рўхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Мең А. Мусульманский ренесанс. – М., 1973.
3. Халқ сўзи газетасининг 3 сентябр 2020 йил сони.

*Oripova Mavluda Qodirovna
BVXTXQTMOHM "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar
metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi*

MOZIYGA MUHRLANGAN MATONAT

Annotatsiya: Maqolada haqida Amir Temurning ilm-fan va ma’naviy madaniyatning yuksalishiga qo’shgan hissasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, ilm-ma’rifat, ma’naviy madaniyat, «Temur tuzuklari», alloma, ajdodlar, Ikkinchi Renessans, Movarounnahr, olimlar.

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o‘rinda turadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrdan Oliy Majlisga yo’llagan Murojaatnomasida «Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning beba ho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak» deb ta’kidlagandi. Bu bejiz aytilmadi, albatta.

Zero, xalqimiz, ayniqsa millatning kelajagi bo‘lgan yoshlar buyuk ajdodlar tarixini qanchalar ko‘p o‘rgansa, ularning hayoti va faoliyatidan ibrat va saboq olib yashasa, qalbida milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ulari jo‘sh urib, elu yurtga bo‘lgan muhabbati yanada ortadi. Bu ezgu ishlarni amalga oshirishda esa, xalqimiz tarixida o‘tgan ko‘plab buyuk siymolar qatorida, Sohibqiron Amir Temur qadriyatini

o‘rganish ham muhim ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy ahamiyatga ega. Amir Temur ulkan va qudratli sultanat barpo etar ekan, ma’naviy madaniyatning yuksalishi, gullab yashnashi, bunyodkorligiga alohida e’tibor berdi.

Tabiiyki, mustaqillik yillari tarixshunosligida Amir Temur va Temuriylar davri ilm-fani rivoji bevosita Temuriylar davri bilan uzviy ravishda o‘rganildi. Chunki, ilm-fan ravnaqi jamiyat va davlat taraqqiyotiga xizmat etishini yaxshi tushungan Sohibqiron noyob iste’dod va qobiliyat egalarini muhofaza qilish, ijodlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishga alohida e’tibor qaratdi. Shuning uchun ham u o‘zining “Tuzuklari”da qayd etilgan o‘n ikki toifa va tabaqaning ikkinchisiga aqli kishilar va kengash sohibarlarni kiritdi va ularni e’tiborli shaxslar deb bildi[2,76].

Buning natijasi o‘laroq, Temuriylar davrida ilm-fan ravnaq topib, yurtboshimiz aytganlaridek: “*O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham sultanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi*”.

Amir Temurning qanday shaxs va davlat arbobi bo‘lganligi, hamda uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, sultanat taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirgan islohotlari borasida uning zamondoshlari ham, keyingii davr olimlari va siyosatchilari ham o‘z fikrlarini bayon etganlar.

Amir Temur ilm-fan, ma’naviyat ahliga e’tibor, mehribonlik ko‘rsatib, ulardan jamiyat madaniy hayotida foydalanishga intilar ekan, tarixchi Ibn Arabshoh yozganidek, «*Temur olimlarga mehribon, sayyidu shariflarni o‘ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to‘la izzat-hurmat ko‘rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko‘rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib, izzatu ikromini unga izhor qilardi*

Amir Temur saroyida ko‘plab ilm-ma’rifat allomalari Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nu’moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Mavlono Alouddin

Koshiy, Jalol Xokiylar Sohibqironning marhamatidan bahramand bo‘lib, uning xizmatida bo‘ldilar. Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me’morchilik, falakiyat, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalari ravnaqiga katta e’tibor berib, sohibi hunarlar bilan qilgan suhbatlari haqida fransuz olimi Lyangle shunday yozadi: «*Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste’dodli bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki Temur bu sohalarga g‘amxo‘rlik kilishga asosiy e’tiborini berardi».*

Amir Temurning zamondoshi muarrix Hofizi Abru yozishicha: “...hazrat Sohibqiron Amir Temurning humoyun va saodatlari ayyomida Movarounnahr yer yuzi mamlakatlarining poytaxtiga aylandi. Jahonning turli joylaridan olimu fuzalolar, muhandislar va hunarmandlar bu yerga oqib kelib, yashab ijod eta boshladi”[3,59].

Aytib o‘tish joizki, azaldan olimu fuzalolar va hunarmand odamlar (ijodkor va bunyodkorlar) ijod qilish uchun qaerda qulay sharoit bo‘lsa, shu tomonga talpinib yashagan. “*Amir Temur jamiyat va davlat taraqqiyotini, kelajagini fan va madaniyat ravnaqisiz tasavvur qilib bo‘lmasligini yaxshi tushungan. Shuning uchun iste’dod egalari maxsus va doimiy e’tiborga muhtoj va loyiq bo‘lishlari, noyob qobiliyat egalarini muhofaza qilish, ijodlari uchun sharoit yaratish, turmushlarini ta’minlash zarurligini ham u to‘g‘ri anglagan*”[4,197].

Fransuz olimi Lyangle ham Amir Temurning ilm-ma’rifat allomalariga, sohibi hunarmandlarga qanchalik hurmat bilan munosabatda bo‘lganligi to‘g‘risida shunday deydi: «*Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste’dodli bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Negaki, Temur bu sohalarga g‘amxo‘rlik qilishga asosiy e’tiborini berardi».*

Bundan tashqari, Sohibqiron davlat va jamiyat boshqaruvidagi faoliyatini ilm ahlining ma’naviy ko‘magiga tayangan holda olib borgan. U olimu ulamolarga

yuksak ishonch bildirib, qudratli davlat barpo etishda ularning beqiyos o‘rnii borligini alohida ta’kidlab o‘tgan. Amir Temur hazratlari qaysi mamlakatni fath etsa, shu yerlik ijodkor ahlini izlab toptirib, ularni ham moddiy, ham ma’naviy tomondan qo‘llab-quvvatlagan. Izzat-hurmatini o‘z o‘rniga qo‘ygan. «Temur tuzuklari»da bu borada shunday deyiladi: «*Sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqil va dono kishilar, muhaddislar va tarixshunoslarni sara va e’tiborli kishilar deb hisoblab, hurmatizzatlarini o‘rniga qo‘ydim... Olimlar bilan suhbatda bo‘ldim va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpinib yashadim*».

Darhaqiqat, biz yashagan zamin Sohibqiron Amir Temur davrida ham, bugungi kunda ham ham ko‘pchilikning havasini keltirayotgani rost. Eng asosiysi, raiyat deb atalmish xalq rozi bo‘lgan. Shuning uchun ham Amir Temur hukmronligi davrida xalq tinch, osoyishta va farovon turmush kechirgan. Bu Sohibqironning doimo xalq g‘amida, uning manfaati yo‘lida faoliyat yurgizganligidan, raiyat ahvoldidan doimo xabardor bo‘lganidan dalolat beradi.

«Temur tuzuklari»da yozilganidek: «*Raiyat ahvolidan ogoh bo‘ldim. Ulug‘larini ota qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim. Har yerning tabiatini, har el-yurt va shaharning rasmu odatlari va mizojidan voqif bo‘lib turdim. Har bir yurt va shahar aholisining ulug‘lari bilan do‘sit tutindim. Ularning mizojlari va tabiatiga to‘g‘ri kelgan, o‘zlari tilagan odamlarini ularga hokim qilib tayinladim*».

Ma’lumki, saxovatpeshalik, mehr-muruvvatlilik, fuqaroning turmushi va hol ahvoldidan xabardor bo‘lish faqat buyuk davlat arboblariga xos bo‘lgan fazilatdir. Amir Temur hazratlariga xos bo‘lgan ushbu fazilat bugungi kunda mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan siyosatda o‘z aksini topmoqda.

Darhaqiqat, yurtboshimiz yordam va ko‘makka muhtoj insonlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik, ijtimoiy hayotda mehr-muruvvat, saxovat va o‘zaro yordam masalalariga alohida ahamiyat berib kelmoqda.

Albatta, amalga oshirilayotgan bu ezgu ishlarning pirovard maqsadi xalqni rozi qilishga, uning og'irini yengil qilishga qaratilgan. Buni quyidagi so'zlardan ham anglab olish mumkin: «*Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan – shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergen ham shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak, odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak, avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi».*

Xulosa qilib aytganda, Sohibqiron Amir Temur milliy davlatchiligimiz tarixida nafaqat yetti iqlim sultoni sifatida, balki yurt obodonchiligi va xalq farovonligi yo'lida bor kuch-g'ayratini safarbar etgan buyuk davlat arbobi sifatida qoladi. Amir Temurdek tabarruk zotlar haqida, ul ulug' inson yaratgan buyuk ishlar, bizlarga qoldirgan buyuk meros abadul abad o'zligimizni anglashga xizmat qilaveradi, ulug' ajdodlarimizni o'qib o'rgansak ular bizga shunchalik pok ruhiy madad, yuksak ma'naviyatni ato etaveradi.

Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. “*O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixon bag'ishlaydi*[1,146]”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild – T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. Temur tuzuklari/Forschadan A.Sog'uniy va H.Karomatov tarjimasi. So'z boshi va mas'ul muharrir Muhammad Ali. – T.: Sharq, 2005.
3. O'rolov A, Xojixonov M. Temuriylar ma'naviyati va madaniyati. – Samarqand: So'g'diyona, 1996.

4. Ziyo A. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000.

Jumayeva Mahorat Ga'ybullayevna

Kogon tuman ijtimoiy fanlar bo'yicha trener

TEMURIYLAR DAVRIDA MUSIQA VA TASVIRIY SAN'AT

Annotatsiya: Bugungi kunimizning dolzarb muammolaridan biri tarixda yashagan buyuk allomalarimizning ijod yo'lini mukammal o'rganmay turib, ijodkorlikka qo'l urish va bunday qilayotgan ijodkorlar shaxslar talaygina. Ayniqsa musiqa va rassomchilik sohasida bu jarayon yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu tezis bu muammoning kichkina bir qismiga bag'ishlab yozildi.

Kalit so'zlar: Marog'iy, Kamoliddin Behzod, musiqa maktabi, Moniy Soniy, miniatura san'ati, Hirot, Tabriz maktabi, "Zafarnoma".

"Temur dunyoga kelgan yurtda falsafa, tibbiyat, matematika, astronomiya, geografiya, tarix, adabiyot sohalarida olamshumul asarlar yaratildi. Bu asarlar keyinchalik Yevropa uyg'onish davriga turtki bo'ldi va Yevropa fanining uzoq asrlar davomida taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qildi. O'n beshinchi asrni Temuriylar Renesansi davri deb atash mumkin", – deb yozadi Sohibqiron shaxsiyatining hozirgi zamon angliyalik tadqiqotchisi Xilda Xukxem. Haqiqatdan ham Amir Temur va temuriylarning bevosita amaliy sa'y-harakati va rahnamoligi tufayli mamlakatda fan, madaniyat, san'atning ko'p sohalari gurkirab taraqqiy topdi. Sulola vakillarining homiyligi ostida quyidagi to'rt yo'nalishda to'rt maktab yuzaga keldiki, ularning har birida samarali ijod mahsullari yaratilib, o'z davri uchun ham, bugungi kungacha ham ilm-fan sohasida qo'llanma vazifasini o'tamoqda:

- *Astronomiya maktabi* – Mirzo Ulug'bek rahnamoligida tashkil etilgan va o'ziga xos akademiyaga aylangan. Bu yerda shunday astronomik jadvallar tuzildiki, bizning zamonamizgacha deyarli bir darajada barqaror bo'lgan ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

- *Badiiy adabiyot maktabi* – Alisher Navoiy hazratlarining tashabbusi bilan asos solingan. Navoiy juda serqirra ijodkor ekanligini shunday namoyon qilldiki, bugungi kunda u kishining asarlari dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilindi va qilinmoqda, fan olamida Navoiyshunoslik yo‘nalishi vujudga keldi, haykallari 10 dan ortiq davlatlarda tiklandi.

- *Musiqqa maktabi* – Abdulqodir Marog‘iyning noyob qobiliyati ila tashkil topgan. U kishi yaratgan musiqalar o‘z davridan keyin butun muslimmon olami musiqasi ravnaqining g‘oyat muhim omili bo‘lib xizmat etdi.

- *Miniatura maktabi* – Kamoliddin Behzod tomonidan yaratildi hamda o‘z davrining mashhur akademiyasiga aylanib, bir qancha ijodkorlarni yetishtirib chiqara oldi.

Astronomiya va badiiy adabiyot maktablari haqida ko‘pgina asarlar, ilmiy maqolalar, sahna asarlari ham yaratildiki, bu haqida ko‘pchiligidiz xabardormiz. Ammo, temuriylar davrining musiqa va tasviriy san’at maktablari haqida ko‘pchilik adabiyotlarda qisqacha tushunchalar berib o‘tilgan. Vaholanki bu maktablar ham o‘ziga xos ilmiy va badiiy meros qoldira olgan.

Temuriylar davri musiqa maktabi asoschisi Abdulqodir Marog‘iy bir qancha vaqt Bag‘dodda Sulton Ahmad saroyida xizmat qiladi. Bu shahar temuriylar davlati tarkibiga kiritilganidan keyin Marog‘iy poytaxt Samarqandga kelib, Sohibqironning saroyida xizmat qiladi. Keyinchalik esa Hirotda Amir Temurning o‘g‘li Shohruh saroyida ham bir qancha vaqt xizmatda bo‘ladi. Forobiy, Ibn Sino, Sayfuddin Abdul Mo‘min Urmaviy va boshqalarning Sharq musiqasiga doir asarlarini qunt bilan o‘rganadi. O‘zining egallagan bilimlari asosida XIV-XV asrlar Sharq musiqasi nazariy muammolariga bag‘ishlangan asarlar yaratadi. Marog‘iyning ma’naviy merosi faqat Markaziy Osiyo va Xuroson musiqasining nazariy muammolarini hal etish bilangina chegaralanmagan bo‘lib, o‘ta noyob qobiliyat egasi ekanligini bastakor sifatida yaratgan musiqalaridan fahmlash mushkul emas. Uning Iroq maqomi yo‘li bilan ijro etiladigan “Peshravi dor” va “Amali tarona” kabi asarlari xalq ichida nihoyatda ommalashib ketib, bugungi kunda ham kuylanib, o‘lmas meros

ekanligini isbotlayapti. Marog‘iy ijodining noyobligi shundaki, u dastlab Bog‘dodda yashadi va arab, fors, ozarbayjon xalqlari musiqasini puxta o‘rgandi. Keyin esa Samarqand va Hirotda yashab, Markaziy Osiyo musiqasini ham qunt bilan o‘rgandi. Ijod mahsullarida esa Markaziy Osiyo va O‘rta Sharq musiqalarini birlashtirgan holatda yarata oldi va yangi bir ohanglar musiqa olamiga yaratilishiga sabab bo‘ldi. Marog‘iy ijodini o‘rganish davr talabi deb o‘ylayman. Chunki bugungi kunda moddiy boylik istab musiqa san’ati bilan shug‘ullanib kelayotgan bir qancha havaskor xonandalar avvalo musiqa tarixiga nazar solishlari, marog‘iy singari qunt bilan o‘rgamoqliklari ularni san’at olamida boqiy musiqalar yaratishlariga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod boshchiligidagi tasviriy san’at maktabi o‘z davri ma’naviyatihamda mafkurasining taraqqiyotiga kuchli ta’sir o‘tkaza olgan. Behzodning yashagan davri temuriyzoda Husayn Boyqaro, Shayboniylar davri, Eronda hukmronlik qilgan Ismoil Safaviy va Tahmasplarga to‘g‘ri keladi. O‘rta asrlarning san’at olamida Hirot hamda Tabriz rassomchilik maktablarining yaratilishi Behzod nomi bilan bevosita bo‘gliq. Bu ijodkor asosan miniature va portret ustasi sifatida keng tanilgan. Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Alisher Navoiy portlarini chizdi va bizning davrimizga bu noyob san’at durdonalari yetib kelgan bo‘lib o‘z ahamiyatini va rang barangligini yo‘qotmagan. Hukmdorlarning qabul marosimlari, jang maydonidagi manzaralar, turli tarixiy voqealar haqqoniy vat a’sirli qilib tasvirlanganki, biz bu tasvirlarni sinchiklab kuzatganimizda o‘sha davr kishilarining ichki kechinmalari, tashqi ko‘rinishi, kiyimlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘la olamiz. Behzod noyob qobiliyat egasi bo‘lganligi uchun unga “Moniy Soniy” va keyingi san’atshunos olimlar tomonidan “Sharq Rafeeli” nomlari berilgan. Husayn Boyqaroning davlat kutubxonasida rahbarlik qilgan davrida Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asariga jang jarayonlarini shunday mahorat bilan tasvirlaganki, uni tomosha qilgan inshon jang maydonidagi so‘z bilan ifoda etilmaydigan holatlar haqida ma’lumotga ega bo‘la oladi. Xotifiyning “Temurnoma” asariga va Sa’diyning “Bo‘ston” asariga

ham miniaturalarni mohirona qilib yaratgan. O‘ziga homiylik qilgan, ustoz deb bilgan Alisher Navoiyning ham asarlariga bir qancha miniaturalar chizdi. Behzodning an’analari keyingi davr rassomlari ijodiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Uning ijodi va merosi san’atshunoslar, rassomlar tomonidan keng o‘rganilishi shart va zarur deb o‘yayman.

Insonga ma’naviy ozuqa beradigan musiqa va tasviriy san’at namunalarini yaratish har qanday insonga xos fazilat hisoblanmaydi. Bunday noyob namunalar yaratgan shaxslar o‘ta kuchli iqtidor va noyob xislatlarga ega bo‘lib, o‘zi qiziqqan bilimlarni qunt bilan o‘rganganlar va keyin egallagan bilimlari asosida yangi ijod mahsullarini yaratganlar. Bugungi kunda dolzarb muammolardan biri yaratilinayotgan musiqa va rassomchilik namunalari negadir umrboqiy emas. Tarixda yashagan ota-bobolarimizning izlaridan mukammal yurish vaqt kelmadimikan, ularning hayoti, ijod yo‘lini mukammal o‘rganish soha vakillariga majburiy mashg‘ulotga aylanishi kerak emassi? Xuddi shunday savolni har-bir kasb-hunar egasi o‘ziga berib ko‘rishini va qat’iy amal qilishini istardim. Toki Kamoliddin Behzod singari dunyo tan olgan, o‘lmas asarlar yarata olish kuchiga ega bo‘lgan ijodkorlar dunyoga kelsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov “Amir Temur faxrimiz g‘ururimiz” “O‘zbekiston 1998 yil.
2. Naim G‘oyipov. “Amir Temur davri ma’naviyati” Toshkent-2001.
3. Ibrohim Mo‘minov “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” “Fan” 1993.

Sayidova Laziza Bekboyevna

Peshku tuman Xalq ta’limi bo‘limi metodisti

AMIR TEMUR MADANIYAT VA ILM-FAN HOMIYSI

Annotatsiya: Xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovrug‘ qozongan, millatimizning faxri bo‘lmish ulug‘ zotlar benihoya ko‘p. Ammolular qatorida yulduzlar aro quyoshday charaqlab turgan bir buyuk zot borki, u

vatanimiz kechmishi, bugunini va ertasida behad yuksak o‘rin tutadi. Ul muhtaram inson sohibqiron Amir Temurdir.

Kalit so‘zlar: madaniyat, ma’rifat, adabiyot, san’at, me’morchilik, hunarmandchilik, bunyodkorlik.

Amir Temur va uning avlodlari hukm surgan tarixiy davrni nazardan o‘tkazar ekanmiz, bunda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak marralari sari ko‘tarilgan Mavarounnahr va Xurosonning butun yorqin manzarasi ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi va madaniyati ravnaqining yuqori cho‘qqisi hisoblangan temuriylar davri nafaqat shu mintaqa doirasida balki umumjahon miqyosida ham oziga xos yuksak bosqich bo‘ldi. Uning qudratli aks-sadosi asrlar osha avlodlar qalbi va tafakkurini nurlantirib kelmoqda.

Ona tariximizning mana shu muhim bosqichida xalq dahosi, qudrati bilan betimsol moddiy va ma’naviy madaniyat namunalari, mislsiz osori atiqalar-u monumetal me’moriy obidalar bunyod etildi. Ilm-fan yuksaldi. Bunday yuksalish Amir Temur va uning avlodlarining ilm-fan, ma’rifat ravnaqida alohida rag‘bat, katta sa’y-harakat bog‘laganliklari natijasi bo‘ldi. Uning davrida Samarqand va yurtning boshqa hududlarida qad rostlagen serhasham saroylar, bog‘-rog‘lar, masjid-u madrasalar, rabot-u karvonsaroylar, ko‘priklar suv havzalari va boshqa inshootlar Sohibqiron salohiyati va faoliyatini nechog‘lik ko‘p qirraligiga dalolatdir.

Temuriylar ma’naviy madaniyati to‘g‘risida gap borganda dastaval ona yurtimizda ona yurtimizda Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichida bo‘lgan bu "oltin asr"da ilm-fanning nechog‘lik ravnaq topganligi hamda uning jahon ilmu urfoni taraqqiyotida qo‘shgan bebahohissasi haqida har qancha g‘ururlansak arziydi.

Bu xayrli ishlarni yuzaga chiqishida han temuriy hukmdorlar tashabbusi va rahnamoligi beqiyos bo‘lgan.Jumladan Amir Temurning «Tuzuklar»i Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi», Bobur Mirzoning «Boburnoma» ijtimoiy fanlarni rivojiga ta’sir ko‘rsatdi. Temuriylar davrida salmoqli hissa qo‘shgan alloma olimlar

Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», «Zubdat at-tavorix», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla ul-sa'dayn va majma ul- bahrain», Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Mirxondning yetti jildli «Ravzat ul-safo», Xondamirning «Makorimul-axloq», «Xabib us-siyar fi axboru afod ul-bashar» asarlari o'sha zamon tarixshunoslik ilmining yuksaklik darajasini o'zida ifoda etadi. Ularning har birida nafaqat u yoki bu hukmdorlarning davlar siyosati yohud harbiy yurishlari yuhud shaxslarga oid ma'lumotlar aks etib qolmay, balki shu bilan birga davrning barcha murakkab, ziddiyatli jarayonlarni, tarixiy voqealar hodisalar silsilasi ham ishonarli tilda yoritilganligi ayon bo'ladi.

Temuriylar davrida xattotlik, tasviriy san'at va musiqa madaniyati rivoj topdi. Bu sohada Mirali Tabriziy, Shayx Muhammad, Junayd Naqqosh, temuriylar davri xattotligi va naqqoshligi makabi atoqli vakillari Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Mirali Qilqalam, Sulton Muhammad Nur va boshqalarning ijodi benazirdir.

Tasviriy san'atda Shamsiddin Muhammad ibn Abdulhay Shayx Turoniy, Abdulla Hiraviy, Ustoz Gung, Ustoz Jahongir nomlari alohida ko'zga tashlanib turadi. Musavvirlik sa'atida tengi yo'q yulduzi Kamoliddin Behzod (1455-1537) ijodi ham Temuriylar davri sa'atining yuqori cho'qqisi hisoblanadi Uning mo'yqalamiga oid hadsiz-hisobsiz rangin tasvirlar, chunonchi, Yazdiyning «Zafarnoma», Jomiyning «Solomon va Ibsol», Sa'diyning «Bo'ston» va «Guliston», Nizomoyning «Xamsa» asarlariga ishlangan miniatura namunalari ijodkor iste'dodining yuksak namunalaridir.

Temuriylar davri madaniy hayotida musiqa san'ati ham alohida o'rinn tutgan Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarida xalq qo'shiqchiligining sakkiz turi rivojlanganligi qayd etadi. Temuriylar davri musiqa san'atida Hirot ijodiy muhitining o'rni benihoya katta bo'lgan. Hirot musiqashunoslari o'z ijodlarida Navoiyning she'r va g'azallaridan foydalangalar.

Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davri vatanimiz xalqlarining hayotiy taqdirida, ularning ijtimoiy taraqqiyotining yuksak marralariga ko'tarilib

borishi davomida o'chmas iz qoldirgan alohida bir tarixiy bosqich bo'ldi. Ayni chog'da, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan yuksalib, jahonda dovrug' taratdi.

Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'navviy madaniyatning yuksak na'munalari, dur-u javohirlari mana necha asrdirki, jahon ahlini hayratga solib, minnatdor avlodlar ardog'ida e'zozlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilas kuch». Toshkent: «Ma'naviyat», 2008.
2. Herman Vamberi «Buxoro yoki Movarounnahr tarixi». Toshkent: «Kamalak», 1990.

Safarova Nargiza Nayimovna

G'ijduvon tumani 63-IDUMI o'qituvchisi

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXI MAVZULARINI YORITISHDA “TAXT” METODIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: “Taxt” metodi o'quvchilarda ham bilim ham tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib metoda o'quvchi odatiy voqelik atrofida emas ayni o'sha voqelik ichida markazida bo'lib qaror qabul qilishga, muammolarni hal qilishda o'zining yangi g'oyalarini berishga, tanqidiy fikrlashga o'rganadi. Shu bilan birga unda Amir Temur shaxsi va davri haqida to'liq tasavvur hosil bo'lishiga erishiladi.

Kalit so'zlar: “Taxt” metodi, tarixiy shaxs, kompetensiya, metod, kreativlik.

Markaziy Osiyo mintaqasining o'ziga xos o'tmishi, uning hududida ko'plab davlat birlashmalarining, xususan, buyuk Amir Temur sultanatining tashkil topishi va taraqqiy etganligi, bu yerda sodir bo'lgan jarayonlarning jahon tarixidagi ahamiyati turli mamlakat tarixchilarining katta qiziqishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda tarixiy meros, tarixiy xotiraning qayta tiklanishi nafaqat O'zbekiston Respublikasi

rahbariyati va tarixchilarining, shu bilan birga keng jamoatchilikning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston olimlarining samarali tadqiqotlari natijasida milliy tariximizning ilgari noma'lum bo'lgan sahifalari ochildi, tarixiy o'tmishimizning ko'p jihatlari kashf etildi. Tarixiy haqiqatni tiklash jarayonida zamonaviy yondashuvni talab qiladigan dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular qatoriga, davlatchiligidan tarixida chuqur iz qoldirgan tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir. Shunday shaxslardan biri Sohibqiron Amir Temur bo'lib, "tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk sultanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi".

Amir Temur shaxsi, davlati, shuningdek temuriylar davri tarixi haqida o'quvchilarga ma'lumot berish bilan bir qatorda o'sha davr tasavvurini o'quvchi ongida gavdalantirish ham juda muhim hisoblanadi. Bunda bugungi kun talabidan kelib chiqib dars jarayonida noodatiy fikrlashga undovchi, o'ziga xos uslublardan foydalanish ancha samarali natija beradi.

"Taxt" metodi. Metodni qo'llash juda qulay, uni istalgan bilim berishga qaratilgan mavzularda va takrorlash, mustahkamlash darslarida hatto nazorat turi shaklida ham qo'llash mumkin. "Taxt" metodida sinf o'quvchilari to'rtta katta guruhga bo'linadi. Guruh a'zolari kelishib guruh sardorini tayinlaydilar.

✓ Har bir guruh o'tilgan mavzu (yoki bob mavzulari masalan: Amir Temur va temuriylar davri tarixi) yuzasidan o'zlariga ma'qul biror hukmdor, qiro, davlat arbobi yoki biror tarixiy shaxs nomini yozib qutichaga soladi.

✓ xohlagan ishtirokchi yozilgan hukmdor solingan qutichalardan birini tanlab oladi.

✓ Qaysi guruh yozgan quticha tanlansa o'sha guruhning bir a'zosi o'zi tanlagan hukmdor (tarixiy shaxs: Amir Temur) roliga o'tib "taxt"ga o'tiradi.

✓ Endi qolgan 3 ta guruh o‘quvchilari uchburchak, to‘rtburchak, aylana shakllari orasidan xohlaganini tanlab oladi. (Bunda o‘qituvchi turli ranglardagi shakllardan ham foydalanishi mumkin bu orqali o‘quvchi psixologiyasi bilan bog‘liq jihatlar namoyon bo‘ladi). Ushbu shakllarda hukmdor faoliyati bilan bog‘liq savollar bo‘ladi. Masalan:

➤ uchburchakni tanlagan guruh o‘quvchilari Amir Temurning faoliyati haqida to‘liq ma’lumot berishlari lozim (yashab o‘tgan davri, amalga oshirgan ishlari). Bunda:

- darslikdagi ma’lumotlar aytilsa, 3 ball beriladi;
- darslik ma’lumotiga qo‘srimcha boshqa manbalardan foydalanib ma’lumot aytilsa, 4 ball beriladi;
- o‘zi tanlagan shaxsni “taxt”ga o‘tirgan shaxsdan ustun jihatlarini (kuchli tomonini) aytib bera olsa, 5 ball.

➤ to‘rtburchakni tanlagan guruh Amir Temurni fazilati haqida (shaxs sifatida xarakteri, shu bilan bog‘liq voqealari, rivoyatlar)

- darslikdagi ma’lumotlar aytilsa, 3 ball beriladi;
- darslik ma’lumotiga qo‘srimcha boshqa manbalardan foydalanib ma’lumot aytilsa, 4 ball beriladi;
- o‘zi tanlagan shaxsni “taxt”ga o‘tirgan shaxsdan ustun jihatlarini (kuchli tomonini) aytib bera olsa, 5 ball.

➤ aylanani tanlagan guruh Amir Temurni jamiyat hayoti uchun muhim islohotlari haqida (tarixiy shaxsni islohotlari yoki kashfiyotlari, asarlari haqida)

- darslikdagi ma’lumotlar aytilsa, 3 ball beriladi;
- darslik ma’lumotiga qo‘srimcha boshqa manbalardan foydalanib ma’lumot aytilsa, 4 ball beriladi;
- o‘zi tanlagan shaxsni “taxt”ga o‘tirgan shaxsdan ustun jihatlarini (kuchli tomonini) aytib bera olsa, 5 ball.

➤ Amir Temur (tarixiy shaxs) o‘rnidagi ishtirokchi yoki guruh shu hukmdor o‘rnida bo‘lsa qaysi ishlarini takrorlamasdi va yana qanday ishlarni amalga oshirgan bo‘lar edi.

- Bunda har qanday yangi g‘oya muallifiga 3 ball;
- Ijobiy g‘oya va qarash muallifiga 4 ball;
- “taxt”ga da’vogar boshqa hukmdorlar (tarixiy shaxslar)ning zaif tomonlarini sanab bersa 5 ball.

Yuqorida berilgan topshiriqlar guruh sardori tomonidan a’zolarga taqsimlanib beriladi. Ya’ni bunda sardor o‘quvchi guruhidagi sinfdoshlari kuchiga qarab vazifa taqsimlaydi. Shu tariqa guruh ichida yana kichik guruhchalar shakllanib o‘zi uchun belgilangan vazifani bajaradi. Mana shu kichik guruhda o‘quvchi o‘zini individual fikrini ochiq ayta olish va himoya qilishni o‘rganadi. Topshiriqn ni bajarish uchun guruhlarga 2 daqiqa vaqt ajratiladi. Izoh: bu qisqa vaqtida o‘quvchi miyasiga kelgan birinchi fikrni yozadi, ko‘pincha bunday fikrlar muvaffaqiyatli bo‘lib chiqadi. Guruhlar taqdimoti ham 3 daqiqadan oshmasligi lozim. Jami: 15-16-daqiqa vaqt sarflanadi.

Metod jarayonida o‘qituvchi boshqaruvchi, kuzatuvchi, ma’lumotlarni tahlil qiluvchi va bildirilayotgan g‘oya va fikrlarni ijobjiy tomonga yo‘naltiruvchi bo‘lishi lozim.

Ushbu metod o‘quvchida bir nechta tayanch va fanga oid kompetensiyalar jumladan:

- ✓ O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;
- ✓ Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;
- ✓ Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
- ✓ tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi;
- ✓ tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi shakllantiriladi.

Eng muhim tomoni shundagi o‘quvchi tasavvurini ishga soladi. Hukmdor yoki tarixiy shaxs faoliyati yuzasidan o‘sha zamon ruhiyatidan kelib chiqib fikr yuritadi. Unda tanqidiy tahlil qilish shakllanadi va o‘z navbatida tasavvuriy o‘sha shaxs o‘rnida qanday ishlarni amalga oshirishi haqida fikr yuritadi. Eng asosiysi, o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri yo‘naltirilgan bu g‘oyalar ichidan eng ajoyiblari, kreativlari ularning shaxsiy hayotida ham muhim o‘rin tutishi mumkin.

Yo‘ldosheva Gulchiroy Rashid qizi

Peshku tuman 22-maktab o‘qituvchisi

AMIR TEMURNING BUNYODKORLIK FAOLIYATI

Annotatsiya. Maqolaning mazmuni XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan Amir Temur davrida amalga oshirilgan obodonchilik va bunyodkorlikning rivojlanishiga qaratilgan. Chunki aynan shu davr Sharqdagi “Uchinchi Renessans”ni boshlab bergen hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: temuriylar, Markaziy Osiyo, «Qubbat ul-ilm val-adab», Go‘ri Amir, Gavharshodbegim, Oqsaroy, Bo‘stonsaroy.

Amir Temur va uning avlodlari hukm surgan tarixiy davrni nazardan o‘tkazar ekanmiz, bunda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak marralari sari ko‘tarilgan Movarounnahr va Xurosonning butun yorqin manzarasi ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Markaziy Osiyo xalqlari sivilizatsiyasi va madaniyati ravnaqining yuqori cho‘qqisi hisoblangan Temuriylar davri nafaqat shu mintaqal doirasida, balki umumjahon miqyosida ham o‘ziga xos yuksak bosqich bo‘ldi. Uning qudratli aks-sadosi asrlar osha avlodlar qalbi va tafakkurini hamon nurlantirib kelmoqda.

Ona tariximizning mana shu muhim bosqichida xalq dahosi, qudrati bilan betimsol moddiy va ma’naviy madaniyat namunalari, mislsiz osori atiqalaru monumental me’moriy obidalar bunyod etildi. Ilm-fan yuksaldi. Bunday yuksalish Amir Temur va uning avlodlarining ilm-fan, ma’rifat ravnaqiga alohida rag‘bat, katta

sa'y-harakat bog'laganliklari natijasi bo'ldi. Xususan, Amir Temur siymosiga to'xtaladigan bo'lsak, uning o'zi yuksak ma'rifatparvar hukmdor sifatida xalq ichidan chiqqan qanchadan-qancha noyob iste'dodlar, ilmu urfon va din ahllari, me'moru hunarmandlarni parvarishlab o'stirish barobarida mamlakat obodonligi, ravnaqi uchun ham doimiy harakatda, izlanishda bo'ldi.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu ko'hna dunyoda o'tgan ko'p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr buyi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lган. Uning «*Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim*», degan so'zлари buning yorqin isbotidir. Amir Temurga har bir zafarli voqeа va sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo'lган. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamdon imoratu inshootlar bino qilganlar. Amir Temur zabit etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari (Bag'dod, Darband, Baylaqon)ni qayta tikladi. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda Madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo'lsa-da, lekin asosiy e'tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarkandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o'g'li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo'lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko'tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar «Qubbат ul-ilм val-adab» unvoniga ega bo'ldi. Saltanat poytaxti Samarkand Amir Temur davrida ayniqsa gullab-yashnadi. Shaharda Isfahon, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shaharlarining me'moru binokorlari qo'li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog'-rog'lar va bo'stonlar barpo etiladi. Xususan Shohizinda me'moriy majmuasiga mansub Shodimulk og'o maqbarasi, Shirinbeka og'o maqbarasi va boshqalar quriladi. Shaharda Bibixonim jome masjidi, Amir Temurning qarorgohi

Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar qad ko'taradi. Umuman olganda Samarqand shahri Amir Temur davrida o'zining qadimgi o'rni Afrosiyobdan birmuncha janubroqda butunlay yangidan qurildi. Shahar tevaragi mustahkam qal'a devori bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan ataluvchi 6 ta darvoza o'rnatildi. Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Yangi qishloqlar barpo etildi. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr, Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi.

Hofizi Abro'ning yozishicha, Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. U davlat ahamiyatiga ega bo'lган har bir masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashardi. Odatda u tibbiyat, riyoziyat, falakiyat, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek ilohiyot va din sohasidagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar o'tkazardi. Amir Temur saroyida ulamolardan mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshiy, mavlono Abdullo Lison, mavlono Bahruddin Ahmad, mavlono Nu'monuddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy va boshqalar xizmat qilardi.

Alisher Navoiyga Amir Temurning ilm va ma'naviyat aqliga ko'rsatgan g'amxo'rligi juda yoqar edi. Bu haqda Navoiy shunday degandi: «*Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlardan foydalanardi*». Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksak namunalari, dur-u javohirlari mana necha asrlardirki, jahon ahlini hayratga solib,

minnatdor avlodlar ardog‘ida e’zozlanib kelmoqda. Bu meros yana asrlar davomida xalqimiz ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib qolishiga ishonamiz.

Raxmonova Nigora Nurmurodovna

Kogon tuman, 12-maktabning tarix fani o‘qituvchisi

AMIR TEMUR DAVLATI RUI GONSALEZ DE KLAVIXO NIGOHIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada ispan elchisi Rui Gonsalez de Klavixo asaridagi ma’lumotlar asosida Amir Temur davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada ayollarning mavqeい xususida alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Klavixo, iqtisodiy munosabatlar, Xoja Muhammad Qozi, Genrix III, Bibixonim.

Amir Temur tuzgan imperiya o‘z davrida jahonning eng yirik kuchlaridan biri bo‘lgach unga butun dunyoda qiziqish, hamkorlikka intilish orta boshladi.

Temur Saltanati va Usmonlilar davlati o‘rtasida ziddiyat davrida, shuningdek, 1402-yil iyun oyida bo‘lib o‘tgan Anqara jangida Temuring g‘alabasidan so‘ng bu istak yanada kuchaydi. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, XIV asrning 80-90-yillarida Temur davlatining shon-shuhrati Yevropa mamlakatlarigacha borib yetdi. XIV asrning oxirida Yevropa davlatlari juda tang ahvolga tushib qoldi. Usmoniy turklar davlatining hujumi xavfiga yetarli tarzda javob qaytara olmasligini bilgan Yevropa qirollari va Rim papasi yordam ko‘zini Sharqqa, Amir Temurga qaratdilar. Uning shaxsiga va hukmronligiga qiziqish ortib bordi. Qirollar va Rim papasi Amir Temur bilan yozishmalar olib bora boshladilar. Sohibqiron huzuriga elchilar va sayohatchilar yuborilib, uning e’tiborini jalb qilishga harakat kuchaydi. Fransiya, Ispaniya, Genuya va Vizantiya singari davlatlarining hukmdorlari Amir Temur bilan siyosiy va iqtisodiy (savdo) munosabatlar o‘rnatishga intilib, uning huzuriga muntazam ravishda o‘z elchilarini yuborib turdilar. Xususan ispan

qirolliklaridan biri, Kastiliya va Leon qiralligi hukmdori Genrix III de Trastamara Temur davlati, qolaversa, Amir Temur shaxsi bilan jiddiy qiziqib qolgan edi. Bir tomondan Usmonlilarning butun Yevropaga tahdidi soya solayotgan, ikkinchi tomondan Temuriylar va Usmoniyalar ziddiyatlari kuchayayotgan davrda Amir Temur davlati va Yevropa qirolliklari yaqinlashishi, ittifoq bo‘lishi tabiiy-tarixiy hol edi, albatta.

Sulton Boyazidga qarshi ittifoq tuzish, qolaversa, iqtisodiy-savdo munosabatlarini rivojlantirish maqsadida 1402-yilda Amir Temur Xoja Muhammad qozini Kastiliyaga yuboradi. Ushbu elchilik aloqalarida faqatgina savdo iqtisodiy munosabatlar emas, balki strategik, diplomatik, o‘sha davr muhitiga xos bo‘lgan buyuk davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar mavjud edi.

Anqara jangida Amir Temurning g‘alabasi bilan tabriklash, qolaversa, Temur davlati bilan har tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirish maqsadida Genrix III 1403-yil may oyida Rui Gonsalez de Klavixoni (vaf. 1412) Xoja Muhammad qozining elchiligiga javob tariqasida yuboradi. Klavixoning elchilik-sayohati 1406-yilgacha davom etadi. Unga Alfonso Paes de Santa Mariya va Gomes de Salazar hamroh bo‘ladilar. O‘n besh oy deganda Samarqandga yetib kelgan Klavixo boshchiligidagi elchilar 1404-yilning sentyabr-noyabr oylarida Samarqandda bo‘ladilar.

1404-yil noyabr oyida Amir Temurning Xitoya yurishi oldidan barcha elchilar qatori Samarqanddan kuzatilgan Kastiliya elchilari 1406-yil mart oyida o‘z yurtlariga qaytib boradilar.

Klavixoning sayohati 3 yil davom etadi (1403- 1406). Uning safar taassurotlari “Buyuk Temur tarixi”, “Temur qarorgohi” hamda “Samarqandga sayohat kundaligi” asarlarida bayon etilgan.

Klavixo kundaliklari ikki qismidan iborat bo‘lib, birinchisida elchilarning Samarqandgacha boshidan o‘tkazgan voqealari, turli hududlar tabiatи, xalqlari turmushiga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi qismda muallif Kesh va Samarqandda Temur saroyidagi uchrashuvlarni tasvirlaydi. De Klavixo mamlakat,

saroy, xalq va uning turmushi haqida ajoyib va takrorlanmas ma'lumotlar beradi. Qoyil qolarli tarafi shundaki, u sayohati davomida Temur saroyidagi, nafaqat saroydagi balki o'lkamizdagi kichik bir voqeа-hodisalarni o'z qiziqishlari bilan mohirona bayon etgan. Shundan bilsa bo'ladiki, Temur va temuriylar imperiyasiga bo'lgan qiziqish G'arb davlatlari uchun muhim masala hisoblangan.

1404-yil sentyabrdan Amir Temur bilan uchrashishga tuyassar bo'lgan Klavixo o'z kundaliklarida bu voqeani juda aniq tasvirlagan. Ushbu uchrashuv Bog'i Dilkushoda bo'lib o'tadi. O'sha kuni boshqa davlatlarning elchilari qatori ispan elchilari ham Temur tomonidan tantanali qabul qilinadi. Ispan qiroli maktubi va sovg'alarini Amir Temurga topshirgan Klavixo o'z navbatida Temur maktubi va sovg'alarini Temurning sevimli nevarasi, 10 yoshli Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek qo'lidan qabul qiladi.

Elchilarga yuqori darajada shohona hurmat ko'rsatiladi. Klavixo bir qancha tadbir, ziyofat, to'ylarda ham ishtirok etadi. Jumladan, 15-sentabr kuni Amir Temur to'rt nevarasini uylantirgan dabdabali to'yda ham ishtirok etadi. Temuriy malikalar, saroy a'yonlari ham elchilar sharafiga ziyofatlar tashkil qiladilar. Ushbu tadbirlarning barchasi elchilarda katta taassurot qoldiradi. Ayniqsa, Amir Temurning katta malikasi Bibixonim (Saroymulkxonim) (1341-1408) tomonidan tashkil etilgan ziyofat Klavixoga manzur bo'ladi. Agar ushbu tarixiy ma'lumotlarni umumiyligi tahlil qiladigan bo'lsak, sayyoh hali hech qayerda ko'rmagan va hali eshitmagan bunday jarayonlarni har qanday Yevropaning buyuk davlatlarida uchramasligi aniq deb o'layman... Sababi, aynan Sharq an'analariga xos tavozi, hurmat-ehtirom, dabdaba va aynan saroydagi muhit Klavixoni o'ziga ohangrabodek tortgani o'z isbotini topgan.

Klavixo o'z kundaliklarida Temur sultanatini mufassal va jonli tasvirlaydi. Jumladan, Amir Temur saroyida ayollarning haq-huquqi haqida Klavixo bayon etishicha, 1404-yilning 23-sentabrida podsho Bog'i Dilkusho katta bazm berib, elchilarni ham unga taklif qiladi. To'yga ko'p mehmonlar kelishadi... Rosa o'yin-kulgi, xursandchilik bo'ladi. Podshoning xotinlari, avvalgi to'ylardagi singari yasan-tusan kiyinishib bazmda hozir bo'ladilar, erkaklar bilan birga o'yin-kulgi qiladilar...

Shu orada fikrimni izohi shuki, Temur va Temuriylar saroyida ayollarning hurmati haqiqatdan ham benihoya baland bo‘lgan. Buni o‘z navbatida Sharq madaniyatining o‘ziga xos ko‘rinishi, yuksak darajada axloq me’yorlariga to‘la mos kelishi, qaytarilmas, yuksak ehtiromdan dalolat deb o‘yayman.

“Kundalik”da shunga o‘xshash qiziqarli ma’lumotlar juda ko‘p. Klavixo ma’lumotlarni shu darajada mohirona izohlaganki, boshqa sayyoohlarning yoki uni asarlarini o‘qigan tarixchi olimlarining qiziqishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun ham necha asrlar o‘tsa hamki, Buyuk imperiya tarixiga bo‘lgan munosabat ortib bormoqda...

Bugungi kunda Rui Gonsalez de Klavixo kundaliklarining asl nusxasi Madriddagi Milliy kutubxonada saqlanadi. Birinchi marta kundalik Sevilyada noshir Argote de Molina tomonidan «Buyuk Temurlang hayoti, uning imperiyasi yerlari bilan» nomi bilan 1582-yilda nashr qilingan. Klavixo kundaliklari ilk marta I.I. Sreznevskiy tomonidan 1881-yilda Petersburgda rus tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. O‘zbek tiliga taniqli adabiyotshunos olim, professor Ochil Tog‘ayev tomonidan tarjima qilingan.

2010-yilda taniqli yozuvchi Muhammad Ali tomonidan Klavixo kundaligi qaytadan nashr etildi.

Klavixo estaliklarida o‘rta asrlardagi Yevropa va Osiyodagi hayot manzaralari, turli xalqlarning o‘ziga xos urf-odatlari, an’analari, rivoyatlari, tartib-qoidalar, o‘sha davr geografiyasi, iqlimi, dengizlar, orollar, qumlik sahrolar, poyonsiz dashtlar, tog‘lar, ko‘llar, obod va xaroba shaharlar to‘g‘risida g‘oyatda rang-barang keng qamrovli, o‘ziga xos, noyob ma’lumotlar berilgan. Xuddi shunday ma’lumot boyliklariga ko‘ra, ushbu kitob bizga zamondosh bo‘lgan turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotchilar uchun bebaho manba bo‘la oladi. Undan tarixchilar ham, siyosatchilar ham, iqtisodchilaru huquqshunoslar ham, tabiatshunoslaru geograflar ham, yozuvchilaru etnograflar ham o‘zlari uchun o‘rta asrlarga oid qomusiy ma’lumot va kuzatishlarni topa oladilar.

Ushbu tarixiy hamda qimmatli ma'lumotlar yillar, asrlar oshgani sari sayqallanib, kelajak avlod uchun tarix ko'zgusi bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Самарқандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар); Р. Г. Клавихо; Ўзбекистон, 2010.
2. Клавихо Р. Г. Де, Дневник путешествия в Самарқанд ко двору Тимура (1403-1406), М., 1990.
3. Бўрибой Аҳмедов. Клавихо ва унинг «кундалиги» Т., 1999.
4. Poyon Ravshanov. “Amir Temur Sulolasi” Т., 2014.

*Rasulova Nafisa Nasulloyevna
Vobkent tuman 5-maktab o'qituvchisi*

TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUNYODKORLIK

Annotatsiya: mazkur maqolada Temur va temuriylar davrida bunyodkorlik ishlarining ahamiyati masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: bunyodkorlik, obodonlashtirish, madaniy hayot, rasadxona, madrasa.

Xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan dovrug‘ qozongan, millatimiz faxri bo‘lmish ulug‘ insonlar benihoya ko‘p. Ammo ular qatorida yulduzlararo quyoshday charaqlab turgan bir zot borki, u Vatanimiz kechmishi, buguni va ertasida muhim o‘rin tutadi. Bu buyuk zot sohibqiron Amir Temur bo‘lib, ko‘hna tarix sahifalari buyuk bobomizning millat va el-ulus manfaati yo‘lida chekkan mislsiz zahmat hamda ko‘rsatgan shijoatlariga guvohlik beradi.

Ma’rifatli Movarounnahr ruhi, temuriylar davrida fan-madaniyatning gullab-yashnashi Yevropada uyg‘onish jarayonida hayotbaxsh ta’sir etganligini anglab, faxrlanamiz albatta. Amir Temurning butun suronli umri, uning bunyodkorlik bilan yo‘g‘rilgan faoliyati sabab, xalqimiz, millatimiz nomi tillarda doston.

Amir Temur Samarcand, Kesh, Buxoro, Toshkent, Qarshi kabi shaharlarni qayta tiklab, obod qildi, Mavarounnahr va Xuroson, hatto, Janubiy Ozarbayjon, Kobul kabi olis hududlarda ham obodonchilik ishlarini olib borib, sug‘orish inshootlari qurdirgan. Shu bilan bir qatorda, ilmli kishilarni yuksak e’zozlab, davlatni boshqaruv ishlarida olimu-fuzalolarning maslahatlariga qulqoq tutgan. 1403-yil Baylakonda bo‘lib o‘tgan ulamolar yig‘ilishida olimu-ulamolardan davlatni boshqarish, inshootlar qurilishida o‘z maslahatlari bilan ko‘maklashishlarini so‘rashi yuqoridagi fikrimiz isbotidir.

Amir Temurning har bir zafarli voqeani muhtasham me’moriy obida barpo etish bilan nishonlash odati bo‘lgan, ayniqsa, poytaxti Samarcandning obodonchiligiga alohida ahamiyat bergen. U o‘zning butun harakatlarida, jumladan, binokorlik sohasidagi faoliyatida ham siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan. Amir Temurning “*Kimki bizning shon-shuhratimizni ko‘rmoqchi bo‘lsa, biz barpo etgan imoratlarga nazar solsin*” yoki, “*Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim*”, – degan so‘zları fikrimiz isboti bo‘lib, bunda ul zot avvalambor, o‘z xalqiga, kelajak avlodlarga murojaat qilgan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Amir Temur shaharu qishloqlardagi bunyodkorlik ishlaridan tashqari Samarcand atrofida go‘zal bog‘lar qurdirib, bu bog‘lar shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shgan.

Tarix, tibbiyot, matematika, me’morchilik sohalaridagi yuksak salohiyat Sohibqiron avlodlari – ayniqsa, Mirzo Ulug‘bekka o‘tgani shubhasiz. Musulmon Sharqida shu turdagи binolarning mumtoz namunasi hisoblangan, Buxoroda barpo etilgan Ulug‘bek madrasasi peshtoqiga “*Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolning burchidir*”, – so‘zlarining bitilishi barchani ilm-ma’rifatli bo‘lishga chorlaydi.

Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan me’moriy binolar ichida Samarcand rasadxonasi alohida o‘ringa ega bo‘lib, Sharq mamlakatlarida ilmu-ma’rifatni, jumladan, astronomiya va matematika fanlari rivoji yo‘lida uning bajargan xizmatlari beqiyosdir.

Temuriylar davrida barpo etilgan ulug‘vor obidalarni ziyorat qilar ekanmiz, go‘yoki, Sohibqironning dil sadosi qalblarimizda aks-sado berayotgandek bo‘ladi. Tarixda buyuk hukmdorlar ko‘p o‘tgan lekin, millat g‘amida yongan, uning istiqboli yo‘lida fidokorlik ko‘rsatib yashagan buyuk hukmdorlar kamdan-kam uchraydi. Ana shunday Vatan dardida yongan, ilm-fan tammaduniga hissa qo‘sghan buyuk hukmdorlarni kelajak avlod hech qachon unutmaydi.

Faxrimiz-g‘ururimiz bo‘lgan Amir Temur va temuriylar davri – demokratik davlat va adolatli jamiyat qurish yo‘lida borayotgan “Yangi O‘zbekiston” barpo etayotgan xalqimizni bugungi kunda hamjihatlikka chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – Toshkent, 2000.
2. Temur tuzuklari. – Toshkent, 2020.
3. Ahmedov B. Amir Temur darslari. – Toshkent, 2001.
4. Qosimov F.H. Temuriylar davrida Buxoro. – Buxoro, 1996.

*Jo‘rayeva Muhayyo Rahimovna
Kogon tumani Xalq ta’limi Ijtimoiy fanlar metodisti*

BUNYODKOR SHAJARA

Annotatsiya: Tarixda shunday sulolalar o‘tganki, faqat harbiy yurishlar uyushtirib, vayronagarchiliklar sababchisi bo‘ldi. Yana shunday sulola vakillari borki, ular vayron etgan joyini ikki barobar ustunlik bilan bunyod eta olgan. Temuriylar sulolasi vakillarining aksariyati shunday jarayonni amalga oshirganligini tarix sahifalaridagi haqiqatlar isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: dunyoning husni, YUNESKO, yashil shahar, abadiy shahar, temuriylar, ilm-fan markazi, boqiy shahar.

Samarqand – Temuriylar davlatining poytaxti, ilm-fan markazi, “dunyoning husni” deya ta’rif etilgan yoshi ulug‘ abadiy shahar. Yozma manbalarda Samarqand

Maroqand nomi bilan qayd etilgan bo‘lib, uning atrofi mudofaa devori bilan o‘ralgan qal’a-qo‘rg‘on bo‘lgan. Samarqand miloddan avvalgi IV asrdan Sug‘d davlatining poytaxti bo‘lgan. Keyinchalik Samarqand Amir Temur sultanatining poytaxti sifatida jahonga mashhur bo‘ldi va «abadiy shaharlar» qatoriga qo‘sildi. Markaziy Osiyo tarixida eng yirik davlatga asos solgan buyuk hukmdor Amir Temur poytaxt maqomini berish uchun aynan Samarqandni tanlashi haqida ko‘pgina rivoyat va hikoyatlar mavjud bo‘lib ularning zamirida haqiqatlar ham bor.

“Temur dinastiyasi O‘rta Osiyoda, birodarkushlik urushlari bo‘lib turganligiga qaramasdan, yuz yildan ko‘proq hukmronlik qildi... Samarqand yirik ilmiy markazga aylandi” deb izohlaydi Sohibqironning angliyalik tadqiqotchisi Xilda Xukem. Samarqand o‘sha davrdagi mavqeyi bo‘yicha ijodkorlar, ilm va madaniyat ahli qaror topgan shahar bo‘lmog‘i lozim edi. U poytaxt shahar, poytaxt bo‘lganda ham birgina Movarounnahrning emas, balki buyuk Temur imperiyasining poytaxti edi. Bu esa, tabiiy ravishda, ko‘philik ziyolilarning bu yerda jam bo‘lishini taqozo etgan. Lekin Sohibqironning maqsadi bundan ko‘ra muhimroq, orzusi esa uning davrigacha dunyo xalqlari tarixida nozil bo‘lмаган ўқсак ва мусаффо ма’навиј орзу edi. Aynan shu orzusining teng yarmi Samarqand bilan bog‘liq edi. Eng noyob iste’dod egasi bo‘lgan ijodkorlar va hunrmandlarni Samarqandga to‘plash bilan ularga ijod qilishlari uchun imkoniyatlar yaratib berish, ularning har birining ijodiy ishlarini davlat tomonidan, buyuk hukmron salatanati tomonidan himoyalash, ijodiy ishlariga dalda berib, uni o‘sirish, bu ulug‘vor badiiy-ma’naviy xazinadan imperiyaga tobe’ bo‘lgan barcha mamlakatlar fuqarolarini boxabar qilish va nihoyat, shu zaylda buyuk imperiyani yoppasiga ma’naviy yuksak makonga aylantirish Amir Temurning asosiy maqsadi edi. Shu maqsad yo‘lida Amir Temur qaror va farmoyishlar qabul qilishni afzal ko‘rmadi, balki shaxsiy homiyligi hamda rahnamoligi usullari bilan hal etish yo‘lini tanladi va ko‘zlagan maqsadiga erishdi.

Temur va temuriylar davrida madrasa oliy ma’lumot beradigan markaz vazifasini bajargan. Samarqandda asosan davlat va davlatmand shaxslarning mablag‘lariga qurilgan ko‘plab madrasalar bor edi. Madrasada ilohiyot bilan birga

dunyoviy fanlar – qonunshunoslik (fiqh), matematika (riyoziyat), geometriya (handasa), adabiyot, she’riya (ilmi aruz), arab tili va uning morfologiyasi (qofiya) falakiyat, tibbiyat, tarix, jo‘g‘rofiya o‘qitilgan.

Madrasada eng yetuk mutaxassislar dars berishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ularga alohida ish haqi to‘lanar edi. 1404-yilda Saroymulkxonim Samarqandda shunday madrasa qurdirgan ediki, u o‘z hashamati bilan o‘sha davrdagi boshqa inshootlardan ajralib turardi. Unda o‘z davrining mashhur olimlari mudarrislik qilganlar. Ilm-fan va san’atning taraqqiyotida zamonasining madaniy muhitida tarbiyalanib, yoshligidayoq mashhur olim sifatida shuhrat qozongan Ulug‘bekning hissasi nihoyatda buyukdir. U mamlakatni boshqarish bilan bir qatorda, ilmiy ishlar bilan shug‘ullanadi, olimlarning munozaralarida faol qatnashadi. Ulug‘bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi, Samarqand, Buxoroda ilm maskani madrasalar bunyod ettirib, o‘zi ham ma’ruzalar o‘tdi. Bitiruvchi faol talabalarni rag‘batlantirdi. Madrasa tinglovchilari fanning turli sohalaridan ko‘pgina kitoblarni tahlil qilar edlar. Sulola davrida yaratilgan ilm maskanlariga atrofdagi boshqa hududlardan ham talabalar kelib ilm o‘rgangan. Amir Temur va uning avlodlari saroylarida ko‘hna dunyo va o‘rta asrning noyob asarlari saqlanib kelayotgan boy kutubxonalari bor edi. Samarqandda Amir Temur va Ulug‘bekning, Hirotda Shohrux, Boysung‘ur, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning boy kutubxonalari ziyo tarqatish bilan mashg‘ul edi. Ulug‘bek “Tarixi arba’ ulus” (To‘rt ulus tarixi) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag‘ishlangan beshta risola ham yozgan. Ulug‘bekning astronomiya maktabi o‘z davrining o‘ziga xos akademiyasi edi. Ulug‘bek tevaragida uyushgan 100 dan ortiq olimlarning o‘z bag‘rida yetishtirgan nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o‘tagan.

“*Ulug‘bek Samarqandda bo‘lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini o‘lchashni buyurdi va astronomiyaga oid jadvallarni tuzishda ishtirok etdi*”, – deb yozgan edi fransuz tarixchi olimi Volter.

Kastiliyadan kelgan elchi Klavixoning esdaliklarida ham Sohibqironning bunyodkorlik shijoati haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib uni hayratga solganligi qayd etilgan. Amir Temurning ko'p davrlar mobaynida faqatgina bosqinchi, ayovsiz harbiy yurishlar uyushtirgan hukmdor sifatida e'tirof etilganligi juda ayanchli holat bo'lganligini ilm ahli manbalar asosida isbotlab berdi. Samarqandga boshqa yurtlardan keltirilgan barcha iste'dod egalari uni ilm-fanning homiysi va o'zi ham ilmli shaxs ekanligini qayd etishganligi Amir Temur shaxsining bo'htonlar ostida qolganligini isbotlaydi. Birinchi yurtboshimiz tashabbuslari bilan Amir Temurning 660 yilligi xalqaro miqyosda o'tkazilishi Amir Temur qiyofasining yangi qirralarini dunyo miqyosida ochib berdi.

Gadoyeva Munira Muxamedova

*Buxoro viloyat XTXQTUMOHM “Pedagogika, psixologiya
va ta'lim texnologiyalari” kafedrasi katta o'qituvchisi*

Hamroyeva Shohida Ro'zimurodovna

Romitan tumani 33-maktab o'qituvchisi

BADIY ADABIYOTDA AMIR TEMUR OBRAZINING TALQIN QILINISHI

Annotatsiya: Tarixda shunday sulolalar o'tganki, faqat harbiy yurishlar uyushtirib vayronagarchiliklar sababchisi bo'ldi. Yana shunday sulola vakillari borki ular vayron etgan joyini ikki barobar ustunlik bilan bunyod eta olgan. Temuriylar sulolasi vakillarining aksariyati shunday jarayonni amalga oshirganligini tarix safifalaridagi haqiqatlar isbotlaydi.

Kalit so'zlar: dunyoning husni, YUNESKO, yashil shahar, abadiy shahar, temuriylar, ilm-fan markazi, boqiy shahar.

Butun dunyoni saodatli, farovon qilmoq uchun bel bog'lagan ulug' sohibqiron bobomiz – Amir Temurdir. Nega aynan sohibqiron tashbehi ko'p marta Amir Temurga nisbatan tilga olinaveradi? Bu so'z izohida berilgan ta'rif bo'yicha Zuhra va

Mushtariy yoki Zuhra va Quyoshning ekliptika davrining ma'lum bir darajasida to'qnash kelish vaqt (qiron) da tug'ilgan bolalarga nisbatan qo'llaniladi. Bunday qiron davrida tug'ilgan bolalar baxtli g'olib, muzaffar va ulug' martabali bo'lishi bashorat qilingan. Tarixda mana shunday ta'rifga muvofiq tug'ilganlar sanoqli bo'lsa-da, ular qatorida Aleksandr Makedonskiy va Amir Temur kabi jahongirlar ham kiradi.

Ulug' insonlarning fazilati ham ulug' bo'ladi, deganlaridek, Amir Temur kabi buyuk inson ham badiiy adabiyotning bosh mavzusi va qahramoni sifatida keng talqin qilingan. Uning har jihatdan tengsizligi yozuvchilar va shoirlar baytida doston bo'ldi. Birgina Abdulla Oripov o'zining "Sohibqiron" dramasida Amir Temur shaxsini qayta kashf etgandek bo'ladi. Asarda Amir Temurning nafaqat sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi,adolatli hukmdor, buyuk bunyodkor ekanligini tasvirlanadi. Shu bilan birga uning ilm-fan homiysi ekanligi, bag'rikengligi, mehri beqiyosligi, har bir so'zi tuzuk ekanligi yarq etib ko'zga tashlanadi. Biz Amir Temur davrini qanchalik yaxshi o'rgansak, tarix haqidagi tasavvurlarimiz shunchalik rivojlanadi. Chunki, Amir Temur faxrimiz. U millat g'ururi, tariximizning yorqin yulduzi. Bu qiron sohibi o'ychil mutafakkir sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlarni – mo'l xazina,yagona shoh,yengilmas lashkar deya ta'kidlaydi. Dramada jahongirning fuqarolariga munosabat xususida "*Hukmdorlar seva turib fuqarolarni, Umid hamda qo'rquv ichra saqlashi darkor*", – deya ifoda etilgan.

Asarda jahongirning o'z dushmanlarining gunohlarini kechira olishi Sulton Boyazidga ko'rsatgan hurmati, ezgu amalli kishilarni taqdirlashi Qosimbek timsolida tahsinga loyiq. Shu bilan birga asarda uning Ahmad Yassaviy qarashlari va e'tiqodiga hurmat bilan qaragani, uning ruhi bilan suhbatida namoyon bo'ladi. "A.Yassaviy: "Aytingchi, Temur siz ham besabab qon to'kkamnisiz?" Amir Temur: "Adolat va islom himoyasi deb, yer yuzini fath ayladim, tartib o'rnatdim". Shu xildagi javobi orqali kezgan jang-jadallari,adolat uchun bo'lganligi kitobxonni o'ziga tortadi. She'riy dramada o'zidan keyingii avlodlarga, nabiralariga hayotiy xulosalarini

tuzukotlarini qoldirib ketayotganligini vasiyat qiladi. Uning “Temur tuzuklari” asari har bir yurtboshchisi va fuqarosi uchun birdek mayoq bo‘lib xizmat qiladi.

Amir Temur tavalludining 686 yilligi arafasida turgan har bir kitobxon uchun “Sohibqiron”dramasi, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romani faxr tuyg‘usini tarataversin. Har bir o‘zbek uchun Temurning tilidan aytilgan “*Biz kim mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Biz kim millatlarning eng qadimi va eng ulug‘i Turkning bosh bo‘g‘inimiz*” so‘zлari hayotiy yo‘ldosh bo‘lsin. Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!

Adabiyotlar:

1. Ahmedov B., Sohibqiron Temur (Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati), T, 1996.
2. Pugachenkova G. A., Arxitekturnoye naslediye Temura. T, 1996.
3. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma "Cho‘lpon", 1991.
4. Marsel Brion. Men kim sohibqiron – jahongir Temur. 2010.
5. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. “Sharq”, 1997.
6. Nurali Qobul. “Buyuk Turon amiri yoxud Aql va qilich”. Sharq, 1997.
7. A.Oripov. “Sohibqiron” dramasi T.: Akademnashr, 2016.

Amonova Mamlakat Shafkatilloyevna

Vobkent tuman 4-umumiyo rta ta lim maktabi o qituvchisi

AMIR TEMUR – ILM-FAN VA MADANIYAT HOMIYSI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning XIV asrda Movarounnahr, Xuroson hududida ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish borasida amalga oshirgan ishlari haqida batafsil yoritilgan. Ayniqsa, ilm-fan namoyondalariga ko‘rsatilgan yuksak ehtiromi va homiyligi Movarunnahrda uyg‘onish davrining debochasi bo‘ldi, desa mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy va tarixiy meros, mo‘g‘ullar istibdodi, sho‘rolar davri xulosalari.

Insonning tabiatи o‘zligini anglashga, o‘tmishini bilishga qiziqishiga moyil bo‘ladi. Mustaqillik bizning mamlakatimizda ana shu jarayonni yanada kuchaytirdi. Biz bugungi murakkab davr oldimizga qo‘ygan ko‘pgina dolzarb muammolarga javob topish uchun, tarixning yashirin ma’no-mohiyatini chuqurroq anglash uchun o‘tmishga murojaat qilamiz.

Bizning o‘tmishimiz juda boy, o‘rganilmagan sahifalar esa ko‘p. O‘rganilganlari esa sho‘ro mafkurasi davrida soxtalashtirildi. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab biz o‘tmish madaniy-ma’naviy va tarixiy merosimizga munosabatga alohida e’tibor qildik. Chunki xalqimizning sho‘ro davrida unutilgan, toptalgan milliy g‘ururini, ongini yuksaltirish uchun tariximizni tiklash lozim.

O‘tmishimizda shunday shaxslar borki, ularning hayoti, faoliyati tariximizning shonli sahifalarini tashkil etadi. Sohibqiron Amir Temur ham ana shunday daholardan biridir. Xalqimiz tarixida, nafaqat turkiy xalqlar balki jahon xalqlari taqdirida munosib iz qoldirgan Amir Temurning O‘rta Osiyo xalqlarini, qolaversa, o‘nlab boshqa xalqlarni mo‘g‘ul istibdodidan ozod qilish borasidagi faoliyatining o‘zagina uning tarixda o‘chmas nom qoldirish uchun yetarlidir. Ulug‘ bobomiz tuzgan sultanat esa davlatchiligidan muhim bosqichi edi.

Sohibqiron Amir Temur ayni paytda ilm-fan va madaniyat, adabiyot va san’at homiysi, shaharsozlik ilmining ustasi, siyosat va hayotga nisbatan mushohada doirasi keng bo‘lgan sinchkov va qiziquvchan suhabatdosh sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan. Shuning uchun ham buyuk ajdodimizning ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyatini chuqurroq o‘rganish davr talabidir.

Chingiziylar davrida ta’qib-u siquvlar, siyosiy ostin-ustunliklar natijasida ilm-fan ahli davlatni bark etishga o‘zga yurtlarda jon saqlashga majbur bo‘lganlar. Sohibqiron qaysi mamlakatni zabit etgan yoki qo‘sib olgan bo‘lsa, o‘sha yerdagi olimlar, sayyidlar, mashoyixlar va ulamo-yu fuzalo hurmatini joyiga qo‘yib ularga suyurg‘ol va lavozimlar berib, maosh belgilagan. Temur zabit etilgan mamlakatlardan

olimu fuzalolarni, elga tanilgan ilohiyotchilarni, san'at namoyondalari, kasb-hunar egalarini Samarqandga o'zi bilan birga olib kelishga harakat qilgan.

Sohibqiron Temur davrida shunday olimlardan Sayyid Sharif Sheroziy kabi ulug' tabiblar, Mavlono Ahmad kabi munajjimlar, Shayx Saidali Hamadoniy kabi faylasuflar, Lutfullo Nishopuriy kabi shoirlar, Kamoliddin Isfazoniy kabi qasidanavislari, o'z davrining ko'zga ko'ringan faylasufi, fiqhshunos Sa'diddin bin Umar Taftazoniy, tarixchi olim Ibn Arabshoh, taniqli musiqashunos va olim Abduqodir Ibn G'aybiy va boshqalar Samarqandda samarali ijod qilib, Movarounnahrning ilm-fanga munosabati haqida ba'zi ma'lumotlarni beradi. Temur bu olimlarning ijod qilishi uchun yetarli sharoit yaratib bergan, ularga homiylik qilgan.

Hofizu Abru o'zining "Zubdat at-tavorixi Boysung'uriy" asarida Amir Temurning ilm-fanga munosabati haqida ba'zi ma'lumotlarni beradi. "...*Uning namunali ishlaridan biri ul erdikim, sayyidlar, olimlar, din peshvolari va solihlarning izzat-hurmat qilish shart deb sanardi... Ularga yaxshi g'amxo'rlik qilib katta nafaqa, alohida maosh, yashashi uchun barcha zarur narsalar ajratib, nazorat qilib, e'tibor qaratib turardi, yig'inlarda ularni hamma izzat hurmat qilishi kerak[1,3]*", – deb bilardi.

Sohibqironning olimlarga qay darajada munosabatda bo'lganini "Temur tuzuklari"da keltirilgan ma'lumotlardan ham bilsa bo'ladi: "Sayyidlar, ulamo-yu mashoyixlar, oqil-u donolar, muxaddislar, xabarchilar (tarixchilar)ni tanlangan, e'tiborli odamlar hisoblab, izzat-u hurmatlarini joyiga qo'ydim. Shijoatli kishilarni do'st tutardim, chunki Tangri Taolo jasur kishilarni ardoqlaydi[2,55]".

Amir Temur davrida memorchilik ravnaqi borasida amalga oshirilgan tadbirlar davlatning qudratini o'zida namoyon qiladi. Turkiston shaharlarida Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Yassi, Xurosonda Hirot, Mashhad, Nishopur va boshqalar, Eron va Ozarbayjonda bunyod etilgan qal'alar, masjidlar, madrasalar, karvonsaroylar, bozorlar, timlar, saroylar, xonaqohlar, xiyobonlar, maqbaralar bizning kunimizgacha saqlanib qolgan muhtasham san'at obidalari o'z davrida sohibqiron homiyligida

mamlakatda me'morchilik va shaharsozlik naqadar rivojlanganidan dalolat beradi. Bu o'rinda Amir Temur bobomizning bunyodkorlik haqidagi "*Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar qurishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim*[2,58]", – degan fikri buning yorqin dalilidir.

Sohibqiron Temur davrida tuzilishi va miqyosi bo'yicha misli ko'rlmagan ko'plab inshootlar barpo qilindi. Bulardan biri Yassi (keyinroq Turkiston) shahrida qurilgan Ahmad Yassaviy maqbarasidir. 1392-yili yakunlangan bu inshoot qurilishiga eng yuksak malakali me'morlar jalb etilgan. Maqbaraga kiraverish ravoqli va baland gumbazli peshtoqdan iborat. Axmad Yassaviy maqbarasi musulmon Sharqining me'moriy yodgarliklari orasida eng noyobidir.

Amir Temur davrida saroylar qurilishi ko'lami va bezaklarning hashamadorligi bilan ajralib turadi. Saroylar shunchaki hukmdor xonadon a'zolari yashaydigan joygina emas, balki ulug'vor qabul marosimlari o'tkaziladigan joy ham bo'lgan, o'zining hashamati-yu dabdasi bilan hukmdor qudratini o'zida aks ettirgan. Temur Shahrisabzda Oqsaroy nomi bilan mashhur bo'lgan, asosan ma'muriy siyosiy vazifalarni bajarishga mo'ljallangan saroy qurdirdi. Saroy peshtoqida bitilgan "*Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarga boq!*", – degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Oqsaroyning mufassal tavsifini Klavixo yozib qoldirgan. Temur davrida qurilgan Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy kabi saroylar Samarqand ko'rkiga-ko'rk qo'shib turibdi.

Qadamjolar me'morchiligi ham o'ziga xos tuzilishga ega. Temur Buxoroda Chashmayi Ayub (1380-yil) yodgorligini qurdirdi[3,182]. Shahrisabzda esa ziyorat va dafn marosimlari uchun "hazira" – "Dor us-siyodat" ("Sayyidlar, rahbarlar uyi", 1389-1400) xilxonasini qurdirgan. O'g'li Jahongir vafot etgach, Shahrisabzda maqbara qurdirgan. Unda Xorazm me'morchiligi an'analaridan foydalanilgan.

Sohibqiron davrida so'lim bog'lar qurilishiga ham e'tibor qaratilib, shahar atrofida shunday bog'lardan o'n ikkitasi yaratilgan. Tarixchi Sharafiddin Ali

Yazdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur obodonchilikka yaraydigan biron qarich yerning zoye bo‘lishini ravo ko‘rmagan[4,187].

Sohibqiron Amir Temur tasviriy va musiqa san’atining ravnaqiga ham homiylik qilib, bu sohalar ham turfa yo‘nalishlari bo‘yicha mislsiz darajada yuksaladi. U o‘z davrining yirik me’morchilik obidalarining asosiy ijodkori bo‘lib, devoriy rasmlarni tikladi.

Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Z.M.Bobur o‘z risolalarida Samarqanddagagi Bog‘i Shamol, Bog‘i Dilkusho va Hirot saroyining hashamatli devoriy rasm – bezaklari haqida so‘z yuritganlar. Sohibqiron davridan Samarqanddagagi uchta – Shirinbeka og‘a, Bibixonim va Tuman og‘a maqbaralaridagi tasvirlar bizgacha yetib kelgan. Ularda naqqoshlik va xattotlik san’ati namunalari bilan bir qatorda tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka og‘a maqbarasida ko‘p rangli surat bo‘lsa, qolgan ikki bino devorlarida faqatgina oq va moviy ranglardan foydalanilgan.

Sohibqiron davrida tasviriy san’at bilan bir qatorda musiqa san’ati va ilmi ham jadal ravnaq topdi, kamolot cho‘qqisiga erishdi, chinakam uyg‘onish davri bo‘ldi deyish mumkin. Xonanda va sozandalar rasmiy diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilariga aylangan. Xalq tomoshalari, ommaviy bayramlar ularsiz o‘tmagan. Bu esa, o‘z navbatida, musiqaning boshqa san’atkorlar qatoridan muhim o‘rin egallashini ta’minladi. Manbalarda keltirilishicha, o‘zbek xalqi musiqasi qatori harbiy rasmiy musiqa turlari, mumtoz maqom san’ati, mintaqaning boshqa turkiy hamda arabzabon, forsiyzabon xalqlarning musiqaviy folklori rivoj topdi. Eng muhimi, musiqiy anjomlar jasorat va mardlik timsollariga aylandi. “*Amr qildimki, – deb yozadi Amir Temur o‘z “Tuzuklar”ida, – qaysi bir amir biron mamlakatni fatḥ etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar: faxrli kitob, tug‘ va nog‘ora berib, uni bahodir deb atasinlar[2,80]”*”.

Xulosa qilib aytganda, XIV asrning oxiri XV asrning boshlari madaniy rivojlanishi haqiqatda ham qisqa vaqt bir asrdan sal ko‘proq davrda Movarounnahr va

Xuroson xalqlari madaniyatida, ilm-fanida shu darajada tez va nihoyat yorqin o‘zgarish, yutuq va yangiliklar ro‘y berdiki, ular butun Sharq, jahon ilm-fani, madaniyati rivojida so‘nmas iz qoldira oldi. Bu qisqa davr ichida bunday madaniy yuksalish shunday aql zakovat, iste’dod va talant egalarini yetishtirdiki ularning nomi tarixga namuna bo‘lib qoldi. Ana shu taraqqiyot bosqichi sohibqiron Amir Temur va temuriylar nomi bilan bog‘liq. Bugungi kunda ikkinchi uyg‘onish bosqichi deb atalgan sohibqiron Amir Temur davri tom ma’noda ilm-fan madaniyat gullagan davr bo‘ldi. Xullas, sohibqiron Amir Temur davrida yashagan ijodkorlar, olimlar musavvir-u naqqoshlar, musiqashunoslar, yetuk san’atkorlar o‘sha davr xalqlarigagina xizmat qilib kelmay, balki hozirgi kun san’atiga ham nihoyatda mustahkam poydevor qo‘yanlaridan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo‘riyev O. Azaliy saodat qo‘llagan (Amir Temur va ilm-fan). Milliy tiklanish. 1996 yil 5- mart.
2. Temur tuzuklari. Toshkent, 1991.
3. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. Toshkent, 1996.
4. Sharafuddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”. Toshkent, 1997.

Raximova Madinabonu Mirzoqulovna

G‘ijduvon tumani 2-umumiyy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

AMIR TEMUR “TUZUKLAR”I VA ULARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada avvalo,o‘sib kelayotgan yosh avlodni buyuk ajdodlarimizga munosib voris qilib tarbiyalash va ularning ilmiy-adabiy merosini o‘quvchi ongiga yanada singdirish, Amir Temurning o‘z davrida aytilgan tuzuklarining bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “Temur tuzuklari”, “Zafarnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiy, Tuzukoti Temuriy.

Mashhur o‘zbek taraqqiyparvari, jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdurauf Fitrat 1917-yilda tarixdan saboq chiqarish to‘g‘risida shunday yozgan edi: “*Tarix millatlarning o‘tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rganaturg‘on ilmdir*”. Darhaqiqat, tarix xalqqa saboq va ma’rifat beradi. Tarixni o‘rganmasdan turib kelajakni anglab bo‘lmaydi. Tarix inson aql-idroki va tafakkurining shunday bir nodir va mo‘jizakor mahsuli, inson tarixdan ta’lim-tarbiya oladi, tarix katta saboq beradi. Tarix saboqlaridan o‘ziga tegishli xulosa chiqara olmagan, kechagi kunini yaxshi bilmagan millatning kelgusi qismati o‘z-o‘zidan ravshan. Avvalo, O‘zbekiston kelajagi bo‘lgan yoshlar tarbiyasida tarix fanining o‘rni nihoyatda beqiyos ekanligini anglagan holda, ularga o‘zini anglay boshlagan davrdan boshlab, dunyoni lol qoldirgan, hayot faoliyati ibrat mакtabiga aylangan buyuk bobokalonlarimizga hurmat ruhida tarbiyalaylik. Jumladan, farovon kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarni Amir Temurdan adolatni, Mirzo Ulug‘bekdan samolarni zabit etishni, Zahiriddin Muhammad Bobur dan Vatanga cheksiz mehrni, Chingizzonni lol qoldirgan Jaloliddin Manguberdidan mohir diplomatlikni, Abu Ali ibn Sinodan tabobat ilmiga muhabbatni, Al-Xorazmiydan algoritm sirlariga muhabbatni o‘rganish ruhida tarbiyalsh lozim.

Zero Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “...*barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom qilib o‘stirish, ularning baxt va saodati, farovon kelajagini ko‘rish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi*”.

Mustaqillik in’om etgan eng ulug‘ ne’matlardan biri – bu, xalqimizning o‘zligini bilish, o‘z tarixini emin-erkin o‘rganish huquqi bo‘ldi. Qadriyatlarimizni tiklash, merosimizga xolis munosabatni qaror toptirish, aziz allomalar nomini sharaflash, ularga bugungi avlodning yuksak hurmat-e’tiborini bajo keltirish istiqlol yillarida amalga oshirilgan behad ulkan savobli ishlar sirasidandir. O‘tgan qisqa davr mobaynida bobokalonimiz buyuk Sohibqiron Amir Temur hazratlarining tabarruk nomi, hayoti va mislsiz jasoratlarga to‘la faoliyati xalqimiz ma’naviy dunyosining

ajralmas qismiga aylanib ulgurgani shundan bir dalolat. Qadriyatlarimizni tiklash, merosimizga xolis munosabatni qaror toptirish, aziz allomalar nomini sharaflash, ularga bugungi avlodning yuksak hurmat-e'tiborini bajo keltirish istiqlol yillarida amalga oshirilgan behad ulkan savobli ishlar sirasidandir. O'tgan qisqa davr mobaynida bobokalonimiz buyuk Sohibqiron Amir Temur hazratlarining tabarruk nomi, hayoti va mislsiz jasoratlarga to'la faoliyati xalqimiz ma'naviy dunyosining ajralmas qismiga aylanib ulgurgani shundan bir dalolatdir. Amir Temur bugungi davrda nafaqat tariximizni gavdalantiradi, balki jamiyat boshqaruvida, uni shakllantirishda tajriba sifatida asqotadi. Bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temurning surati va siyrati haqida ko'plab tarixiy asarlarda ma'lumotlar uchraydi. Amir Temur to'g'risida uning zamondoshlari qimmatli yirik asarlar yaratganlar. G'iyosiddin Alining «Ro'znomayi g'azovoti Hinduston» («Hindistonga qilingan g'azo urushi kundaligi»), Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafiddin Alining shu nomli («Zafarnoma») asarlari shular jumlasidandir. «Tuzukoti Temuriy» asari bular orasida alohida o'rinn tutadi.

«Tuzuki Temuriy» yoki «Tuzukoti Temuriy» odatda boshqa katta hajmli asarga ilova tarzida ko'chirilgan. Bu mustaqil yirik asar «Mafuzoti Temuriy» yoki «Voqeoti Temuriy» (Amir Temurning tarjimayi holi) deb atalib, uning yetti yasharligidan boshlab hayot yo'li haqida hikoya qiladi. Asar haqida ikki xil fikr mavjud. Ba'zilar bu ikki qismdan iborat bir asar degan fikrda, boshqa olimlar esa ikki mustaqil asarning bir muqovada jamlangani, deb yozadilar. Shuning uchun «Tuzukoti Temuriy»ni har ikki qismga berilgan bir nom deb tushunganlar. Bu hol Sharq qo'lyozmalarining kataloglarida ma'lum bahslarga sabab bo'lgan.

Shamsiddin Somiyning mashhur qomusida shunday deyilgan: «Amir Temur «Tuzukot» deb yuritiladigan qonunlar majmuasini yozdi, unda o'zining hayot yo'lini bayon qildi» («Qomus ul-a'lom». Istanbul, 1891-yil 1727-sahifa). Bu borada atoqli tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy quyidagi e'tiborga molik ma'lumotni keltirgan: «On hazrat o'zining hayoti va turmushi tarziga doir asosiy voqealarni o'z ichiga olgan turkiy va forsiyda alohida bir manzuma tuzdilar». Shuni ham ta'kidlash

lozimki, taniqli sharqshunos M. Sharmua (1793-1869-yillar) va yirik rus harbiy tarixchisi M. I. Ivanin (1801-1874-yillar) «Tuzukot»ning haqiqiy asar va uning muallifi Amir Temur bo‘lgani haqida fikr bildirgan edilar.

«Tuzukoti Temuriy»ning haqiqiy asar ekanligini Amir Temurning hayoti va faoliyati to‘la aksini topgan Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning «Zafarnoma» asarlari bilan qiyoslash orqali ham bilib olish mumkin. Xullas, asar Amir Temur tomonidan, yoki uning ishtirokida yozilganligi shubhasizdir. Hozirgi zamon tarix fanida jahongirning savodi qay darajada ekanligi haqidagi turli fikrlar mavjudligidan qat’iy nazar, Amir Temur zukko va fozil kishi bo‘lganlingini ta’kidlovchi ma’lumotga egamiz.

Amir Temur, yuqorida ta’kid etilganidek, zukko siyosatdon va yirik davlat arbobi sifatida o‘z davlatining tuzilishini, uning qay tarzda bo‘lishi kerakligini bayon etadi, mansabдорлarning huquq va burchlarini belgilab beradi. «Tuzukot» muallifining fikriga ko‘ra, har bir tojdor o‘z davlatining tayanchi bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy guruhlarga suyangan holda ish olib borishi lozim. Faqat ularning yordamida raiyat, qo‘sishlar va davlatini idora qilishi zarur. Bunday guruhlarga quyidagilar kirgan:

- 1) Muhammad (s.a.v) avlodi bo‘lmish sayyidlar, ulamolar, shayxlar;
- 2) tajriba orttirgan bilim-donlar;
- 3) duogo‘y taqvodorlar;
- 4) amirlar, sarhanglar, sipohsolar;
- 5) sipoh va raiyat;
- 6) saltanat ishlarini, uning siru-asrorini bilgan, kengash qilishga munosib oqil, ishonchli kishilar;
- 7) vazirlar, sarkotib, devon munshiylari;
- 8) hakim-lar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar;
- 9) muhaddislar, roviylar;
- 10) mashoyix, so‘fiy, oriflar;
- 11) hunar va san’at ahli;

12) har mamlakat va diyordan kelgan sayohatchi va musofirlar, savdogarlar. Ular turli mamlakatlardan xabar keltirib turganlar.

Xulosa qilib aytganda, «Temur tuzuklari»da Amir Temurga xos bo‘lgan muhim fazilatlar, davlatni idora qilish usuli bilan yaqindan tanishish mumkin, desak xato bo‘lmaydi. Jumladan, unda *«Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim»*, — deganligining o‘zi fikrimizning yorqin isbotidir. Ushbu asarda, bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Zero, bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasini shakllantirishda «Temur tuzuklari» muhim nazariy manbalardan biri sifatida katta ahamiyatga egadir. Qisqa qilib aytganda, Amir Temur sharqona demokratiyaga, qonunga, urf-odatlarga asoslangan buyuk davlat barpo qilib, tarixda o‘chmas iz qoldirdi

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. Toshkent “Kamalak”, 1991.
2. Herman Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1990.
3. M.Ivanin. “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur”. Toshkent: O‘Z.R.FA, “Fan” nashriyoti, 1994.
4. Xalq ta’limi. – Toshkent, 3-sun. 2007-yil 11-bet.
5. Temur tuzuklari. – Toshkent, 1991.
6. O‘zbekiston Milliy Enseklopediyasi. – Toshkent, 2005.

*Fayziyeva Shaxzoda Axtamovna
G‘ijduvon tuman 28-maktab o‘qituvchisi*

AMIR TEMUR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT

Annotatsiya: Ushbu maqolada avvalo buyuk bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan ilm-fan, madaniyat sohasidagi islohotlar haqida

bayon etilgan. Amir Temur nafaqat davlat rahbari, balki obodonchilik, ilm-fanni e'zozlagan, buyuk me'mor sifatida ham namunai shaxs sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan.

Kalit so'zlar: Sohibqiron, “Temur tuzuklari”, madaniyat, Oqsaroy, Tarag‘ay, Ko‘ragon.

Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oliv majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarlarda foydalanardi.

Alisher Navoiy

Tarixchi olimlarimiz tomonidan eng ko‘p o‘rganiladigan tarixiy shaxslardan biri bu Amir Temurdir. Uning qilgan ulkan ishlaridan bir qismi haqida to‘xtalishni lozim topdik.

Amir Temur davrida fan va adabiyot rivojlandi va gullab-yashnadi. Tarixchi Ibn Arabshohning ma'lumot berishicha: “*Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyidu shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamo va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rardi*”. “Temur tuzuklari”da ulamo va fuzalolar hurmatga muvofiq insonlar sifatida jamiyat ijtimoiy tarkibining o‘n ikki toifasi vakillari qatoriga kiritilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-ma’rifatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Buni teran anglagan Sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasalar barpo etishga, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash bilan boshlagan. Qaysi bir shaharga tashrif buyurmasin, Amir Temur avvalo o‘sha yerlik olimu-fozillar bilan uchrashar, ular bilan suhbat qurar, turli mavzularda bahslashar edi. Tarix, matematika, astronomiya, me’morchilik sohalarida yuksak salohiyatga ega Amir Temur uchun tabiiy hol edi.

Amir Temur davriga kelib Samarqand olimlar maskaniga aylanishi bilan madrasalarning vazifalari ham kengaya borib, ular yuqori saviyali ilm-fan

muassalariga aylana bordi.O‘sha davrda Damashqdan keltirilgan yosh tolibi ilm Ibn Arabshohning Samarqanddagi Iduku Temur madrasasida tahlil olib, tarixchi olim bo‘lib yetishganligi fikrimizning dalilidir.

Temur davrida qurilgan va obod etilib, faoliyati ijobiy yo‘lga qo‘yilgan madrasalar birgina Samarqand shahrining o‘zida o‘nga yaqin edi. Temurning suyukli nabirasi Muhammad Sulton madrasasi,Bibixonim madrasasi, Feruzshoh madrasasi, Iduki Temur madrasasi va boshqalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari Amir Temurning bevosita ustozligida temuriylardan tashqari qariyb 80 dan ortiq mashhur davlat arboblari,talantli sarkardalar, yirik siyosatchilar yetishib chiqadi.Shu o‘rinda Xoja Abdumalik, Amir Usmon Abbos,Amir Shoh Malik, Amir Joku Barlos, Amir Jaloliddin kabilarning sanab o‘tish joiz.

Olimlar Amir Temurni ilm-fanga e‘tiborini alohida ta’kidlaydilar. Jumladan tarixchi Abdurazzoq Samarcandiy uni “Davlat va dinning qutbi, hazrat sohibqiron Amir Ko‘ragon” deb ta’riflagan.

Amir Temur davrida Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamatli imoratu inshootlar bino qilganlar. Amir Temur zabit etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari Bag‘dod, Darband, Baylaqonni qayta tikladi va saltanatning barcha shaharu qishloqlarida keng bunyodkorlik ishlarini olib bordi. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘donna madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo‘lsa-da, lekin asosiy e‘tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarcandga qaratdi.

U sultanat qudratini qurilishlarda ifoda etgan. Uning qurilishlarida Sharq va musulmon dunyosining tafakkuri o‘z ifodasini topgan. Barcha sohalarda transformatsiyalashuv jarayonlari kechgan. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo‘lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko‘tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar «Qubbat ul-ilm val-adab» unvoniga ega bo‘ldi.

Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. U tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek, ilohiyot va din sohasidagi mashhur ulamolar bilan muzokaralar o‘tkazgan. Amir Temur saroyida ulamolardan mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshiy, mavlono Abdullo Lison, mavlono Bahruddin Ahmad, mavlono Nu’monuddin Xorazmiy, Xo‘ja Afzal, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Hokiy va boshqalar xizmat qilardi.

Amir Temur davlat poytaxtiga musulmon olamining eng mashhur va bilimdon olimu-ulamolarini to‘plashga intilgan. Ularni har tomonlama ijtimoiy jihatdan himoya qilgan, davlatni boshqarishda olimlarning maslahatlariga tayangan va ulardan foydalangan.

Amir Temur o‘z davrida eng boy bo‘lgan kutubxona tashkil qildirgan. Bu kutubxonaga qadimgi yunon-rim olimlari, arab dunyosi, O‘rta Osiyo Uyg‘onish davri buyuk olim va mutafakkirlarining asarlari to‘plangan va yangi ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirishga qulay sharoitlar yaratilgan. Ulug‘bek akademiyasi ham Amir Temur tomonidan ilm-fan sohasiga qo‘yilgan poydevorning mahsulidir.

Buyuk ipak yo‘li, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivojlanishi madaniyatlararo, jumladan, ilm-fan o‘rtasidagi aloqalarni ham rivojlantirishga, bu sohada keng integratsiya jarayonlarining yuzaga kelishiga turtki bergan. Amir Temurning 27 davlatni birlashtirgan sultanatida mustahkam davlat boshqaruv tizimining yaratilishi,adolat, tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot uchun katta imkoniyatlarning mavjudligi ilm-fan ravnaqiga ham muhim ta’sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. Toshkent “Kamalak”, 1991.
2. Herman Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti., 1990
3. M.Ivanin. “Ikki buyuk sarkarda: Chingizzon va Amir Temur”. Toshkent: O‘Z.R.FA “Fan” nashriyoti, 1994.

4-SHO‘BA. YANGI O‘ZBEKISTON “UCHINCHI RENESSANS” OSTONASIDA

Haydarov Yuldash Hazratovich

*Buxoro viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini
oshirish hududiy markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”
kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent*

“UCHINCHI RENESSANS”NING MUSTAHKAM POYDEVORINI YARATISHDA MUHIM OMIL

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratish uchun zarar shart-sharoitlar xususida fikr yuritilgan. Zamonaviy O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish xususiyatlari to‘g‘risida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: “Uchinchi Renessans”, Fanlar Akademiyasi, “yo‘l xaritasi”, innovatsiya, “Akademik harakatchanlik” dasturi, fan doktori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – “Uchinchi Renessans” davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi[1.2]”. Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda xalqimizning jijsligi, birdamligi va fidoiyligi muhim rol o‘ynaydi.

“Uchinchi Renessans”ning mustahkam poydevorini yaratishda O‘zbekiston ilm-fanining ham muhim o‘rnii bor. Shu boisdan ham davlatimiz rahbarining Prezident sifatidagi birinchi uchrashuvi 2016-yil 30-dekabrda yurtimiz akademiklari bilan bo‘lib o‘tgani ham bejiz emas.

Xabaringiz bor, o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtalaridan O‘zbekiston ilm-fani taraqqiyotida “muzlik” davri boshlangan edi. Bu holat 2017-yilga qadar davom etdi. Buni quyidagi ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoligi oxirgi saylovlar 1995-yilda o‘tkazilgan edi. Buning oqibatida o‘tgan davr mobaynida yurtimizda akademiklarning soni 2 barobardan ko‘proqqa qisqarib, Fanlar akademiyasining atigi 63 nafar haqiqiy a’zosi qolgan edi xolos. Prezidentimizning 2017-yil 29-dekabrdagi qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Fanlar akademiyasining 32 nafar yangi haqiqiy a’zolari saylandi. Prezidentimizning tashabbusi bilan Fanlar akademiyasi tarkibiga 9 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi qaytarildi va qator ilmiy tashkilotlar qayta tashkil etildi. Fanlar akademiyasining fan yo‘nalishlari bo‘yicha 3 ta bo‘limi va Navoiy bo‘limi tashkil etildi.

Shu tariqa O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar va yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlash shart-sharoitlari yaratildi.

“Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Biz mакtabgacha talim va mакtab talimi, oliv va o‘rtalik maxsus talim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, mакtab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyorolarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘ladilar[2.3]”, – deb ta’kidladilar Prezidentimiz.

Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda uchinchi tayanch ustun bo‘lgan professor-o‘qituvchilar ilm-fan taraqqiyoti rivojini ta’minlashda faoliyat ko‘rsatishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. 2020-yil 29-oktabrdagi “O‘zbekistonda ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Prezident Farmoni qabul qilindi.

Konsepsiya ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirishning o‘n yettita maqsadli ko‘rsatkichini qamrab olgan bo‘lib, ularga muvofiq, 2025-yilga qadar ilm-fanga

yo‘naltiriladigan jami mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 6 barobar, 2030-yilgacha esa o‘n barobar oshirish maqsad qilingan. Bu mamlakatimiz uchun juda muhim qadam. Chunki hozir ilm-fan rivojiga mamlakat yalpi ichki mahsulotning 0,2 foizi yo‘naltirilmoqda. Mazkur ko‘rsatkichni dunyoning yetakchi davlatlaridagi muqobil holat bilan taqqoslasak, Isroilda bu ko‘rsatkich 5, Janubiy Koreyada 4,8, Shvesiyada 3,3, Germaniyada 3,1, AQShda 2,8 va Rossiyada 2,6 foizni tashkil qiladi.

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da esa ilm-fan sohasi va ilmiy tadqiqot ishlarini 2021-2023-yillarda moliyalashtirish hajmini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning maqsadli parametrlari va ularga erishish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Unga ko‘ra, 2025-yilga qadar ilm-fanni umumiyligi moliyalashtirish hajmida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratilgan mablag‘lar ulushini amaldagi sakkiz foizdan yigirma foizga, 2030-yilgacha esa o‘ttiz foizga yetkazish, innovatsion ishlanma va startap (Yangi tijorat loyihasi bo‘lib, foyda va biznesni muvaffaqqiyatli rivojlantirish maqsadida tuziladi). loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy yetakchi investitsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda 2021-yilda ikkita, 2025-yilda o‘nta venchur fondni tashkil qilish (hozir ikkita venchur fond mavjud) vazifalar belgilab berildi. (Venchur fond-hozirgi zamonning eng ishbilarmon, tadbirkor va favqulotdda iqtidorli, yuksak mahoratlari hamda istedodli odamlardir. Ular dunyoda shu qobiliyatları va mehnatlariga mos holda yashab, qulay ish sharoitida eng yuqori maosh olib ishlashadi. “Venchur” inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “kamyob odamlar”, degan ma’noni anglatadi).

Moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish ilm-fanning davlat budjetiga tushadigan og‘irini yengillashtirishga yordam beradi. Hozir bu yo‘nalishdagi dastlabki ishlar boshlandi. Masalan, xalqaro hamkorliklar doirasida Germaniya, Rossiya va Belarus Respublikasi bilan hamkorlikda 9,6 milliard so‘mlik o‘ttiz sakkizta qo‘shma ilmiy loyiha bajarilmoqda. Yevroosiyo hamjamiyati, Turkiya,

Xitoy va Hindiston bilan qo'shma loyihalar bo'yicha tanlovlар tashkil qilindi. Konsepsiya belgilangan vazifalar doirasida bunday hamkorliklar kengaytirildi.

Yaqinda ilmiy-innovatsion loyihalarni qo'shma moliyalashtirish maqsadida O'zbekistonda milliy innovatsion tizimni shakllantirish uchun 50 million AQSh dollari miqdoridagi imtiyozli zayom mablag'lari Jahon banki tomonidan tasdiqlandi. Loyiha 2021-yil davomida ishga tushirilib, ilmiy faoliyatga oid loyihalar xalqaro talablarga ko'ra shakllantiriladi. Xalqaro ekspertlar tomonidan baholanadi va moliyalashtirish uchun tanlab olinadi. Ushbu ishlarni bajarishga ko'maklashish, moliyaviy nazorat va hisobot tizimini yuritish maqsadida xalqaro ekspert kengashi va loyihani amalga oshirish guruhi tashkil qilinadi. Bu jarayonda olimlar uchun dunyo fani darajasidagi chinakam raqobat muhiti yaratiladi.

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida 2020-2021-yillarda qirq uchta, 2021-2022-yillarda yuqori samarador o'ttiz sakkizta ilmiy ishlanmani tijoriylashtirish asosida ilmiy va innovatsion mahsulotlar turini kengaytirish; ilmiy tashkilotlar tadqiqotchilarining o'rtacha yoshini 2025-yilga qadar 45, 2030-yilgacha esa 39 yoshga yetkazish (hozir 51 yosh); yangi ish o'rinnarini yaratish; yettita zamonaviy laboratoriyalar majmuasini tashkil etish, ularni GLP va GMP jahon standartlariga mos uskunalar bilan jihozlash kabilar belgilangan[3.3].

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 24-may kuni O'zbekiston milliy universitetida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan o'tkazgan uchrashuvi yurtimiz ilm-fanini rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Avvalo yaqin-yaqingacha uch-to'rt yilda bir beriladigan grant mablag'lari hisobiga kun ko'rib kelayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari 2020-yil 1-yanvardan budget asosida moliyalashtirishga o'tkazilgani tom ma'noda davlatning ilm-fanga g'amxo'rliги bo'ldi. Endi olim "Loyiham tugasa, qayerdan maosh olaman, bergen loyihamga mablag' ajratiladimi?" qabilidagi adoqsiz tashvishlardan xoli bo'lib, ko'ngilni bir joyga qo'yib, ilm bilan shug'ullanishi mumkin.

2020-yilning 1-yanvaridan boshlab davlat budgeti mablag'lari hisobidan oliy o'quv yurtidan keyingii ta'lim institutiga tayyorlov bosqichi sifatida stajor-

tadqiqotchilar institutining tashkil etilishi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Fanlar akademiyasi o'rtasida oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichi talabalarining amaliyotni fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot muassasalarida tashkil etish bo'yicha qabul qilingan qo'shma qaror yosh olimlarni tayyorlashga qaratilgan muhim tadbir bo'ldi.

2021-yil 1-yanvardan boshlab "Akademik harakatchanlik" dasturi joriy qilinmoqda. Uning maqsadi hududlarda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni ilm-fanga keng jalg qilishga qaratilgan. Dasturni amalga oshirish uchun Yoshlar akademiyasining iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan uch yilda o'ttiz yetti milliard so'm yo'naltiriladi. 2021-2022 o'quv yildan boshlab innovatsion rivojlanish vazirligi hamda xorijiy kompaniyalar va tashkilotlar muassisligida Innovatsiyalar, texnologiyalar va tadbirkorlik xalqaro universiteti tashkil qilinadi.

Shuningdek, ilmiy darajali kadrlar tayyorlashni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi joriy qilinmoqda. Tizim orqali izlanuvchi, ilmiy rahbar va konsultantlarga doir ma'lumotlar, tashkilotlar ilmiy salohiyati holati, dissertatsiyalarning elektron versiyalari, kvotalar bo'yicha buyurtmanoma shakllantiriladi. Oliy ta'limdan keyingii ta'limning bir pog'onali tizimi (aksariyat davlatlarda bunday tizim ishlab turibdi) joriy qilingan xorijiy mamlakatlar hamda ro'yxati har yili tasdiqlanadigan xalqaro reytinglarda birinchi uch yuzta o'rindan birini egallagan oliy ta'lim tashkilotlarida olingan falsafa doktori ilmiy darajasi to'g'risidagi hujjatlar O'zbekistonda fan doktori (DSC) sifatida tan olinadi. Professor, dotsent, katta ilmiy xodim va shularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy unvonlar qo'shimcha ekspertizadan o'tkazilmasdan va boshqa sinovlarsiz to'g'ridan-to'g'ri tan olinadi.

Uchinchi Renessans ilm-fanning barcha sohalarini muntazam ravishda qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish natijasida yaratilishi mumkin. Ammo bu jarayon aniq va tabiiy fanlarga alohida e'tiborni talab qiladi. Shu ma'noda mamlakatimiz rahbari uyg'onish davri falsafasini juda chuqur va har tomonlama pishiq ishlab

chiqayotganini ham qayd etish lozim. Yadro fizikasi institutini (2019-yil 21-oktabr) tashkil etish, matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish (2020-yil 7-may), kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish (2020-yil 12-avgust) to‘g‘risida e’lon qilingan qarorlar aslida mamlakat rivojlanishini tamomila yangi bosqichga ko‘tarish yo‘lidagi mustahkam qadamlardir[4.3].

2016-yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanda ishtirok etgan o‘sha paytda jahon sayyohlik tashkiloti bosh kotibi bo‘lgan nufuzli siyosiy arbob Tolib Rifoiy “Movarounnahr o‘rta asrlarda dunyoning Silikon vodiysi bo‘lgan”[5.3], degan edi. Haqiqatda ham yurtimizda faoliyat ko‘rsatgan ilmiy markazlar va madrasalarda mahalliy xalq vakillari bilan bir qatorda musulmon dunyosining turli o‘lkalaridan kelgan chet elliklar ham tahsil olgan hamda yurtimizda yaratilgan Renessans yutuqlaridan foydalangan.

Bugungi kunda Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishimiz ekanmiz, jahonda robototexnika, avtomatlashtirish, nanotexnologiyalar rivojlangan davrda ilm-fanga asoslanib, mutlaqo yangi taraqqiyot bosqichiga erishmog‘imiz zarur. Mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyoti uchun yaratilgan shart-sharoitlar va yoshlarning ilm-fanga yuksak darajada qiziqish bilan qarayotgani hamda jahon miqyosida bu sohada hech kimdan kam emasligini ko‘rsatayotganligi Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishimizga qat’iy ishonch tug‘diradi.

Xulosa qilib aytganda, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilm-fanni rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu jarayonlarda yurtimizning fidoiy olimlari yanada faolroq ishtirok etsalar, Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratish borasidagi ishlar yuksakliklarga ko‘tarilaveradi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik – ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro‘yobi yo‘lida qudrat manbai. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston

Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil, 1-sentabr 2-bet.

2. O‘qituvchi va murabbiylar – Yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil, 1-oktabr 3-bet.

3. “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil 3-noyabr, 210-son 3-bet.

4. Mavrulov A. Uchinchi Renessans – munosib kelajak poydevori, “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil 6-oktabr, 190-son, 3-bet.

5. Munavvarov Z. Yangi Renessans – daxldorlik sharafi va mas’uliyati, “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil 15-sentabr, 176-son, 3-bet.

Gadoyeva Munira Muxamedova

*Buxoro viloyat XTXQTUMOHM “Pedagogika, psixologiya
va ta’lim texnologiyalari” kafedrasи katta o‘qituvchisi*

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA AMIR TEMUR O‘GITLARIGA AMAL QILISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur o‘gitlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati xususida so‘z yuritilgan. Hozirgi zamonda taraqqiyot uchun muhim masalalar haqida fikrlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, Amir Temur, yoshlar, o‘gitlar, taraqqiyot.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 6-noyabrdagi qabul qilgan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Ta’lim -tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘sishimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorida xalq ta’limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo’llab quvvatlash to‘g‘risida aniq vazifalar belgilab berildi.

Mazkur hujjatlarda Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog‘liq masalalarga ham alohida e’tibor qaratilib, sohadagi rahbar va pedagog xodimlarni “**Hayot davomida o‘qish**” tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimiga transformatsiya qilish vazifasi qo‘yilgan.

Ta’lim-tarbiya ishi bugungi kunda ta’lim oluvchilarning har tomonlama rivojlantirishini ta’minlovchi majmuaviy jarayon sifatida namoyon bo‘lmog‘i kerak. Shuning uchun ham mazkur jarayon turli yoshdagi ta’lim oluvchilarning aqliy rivolanishi, o‘quv-biluv jarayonida faoliyati, tahsil olishi va rivojlanishining o‘zaro aloqadorligini ta’minlashga yordam bermog‘i lozim. Xuddi shu borada ta’lim-tarbiyada Amir Temur o‘gitlari orqali o‘quvchilarni bilim sifatini a’lo darajada ko‘tarish hayotga tatbiq etish, amalga oshirib borish ko‘zda tutiladi.

«*Biz kim – mulki Turon, amiri Turkistonimiz. Biz kim – millatlarning eng kadimi va eng ulugi – turkning bosh buginimiz*», «*Millatning dardlariga darmon bo‘l...*» degan Amir Temurning ma’naviy siyosatini yoshlar ongiga singdirish davr taqozosi. Negaki, Amir Temur va uning davri hakida so‘z ketganda, ko‘z o‘ngimizda yirik sarkarda, buyuk davlat arbobi, qonunshunos, iste’dodli notiq, ruhshunos, shu bilan birga, el yurtni sevgan, uni jahonga mashhur qilgan buyuk inson namoyon boladi.

Amir Temur davlatida yoshlar mamlakatning tayanchi hisoblangan. Shuning uchun ham Sohibqiron navkarlikka olinishi lozim bo‘lgan yigitlarni intizomga rioya etish, mamlakatga ixlos bilan xizmat qilish, sipohiylikning sir-asrorlarini mustahkam egallash, el-yurt ichirgan tuzni oqlashga da’vat etadi. Ana shu tarbiya temirdek mustaxkam qo‘sish uchun zamin bo‘lishi tabiiydir.

Sohibqiron bir ugitida shunday deydi: «*Millatning dardlariga darmon bulmoq vazifangizdir. Zaifalarni ko‘ring, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin*».

Bu ugit va vasiyatlar real hayot uchun mo‘ljallab bitilgan. Ushbu davlatda hukmron g‘oyalarni el ongiga singdirish yo‘l-yo‘riqlari kuchli bo‘lgan. Tug‘ri, agarda

mukammal va mustahkam g‘oya bo‘lmanida Amir Temur shunday katta salatanatni barpo etarmidi?! Yo‘q albatta.

Amir Temur davlatida yosh avlod tarbiyasi masalasida so‘z yuritganda uning chinakam vorislari sifatida bobomiz pand nasihatlariga amal qilishimiz ham farz, ham qarz chunki bu ugitlar bebaho xazinadir.

Vatanparvar, insonparvar, erksevar va milliy g‘urur tuyg‘usi kuchli odam bo‘lgani bois Turkistonni mug‘ullar asoratidan ozod qildi. Bu yerda markazlashgan davlat tuzib, uni boy va buyuk bir o‘lkaga aylantirdi.

“Temur tuzuklari”-sohibqiron ma’naviyatining ulkan xazinasi. Bu asarni o‘kigan sari, oradan asrlar o‘tgan bo‘lsa-da, shu bugungi turmush chigalliklarini anglayotgandek, ularni xayolan yechayotgandek bo‘laverasan, kishi.

Shu bilan birgalikda, Sohibqironning bu ugitlari yosh avlodni milliy gurur, milliy e’tiqod, milliy madaniyat va milliy ma’naviyatga e’tibor berish yo‘lida tarbiyalaydi. Amir Temur shunday yozadi: “*Hayotim mobaynida besh narsaga qat’iy amal qildim. Ular quyidagilar:*

1. *Aql—ul narsaga qodir kuch, sidqidildan ishlatsang maqsadingga yetkazadi.*
2. *Tafakkur – fikrlash va mushohada qilish qobiliyati, quvvai xofzasi kuchli inson har qanday mushkulu mushkulotlarini oson qilish yo‘lini topa oladi.*
3. *Qilich – ul yigitning yo‘ldoshi – el-yurt osoyishtaligining posboni.*
4. *Iymon ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turguvchi xususiyatdir.*
5. *Iymonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-uruglari, elu xalqning ornomusini himoya qiladi, xalollik va poqlikni fazilat biladi.*

Kitob (bitik) – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idroq, ilmudonishmandlik asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir”.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti davrida ayniqsa, Amit Temur o‘gitlariga, pand-nasihatlariga amal qilish, shaxsiy namuna ko‘rsatish orqali, har bir vatanparvar shaxs o‘z hissasini qo‘sha oladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik-ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro‘yobi yo‘lida qudrat manbai. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil, 1-sentabr.
2. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T., 1968.
3. Temur tuzuklari. T., 1991.

Utayeva Feruza Xolmamatovna

Buxoro Davlat Universiteti “Buxoro tarixi” kafedrasи o‘qituvchisi

BUXORO SHAHRIDA ZAMONAVIY TO‘QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Yangi O‘zbekiston – Uchinchi renesans davrida Buxoroda to‘qimachilik sanoatini jadal rivojlanirish. Bo‘sh va qarovsiz qolgan binolardan unumli foydalanish. Ichki va xorijiy investitsiyalarni to‘qimachilik sanoatiga jalb qilish. Yangi ish o‘rinlarini yaratish

Kalit so‘zlar: Yengil sanoat korxonasi, yigiruv-to‘quv, pardozlash, gazlama, to‘qimachilik, loyiha, mutaxasislar.

Kirish. Buxoro – yurtimizning tarixiy hududlaridan biri hisoblanib, to‘qimachilik sanoati asrlar davomida rivojlanib kelgan katta maktabga tayanadi. Yengil sanoat shunday sanoatki, ya’ni og‘ir sanoatdan ko‘ra kamroq mablag‘ talab qiladigan, tadbirkorlikdan ko‘ra ko‘proq xaridorga mo‘ljallangan sanoat turidir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakat xo‘jaligini rivojlanirish uchun olib borilayotgan itisodiy islohotlar, boshqa tarmoqlar qatorida to‘qimachilik sanoatiga ham joriy etildi. 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risidagi” qonunga va 1994-yil 16-martda e’lon qilingan “Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish

jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari to‘g‘risidagi” farmonga ko‘ra o‘rta va yirik korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga, ijara korxonalariga aylantira bohlandi, bu jarayonga aholi va chet ellik investorlar kenroq jalg qilindi.

Mustaqillik yillarida Buxoroda to‘qimachilik sanoatni ustuvor rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Ichki va xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, yangi korxonalar qurish, eskilarini qayta jihozlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, korxonalar mulk shakllarini o‘zgartirish, resurslardan oqilona foydalanish sanoatning barqaror rivojlanish chora tadbirlari ko‘ridi.

1994-yilda “Buxoroteks” hissadorlik jamiyatni o‘z mablag‘lari hisobiga, dunyoning eng nufuzli to‘qimachilik mashinalari ishlab chiqaruvchi Shvetsariyaning “Riter” firmasining quvvati 2597 yigiruv urchuqli avtomatik tizimini sotib oldi. 1997-yil aprel oyida uskunalarni montaj qilish va ishga tushirishni tamomlash sharti bilan ip ishlab chiqaruvchi uskunalarni yetkazib berish va montaj qilishga qiymati 5.04 mln Shveytsariya franki hisobida kontrakt tuzilgan.

“Buxoroteks” hissadorlik jamiyatida Shvetsariyaning “Riter” firmasining avtomatik yigiruv tizimi o‘rnatalishi korxonada yuqori sifatli dunyo andozalari talabiga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarish bilan birga barcha mashina va qurilmalar, shaxsiy kompyuterlar bilan jihozlangan va jarayonlar avtomatik boshqariladi.

Qayta o‘rash avtomatlari Germaniyaning “Shlyafgorst” firmasida ishlab chiqarilgan. Ahamiyatlisi shundaki, ipni qayta o‘rashda ularning uzilish ehtimolini ancha kamaytiradi. “Buxoroteks” hissadorlik jamiyatiga keltirilgan Shveytsariyaning “Beninger” firmasi dastgohi to‘qimachilik sanoatidagi piltalab tandalash, Germaniyaning “Nokvo” firmasi dastgohi guruhlab tandalash, “Zuker muller” firmasi dastgohi ohorlash mashinalari ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatini yaxshilashni ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan asosiy vazifalar mamlakatimiz iqtisodiyotini dunyo mamlakatlari ichida ustuvor mavqeiga ega

bo‘lishini, jahon bozorlaridagi global raqobatda erkin harakatlana olishi va ishlab chiqarishni jahon bozorini hisobga olgan holda tashkil etishga qaratilgan[2,16].

2017-yil 14-dekabrda qabul qilingan “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonga muvofiq, Buxoroda mahalliy to‘qimachilik sanoati korxonalarini tomonidan fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilaridan paxta xom ashyosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyurtma berish tizimi joriy etildi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etildi[3,1].

Ishlab chiqarish klasteri innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning muhim bosqichidir. Buxoroda qulay investitsiyaviy muhit yaratilib, chet ellik sarmoyadorlar huquqlarining qonuniy kafolati mustahkamlangani, ularga qo‘srimcha imtiyozlar berilayotgani ishbilarmon doiralar faoliyatini rag‘batlantiruvchi omil bo‘lmoqda[4,2].

Buxoro shahrida ishga tushirilgan “Buxoro kotton tekstil” qo‘shma korxonasi ana shunday ilg‘or ishlab chiqarish ob’ektlaridan biridir. Buxoro shahrida 2017-yil 29-mayda “Buxoro kotton tekstil” korxonasi tashkil etildi. Yana bir muhim jihat shundaki, ushbu korxona qarovsiz bo‘lib qolgan sobiq to‘qimachilik kombinati o‘rnida bunyod etildi[1,2]. Buxoroda 1973-2000-yillar davomida to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish shiddat bilan rivojlangan bir davrda bu bino “Bo‘yash va pardozlash fabrikasi bo‘lgan” “Bukhara Cotton Textile” korxonasi bu yerdagi bitta eski binoni kapital rekonstruksiya qilib, 19 ta yangi bino barpo qilindi 2019-yil 75 mln AQSh dollarida investetsiya o‘zlashtirilgan. 30 mln 454 ming AQSh dollari “O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi”ning 4153 ming AQSh dollari O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar milliy bankining imtiyozli kreditlari tashkil etadi. AQSh, Belgiya, Fransiya, Germaniya va jahonning yetakchi korxonalarida ishlab chiqarilgan eng zamonaviy asbob-uskunalarini keltirilgan. 2020-yilda Buxoro, Toshkent, Samarqand va Namangan shaharlariда savdo do‘konlari ishga tushirildi.

2021-2022-yillarda jinsi matolar va mahsulotlar chiqarish bo‘yicha eng ilg‘or davlatlar bilan raqobat qila olish darajasiga yetdi. To‘qimachilik korxonasida 1325 nafar, klaster bilan qo‘sib hisoblaganda 2000 nafar xodim faoliyat yuritmoqda.

Birinchi bosqichda 8450 tonna kalava ip yigiriladi, keyingii bosqichda esa 15 million metr jinsi matolar to‘qiladi. Uchinchi-to‘rtinchi pog‘onalarda qo‘srimcha qiymatga ega tayyor mahsulotga aylantiriladi.

Iqtisodiy samaradorlik shundaki, 1 kilogramm tola dunyo bozorida qiymati xomashyo sifatida 1,5 dollar bo‘lsa, agar tayyor kiyim qilib sotilganda kamida 25 dollarga aylanadi. Korxona yangi ish o‘rinlari yaratish uchun mamlakatimiz bo‘yicha 50 ta ana shunday do‘kon ochishni mo‘ljallangan.

Tashqi bozorda o‘z o‘rinlarini egalladi. 2020-yilda 8,2 million dollarlik mahsulot eksport qilingan. Mamlakatimiz elchixonalari ko‘magida chet ellarda savdo nuqtalari tashkil etish rejalashtirilgan. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, bu orqali yiliga o‘rtacha 50-60 million dollar miqdorida valyuta tushumiga erishish mumkin.

“Bukhara Cotton Textile” korxonasida ishlab chiqarilayotgan jinsi matolari rangining tabiiyligi bilan ham ichki va tashqi bozorda ustunlikka ega.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Buxoro viloyatida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarida faol ishtirot etish, ish unumdarligini oshirish va yoshlar bandligini ta’minalash, vatanimiz va dunyo bozorlarini korxonaning to‘qimachilik mahsulotlari bilan boyitish korxonani bosh masadi.

“Korxona bino va inshootlarini qurish, sexlarni zamonaviy texnologik dastgohlar bilan jihozlash loyihalarini amalga oshirishda hozirgacha 75 million dollar ekvivalentlidagi investitsiya o‘zlashtirildi”, – deydi “Bukhara Cotton Textile” bosh direktori O.Jumayev va iqtisodchi T.Boltayev[5]. Mazkur sarmoya O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan ajratilgan 30 million 454 ming dollar va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining 4 million 153 ming dollar miqdoridagi imtiyozli kreditlari, shuningdek, loyiha tashabbuskorlarining 35 million 393 ming dollar ekvivalentiga teng 208,2 milliard so‘mlik mablagidan iborat. Korxonada jahonning yetakchi kompaniyalarida ishlab chiqarilgan eng zamonaviy asbob-uskunalar o‘rnatalgan.

“Bukhara Cotton Textile”da ip kalava ishlab chiqarish va mahsulot xalqaro andozalarga javob berishi tufayli nihoyatda xaridorgir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki, bugungi kunda Buxoro to‘qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarini joriy etish, yuqori zamonaviy uskunalardan samarali foydalanish, to‘qimachilik sanoat korxonalarida yuqori mehnat unumдорligini, sanoat ishlab chiqarishining ko‘payishini va yoshlarni yangi ish o‘rinlarini bilan ta’minlaydi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bankrot korxona qudratli MCHJ ga aylantirildi. // Buxoronomma 2019 yil, 17-aprel.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4957-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони. <https://strategy.regulation.gov.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 14-dekabrdagi qilingan “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5285-son farmoni.
4. Murtazo Rahmatov (Kompaniya Petromaruz, Rossiya), direktorlar kengashi raisi. // Ishlab chiqarish klasteri innovastion iqtisodiyotga o‘tishning muhim bosqichidir. Xalq so‘zi, 2017-yil 28-mart.
5. F.Utayeva // “Bukhara Cotton Textile” bosh direktori O.Jumayev va iqtisodchi T.Boltayev bilan suhbat 2022-yil 7-mart.

Rakhmonova Dilfuza Maxmudovna

Viloyat xalq ta’limi boshqarmasi boshlang‘ich ta’lim metodisti

“YANGI O‘ZBEKISTON” STRATEGIYASINING BOSH MAQSADI

Annotatsiya: maqolada O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida Renassansning o‘rni, O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessansning poydevoriniyatishda ta’lim islohotlariga bog‘lig‘ligini haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: yangi taraqqiyot, Uyg‘onish davri, Renessans, milliy g‘oya, ziyoli, milliy davlatchilik.

“Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz”.

*Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Har bir xalq qonida milliy mafkuraning ilk ildizlari yashaydi. Elu xalqni bir bayroq ostida birlashtiradigan g‘oya esa ana shu jon tomirlardan oziqlanadi.

Milliy tafakkur tirik ekan, jamiyatda oldinga siljish, o‘zaro birdamlik, mushtarak maqsad yo‘lidaadolatli kurash ham bo‘ladi. Chunki umummilliy mafkuragini jamiyat a’zolarini birlashtirish vazifasini bajarishi allaqachon o‘z isbotini topgan.

Shu jihatdan olib qaraganda, bugun O‘zbekiston uyg‘onish ostonasida turibdi. Ortga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mustaqillik g‘oyasi, milliy mafkura bizga tog‘dek tayanch bo‘ldi. Xalqimiz o‘zining asriy orzusiga erishgach, endi o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘lini belgilab olishi o‘ta muhim ijtimoiy-siyosiy, o‘z navbatida ma’naviy zaruratga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti: “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda”, degan edi. Mazkur xitobning reallikka ko‘chgani – keyingi vaqtarda “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” atamalari lug‘atimizdan mustahkam o‘rin olib hayotimizga hamohanglik kasb etayotgani, yurtimizda yana bir Uyg‘onish jarayoni kechayotganiga har birimiz guvohmiz.

Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinci

uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo'lamiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Shuning uchun, avvalo, Renessansning tarixiy ildizlari va asoslarini, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz chuqur chugur olishimiz zarur.

Renessans fransuzcha so'z bo'lib, qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq ma'nosini anglatadi, madaniyat, ilm-fan, san'at, ta'lim-tarbiya, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli bir xillikdan keyin qayta rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining yangilanish jarayonida namoyon bo'ladi.

Birinchi Renessans Markaziy Osiyoda IX–XII asrlarda ro'y berdi. Bu davrda davlatni boshqarish siyosati, er-suv, soliqlar bilan bog'liq farmonlar chiqarilishi, olimlarga munosabat kishilarda ertangi kunga ishonch uyg'otdi. Ularning turli fan sohalari (matematika, astronomiya, tibbiyot, huquq, kimyo, geodeziya va dunyoning tuzilishi haqidagi ilmlar)ga qiziqishi ortishiga sabab bo'ldi.

Odamlar bolalarini o'qitish uchun ustoz qidira boshladi. Bu davrda yashab ijod etgan Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamashshariy kabi mutafakkirlar, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi buyuk muhaddislar, Moturidiy, Abulmuin Nasafiy kabi mutakallimlar hamda ulardan tahsil olgan shogirdlari, safdoshlari tabiiy va aniq fanlar doirasida, islom dini osmonida yulduzday charaqladi. Ularning izlanishlari, kashfiyot va beqiyos g'oyalaridan butun dunyo bahramand bo'ldi. Bugungi kunga qadar ham ularning o'lmas merosidan foydalanib kelinmoqda.

Mintaqamizda Ikkinci Renessans poydevori Amir Temur nomi bilan bog'liq. Sohibqiron bobomiz Ikkinci Renessans homiysi, asoschisi sifatida tarixga muhrlandi.

Amir Temur markaziy boshqaruvga asoslangan qudratli sultanatni barpo etish bilan birga, mamlakatda madaniy-ilmiy yuksalish uchun ham munosib sharoit yaratishga intildi. Turli hududlardan diniy va dunyoviy ilm sohiblari, shoirlar, me'morlar, hunarmandlar va boshqalarni yig'ib, ular orqali mamlakatning ilmiy va madaniy qudrati yuksalishiga zamin yaratdi. Chingizxon davrida inqirozga uchragan madaniyat, ilm-fan, ma'rifat qayta shakllandi va taraqqiy etdi. Mamlakat obodlik va farovonlikka erishdi.

Ikkinci Renessans davri, o'z navbatida, "Islom madaniyatining oltin asri" deya nomlandi. Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Xondamir va boshqa olimlar, shoiru fuzalolar bu yurtning shuhratini dunyoga yoydi.

Bu ikki Renessans insoniyatga nimalarni tuhfa qildi? Butun dunyoga "Bayt ul-hikma", Xorazm Ma'mun akademiyasi kabi ilm dargohlarini taqdim qildi. Erning sharsimon ekani haqidagi g'oya ilgari surildi, globus yaratildi. Er radiusi ilm bilan isbotlandi. Tibbiyotning, algebra fanining tamal toshi qo'yildi. SHaharsozlik, me'morlik sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar dunyo ahlini lol qoldirdi. Birinchi Renessansda islom sivilizatsiyasining tamal toshi qo'yilgan bo'lsa, Ikkinci Renessansda yanada yuksalishiga yo'l ochildi.

E'tibor bersak, har ikkala Uyg'onish davrida ham eng muhim jihat — davlatning e'tibori, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odilona va oqilona siyosat, ta'lim-tarbiya ustuvor bo'lgan. Bundan tashqari, insonlarda yuksak axloq, ilm-fanga tashnalik bilan birga, borliq sirlarini ochish va yangi ilm yaratishga ishonch kuchli bo'lgan. Olimlar o'zlari bilmagan holda, bugun tarixchilar e'tirof etayotgan Renessans davrining ijrochilariga aylangan.

Har ikki Renessans davrida davlat rahbarlari, olimu fuzalolar, birinchi navbatda, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyati, iymon-e'tiqodi masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Deyarli barcha allomalar asarlarida ta'limni tarbiya bilan uyg'un olib borish lozimligi haqidagi fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarida ilm va odob-axloq uyg'unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-

saodati,adolat va diyonat, insonlarning o‘zaro do‘stligi va hamkorligi, obod turmush to‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari surgan. Mutafakkir “*Bola badanining bo‘g‘inlari qotib, tili ravon chiqib, qulog‘i eshitish va gapni ma‘qullash uchun tayyor bo‘lib, vujudi ilm va odob o‘rganishga hozir bo‘lganda, unga ilm va odob o‘rgatish kerak*”, deb yozadi.

Bugungi kunda biz uchinchi Uyg‘onish davri ostonasida turibmiz. Agar O‘zbekiston Prezidentining keyingii to‘rt yilda ma‘rifat, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag‘zini to‘la chaqib ko‘rsak, navbatdagi Ma‘rifat Renessansining markazi O‘zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

Prezidentimiz 2020-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta’kidlaganidek, “Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda, “Yangi O‘zbekiston” iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingii yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvarli yutuqlarimizning e’tirofidir. Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi”.

Chindan ham, biz ana shunday beba ho merosga ko‘pincha faqat tarixiy yodgorlikka qaraganday munosabatda bo‘lib kelmoqdamiz. Bunday tengsiz boylikni amaliy hayotimizga tatbiq etishda beparvolik va e’tiborsizlikka yo‘l qo‘ymoqdamiz. Vaholanki, bunday noyob meros jahondagi sanoqli xalqlarga nasib etgan.

Masalan, birgina O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan 100 mingdan ortiq nodir qo‘lyozmalarga jahon ahli havas qiladi. Allomalarimizning noyob ilmiy-ma‘naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha barchamizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlaydi.

O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho‘qqilarini zabit etishning mashaqqatli bosqichlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligidan shakllanishi, jamiyatda ilmu fan,

san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo'shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi. Matonatli xalqimiz esa azal-azaldan o'zgarish va qiyinchiliklarga tayyor bo'lgan. Bilamizki, jamiyat hech qachon bir joyda turmaydi va doim rivojlanish hamda yangilanishga intiladi. Shu sababli qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar o'zgaradi. Yoshlar esa shu taraqqiyot va o'zgarishlarni harakatlantiruvchi kuch asosidir. Bugun o'z tengdoshlariga ibrat bo'layotgan, jamiyatdagi yangilanishlar jarayonida innovatsion g'oya va loyihalari bilan faol ishtirok etayotgan yoshlar juda ko'pchilikni tashkil qilishi bizni, albatta, quvontiradi. Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida, – “*Xalqimizning ulug'vor qudrati jo 'sh urgan paytda, mamlakatimizda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, yoshlar esa, Vatanimizning eng katta kuchi, boyligi, beba ho xazinasidir*”, – deb bejiz ta'kidlamadi. Darhaqiqat, mamlakatimizning kelajak ravnaqi va rivojlanishi salohiyatli yoshlarimizning bilimi va ma'naviyatiga bog'liqdir. Shuning uchun biz farzandlarimizning nafaqat bilimi va intellektual salohiyati balki, kiyinish madaniyati va ma'naviy qiyofasiga ham katta e'tibor berishimiz kerak.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, kiyinish madaniyati – insonning tashqi ko'rinishi, ma'naviy dunyosi, axloqiy sifatlari va salohiyatini, nafosat va odob borasidagi qarashlarini ifoda etadigan omil hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi jadal rivojlanib borayotgan global davrda, xotin-qizlarimiz va yoshlarimizni o'zida milliylik aks etgan kiyinish madaniyatiga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak. Shuningdek, demokratik davlat qurishdagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash, chuqur bilimga ega bo'lgan tashabbuskor, shijoatli xotin-qizlar va yoshlar faolligini oshirish hamda ular safini kengaytirish masalasi, albatta, biz, ustoz – murabbiylarning yuksak kasbiy mahorat talab etuvchi vazifasi hisoblanadi.

Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, “*Xalqimizning ulug'vor qudrati jo 'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish — Uchinchi Renessans*

davrige poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

Bugun Yangi O‘zbekistonda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” bosh g‘oyasiga tayanib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasi qo‘yilgan ekan, uni bajarish uchun birgina rahbar, pedagog yoki tarbiyachi emas, balki shu Vatan barchamizniki, deya ko‘nglida vatanparvarlik, xalqparvarlik, insoniylik fazilatlari mujassam, iymon-e’tiqodi butun bo‘lgan har qanday shaxs targ‘ibotchi bo‘lishi lozim.

To‘g‘ri, biz Uchinchi Renessansni bir yilda, besh yilda, o‘n yilda amalga oshiramiz, deb bong urmaymiz, lekin mana shu Renessansni yaratadigan avlodni voyaga etkazishga kuchimiz ham, qudratimiz ham, imkoniyatimiz ham etarli. Shunday ekan, bizdan faqat mehnat va ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish talab qilinadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ – 637 sonli Qonuni. 2020-yil 23-sentabr.
2. Qurbonova, M.F. (2020). Yoshlarda kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari. Xalq ta’limi, 2020.
3. Qoraev, S.B. Ta’limni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari. T., 2019.
4. A.Y. O‘tayev. Ta’lim taraqqiyotida renassansning o‘rni. Toshkent, 2020.

*Ergasheva Lobar Ne’matovna
Buxoro tuman 2-maktab o‘qituvchisi*

“YANGI O‘ZBEKISTON” – YANGICHA DUNYOQARASH

Annotatsiya: “Yangi O‘zbekiston” haqidagi tushunchalar har bir mavzu doirasida tushuntirilib borishi va o‘sib kelayotgan yosh avlodga tarixiy bilimlarni berishda milliy ruhni singdirish davr taqozosi ekanligi alohida uqtirilgan. Ayniqsa

“Yangi O‘zbekiston” – yangicha dunyoqarash g‘oyasining mazmun mohiyati 10-11 sinf o‘quvchilariga O‘zbekiston tarixi darslarini o‘tish jarayonida alohida urg‘u berish va ularda oljanob tuyg‘u Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan avlod sifatida shakllanishi alohida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Renessans, yangicha dunyoqarash, taraqqiyot, islohot, strategiya.

Uchinchi Renessans g‘oyasini hayotiy va ta’sirchan milliy g‘oyaga aylantirishni nimadan boshlamoq kerak?

Holva degan bilan og‘iz chuchimaganidek, Renessans degan bilan u sodir bo‘lib qolmaydi. Buning uchun har tomonlama puxta o‘ylangan siyosat olib borilishi, xalqda ruhiy ko‘tarilish, qat’iy irodali intilish yuz bermog‘i zarur.

Avvalo, tushuncha mazmunini aniq ochib berish, aholining barcha qatlamlari, avvalo, yoshlar ongiga yetkazish kerak. O‘tmish renessanslari davrida ajdodlarimiz nimalarga erishganini, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini, boshqa xalqlar, mintaqalar yutuqlari bilan taqqoslab, jahonning yetakchi madaniyatlaridan, ilm-fani, san’ati va adabiyotlaridan birini, ilg‘or ijtimoiy fikru qarashlarini yaratganini qisqa, lo‘nda, dabdabali jumlalarsiz yoritish zarur.

Shuningdek, ularning inqiroz sabablari xolis tahlil etilmog‘i lozim. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Buyuk Ipak yo‘lining to‘xtab qolgani obektiv sabablardan biri bo‘lsa-da, ichki va tashqi nizolar, taxt talashlar, ayirmachilik va uch davlatga bo‘linib ketish, inson komilligi faqat insonning ichki dunyosiga qaratilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga yetarlicha e’tibor bermaslik kabi subektiv omillar inqirozni keltirib chiqargan asosiy sabablar edi[3]. Tarixdan saboq olish, tegishli xulosa chiqarish uchun bular yoshlar, aholi ongiga yetkazilishi kerak. Biz ko‘proq avvalgi uyg‘onish davrlarimizning yutuqlarini faxr bilan e’tirof etib, negadir ularning inqirozi sabablari haqida gapirishni unchalik xushlamaymiz.

Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davri talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, Yangi Renessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o‘zgacha ekanini asoslash, dalillash maqsadga muvofiq[2].

Uchinchi Renessans to‘rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtida kechadi. Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqlli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O‘z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o‘tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O‘zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta’minoti bo‘yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g‘oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog‘lanishi shart. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta’minot taqozosidan kelib chiqib, ta’lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak.

Avvalgi ikkala Renessans mustahkam ma’naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag‘rikenglik asosida yuz bergen. Islom halollik va to‘g‘rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollilikni hamma narsadan ustun qo‘ygan. “Ilm izlab Chinga bo‘lsa-da, bor”, “Sendan harakat — mendan barakat”, “Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun” va ko‘plab shu kabi hadislar, naqllar ajdodlarimizning ijtimoiy mo‘ljaliga aylangan edi.

“Baytul hikma”da 40 dan ortiq tarjimonlar qadimgi yunon tilidan, 14 nafar tarjimon sanskrit tilidan, 4 nafar tarjimon Xitoy tilidan ilmiy, tibbiy va falsafiy asarlarni arabchaga o‘girgan. Bundan tashqari, lotin, suryoniy, ibroniylardan tarjimonlar bo‘lgan. Ilmiy haqiqat diniy mansublikdan ustun qo‘yilgan. Bu asar ma’jusiyarniki, bunisi kofirlarniki deb inkor qilinmagan. Ajdodlarimiz til o‘rganib, ilm ortidan dunyoni kezgan. Mahdudlik qobig‘iga o‘ralib qolmagan, turg‘unlik, mahalliychilik ularga yot bo‘lgan.

“Baytul hikma”, Xorazm Ma’mun Akademiyasi, umuman, islom olami olimlari faoliyati o‘sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin

namunasidir. Birinchi va ikkinchi renessanslarning ma’naviy asoslarini va sabablarini hamda keyingii inqirozini chuqur o‘rganmasdan, biz Uchinchi Renessansni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz. Bugun ham bizga g‘oyaviy va ilmiy tolerantlik (bag‘rikenglik), ilmga, haqiqatga tashnalik, milliy mahdudlikni, g‘oyaviy mutaassiblikni tamomila inkor etish xos bo‘lmog‘i lozim[1].

Yuqoridagilardan ayonlashmoqdaki, Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yana-da chuqurroq integratsiya bo‘lishini talab etadi. Ammo o‘zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma’naviyatimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa ta’lim-tarbiya tizimiga jiddiy e’tibor qaratishni bildiradi.

Jamiyatimizda olib borilayotgan izchil yangilanishlar va maktab ostonasidan boshlangan islohotlar to‘laqonli amalga oshirilishi va natija berishi uchun avvalo inson salomatligi ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, yangi dunyoqarashni shakllantirishda «Yangi O‘zbekiston» – yangicha dunyoqarash g‘oyasining mohiyatini tashkil etuvchi uch asos – ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyalariini tarix darslarini o‘tishda o‘quvchilarga singdirib borish kerak. O‘zbek milliy davlatchiligidan bu uchala g‘oyaga asos bo‘ladigan vatan ozodligi, milliy g‘urur va jasorat timsoli, mard, jasur, har qanday qiyinchilik va taqdir zarbalariga qarshi qaddini tik tutgan holda milliy davlatchilik barpo etish yo‘lida hatto jonini tikkan yurt farzandlarini ko‘plab misol keltirish mumkin. Bularga: To‘maris, Qurbanjon Dodxoh, Ruzvonbibi Ahmadjonova, Shoahmad Shomahmudovlar oilasi, Fotima Qosimova, Jalolidin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqa ko‘plab tarixiy shaxslarni sanab o‘tishimiz mumkin. Afsuski, maktab darsliklarida bular haqida kengroq va yetarlicha ma’lumotlar berilmagan. Tarixiy voqealarni bayon etishda xalqimiz va vatanimizning roli pasaytirib ko‘rsatilgan. Hozirgi kunga kelib arxivlarimizning barchasidan foydalanish imkoniyati berildi. Bulardan oqilona foydalanish kerak.

Singapur mo‘jizasi asoschisi Li Kuan Yuning quyidagi fikrlarini eslab o‘tishni o‘rinli deb hisoblayman: “Men Singapurda mo‘jiza yaratmadim. Men bor-yo‘g‘i vatanim oldidagi burchimni bajardim. Davlat mablag‘larini ta’lim tomon yo‘naltirdim. Muallimlar darajasini bechorahollikdan eng baland tabaqaga ko‘tardim. Mo‘jizani muallimlar yaratdi. Ular biz uchun ilm va axloqni sevadigan avlodni bino qilishdi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. “O‘zbekiston ovozi”, 2019-yil, 10-dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik – ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro‘yobi yo‘lida qudrat manbai. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil, 1-sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: “O‘zbekiston”, 2017. 102b.

Karimov Jamshid To‘lqin o‘g‘li

Kogon shahar 8-umumiyl o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

jamshidkarimov@bk.ru +99899 757-14-41

“UCHINCHI RENESSANS” DAVRIGA ZAMIN YARATGAN BUXORO MA’RIFATPARVARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning ma’rifatparvarlik faoliyati, jadidlar safida maktab va maorif rivoji yo‘lidagi faoliyati, ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Tarbiyati atfol, jadid, ta’lim, jadid maktablari.

Xalq koriga yaragan, xalqqa xizmati singan buyuk insonlarning nomlari doimo xalqimizning xotirasida mangu bo‘lishi tabiiy hol. Yillar o‘tsa ham bunday kishilarning qilgan ishlari ibrat va namuna sifatida ko‘rsatilaveradi. Shunday buyuk kishilardan biri, o‘zbek jadidlarining yorqin namoyondasi, pedagog va jamoat arbobi Abdurauf Fitrat hisoblanadi. Ta’lim va tarbiya, axloq, ma’naviyat kabi umuminsoniy qadriyat va tushunchalar ustida ulkan ijodiy boyliklarni yaratgan Abdurauf Fitrat shaxsi va pedagogik qarashlari pedagogika ta’limi sohasi uchun yo‘lchi yulduz vazifasini o‘tashi hech kimga sir emas.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoroda ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Avval mакtabda ta’lim oldi. Keyinchalik Buxoro, Istanbul madrasalari va oliygohlarida o‘qigan. Fitrat arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini va boshqa xalqlar adabiyotini qunt bilan o‘rgandi. Abdurauf Fitrat jadid sifatida millatimizni ilm-fandan boxabar qilishni o‘zining burchi deb bildi.

Fitrat Turkistonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga, ayniqsa, jadidchilik harakatlariga qiziqish bilan qaradi. O‘zining yozishicha, avval jadidchilik harakatiga qarshilik qilgan, keyin uning mohiyatini anglab yetgach, bu harakatga qo‘silgan. O‘sha paytlarda Buxoroning kelajagi to‘g‘risida qayg‘urgan bir guruh ma’rifatparvar va ochiq fikrli kishilar yashirincha "Tarbiyati atfol" ("Bolalar tarbiyasi") jamiyatini tuzadilar. Ushbu xayriya jamiyati yoshlarni zamon talablari darajasida o‘qitish orqali o‘rta asrlar darajasida to‘xtab qolgan Turkistonning taraqqiyotini yo‘lga qo‘yish maqsadida faoliyat ko‘rsatardi. Fitrat 1909-yilda "Tarbiyati atfol" xayriya jamiyati orqali ta’lim olish uchun Turkiyaga jo‘natilgan dastlabki besh iste’dodli yoshlarning biri sifatida Istanbulga yuboriladi. Uning taqdirida Turkiya hayoti muhim ahamiyat kasb etadi.

1913-yilgacha Istanbul oliygohida ta’lim oladi. Turkiyada tashkil etilgan "Buxoro ta’limi maorifi" uyushmasida faol bo‘ladi. Uning birinchi she’riy to‘plami

1911-yilda “Sayha” (“Chorlov”) nomi bilan nashr etilgan. “Sayyohi hindi”, “Munozara” kabi asarlari ham ushbu davrlarda Turkiyada bosilib chiqqan.

Turkiya oliyogohida o‘qish yillarda jadidchilik g‘oyalari bilan tanishib, aynan shu g‘oyalar ta’sirida bir qator asarlar yozgan. Fitrat ijodining boshlanishi Turkistonda inqilobiy harakatlar kuchaygan, ya’ni milliy uyg‘onish davrlariga to‘g‘ri keladi. Fitrat 1913-yili fors-tojik tilida yaratgan “Munozara” asarida Buxoro amirligida avj olgan ilmsizlik, diniy jaholat va xurofot ta’sirida qoloqlikda qolgan mamlakatning inqirozi sabablarini ochib tashlab, ulardan qutulish yo‘llarini ko‘rsatdi. Bu asarda Buxoro amirligidagi o‘qish va o‘qitishning ahvoli yoritilgan bo‘lib, maktab va o‘qitish usullarini tubdan o‘zgartirish uslublari keltiriladi. Asar xalqning bu holatni real baholay olishi uchun muhim rol o‘ynadi. Yangi usul maktablarining shar’iy talablarga javob berishini isbot qilib berdi.

“Munozara”da Buxoroda faoliyat ko‘rsatgan yosh taraqqiyparvarlarning maqsad va vazifalari o‘z ifodasini topgan edi. Bu haqda Fitrat ijodining tadqiqotchisi yaponiyalik X.Komatsu: “*1911-yilda Istanbulga o‘qishga borgan yosh buxorolik jadid Abdurauf Fitrat “Munozara” nomli forscha adabiy asar yozdi. Bu asar o‘sha davrda usuli jadid maktablarining zarurati hamda buxorolik islohotchilar bilan qadimchilar o‘rtasidagi tortishuvlarga nuqta qo‘yish uchun yozilgan edi; asar faqat Buxorodagina emas, balki butun Turkistondagi jadidlar harakatiga ruh va kuch berishi bilan mashhur bo‘ldi*”[3, 133].

Turkiyada tashkil etilgan “Buxoro ta’mimi (umumiyl) maorif” uyushmasida faollik ko‘rsatgan. Behbudiy asos solgan jadid usulidagi maktablar takomiliga xizmat qiladi. 1913-yili Buxoroga qaytib kelgandan so‘ng Shahrisabz va Qarshida yangi maktablar ochdi. 1914-yilda Fitrat Buxoro, Samarqanddagi qizg‘in adabiy jarayon madaniy, maorif ishlariga va siyosiy harakatlarga faol aralashib ketdi. Fitrat jadid maktablarini ochish va bolalarni yangicha tartibda o‘qitish ishlari bilan astoydil shug‘ullandi. Qisqa muddatda Buxoro jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biriga aylandi. U kishilarning ongini o‘zgartirmay turib, mamlakatni o‘zgartirish, uni taraqqiy ettirish mumkin emas degan fikrda edi. Buning uchun millatning katta

qismini ma'rifatli, dunyoviy ilmdan, texnikadan xabardor qilishdan boshqa yo'l yo'qligini tushunganlardan edi. Jadid maktablarida zamonaviy fan-texnikani yangilashga xizmat qiladigan saboqlar berilishiga erishish jadidlar oldidagi eng muhim vazifalardan hisoblanardi. Jadidlar ma'rifatchilik borasidagi orzulariga erishish uchun mamlakat siyosiy tuzumi imkoniyat beradigan tarzda bo'lishi lozimligini yaxshi anglaganlar. Ammo, o'sha davrdagi siyosiy tuzum bunga katta qarshilik ko'rsatdi. Fitrat buni shunday eslaydi: “*Ushbu maqsadlarimizg'a erishur uchun biz "jadid"lar Buxoroda maktablar ochdiq, lekin Buxoro hukumati neqdi falsafag'a ko'radur bizning maktablarimizning davomini musoada qilmadi, yashatmadi. Shul kunday berli biz maktabsiz qolduq.*

Mundan so'ng: “*Maktab yo'li birla bo'lmasa boshqa bir yo'l birla tirishub qarayliq!*” deb tijorat yo'lina kirdik va Buxoro hukumatidan ruxsat olub bir kitobchilik shirkati va bir ko'moch narsasi shirkati tuzuvdik[2,211]”.

Darhaqiqat, ahvol shu darajaga borib yetgan ediki, jadidlar bir tarafdan diniy mutaasiblar, ikkinchi tarafdan esa amir va uning tarafdarlariga qarshi kurash olib borishga majbur bo'lib qolgandilar. Bu esa millatni ma'rifatli, dunyoviy ilmdan, texnikadan xabardor qilishda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Ammo, Turkistondagi bunday sharoit, xalqning og'ir ahvoliga Fitrat befarq qaray olmasdi. U ham boshqa jadidlar singari millatni qanday bo'lmasin ma'rifatli qilish yo'lidan bordi.

Jadidchilik harakatiga turli-tuman fikrlar bo'lib, ko'pincha xalq bilan birga bo'lgan jadidizmni reaksiyon g'oyaviy harakat sifatida qoralanib, ularga bir tomonlama baho berildi. Jadid harakati a'zolarini “xalq dushmani”, “millatchi” sifatida aybladilar.

Bundan norozi bo'lgan Fitrat Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachiga yozgan ochiq maktubida: “*Ne mone'lik borki, tartiboti jadida vositasi bilan milliy saodatimizning yangi istiqbolli yo'llarini ochib, qadrimiz va taqdirimizni a'lo darajada sharaflay olmaysiz? Bir millatning hayoti uchun qayg'urub, Allohning fazlu karamiga sabab bo'lmoqdan qaysi shuhrat ortiqroqdir?*[5]”, - deya Buxoro

amirligini maktablarni ochish uchun yordam berishga, insof,adolat va ittifoqqa chaqiradi. Fitratning mana shu kabi jadid maktablari masalasida mamlakatning ichki ma’naviy hayotga aralashuvi uning boshqa bir qator asarlarida ham o‘z aksini topgan.

Abdurauf Fitrat millatni qashshoqlik, zulmdan qutqarishda o‘qituvchining o‘rnii juda katta ekanligini tushunib yetadi va o‘z she’rlarida o‘qituvchini tarannum etadi. O‘qituvchi o‘z bilimi, zehni, ma’rifat nuri bilan butun millatni bu qaro kunlardan chiqarib, yorug‘ kunlarga yetkazib borishiga ishonchi yuqori darajada edi. Fitrat o‘qituvchini, “ma’rifat arsloni”, “ilm erlari” deb ulug‘lagan. “O‘qituvchilar yurtiga” she’rida o‘qituvchini millatni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi kuch sifatida ta’riflaydi:

Orqadoshlar, to ‘planaylik jahlning uyin yiqqali,

El ko ‘zin olg ‘an qorong ‘u pardalarni yirtkali.

Biz erurmiz ma’rifat arslonlari, ilm erlari,

To ‘planaylik, turk elig ‘a to ‘g ‘ri yo ‘llar ochqali[1, 42].

Fitrat o‘z g‘oyaviy qarashlarini Buxoroning har bir burchagiga yetib borishini istaydi. Shuning uchun ilk asarlarini fors tilida yozadi. Sababi uning forsiyzabon bo‘lganligida emas, aksincha, o‘sha davrda Buxoroda rasmiy til fors tili ekanligi manbalarda ko‘rsatilgan: “*Buxoroda rasmiy til fors tilidir, adliya va boshqaruv ishlariga aloqador barcha hujjatlar shu tilda bo‘lsa ham, shahar aholisi shu tilda (fors) so‘zlashadilar. Buxoro amirlari kelib chiqishiga ko‘ra o‘zbek bo‘lsa-da, o‘zbek aholisi tojik tilli aholidan son jihatdan ikki barobar ko‘p bo‘lsa ham, fors tili rasmiy til sifatida qabul qilingan. Fors tilidagi so‘zlashuv sharqiy turklarning fors yozuviga bo‘lgan taqlididan kelib chiqqan[4, 147]*”.

Shunday qilib, ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat o‘z faoliyati davomida millatni ma’rifatli qilish, madaniyat tarqatish va shu orqali mamlakatni yuksaltirish uchun intilgan jadidlardan biri sifatida tarixda qolgan. U dastlabki faoliyatiyoq ma’rifatning jamiyat rivojidagi ahamiyatini ko‘rsatish bilan birga millatni ma’rifatga da’vat etdi. Har qanday holatda ham millati bilan birga bo‘lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo‘yish Fitrat shaxsining eng muhim xususiyatlaridan edi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar I jild – T.: “Ma’naviyat”, 2000
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar III jild – T.: “Ma’naviyat”, 2003
3. Hisao Komatsu. Uch jadidchi va o‘zgargan dunyo (Turk tilidan Bahodir Nurmuhammad tarjimasi) // “Jahon adabiyoti”, 2017. – №4.
4. Saidov A. Buxoro. // Sho‘ro. – 1909. – 5 son.
5. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”ning 1996-yil 9-may soni.

*G‘ulomova Mohichehra G‘aniyevna
Kogon tumani 21-IDUM o ‘qituvchisi*

YUKSAK MA’NAVIYATLI YOSH AVLOD – “UCHINCHI RENESSANS” BUNYODKORI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda yuksak ma’naviyatli yosh avlodning o‘rni va roli bayon qilingan. Uchinchi Renessans g‘oyasini hayotga tadbiq etishda yuksak intellektual salohiyat egalari bo‘lgan yoshlarning ishtirokiga oid aniq misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Uchinchi Renessans, yuksak ma’naviyat, intellektual salohiyat, yosh avlod, ta’lim, tarbiya

Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” da keng qamrovli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “*Xalqimizning ulug ‘vor qudrati jo ‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi[1.1]*”. Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda xalqimizning jipsligi, birdamligi va fidoiyligi muhim rol o‘ynaydi. Yuksak ma’naviyatli avlod – Uchinchi Renescans bunyodkori sifatida faollik ko‘rsatishi ham bu boradagi yutuqlarimizni ta’minalashga xizmat qiladi.

Uchinchi Renessans g‘oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog‘i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta’limtarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat – barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog‘i lozim.

Biz chuqur anglab yetamizki yuksak ma’naviyatli avlodgina Uchinchi Renessansning bunyodkori bo‘la oladi. Buning uchun ularning ongi va qalbiga “Renessans” tushunchasining mazmun-mohiyatini va Uchinchi Renessans milliy g‘oyaga aylanishi zarurligini hamda yoshlarda mafkuraviy immunitetni tarbiyalashga xizmat qilishini singdirib borishimiz zarur.

XVI asrning 30-40 yillarida bizda an’anaviy jamiyat uzil-kesil qaror topdi. Ilmiy, badiiy izlanishlarga ijtimoiy ehtiyoj pasayib ketdi. O‘tmish yutuqlari oldida qulluq qilish, ularni ideallashtirish va faqat takrorlashga urinish, yangiliklarga salbiy munosabat shakllandi. Asta-sekin chuqur turg‘unlik va inqiroz boshlandi. Ular noxush ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy-mafkuraviy, regional nizolar va ayirmachilik kabi sabablar bilan qo‘silib qoloq bo‘lib qolishimizga, XIX asr ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizni yo‘qotishga olib keldi. O‘tmishdan birinchi bo‘lib teran tarixiy xulosa chiqargan — jadid bobolarimiz edi. Ular taklif qilgan islohotlar millatni qayta uyg‘otish, taraqqiyot tomon burishni ko‘zлади. Ammo mustabid hokimiyat jadidlar harakatini avj olmasdan bo‘g‘ib qo‘ydi.

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo‘ydi. Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX-XII asrlar, ikkinchisi XIV-XVI asr. Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg‘oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar – Buxoriy, Termiziyy, mutakallimlar – Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinchı Renessansda – Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me’morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar. Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz zarur.

“Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Biz mакtabgacha talim va maktab talimi, oliv va o‘rta maxsus talim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, mакtab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘ladilar[2.2]”, – deb ta’kidladilar Prezidentimiz.

Bosh vazifamiz esa Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratadigan yosh avlodni yuksak ma’naviyatli insonlar qilib tarbiyalashga qaratilishi lozim. Uchinchi Renessans milliy g‘oyaga aylanishi zarur va yoshlarda mafkuraviy imunitetni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

Shu ma’noda Uchinchi Renessans g‘oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g‘oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog‘da o‘tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog‘lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo‘lida xalqimiz turli mayda, vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko‘rinishlariga chalg‘imasligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo‘q. Uchinchi Renessans g‘oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana

oqishini astoydil istaydi.Uchinchi Renessans g‘oyasini hayotiy va ta’sirchan milliy g‘oyaga aylantirishni nimadan boshlamoq kerakligini ham anglab yetishimiz zarur.

“Uchinchi Renessans” g‘oyasini yoshlar ongi va qalbiga singdirish uchun puxta o‘ylangan siyosat olib borilishi, xalqda ruhiy ko‘tarilish, qatiy irodali intilish yuz bermog‘i zarur. Avvalo, tushuncha mazmunini aniq ochib berish, aholining barcha qatlamlari, avvalo, yoshlar ongiga yetkazish kerak. O‘tmish renessanslari davrida ajdodlarimiz nimalarga erishganini, jahon sivilizatsiyasiga qo‘sghan hissasini, boshqa xalqlar, mintaqalar yutuqlari bilan taqqoslab, jahonning yetakchi madaniyatlaridan, ilm-fani, san’ati va adabiyotlaridan birini, ilg‘or ijtimoiy fikru qarashlarini yaratganini qisqa, lo‘nda, dabdabali jumlalarsiz yoritish zarur.

11-sinfda “O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitishda yoshlar ongi va qalbiga Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda nimalarga e’tibor qaratishimiz zarurligi haqidagi ma’lumotlarni singdirishimiz kerak. Bunda quyidagilar e’tiborga olinadi:

- Uchinchi Renessans poydevori to‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida yaratilishi kerak;

- Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqlii) iqtisodiyotni taqozo qilishini tushuntirmog‘imiz lozim;

- O‘z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o‘tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etilishini anglab yetishlari kerak.

Yuqoridagilardan ayonlashmoqdaki, Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo‘lishini talab etadi. Ammo o‘zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma’naviyatimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa ta’lim-tarbiya tizimiga jiddiy e’tibor qaratishni bildiradi.

Inson — Yangi Renessans ijodkoridir. Buni yoshlar ongi va qalbiga singdirish lozim. Har bir jamiyat o‘ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Unga o‘z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, e’tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va

boshqa qator talablar qo‘yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talabiga to‘liq javob beradigan kishi turli davrlarda har xil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni “tugal er”, Forobiy “fozil kishi”, tasavvuf namoyandalari “komil inson” deb ataganlar. “Har tomonlama rivojlangan shaxs”, “uyg‘un rivojlangan shaxs” atamalari ham qo‘llanilgan.

Mustaqillikdan keyin biz shaxsga nisbatan “komil inson”, yosh avlodga nisbatan “barkamol avlod” atamalarini qo‘llay boshladik. Gap atamada emas. Qanday sifatni qo‘llamaylik, kelajak insonini tarbiyalashda biz, avvalo, jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini va ayni paytda milliy ma’naviyatimiz xususiyatlarini hisobga olmog‘imiz lozim. Binobarin, sun’iy intellekt va yuksak texnologiyalarga tayanadigan “to‘rtinchi sanoat inqilobi” insonga qo‘yadigan talablarini oldindan modellashtirishimiz va ta’lim-tarbiya tizimini ularga moslashtirishiz kerak.

Bugungi kunda Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratish ekanmiz, jahonda robototexnika, avtomatlashtirish, nanotexnologiyalar rivojlangan davrda ilm-fanga asoslanib, mutlaqo yangi taraqqiyot bosqichiga erishmog‘imiz zarur. Mamlakatimizda ilm-fanga taraqqiyoti uchun yaratilgan shart-sharoitlar va yoshlarning ilm-fanga yuksak darajada qiziqish bilan qarayotgani hamda jahon miqyosida bu sohada hech kimdan kam emasligini ko‘rsatayotganligi Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishimizga qat’iy ishonch tug‘diradi.

Ko‘rinib turibdiki, Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratish uchun yoshlarning jipsligi, birdamligi va fidoiyligi muhim rol o‘ynaydi. Eng muhimi, ularning bu boradagi izlanish va tashabbuslarini hamisha rag‘batlantirib turish, yagona maqsad sari yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Mustaqillik – ezgu niyatlarimiz, buyuk maqsadlarimiz ro‘yobi yo‘lida qudrat manbai. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil, 1-sentabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘qituvchi va murabbiylar – Yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil, 1-oktabr.

3. Munavvarov Z. Yangi Renessans – daxldorlik sharafi va mas’uliyati, “Yangi O‘zbekiston”, 2020-yil 15-sentabr, 176-son.

Akhmedova Durdona Qahramon qizi

BuxDUPI “Xorijiy tillar” kafedrasi talabasi

Ergasheva Farangiz Sherali qizi

BuxDUPI “Xorijiy tillar” kafedrasi talabasi

“UCHINCHI RENESSANS”NI BUNYOD ETISHDA PEDAGOGLARNING O‘RNI VA ROLI

Annotatsiya. Zamonaviy o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ta’siri, texnologik xaritasi aks etgan. Shuningdek, o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning asosiy tamoyillari, yo’llari, usullari, shakllari, vositalari aniqlangan. Eng muhimmi o‘qituvchining innovatsion faoliyati va ta’lim texnologiyalari yuzasidan ilmiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, axloqiy barkamollik, kompetentlik, innovatsion faoliyat, raqobat, yaratuvchanlik, vatanparvarlik, aqliy salohiyat, ijodkorlik.

Yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishni muvaffaqiyatli hal etish o‘qituvchiga, uning g‘oyaviy e’tiqodi, kasb mahorati, iste’dodi va madaniyatiga bog‘liq. Bu g‘oyat murakkab va mas’uliyatli vazifani amalga oshirishda o‘qituvchi qanday o‘qitish kerakligini nazariy-amaliy jihatdan bilishi lozim. Ma’lumki, o‘qituvchining pedagogik mahorati, asosan, darsda ko‘rinadi. O‘qituvchilik – katta san’at. Bu san’atga – o‘qituvchilik kasbiga, chinakam murabbiy bo‘lishga havasi, ishtiyoqi zo‘r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o‘zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy

saviyasi, pedagogik mahoratini izchilllik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g‘oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollangan haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar insonlarga erisha oladilar. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari: axloqiy barkamollik, ya’ni saxovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma’naviy poklik, qanoatlilik, rostgo‘ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshliligi bilan birga uning kasbiy fazilatlari: o‘z sohasining puxta bilimdoni bo‘lib, o‘zining nutq madaniyatiga ko‘ra tevarak-atrofdagi insonlarga namuna bo‘la olishi muhimdir. Tabiiyki, mohir o‘qituvchi o‘zining shaxsiy faoliyatini o‘zi tahlil etib boradi. Pedagogik kompetentligini rivojlantirish uchun faoliyati davomida pedagogik vazifa va maqsadlarini o‘zgartirib, yangi vazifalarni qo‘llash asosida o‘quvchi shaxsiga mohirlik, donolik, ijodiy dadillik, chuqur ilmiy tafakkur bilan yondashadi. Pedagogik mahorat va kompetentlik o‘qituvchidan qat’iyat, tirishqoqlik, tadqiqotlarni olib borishga intilish, yangi vaziyatga moslashish, samimiylilik, to‘g‘rilik, halollik, kuch, o‘tkir aql-idrok talab etadi. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi[1]. Bugungi kunda o‘qituvchi ma’naviy jihatdan sog‘lom va keng fikrlay oladigan, o‘z milliy qadriyatları, urf-odatlari va millatimizning buyuk siymolari hayoti va ijodiy merosini teran bilishi lozim. Ayniqsa, milliy an’analalarimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo‘lgan yosh avlodga chuqur bilim berishda o‘qituvchi yuksak qobiliyat va ishchanlik bilan ongli, ijodiy yondashuv asosida ta’limtarbiya jarayoniga metodik bilimlarini samarali qo‘llay olishi kerak. Buning uchun o‘qituvchidan quyidagi burch va mas’uliyatlar talab etiladi:

- eng avvalo, o‘qituvchi yuksak his-tuyg‘u va tajriba, notiqlik san’atiga ega madaniyatli, ma’rifatli, ijodkor, ta’lim-tarbiya faoliyatida tashabbuskor va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxs bo‘lishi;
- o‘qituvchi o‘z mehri, estetik his-tuyg‘ularini har lahzada yoshlari ichki dunyosi bilan bog‘lay olishi va ularning mehri, hurmatiga sazovor bo‘lishi;
- o‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho bera olishi;
- zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalar yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lib, barcha fanlar integratsiyasini o‘zlashtirishi va hokazo.

O‘qituvchilar unutmasliklari kerakki, kuchli bilim, kasbiy metodika va oddiy insoniy fazilatlardan iborat uchta xususiyat birlashib o‘qitish jarayonining pirovard natijasini belgilaydi. O‘qituvchi har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilishi va uni tasavvur etishi uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi hamda texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayonini tashkil etish texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak.

Pedagogning innovatsion faoliyati – bu o‘z ichiga yangilikni tahlil etish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish demakdir. Innovatsion faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, ta’lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, hal etish, unga doir qaror qabul qilish hamda tanlab olingan qarorni amalga oshirish va uni baholash imkonini yaratadi, muammolarni esa samarali hal etadi. Yangi pedagogik texnologiyalarning xislati shundaki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Innovatsion ta’lim o‘qituvchi faoliyatini yangilash, ta’lim-tarbiya jarayonini maqbul qurishga, yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quv jarayonini samarali tashkil etilishi o‘qituvchining innovatsion faoliyati, g‘oyaviy e’tiqodi, kasb

mahorati, iste'dodi va madaniyatiga bevosita bog'liq. Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamon har birimizdan doimo izlanib, tashabbus ko'rsatib, yangicha ishlashni talab etmoqda. “*Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliyoh domlasi ta'lim va ilm fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak[2]*”.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri – o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda yangiliklarni idrok etishga innovatsion shaylikni shakllantirish va yangicha harakat qila olishga o'rgatish yo'naliishlari muhimdir. Innovatsion faoliyat – pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagim mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Innovatsiya o'quv jarayoniga yangilik olib kirish, o'quv jarayonini o'quvchi ehtiyoji, xohishi va istaklariga moslashtirish, o'quvchini mustaqil mutolaaga o'rgatish demakdir. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiymadaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimida shakllangan yangicha yondashuvdir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'iladi va ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi va ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natija sifatida o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta'lim jarayonini loyihalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 30.12.2020.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи.

“Ўқитувчи ва мураббийлар – Янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суюнчимиздир”. 30.09.2020.

3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. 1 том. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.

Maqsudjonova Maqsuda

BuxDUPI “Xorijiy tillar” kafedrasi talabasi

Gulshanova Shahzoda

BuxDUPI “Xorijiy tillar” kafedrasi talabasi

YANGI O‘ZBEKISTONDA FARZAND TARBIYASI VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda farzand tarbiyasi va umuminsoniy qadryatlar haqida fikr yuritiladi. Mamlakatimizda jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk, har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega avlodni tarbiyalash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘z: ma’naviyat, demokratik, oila, tarbiya, axloq, qadriyat, jamiyat, maktab, intellektual, ma’daniyat, ma’rifat, iste’dod, istiqlol, tarixiy xotira, salohiyat.

Mamlakatimizda jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk, har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas’uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir. Ma’naviy-ruhiy sog‘lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog‘lom va ahil oila mehnatining samarasi sifatida qarab, oilada o‘zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma’naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish bugungi kunda har birimizning

vazifamiz hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni judayam katta. Qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga o‘tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o‘zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”, – deb e’tirof etdilar.

Xo‘sh qadriyatning o‘zi nima? Qadriyatlar deganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar tushuniladi. Qadriyatlarning mohiyati insonlarning tarixiy tajriba an’analarni kelgusi avlodlarga to‘la-to‘kis yetkazish, o‘rgatish, ta’lim-tarbiya berish orqali izohlaymiz. Shuning uchun milliy ma’naviy qadriyatlarni e’zozlab, ardoqlab, chin dildan bajarish va ularni o‘z holida saqlash, shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni oila muhitiga uyg‘unlashtirish dolzarb masaladir. Qadriyatlar mazmunan xilma-xil turlarga bo‘linib, hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biror narsaning qadr-qimmatini haqida so‘zlashga hojat ham yo‘q. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e’zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil etadi Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko‘ra, milliy va umuminsoniy turlarga bo‘linadi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqida tasavvuri faqat g‘oyagina emas, balki tuyg‘u hamdir. Insonda milliy ong va g‘urur bo‘lmasa, u o‘zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarni anglashini tasavvur qilish qiyin.

Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz, ya’ni faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Qadimdan bir ma’naviy ruhiy iqlimdan nafas olib kelgan xalqimizning, ayniqsa, bugungi mas’uliyatli davrda aql, zakovat va shijoat, dunyoviy salohiyat va milliy g‘urur talab etiladigan bir pallada yana ham yaqinroq va yana ham mehr oqibatliroq bo‘lishlari lozimligini hayotning o‘zi taqozo qilmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatdan chuqur va keng bo‘lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar jahondagi barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlariga muvofiq keladi.

Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan umumbashariy muammolar kiradi. Ulardan eng asosiyлари – yer yuzida ilm fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, xalqaro xavfsizlikni ta’minalash, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xomashyosi, energiya manbalari va oziq ovqat bilan ta’minalash, koinot va jahon okeani resurslarini o‘zlashtirish, dunyo miqyosida ahamiyatga ega bo‘lgan nodir san’at asarlari, xalq amaliy san’ati, me’morchilik va musiqiy asarlarni saqlash va kelgusi avlodga yetkazish kabi muammolar kiradi. Otabobolarimiz tomonidan yaratilgan badiiy, me’morchilik va ma’naviy asarlar har qanday dur-u javohirlardan ham qimmatliroq boylikdir. Ushbu boyliklar asrlar davomida unga xizmat qilyapti. Eramizdan oldin Afina demokratiyasi inqirozga uchraganida yunon faylasuflari qadriyat masalasini ko‘targan edi. Ular ijtimoiy-siyosiy, huquqiy tafakkur tarixida birinchi bor “inson – oliy qadriyat”, deb ko‘rsatdilar, olamdagи barcha jihatlarni “insoniylik mezoni” bilan o‘lchashni targ‘ib etdi. Buyuk mutafakkir Suqrot esa “qadriyat nima?”, degan savolga “har bir insonning o‘zligini anglashi”, deb javob berdi. Qadriyatlarning shakllanish makoni bo‘lgan oila va unga xos bo‘lgan qadriyatlar tizimi jamiyatning kelajagini belgilab beradi. Kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab

yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson o‘z farzandlarining baxt-u saodati, fazl-u kamolini ko‘rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi. Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf odatlarimizni sayqallaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday shaxs bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir. Oilaga xos an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. O‘zbek oilasiga xos mazkur xarakterli xususiyatlarni alohida e’tirof etib o‘tishdan maqsad shuki, “oila tarbiyasi”ning o‘ziga xos qirralari ana shundagina to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi. Bu tarbiya jarayonida milliy-madaniy merosning qanday o‘rin tutishi, salmog‘i, ahamiyati xususida asosliroq fikr yuritish imkoniyati paydo bo‘ladi. Jumladan, oilada arning mavqeyi balandligi, ayol ham o‘zining haq-huquqlariga egaligi, farzandlarning ota-onani hurmat qilishini olaylik. Ko‘p yillar davomida ota-bobolarimiz qalbiga singib ketgan ushbu qadriyatlarni bugun yanada sayqallash kerakligini zamon talab etmoqda.

Ayniqsa, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamonda bema’ni ta’sirlar ko‘payib, ularning inson va jamiyat hayotida salbiy oqibatlari misli ko‘rilmagan darajada kuchayib bormoqda. Ayni shu davrda oilaning jamiyatdagi o‘rni juda muhimdir. Vatan tuprog‘i oiladan boshlanadi. Farzandlarimizning axloqiy qiyofasiga salbiy ta’sir etadigan ba’zi noxushliklarni ota-onalar sezaga bilmog‘i lozim. Farzandlar oilaviy axborot vositalari, matbuot, ilmiy anjuman yangiliklari, badiiy adabiyotlar turlaridan foydalanishlari uchun oilada kerakli shart-sharoit yaratsak, oiladagi muhit yanada yaxshilanadi. Bizningcha, Yangi O‘zbekiston barpo etilayotgan hozirgi sharoitda milliy oilaviy qadriyatlarning o‘rni har qachongidan ham ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat rivojiga va uning negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi qudratli omildir. Shunday ekan, oilada farzandlarimiz bolalik, o‘smirlik, balog‘at sari borishlarida ibratli dovondan o‘tishi uchun farzandlarimizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatguvchi bir mayoq bo‘laylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий маънавий мухитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938 сонли фармони.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 28 февралда қабул қилинган “Фуқароларнинг репродуктив саломатлигини сақлаш тўғрисида”ги қонуни.

3. Мусурманова О. Оила жамият таянчи: Монография / О.Мусурманова. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019.

4. Фазилатли авлод. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. З-қисм. [Матн]: 7-18 ёшли болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма. / Тузувчи муаллифлар: А.Қодиров, М.Қуронов, О.Мусурманова ва бошқалар. – Тошкент: “Muharrir” nashriyoti. 2019.

*Гадаева Мунира Мухамедова
БИПиПККНО ст.учит.каф. к.ППс.
Алиева Маржона Каҳхаровна
Студентка 3-курса БГУ*

АМИР ТИМУР – ОСНОВАТЕЛЬ ВЕЛИКОГО ГОСУДАРСТВА

Аннотация: В данной статье отражены взгляды Амира Тимура на справедливость, гуманизм, национализм, а также созидательную, культурно – просветительскую жизнь, того периода.

Ключевые слова: наш непобедимый полководец и лидер, гордость нашего государства, неизгладимый человек из памяти, творческая сила.

Президент Ш. Мирзиёев: «Мы должны уделять особое внимание тому, чтобы прививать в умах молодых людей бесценное наследие наших великих ученых и писателей, наших дорогих святых, отвагу наших непобедимых

полководцев и лидеров, чтобы укрепить их чувство гордости и удовлетворенности».

Почему личность и наследие Амира Тимура необходимы для свободного и процветающего Узбекистана? Какие качества нашего великого предка дороги нам?

Во-первых, Амир Тимур построил могущественное государство. Если бы оно не было сильным, не было бы уникального духовного наследия, памятников и исторических памятников. Сегодня, в эпоху инновационного развития Узбекистана, Амир Тимур ценен для нас как основатель великого государства. Он заложил основы великого государства, заложил правовые основы государства. Его взгляды на государственность имеют большое значение не только для своего времени, но и для будущих поколений.

Во-вторых, 600 лет назад Амир Тимур был глубоко и хорошо понимал о том, что нет будущего любого государства без сотрудничества с армией, то есть без сотрудничества, если можно выразится сегодняшнем языком, поэтому он проделал огромную работу по соединению Европы и Азии. Китай, Индия, с одной стороны – Франция и Англия, с другой – установили отношения с Грецией, Испанией, Италией, Египтом и другими странами и пытались укрепить эти отношения. Еще одним важным моментом для нас в деятельности управления королевством Амира Тимура является то, что он добился таких успехов в области восстановления единого пространства между народами, странами посредством торгово-экономических связей, что нам остается только восхищаться.

В-третьих, исторические услуги Сахибирана в области творчества еще более бесценны. Медресе, мечети, комнаты, дворцы, рынки, мосты, дороги, станции, бани, каналы, замки и ряд других зданий и сооружений, построенных усилиями Амира Тимура и его потомков очень много. Мечеть Биби Ханум, Гори Амир (мавзалей) и Ахмад Яссави, мавзолеи Зангиота, архитектурные чудеса Оксарой и Шахи Зинда, Сад Планета, Сад Дилкушо, Райский сад, Сад

Баланда и десятки других прекрасных дворцов и садов были построены под непосредственным руководством Амира Тимура. Самое главное, что география этих построек не ограничивается Туркестаном. В этом смысле можно сказать, что каждый исторический памятник, оставленный нашим великим предком, где бы он ни находился, – это уникальный инструмент, объединяющий народы.

В-четвертых, развитие любого общества немыслимо без науки и просвещения. Понимая это, Сахибиран издал свои первые указы об учреждении медресе и выделении стипендий для студентов, изучающих естественные науки. В каком бы городе он побывал Амир Тимур, он сначала встречался с местными учеными. Амир Тимур как дед, Мирза Улугбека оказал большое влияние на его становление как государственного деятеля, так и великого ученого.

В-пятых, Амир Тимур много думал о судьбе своего народа и своей родины, каждый его шаг служил не только тому периоду, но и будущему. В истории было много правителей. Известно, что большинство из них не выходили за рамки средств к существованию и роскоши. Сегодня о них никто не вспоминает. Однако будущее и история никогда не забудут человека, горящего горем нации, который пожертвовал своей жизнью ради ее будущего и независимости. Амир Тимур – такая историческая и незабываемая личность. Известно, что включение Узбекистана в список рекомендуемых стран для путешествий в 2020 году рядом влиятельных зарубежных СМИ – плод культурного наследия Амира Тимура, мудрой политики своего времени.

В-шестых, Амир Тимур прекрасно осознавал один факт – общество не может жить без веры, людям нужна религия, вера, доверие. В своем «Тимур тузуклари» («Уложении Тимура») он говорил: *«Я поддерживал ислам везде и всегда»*.

Накануне своей смерти великий полководец Амир Тимур завещал своим потомкам: *«Я рад, что во время моего правления я не позволял сильным причинять вред слабым. Помните о материально зависимых людях*

позаботьтесь о них, будьте решительны и мужественны. Чтобы править великой страной долго как я, держите меч в руках с честью и достоинством... если ты будешь соблюдать мои заповеди и действовать по справедливости и милосердию в других своих делах, мир на земле Туран сохранится надолго. Если допустить взаимные конфликты, враги начнут бунты и беспорядки, которые невозможно будет контролировать. Если вы будете одна душа и одно тело, никто не сможет помешать вам исполнить мою последнюю волю и завещание».

Подводя итоги вышесказанному можно сказать что, пока в нашей истории есть такая великая фигура, как Амир Тимур, его наследие и учения, заветы находятся в гармонии с нашей сегодняшней жизнью, мы не имеем права не изучать, не описывать и не распространять это наследие. Его экономические реформы, его руководство, в том числе его учение в области внешнеэкономической политики, являются нашим бесценным духовным достоянием, и это требование времени, чтобы мы могли глубоко проанализировать и разумно использовать это свойство. Ибо, как сказал наш: «*Давайте никогда не забывать одну истину: мы – нация, которая создала великую историю, великое государство, великую культуру. Мы – великий народ, который никогда не боится ни работы и невзгод, ценят справедливость, решительность и мужественность*».

Список литературы:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису 24.01.2020. Газета «Халк сузи», 25 января 2020 года.
3. Правила Тимура в переводе с персидского Алихона Согуни и Хабибулло Кароматова. Т., 1991.
4. Ибн Арабшах, Аджойб аль-мақдур фи Таймур (Чудеса судьбы в истории Тимура). Т., 1992.

Bakayev Zoir Zarifovich, Avezov Tohir Ochilovich

Buxoro viloyat XTXQTMO hududiy markazi, AKT o‘qituvchilarini.

YANGI O‘ZBEKISTON – PORLOQ KELAJAK SARI QADAMLAR

Annotatsiya. Maqolada Uchinchi Renessans” mohiyati, dolzarb muammolar, takliflar va ularning amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “Uchinchi Renessans”, milliy hunarmandchilik asoslari, Buxoro san’at maktabi, takliflar.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning matbuotga bergan intervusida “Uchinchi renessans” va Yangi O‘zbekiston tushunchalariga atroficha ta’rif berilgan.

O‘tmishda yashab o‘tgan, ma’naviyatimiz va ma’rifatimizga, shuningdek, millat va xalq hayotining barcha jabhalariga ulkan mehnati va ijodiy salohiyatini baxsh etgan ulug‘ ajdodlarimizning ulkan xizmatlarini e’tirof etgan holda tarixiy haqiqatning saqlanib qolganligini ta’kidladilar.

“Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umumiy harakatga aylanib borayotgan, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinci uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz”, – deb ta’kidladi muhtaram Prezident[1].

Uning fikriga ko‘ra, O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘oniish davriga-Birinchi (ma’rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinci (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo‘lgan.... “Bu-jahon ilm-fanida o‘z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir”, – deya qo‘shimcha qildi Prezident[1].

“Hozirgi vaqtida mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi renessans” so‘zlarini

hayotimizga o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda”, – deya xulosa qildi davlat rahbarimiz[1].

Yaqinda chop etilgan, iqtisod fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi, senator Murtazo Rahmatov hamda akademik, biologiya fanlari doktori, professor Bakridin Zaripov hammuallifligidagi “Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida” nomli kitobida ham ayni haqiqatlar haqida to‘liq va mukammal tasavvurlar, shiddatli islohotlar, yangi muvaffaqiyatlar, Prezidentimiz tashabbuslari, xalqimizning ulug‘ maqsadlar sari intilishi haqida fikr yuritiladi[2].

Shunday ekan, xalqimizning azaliy qadriyatları, milliy hunarmandchilik asoslari, ilm-fan va madaniyat yutuqlari asoslarini saqlab qolish va rivojlantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda, degan fikrdamiz.

Shu maqsadda azaliy an’analaramizni hurmat qilgan holda, quyidagi takliflarni kiritmoqchimiz.

1. Viloyatimizning har bir hududida ustuvor hunarmandchilik va boshqa tadbirkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha markazlar tashkil qilish.
2. Buxoro san’at maktabi azaldan rivojlanib kelgan. Shu munosabat bilan qadimiyan;analar va milliy hunarmandchilik asoslarini saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida turkum kitoblar tayyorlash va chop etishni taklif qilamiz.

Turkum kitoblar loyihasi:

1. Tasviriy san’at;
2. Kulolchilik va xalq amaliy san’ati (haykaltaroshlik);
3. Yog‘och o‘ymakorligi;
4. Ganchkorlik;
5. Misgarlik (kandakorlik);
6. Zargarlik;
7. Me’morchilik (arxitektura);
8. Xattotlik va poligrafiya;
9. Zardo‘zlik;
10. Qorako‘lchilik;

11. Kashtachilik va milliy (buxorcha) liboslar san'ati;
12. Musiqa madaniyati;
13. Ashula va raqs san'ati;
14. Musiqiy asbobsozlik;
15. Chilangarlik;
16. Do'ppi va telpakdo'zlik;
17. Fan va ta'lim;
18. Jismoniy tarbiya va sport;
19. Foto va kino san'ati;
20. Radio va televide niye, OAV va zamonaviy telekommunikatsiyalar;
21. Etnografiya va folklor;
22. Ekologiya atrof muhit muhofazasi.

Albatta, bu borada qilinadigan ishlar o'z-o'zidan amalga oshishi katta mashaqqatli mehnat talab qiladi. Bu sohada AKTlardan, arxiv va Internetda mavjud resurslardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

1. Arxiv ma'lumotlariga murojaat va nusxa yig'ish;
2. Fotosurat va lavhalar bazasini tashkil etish;
3. Bo'lajak turkum kitoblar muqovasining dizayni;
4. Kitoblarga kiritiladigan ma'lumotlar tartibini ishlab chiqish;
5. Tarixiy, shaxsiy va oilaviy ma'lumotlarni yig'ish;
6. Kitoblar sahifalarining poligrafik dizayni;
7. Ma'lumot va materiallarni saralash;
8. Tegishli mutaxassislarini jalb qilish;
9. Arxiv materiallari va boshqa ma'lumotlarni yig'ish uchun tegishli ruxsatnoma olish;
10. Kitoblar ustida ishslash va nashrga tayyorlash;
11. Barcha ma'lumotlarni yagona raqamli (kompyuter) bazasiga kiritish.

Mazkur harakatlar amalga oshgan taqdirda Buxoro san'at maktabining an'analari saqlanib qoladi, degan umiddamiz. Bu kelajak avlodni milliy qadriyatlarga

hurmat, kelajakka ishonch, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, kasb-hunar tanlashda, hunarmandchilikka qiziqishini rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi, degan fikrdamiz va shunga umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasiga bergan intervusidan. 17-avgust. 2021-y.
2. “Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida” nomli kitob taqdimotidan. Madaniyat rukni ostida. 2021-y, 21-oktyabr.

Raxmatov Ramshod Raximovich

Buxoro shahar 29-IDUM o‘qituvchisi

+99899 385-17-32, ramshod.raxmatov@gmail.com

**MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK O‘ZBEK
XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR**

Annotatsiya: ushbu maqolada har bir xalq va millatlar uchun muhim hisoblangan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik uning bugungi zamonda davlatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni mustahkam olib borishlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etishi, inson va uning taqdiri, davlatlarning jahon hamjamiyati oldida o‘z o‘rnini mustahkamlab olishi, o‘z hududidagi millatlarning tinch totuv yashashliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, baynalmilal, mustaqillik, konfessiya.

O‘zbekiston – bag‘rikeng diyor. Haqiqatan shu bir so‘z zamirida qancha ma’no mujassamlashgan. Bag‘rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi. Bu

faqat ma’naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag‘rikenglik tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizlikdan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir. Bag‘rikenglik haqida gapirilganda bu xalqimizning azaliy fazilati ekanligini ta’kidlash zarur.

Qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy xristianlik ta’limotini o‘rganar ekan, “Bibliya”ga kirgan to‘rtta “Injil” haqidagi ma’lumotlarni keltirib, ular orasidagi farqlarni ham tahlil qilib bergan. Uning yozishicha: Xuroson mitropolitining qarorgohi Marv shahrida bo‘lgan. Bu esa o‘sha davrlarda musulmon aholisi bilan birga xristian jamoasi ham emin-erkin o‘z ibodatlarini amalga oshirganligini ko‘rsatadi. Yurtimizning bag‘rikeng diyor ekanligiga tarixning o‘zi guvoh.

Tarixdan ma’lumki, o‘zbek xalqi boshidan kechirgan og‘ir qatag‘on yillari va ikkinchi jahon urush yillari ko‘p sitamlarga yuzma-yuz bo‘lgan koreys, nemis, turk, polyak, grek, qrim-tatar va boshqa millat vakillari O‘zbekistonni vatan tutdilar. Ularning hozirgi avlodlari uchun esa O‘zbekiston ona Vatanga aylandi. Chunki, ular shu yerda tug‘ilib kamolga yetdilar, hayotda o‘z o‘rinlarini topdilar.

Yurtimizdagagi tinchlik – osoyishtalik, albatta, turli millat vakillarining o‘zaro do‘stlik, birodarlik munosabatlariga asoslangan. Prezidentimiz bu borada “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik” sohasida o‘z an’analariiga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiya vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi. Millatlararo totuvlik g‘oyasi Yer yuzida yashayotgan barcha xalqlarning guruhlarning teng huquqlilik, hurmat va hamkorlik asosida tinch-totuv yashash g‘oyasidir. Millatlararo totuvlik g‘oyasi millatparvarlik g‘oyasidir. U barcha millat va elatlarni tili, urf-odati, an’analari, bayramlari rivojlanishini talab etadi.

Yana shu narsani tan olib aytishimiz mumkinki, yurtimizda barcha sohada olib borilayotgan islohotlar o‘zining ijobjiy samarasini beryapti. Shu jumladan, mustaqillik yillarida yurtimizda yashayotgan turli millatlar, xalqlar o‘rtasida teng huquqlilik va hamjihatlikni ta’minlash maqsadida uning qonuniy asoslari yaratildi. Jumladan,

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida “*O‘zbekston xalqini, millatidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etishi*[1,6]” alohida ta’kidlab o‘tilgan. Bosh qomusimizning 18-moddasida “*O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar*[1,9]”, – deb keltirilgan.

Barchamizga ma’lumki yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha sohadagi islohotlar markazida, eng avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinligini ta’minlash maqsadi turadi. Shunday ekan fuqarolar manfaatini faqat va faqat tinchlik-osoyshtalik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitigina birlashtira oladi. Respublikamizda millatlararo munosabatlар tizimidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lgan ta’lim-tarbiya masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Bu borada respublikamizda 10 mingdan ortiq maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 845 ta maktabda rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 ta maktabda tojik tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda qirg‘iz tilida, 7 ta maktabda koryes tilida ta’lim berish jarayoni yo‘lga qo‘yilgan[2,212]. Hech bir mubolag‘asiz shuni aytish mumkinki, Respublika Baynalmilal madaniyat markazi o‘z faoliyati davomida mamlakatimizda millatlararo va fuqarolararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g‘oya va tashabbuslar paydo bo‘layotgan haqiqiy do‘stlik uyiga aylandi[3,302]. 2017-yil 24-yanvarda Respublika “Baynalmilal madaniyat markazi” tashkil etilganligining 25 yilligi munsabati bilan katta bayram tadbiri o‘tkazildi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zlab: “*Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat’iy nazar teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo‘yilgan. Ularda o‘z milliy madaniyati an’ana va urf odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan*[4]”, – deb ta’kidladi. Prezident.

Shavkat Mirziyoyev nutqi davomida: “*Mamlakatimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 137 ta milliy-madaniy markaz yetakchi rol o‘ynamoqda. Ular o‘zlarining o‘ziga xos*

madaniyati, tili, xalq hunarmandligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o‘zaro boyitishga, har birimizda ko‘p millatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo`shmoqda”, – deb ta’kidladi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi sifatida “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar” belgilandi.

Bag‘rikenglik juda keng tushuncha. Bu so‘z o‘zbek xalqining lug‘atida endigina paydo bo‘lgan so‘z emas. U qadim-qadimdan ota-bobolarimizning qon-qoniga singib ketgan buyuk tug‘yon. O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov “O‘zbekiston” qasidasida shunday deydi:

Sen o‘zingsan eng so‘nggi nonin

O‘zi yemay o‘zgaga tutgan...

Bundan shuni anglash mumkinki, o‘zbek xalqi shu darajada bag‘rikengki, o‘zi yemay o‘zgaga tutadi.

Millatlararo totuvlik haqida gap borar ekan beixtiyor Shuhrat Abbosov yaratgan buyuk film, jahon ekranlaridan o‘zining munosib o‘rnini topa olgan va o‘zbekning bag‘rikengligini butun dunyo tan olishiga majbur qilgan “Sen yetim emassan!” filmini eslamay ilojimiz yo‘q. Bunda Mahkam ota urush yillarida, odamlar o‘zlarining bolalari qornini arang to‘ydirayotgan bir davrda, jang bo‘layotgan tomonlardan eshelonlarda olib kelingan bolalarning millati, tili, dinidan qat’iy nazar o‘z qaramog‘iga oladi. Vanya, Abram, Dzidra, Nadya, Ganka, Lyana, Kolya, Sarsenbay, Taras, Renat, Lesya, Marina, Naynov, Barno va Gustav. Bu bolalar turli davlatlarda, turli xil oila, turli xil sharoitlarda yashagan bolalar edi. Urush sababli kimdir oilasini, kimdir uyini va yana kimdir yaqinlarini yo‘qotgan bir paytda “Shoahmedovlar oilasi” ularni bir oila qilib jamladi. Mana o‘zbekning yana bir bag‘rikeng ekanligini isbotlovchi dalil.

BMT Inson huquqlari bo'yicha Bosh komissari Zayd al-Husaynning 2017-yil 11-may kuni Samarqand shahrida faoliyat olib borayotgan diniy konfessiyalar hamda milliy-madaniy markazlar rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuv davomida "Bugungi dinlararo va millatlararo notinchlik bo'lib turgan tahlikali kunlarda O'zbekistonidagi mavjud dinlararo va millatlararo totuvlikni turli davlatlar tomonidan o'rnatishga loyiq", – degan so'zлari ham alohida e'tiborga molikdir.

Mustaqillik yillarda biz erishgan eng katta va beba ho boylik: ko'p millatli xalqimizning har qanday qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, uning zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligini yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga daxldorlik tuyg'usi, jamiyatimizdagi o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir[5,158].

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslarning paydo bo'layotganligi do'stlik va hamjihatlik qo'rg'onining yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari e'tirof etganidek: "*O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir*". Tinchlik bor joyda o'zaro hurmat, hurmat bor joyda o'zaro mehr, mehr bor joyda oqibat va hamjihatlik bo'ladi, bularning barchasi bag'rikenglik tushunchasi atrofida jam bo'ladi. Bag'rikenglik bor joyda urush bo'lmaydi, tinchlik hukm suradi. Tinchlik bo'lgan mamlakatda insonlar baxtli hayot kechiradi. Tinch bo'lgan yurt yuksaladi, jahon minbarlaridan o'zining munosib o'rnni egallaydi. Shunday ekan yurtimiz kelajagi uchun, uning ravnaqi, yuksalishi uchun har birimiz o'zimizning munosib hissamizni qo'shaylik. Chunki biz buyuk ajdodlarning avlodlarimiz, ularga munosib voris bo'lmoq esa har birimizning o'z qo'limizda. Zero, yurtimizning kelajagi ham bizning qo'limizdagi omonatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2014.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson

manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. T.: “Ma’naviyat”, 2017

3. Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. T.: “Sharq”, 2011. – 736 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi.

5. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 486 b.

MUNDARIJA

J.Sh. Nosirov. Kirish so‘zi.....	3
D.N. Mustafayeva. Amir Temurning taraqqiyotga qo‘shgan ulkan hissasi.....	5

1-SHO‘BA. AMIR TEMUR FAOLIYATINING INSONIYAT TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

Sh.A. Hayitov. Sohibqiron Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur.....	8
М.З. Орзиев, К.М. Зайниев. Амир Темур давлати вужудга келишида Бухоро воҳасининг ўрни ва аҳамияти.....	14
M.I. Abdullayeva, S.S. To‘rayeva. O‘zbek davlatchiligi tarixi boshqaruvi masalalarini qiyosiy o‘rganish (Amir Temur davri davlatchilik tizimi va boshqaruvi misolida).....	20
Sh.B. Alimova. Buyuk Sohibqiron Amir Temur hukmronligi davrida davlat boshqaruvi.....	25
Ж.Л. Латипов. Амир Темурнинг “Шарқ сиёсати” ва унда Шимолий Юань мўғулларининг ўрни.....	31
U.F. Xayrullayev. Amir Temur faoliyatining yevropaliklar tomonidan dastlabki e’tirofi.....	37
М.Х. Жумаева. Амир Темур сиёсатида давлат хавфсизлиги масаласи.....	41
M.R. Tojiyeva. Amir Temurning iqtisodiy siyosati.....	44
G.A. Baxromova. Amir Temur –adolat va g‘urur timsoli.....	49
С.Н. Кенжав. Хитой сари юришга тайёргарлик жараёнлари ёхуд Амир Темур ҳаётининг сўнгги кунлари.....	52
F.M. Shamsiyev. Amir Temurning insoniyat tarixida tutgan o‘rni va roli.....	57
D.X. Jalliyeva D.X. Amir Temurning harbiy tashkilotchiligi va sarkardalik mahorati.....	62
T.I. Raxmatov. Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida Amir Temurning tutgan o‘rni.....	65

М.З. Орзиев, А.С. Наимова. Амир Темур ҳарбий юришлари даврида озиқ-овқат муаммосини ҳал қилиш тажрибасидан.....	68
М.З. Орзиев, М.А. Тўхтамишева. Амир Темур қўшинида қўрқоқлик ва хиёнат учун жазоланиш тартиби хусусида.....	72

2-SHO‘BA. AMIR TEMUR TARIXINI O‘QITISHDA YANGI PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Yu.H. Haydarov. Amir Temurning ona yurtni ulug‘lash borasidagi faoliyati – yoshlar uchun namuna maktabi.....	76
H.M. Kobilova. Amir Temur hayot yo‘lini tushuntirishda “individual dars” shakli orqali o‘quvchi faoliyatini faollashtirish asosida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi.....	83
D.R. Sharopov. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi.....	88
D.T. Botirov. Amir Temur tarixini o‘qitishda yangi pedagogik yondashuvlar.....	92
G.A. Sodiqova. Buyuk Amir Temur – millat faxri.....	95
N.E. Fayziyeva. Amir Temur davlatining ramzlari.....	100
I.O. Ro‘ziyeva. Amir Temur – mohir diplomat.....	102
A.I. Safarov. Amir Temurni anglash – o‘zligimizni anglash demakdir.....	105
M.G‘. Jumayeva. Maktablarda temuriylar haftaligini o‘tkazish.....	108
Z.B. Muxammedova. Amir Temur faoliyatini o‘rganishda jahon tarixi manbashunosligi.....	112

3-SHO‘BA. TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI

K.J. Raxmonov. Amir Temur – ilm va fan homiysi.....	118
B.S. Turdiyev. Amir Temur va temuriylar davrida jamiyat ideosferasidagi o‘zgarishlar.....	121
M.Q. Oripova. Moziyga muhrlangan matonat.....	125
Н.А. Жумаева, Ш.Муюссаров. Мусулмон Ренессанси – шарқ тамаддуни жавоҳири.....	129
M.G‘. Jumayeva. Temuriylar davrida musiqa va tasviriy san’at.....	134

L.B. Sayidova. Amir Temur madaniyat va ilm-fan homiysi.....	137
N.N. Safarova. Amir Temur va temuriylar davri tarixi mavzularini yoritishda “Taxt” metodidan foydalanish.....	140
G.R. Yo‘ldosheva. Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati.....	144
N.N. Raxmonova. Amir Temur davlati Rui Gonsalez de Klavixo nigohida.....	147
N.N. Rasulova. Temur va temuriylar davrida bunyodkorlik.....	151
M.N. Jo‘rayeva. Bunyodkor shajara.....	153
M.M. Gadoyeva, Sh.R. Hamroyeva. Badiiy adabiyotda Amir Temur obrazining talqin qilinishi.....	156
M.Sh. Amonova. Amir Temur – ilm-fan va madaniyat homiysi.....	158
M.M. Raximova. Amir Temur “Tuzuklar”i va ularning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni.....	163
Sh.A. Fayziyeva. Amir Temur davrida ilm-fan va madaniyat.....	167

4-SHO‘BA. YANGI O‘ZBEKISTON “UCHINCHI RENESSANS” OSTONASIDA

Yu.H. Haydarov. “Uchinchi Renessans”ning mustahkam poydevorini yaratishda muhim omil.....	171
F.X. Utayeva. Buxoro shahrida zamonaviy to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish masalalari.....	177
M.M. Gadoyeva. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida Amir Temur o‘gitlariga amal qilishning ahamiyati.....	180
D.M. Rakhamonova. “Yangi O‘zbekiston” strategiyasining bosh maqsadi.....	184
L.N. Ergasheva. “Yangi O‘zbekiston” – yangicha dunyoqarash.....	190
J.T. Karimov. “Uchinchi Renessans” davriga zamin yaratgan Buxoro ma’rifatparvari.....	194
M.G. G‘ulomova. Yuksak ma’naviyatli yosh avlod – “Uchinchi Renessans” bunyodkori.....	199

D.Q. Akhmedova, F.Sh. Ergasheva. “Uchinchi Renessans”ni bunyod etishda pedagoglarning o‘rni va roli.....	204
M.Maqsudjonova, Sh.Gulshanova. Yangi O‘zbekistonda farzand tarbiyasi va umuminsoniy qadriyatlar.....	208
М.М. Гадаева, М.К. Алиева. Амир Тимур – основатель великого государства.....	212
Z.Z. Bakayev, T.O. Avezov. Yangi O‘zbekiston – porloq kelajak sari qadamlar.....	216
R.R. Raxmatov. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik o‘zbek xalqining yuksak qadriyatidir.....	219